

Ikkinchi Bo'lim - Hijron Shevasidagi Mahfuz Xatlar

Kemshiktoyning Siri - To'pig'ni Chiqqunchamidi?

Yoxud hikoyachiga qorong'u muallifga ayon bir safar tarixi

Falokat oyoq ostida ekan. Qancha yolga b'iztuyiq so'qmoqlaru tiyg'bonchiq muzliklarda qoqinib-surinmagan jonivor dovonga chiqqanda pand yeb, munkib ketsa-ya. Tag'binam Xudo asradi. Beligacha kirib ketgan otni qor ichidan bir amallab tortib olishdi. Qolovuz qirg'biz chol ham o'ziga pishiq ekan, tayog'ni bilan qorni paypaslab-paypaslab borib, yo'lni topib oldi. Jabr ko'rgandan bola ko'rdi-da. Ot ustidan uchib ketganda qanday tushdi ekan, yetib borishganda boyaqish to'pig'ni ushlab chinqirib yotar edi. Chiqqan bo'lsa shukr-a, singan bo'lmasin!

Bo'sh-bayovgina ko'ringan qirg'biz chol balodek tabib ekan. Kemshiktoyni aldab-suldab, to'pig'ni ko'rgan kishi bo'lib turib, oyog'ni bir burab tortgan edi, boyagidan battar chinqirib yubordi. Chol:

- Bo'ldu-bo'ldu, chopqildab ketusan, - deb kaftini kaftiga qoqib, o'rnidan turgan bo'lsa-da, bola (rosa qo'rqib ketgan ekanmi) oyog'ni hech yerga qo'ydirmas, qor-muz ustiga o'tirvolgancha, mishig'ni tupugiga qorishib yig'lar edi.

Bu yoqda - kun ketib, shom tushib boryapti. O'ngdayam, so'ldayam tog'lar, tog'lar, bir-biridan ulug'ni, bir-biridan haybatluv. Tuman birining yarim beliga o'rlab chiqqan bo'lsa, boshqasi botib ketayotgan quyosh nur-larida muztog'dek yarqiraydi: cho'qqilarida bulut oq salladek o'ralib-aylanadi, aylanib-o'raladi. Faqat past - ular tushib borayotgan tomon ko'z ilg'agan joygacha oqarishib turibdi, undan u yog'ni - hov dara chetidagi qarag'ni hayzorlargacha shom qorong'niligiga cho'kib bo'lgan. Shunaqa palla.

Bu ahvolda o'sha najot darasiga qanday yetib olishadi, yolga b'iz Olloh biladi. Qolaversa, bu dovonda - anuv qor ostidan chiqib turgan qora xarsang toshlar ustida jon saqlabam, tong ottiribam bo'lmaydi. Olam ko'klamga kirgani bilan bu yerda hali qish bolalab yotipti. Kechasi bilan ne sinoatlarini solmaydi boshga! Es borida qolovuz choldan orqada qolishmagani maqul. Uniyam Xudo yetkazdi. Bo'lmasa, nima qilishardiyu qayga borishardi?!

Quloqlari izg'birinda lovullay boshlagan ko'ngilchan odam (uning quloqlari gultojixo'rozdek qizarib ketgandi!) bolaning tepasida cho'nqaygancha nima qilarini bilmay, bosh qashinar edi. Yaxshiyam Uchqo'rg'bondan chiqarda Nosir maxsumning gapi bilan safar oldidan ikki rikat namoz o'qib olgani, "Alhamduning zam surasiga "Oyatal kursini qo'shib, xos duo qilgani. (Bo'lmasa, "Salovati tunujinani o'qib, tong ottirisharmidi!).

- Hoy, yurdik! Egarga o'tqaz, o'rgansin o'tirishniyam! - Qolovuz cholning orqasidan otini yetaklagan "Aka pochcha ilkis qayrilib, shang'billadi. - Shuni deb ko'raramizni ko'ryapganimiz kammi?!

Yurakning tor-kengligi gavdaga qaramaskan-da, tavba. Otning ustidan uchib ketgani kamday, oyog'ni lat yeb turibdi-ku, bolapaqirning. Tushunish ham kerak-da, buning ahvoliga...

- Mana, hozir - turyapmiz, - deb beshikchi bolaning qulog'iga shipshidi. - Ular jilvorishdi. Bo'la qol, Yodgortoy, paytdan foydalanib, irimini qilib olamiz.

Kemshiktoy o'ksig'ni ichiga yutib, unga termuldi. Buning orasida ko'zlarini yengi ila artib qo'ydi. Beshikchi shivirlab tushuntirardi:

- Buning eng zo'r dorusi o'zingda-ku, voy toy bola-ey. Shoshma, men to'sib turaman, sen to'pig'ningga bir choptirvorasan. Bo'ptimi?.. Daraga tushgunimizcha otdek bo'lib qolasan. Bo'laqol.

Bola qisinib yer suzdi.

- Voy, polvon-ey, ha, sen uyalma, taomili shunday, - Beshikchi uning kuraklarini silab qistadi. - Bo'la qol, mana, pana qilib turibman.

Bola battar qisinib, turishga unaldi. Pushtipanoh bo'lib yonida qolgan yumshoqko'ngil, lekin tarashadek qotma odam hadeb qulog'iga shivirlardi:

- Sen qo'rqma, oyog'ning muzlab qolmaydi. Belbog'ni bor, o'shanga chirmab tashlaymiz.

Bola baribir unamay, hakachoqlanib tisarildi.

- Unda shoshma, - dediyu beshikchi uning taqimiya kuragiga qo'l yuborib, dast ko'tarib olaqoldi. - Hamonki unamasang o'zim optushaman. Bu ahvolda egarda o'tira olarmiding.

Bola avvaliga o'ng'ni baysizlanib, tushishga uringan bo'lsa-da, so'ng noiloj jim qola qoldi.

Uzun odam qorda ikki qadam bosdiy u oyog'ni mo'ljallagan joyga tushmay chayqaldi. Ammo ot iziga tushib olib, yurib ketgach, bolaga buyurgan bo'ldi:

- Bo'ynimdan quch, bo'ynimdan. Ha, ana shunday. Faqat sen, qo'rqma. Pastga tushib olaylik, o'zim taxtakachlab qo'yaman.

Qolaversa, Mirzahoji buvangnikiga oz qoldi. Hali seni opoqbuvang ko'rib, bir xursand bo'lsin, bir xursand bo'lsin. Bizni shunday nevarimiz bor ekan Toshkandi azimda deb. Sen sabr qil faqat. Yetkazib boramiz, deb yo'lga chiqqanmizmi - yetkazib boramiz.

Anuv aka pochcha bunaqa dovonlaru o'g'ni yo'llarni endi ko'rmayapti, qo'rqma! - U ko'zi oyog'ning tagida, o'zi qadamiga moslab gapirib bor-yaptiyu bola boyaqish og'ni b'riqni eslab qolmasin, deb atorning qutisida yo'q so'zlarni topar edi, - Mirzahoji buvang bizga xonlar ham qilmaydigan yaxshilik qilgan, ha. Davlat uyimizni tortib olib, bir etak bola bilan ko'chada qolganimizda, necha yil tashqisini berib qo'ygan. U shunaqa saxiy. Saxiylarning ham saxiysi, yetti iqlimda topilmaydigani. Odamlar tug'bishganidan bunaqa oqibat ko'rolmaydi. Bir yoqdan muruvvat qilib sochavuradiyam, bir yoqdan Olloh g'ni b'ayb-xazinasidan yetkazavuradiyam. U topgan savobni poshsholar ham topolmaydi, ha.

Oldinda ot tiyg'bonib ketib, qorga uyalab qoldi. Bu yoqdagisi esa, hurkib ketganidan tisarilib, azbaroyi kishnab yubordi. Aka pochcha o'tirib qolgan, jon achchig'ni jilovni qo'yib yubormay siltalar, turishga unnalar-u, tura olmas edi. Boyaqish to'riq, qordan bo'yniyu boshi chiqib turibdi-yu, zo'r berib oldingi oyog'ni turib olishga intiladi.

- Hov, naynov, sherikmisan - hammolmi? Bolani qo'y-da, qarash, - deb chaqirdi u jon holatda.

Bu esa, bolani yo'lning yonbag'ni shundaycha yotqizishga ko'ngli bo'lmay (axir, bilib bo'ladimi, tekis deb yotqizgan joyi o'ngir chiqsa va yo o'pirilib ketsa, bolaning holi nima kechadi?) qorni oyog'ni bilan paypaslab, shibbalab ko'rdi-da, keyin qo'yib, otning tizginini tirsagidan chiqara yordamga shoshildi.

U dumidan ko'tarib, aka pochcha tizgindan tortib, "ha-hulashib bir amallab turg'ni b'azib olishdi. Tag'binam jonivor aqlli ekan, unnala-unнала, surina-surina oyog'ni ostida qattiq bir yer topib, o'shanga tayanib turib ketdi. Bo'lmasa, naq otdan ayrilishar ekan.

Jonivor turib olibdiyam, titog'ni tinmaydi. Zo'r berib pishqiradi. O'zi tushgan chuqurga xavfsirab qarab-qarab qo'yadi.

- Buning joni chiqib qopti, samanni ob o't. O'sha bilan yo'l ochib, tushib olamiz.

- Turishini qarang: o'takasi chiqib ketipti, yura olarmikan?- dedi otiga achinib beshikchi. Qolaversa, bolani kim optushadi? Aka

pochchani shu jahli bo'lsa... Murosaga kelib: - Mayli, unda otlarni almashimizmi? - dedi yotigʻib bilan.

Kutilmaganda aka pochcha uni tushundi. Qorda mo'tirabgina, har zamonda bir mishigʻibini tortib (hali ham o'ksigʻib bosilmagan shekilli) o'tirgan saritoyga nazar tashlab, fikridan qaytdi:

- Bo'пти, yuraverdik. Faqat yetishib olinglar, - deya otini yetaklab, qolovuz cholga ergashdi. Beshikchi bolaning oldiga qaytarkan, uning o'tiruidan achinib, bir yerga yetdi: nima balo, boyaqishning qo'lga so'zak kirib ulguribdimi, ko'zida yosh, joniyo qo'lini qaerga qo'yishni bilmay qopti? Hali silkib, hali barmoqlarini ezgʻib ilab, "kuh-kuhlab bir yerga yetyapti? Shunaqa, so'zakning kirishi oson, chiqishi qiyin. Chiqqanda ham "ignalarini sancha-sancha, jon-jonigacha ogʻibritib, keyin tarqaydi! Uning davosi muz yoki qor. Qorga ishqash lozim.

- Shoshma, toychoq. O'zingni bekor qiynama. So'zakning davosini mana bizdan so'ra-da. Biz topamiz-da, - deb u saritoyning tepasiga cho'nqaydi va ko'karib ketgan qo'lchasini kaftiga oldi. - Voy-voy-voy, toza yaxlabsan-ku, chaqaman deydi-ku! Qaerda bunday sovuqqa oldirding? Endi shoshma, ozgina chidaysan, - deya oyogʻib ostidan bir siqim qor olib, kaftchasini (barmoqlari bilan qo'shib) obdan ishqay boshladi. Azbaroyi qattiq ishqaganidan qor sochilganicha sochilib, oxirgilari erishga keldi. Yana olib ishqadi. Unisini ham shunday qilgach:

- Bo'ldimi, tashlab qochdimi yo haliyam?.. - deb jilmaydi.

Saritoy chehrasi sal ochilib, yengi ila ko'z yoshlarini artdi.

- Endi qo'lni cho'ntakka ur, qaytib kelib qolmasdan, - dedi-da, qo'lni cho'ntakka tiqqan hamono ot tizginini bilagiga solib, bolani taqimi tagiyu belidan ko'tarib ola qoldi. - Sal pastga tushaylik, otga minvolasan. Ungacha bu so'zak1 izgʻibigan dovondan o'tib olamiz, Xudo xohlasa. Ko'r, ulardan qancha qolib ketibmiz...

Oldinda pakana qirgʻibiz chol hech kimga qaramay yo'l ochib borar, u ancha pastlab ketganigami yoki shom qo'rongʻibiligi o'sha pastdan toshib-ko'tarilib kelayotirmo, uning qorasini bir qarashda ajratib olish mahol edi. Shoshilmasa bo'lmasdi. Bunaqa pallada izniyam yo'qotib qo'yish hech gap emas.

- He-hey, jura qolinglar, imildamay.

Kim ekan desa, qolovuz chol ekan. Ovoz pastdan kelar, o'ziyam mushtdek bo'lib ko'rinar edi.

Tushundi: vaqt kutib turmaydi! Tagʻbinam Xudo ol qulim, dedi! Kech tushayotganda shu qirgʻibiz cholni yetkazdi. Uchta o'n so'mga dovondan optushib qo'yishga rozi bo'ldi. O'risning o'n so'mligi Nikolayni besh so'mligidan qolishmaydi-da, o'ziyam!

Almashish mumkin bu yo'llarda. Xuddi aynimaydigan tilla pulday. Unamay birpas tixirlik qilsa, shunaqadan yana uch-to'rttasini qo'shishmoqchi edi.

- Ho-zir! Yetib boryapmiz! - Ular ovoz berib qo'yib, qadam olishlarini tezlatdilar.

Tangritogʻibga yetib olishsa, bas! Bunga o'n hissa suyunchi kutyapti. Hammani qo'yib, Mirzahoji quruq qo'yadimi! Qolaversa, gap suyunchida ham emas. E, barakalla, hamshaharlar, shundan-shu yoqqa ola keldingizlarmi, bizni toychoqni? Tomirimning tomiri, danagimning magʻibizini? Hay-hay, zo'r ish qilibsizlar-da. Bir umr esdan chiqmaydigan ish bo'пти-da, deb bir yerga yetishi aniq. Shunda ham beshikchi qarzdand uzildim, yaxshiligini qaytardim, deya olmaydi. Undan ko'rgani oldida bu nima bo'пти?! U o'nta jonni necha yil qavatiga olib, boshini silaganda... bu bor-yo'gʻib bitta tomirini asrab-avaylab yetkazib kelsa, nima bo'пти?

Oyoq ostidagi qor bazan unday to'zib, bazan muz kabi gʻibarchillaydi. To'gʻibrirogʻib, avval muz qavati sinib, keyin oyoqni "yutib ketadi. Bazan tizzaga dovur, bazan to'piqqacha. Yaxshiyam oldingilardan qolgan iz bor, bo'lmasa, beldan botib ketishi tayin. Keyin birov kelib tortib olmasa, chiqib ko'r. Qolaversa, shu bemahalda kim ham kelib tortib olardi?! Ertalabgacha qolib ketgan kishi muz qotib qolsa ham ehtimol... Bazilar shunday...

Shom ivir-jivirlari ustiga ko'ngilga ogʻib bir gʻibashlik oralab borar, bunday sovuq fikrlardan (avvalo, Xudo o'zi asrasin!) seskanib-seskanib ketardi. Yaxshiyam anavi qirgʻibiz cholni uchratdilar. Balki u chol ham emasdir, chinakam Hizr buvaning o'zidir? Manavi bolaga Xudoning rahmi kelib, Hizr alayhissalomni yo'llagandir. Musoga qish qattiq keladi, deb ogohlantirganda o'rtada bir kiyik bolalab qo'yib, qishni survorgani kabi... Qolaversa, niyatlarini ko'rib-bilib turibdi Xudoning o'zi. Bu yerda bekorga tentirab yurishgani yo'q. Ishqilib o'zi qo'llasin. Manavi birovning omonatini eson-omon yetkazib borishsin.

Beshikchining quchogʻibidagi bolakay qunishib gʻibingshidi. Yo'q, gʻibingshidi, desa, ingrayapgan ekan. Uning bir burda yuzi oppoq oqarib ketgan, ustiga-ustak behol tortib, ko'zini yumib olgan edi. Ichidan qirindimi, nima o'tdi: to'pigʻib joyiga tushmagan ekanmi! Haligacha tinchib qolishi kerak edi-ku?..

Shu qo'rquvda... quchogʻibidagi bolakayni balandroq ko'tarib, qulogʻibiga shivirladi:

- Sen qo'rqma, toychoq, oz qoldi. Dovondan tushib olsak, tabib toptiramiz. Qirgʻibizlar sindi-chiqdiga zo'r bo'lishadi. Ko'rib turasan, otdek bo'lib, chopqillab ketasan.

Yo to'ning tafti yoqdi yo shirin so'zlari elitdi, bolakay tinchib qolgan, faqat ora-chira o'ksigʻib tutib, xo'rsinib-xo'rsinib qo'yar edi. Ko'zlari yumuq, beholgina bagʻibriga singib, gʻibujanak bo'lib olipti. Ishqilib, isitmalab qolmasin. O'z oyogʻib bilan chopqillab kelayotgan bolakay... bu yogʻibiga yuk bo'lmasa koshki edi...

Yurak nimalarni sezmaydi. Yarim soatlarga qolmay daraga tushib olishdiyu qolovuz chol uchta o'n so'mlikni kaftida tutganicha duo qilib, orqasiga qaytaverdi. Qo'lidagi tayogʻibini demasa, ishongan hech vaqosi yo'q pakana cholning shu bemahalda dovon oshib yurishi, ertaminan qaytarman demay yolgʻibiz ketvorishi chindan gʻibalati edi. Qo'rqmagani uning!.. Rostmana odam... yuragi dov bermasa kerak edi. Shunga qaraganda... chindanam Hizr shekilli. Faqat pul olgani qiziq edi. Yo kishi ko'ziga shunday qildimikan? Aslida o'sha uchta o'n so'mlik kissasida bo'lsa-chi?

Beshikchi shu tobda kissasiga qo'l yuborgisi ham keldi-yu, lekin saritoy quchogʻibida edi, aniqlay olmadi.

Shu ketishda xuftonga qadar o'raga tushib qolgandek yurib (chindanam uch tomon qop-qora bahaybat togʻiblaru faqat tepada bir tutam yulduzlar ko'rinar, shunaqa daraga tushib qolishibdi), allamahalda lipillagan bir yorugʻibga yetib borishdi. Uni chiroq deb o'ylashgan edi, tosh o'choqdagi olov bo'lib chiqdi. Yo'lga orqa o'g'irgan pastak kulba qoraygandan qorayib ko'rinar, jimjitlik yutaman, derdi. Ammo chaqirishlari bilan buzoqdek it hurib chiqib, orqasidan oqsoq odamning qorasi ko'rindi.

- Aristan, jat! - Shu bir ogʻibiz so'zdan it jilib, o'zi yelkasi tushib-chiqib kela boshladi. U qorongʻibuda hiyla haybatli ko'rinib edi, asli kaltabaqay, ham tugʻibma oqsoq ekan. Bir oyoqi kalta shekilli...

- Keling, qardash, - deb nomigagina tutilgan shoh- devor yonida to'xtadi u.

- Ko'rib turibsiz. Bemahalg qoldik. Bir kecha qo'noq etasizmi, deb... - dedi aka pochcha, - chaqirib turganimiz.

Uning gapidan beshikchi xijolatlariga tushib ketdi: tavba, bu kishini kim aytadi shaharlik deb, ko'cha ko'rgan deb? Avval salom, badaz kalom, emasmi? O'zi quchogʻibidagi bolakayni balandroq ko'tarib tavozi- landi:

- Assalomu alaykum, amaki. Biz-ku, har yerda tunab ketaveramiz, lekin manavi jujuq bor, buning ustiga oyogʻib lat yeb, azobga

qoldi. Bir kecha ming kecha bo'lmas?..

Yuzini ilgʻab bo'lmayotgan qo'rgʻbon egasi bolaning ahvolini eshitib, chetan eshikning tambasini, nimasini olishga shoshildi:

- Vaelaykum, vaelaykum, quday yetkazibdu - kiringtar-kiringtar, - deb o'zi yo'l boshlayverdi, kulbaga yaqinlashganda yana so'rab qo'ydi, - uqtab qoptumu, tayshaq?

- Ozigina mizgʻbidi. Falokat-da, otdan uchib, to'pigʻbini chiqarib oldi. Shu qaytmayapti, - deb tushuntirdi beshikchi.

- Ay, sundaymu? Quday asrasun. Taylar qoqulub ot bo'lur-da, Qudayim o'zimga jo'llabdi-da, - mezbon kutilmaganda so'zamol, ham bolajon chiqib qolgan edi. U aka pochchaga otlarni qaerga qantarishu qaerdan yem olishni tayinlab, beshikchini yana ichkari boshlayverdi. - Qanu, qanu, opkeling-chu, samantayshaqnu bu yaruqqa.

O'zi pastak eshikdan daxlizga kirib, tokchadan qora chiroqni oldi-da, kulba ichkarisiga yuraverdi. Bu orada bola uygʻbonib ketgan, qaerga kelib qolishganini anglay olmay har yoqqa bir javdirar edi. Beshikchi uni kulba egasi ko'rsatgan yer - po'stak ko'rpacha ustiga yotqizmoqchi edi, bola nimadandir qo'rqib,uning bo'yniga yopishdi:

- Yo'q, yo'q, bu yerda qomiymiz, ketamiz. Buvimga ketaman, - u uygʻbonib bo'lib ham o'sha yo'ldagi gapidan qolmayotgan edi, - uyimga oborib qo'yila.

- Iy-y, jigit deganam jigʻblaymu? Qanu ayoqtu bering-chu, uzating-chu. - Cho'nqayib ulgurgan chol qo'lidagi chiroqni namat ustiga qo'yib, to'piqqa bogʻblangan belbogʻbni yechib edi, u qaytish o'rniga do'mbira bo'lib shishganini ko'rdilar.

- Ay, jigit-a! Ay, tayshagʻbim-a! Sunga sunchalikmu? Hech nima qilmapti-ku. Davosi sho'tta-ku, - deb u chiroqni ko'tarib, yana daxlizga chiqa boshladi. U har qadam tashlaganida o'zidan katta, bahaybat soyasi dam shiftdan qochib, dam ulgʻbayar edi.

Ko'zlarini mushti ila ishqab, mishigʻb-tupugiga belanib o'tirgan bolakay chiroq jilishi bilan birdan yana beshikchining qo'liyu tizzasiga yopishib qoldi-ku:

- Bo'ldi, ketayluk? Qomayluk, jon amaki?- Ichkari kirib bo'lishganda uning harxashasi gʻbalati edi.

- Oyogʻbing bu ahvolda... qaerga boramiz? Qo'rqma, bu odam shunday silab-silab davolaydi, - Beshikchi uning kuraklarini silab, yupatishga urindi.

Ammo Yodgor deganlari tizzasiga battar yopishib, azza-bazza ho'ngrab berdi:

- Kerakmas: silamasin ham, qaramasin ham! Opoqbuvinga ketaman, uyimizga ketaman.

Beshikchi endi bo'gʻbziga bir narsa tiqilib, yupatar so'zini ham yo'qotgan edi:

- Uying qayoqda qoldi, bilasanmi? - dedi jahli chiqa boshlab. - Axir, yetib qoldik-ku, yetadigan jo-yimizga. Jindak sabr qilsang - buvangnikiga...

Bola endi uning tizzalariga shappalab, bosh chay-qab-chayqab yigʻblar:

- Keragamas menga buva! Qaytarib opketinglar: meni hech qanaqa buvam yo'q, men Yodgor ham emasman, Akbarman! - deb uvvos solar edi.

Beshikchi endi uning boshini, kuraklarini silab ham, "hoy, toy bola, toychoq bola, eshit, deb ham yupata olmasdi. Bu yoqda, dahlizga chiqqan uy egasidan uyalib, xijolatlariga tushib ketyapti. Bular kim ekan, bola o'gʻbrilari ekanmi, deb o'ylamaydimi, axir?!

Chakkasini bir nima siqib kelib, bolani dast ko'tarib oladigandek, ikki tirsagidan mahkam tutdiyu o'zini sekin silkiladi:

- Hov, bola! Yodgormurod o'zimman, opoqbuvamni sogʻbndim, degan kim edi?! - dedi shivirlab.

- Aldovdim... yolgʻbon edi hammasi... - Bola qayta mishigʻb-tupugiga belanib borar, o'zi hiqillab qolgan, boshini tizzasidan uzib bo'lmasdi: shunaqa yopishib olibdi.

- Biznimi, devonanimi? - deya oldi beshikchi.

- Uniyam... silaniyam...

Beshikchi jim qolib, ichi sidirildi. O'zi sezmagan holda bolani bagʻbriga torta boshlagan, boshini silay boshlagan edi.

- Nega, o'gʻbilm? Nega bunday qilding? - dedi sekin.

Bola ham uning bagʻbriga singib borar ekan:

- Ketgim, qochib ketgim... keluvdi, - dedi o'sha ko'yi hiqillab.

- Kimdan? Odam ham o'z uyidan qochadimi, o'gʻbilm?- dedi beshikchi ovozi o'zgara boshlab.

Bola javob bera oladigan holda emasdi, boshini tobora uning bagʻbriga tiqar, javob o'rniga ham:

- Ketayluk, ketayluk, - deb o'tinar edi.

Bu orada uy egasi izlagan narsasini topdi shekilli, chiroq, chiroqqa qo'shilib yorugʻb qayta boshladiyu beshikchi shoshildi:

- Yaxshi, avval oyogʻbingni ko'rsatayluk, keyin. Jindek chidaysan, xo'p?

Bola ko'nib, bosh ko'targuncha uy egasi - pakana oqsoq chol xitoy qogʻbozga o'rogʻbqliq bir narsa ko'tarib ostona oshgan, yo'lakay jilmayib kelar edi.

Beshikchi bolaning yelkasiga qoqdi:

- Qo'y endi, bo'lar ish bo'пти. Avval o'zing tuzalib ol-chi.

Shu payt kovshandozga qoqinib, pishillaganicha eshikda aka pochcha ko'rindi.

- Qalay, to'piq joyida ekanmi? Egardan uchganiga shunchalik, ot tagida qolsa nima bo'larkan? - deb kayfi chogʻb holda kirib kela boshladi.

Beshikchi unga o'qrayib qo'ydi-yu, lekin sir boy bermay choldan so'radi:

- Nima buniz, ot yogʻbimi?

- Ha-da. Qani, jigit, men bir ko'ray-chu. Tay baldar jigʻblaydimu. Qo'rqqoq baldar jigʻblaydu. - Chol pufakday shisha boshlagan to'piqni yoruqqa solib, avaylab ushlab ko'ra boshladi. So'ng: - Shashma-shashma, qo'rquvdirgan jeri jo'q, qani, munday uzat-chu, yanada uzat-chu, - deb turib, kutilmaganda oyogʻbini bir burab tortgan edi, bola chinqirib yuborayozdi.

- Ana bo'ldu, tushdu. Janung kirub uxlaysan endu. Ya haluyam ogʻbruttumu? - dedi u bolaning boshini bagʻbriga tortib qo'yib. Saritoy zirillab, nari surilishga urindi-yu, lekin shu barobar oyogʻbini qimirlatishdan hayiqib, uni ikki qo'llab changallab olgan edi.

- Endi qo'rqmu. Jigʻbloq baldar uyimga ketamanlaydu. Sen qarab tur, ertaman chapqildab ketusen, - deb kaftidagi moyini iyilashga tushdi.

- Uyga? Ol-a! - Uzun-uzun qo'llarini yoniga shappalab, sharaqlab kulib berdi Aka pochcha. - Ha, opoqbuvangnikiga keppolganda-ya!.. E, seni qara-yu.

Beshikchi qaddini rostladi.

- Bir erkaliği tutib aytdi-da, amakisi. Ertaga chopqillab ketsin, ko'rasiz. - U sirni andavalamoqqa urinardi-yu, lekin o'zining ham ichidan qirindi o'tib borar edi; "Hali biz Mirzahoji buvaga shunday "sovgʻa olib ketayotirmizmi?..

Xos Duo

Kechasi allamahalgaga dovur gaplashib o'tirib edik. So'ng ichkari uyga kirib, divanga yonboshlabmanu qotibman. Nazarimda, yarim soat ham uxlamovdimov. O'ng yonim bilan yotib, shu yonim bilan turdim shekilli. Lekin rosa shirin tush ko'rayotgan ekanman: kennoyimni ko'rgani borgan emishmiz. Deraza oldida salomlashib turib edik. Men uning oyoqqa turganini ko'rib, bir yerlarga yetib ketyapman:

- Voy, tuzalib qopsiz-ku, em bo'lsa, shu-da. Hali o'zingiz yurib chiqib ketasiz bu yerlardan, - deyman. Lekin kennoyim ochila qolmaydi, mahzun tortib, imanib boryapti. Nimanidir ayto olmayapti ham. Bir mahal qararasam, qo'ltigʻida qo'ltiq tayoq!

- Voy, kesishdimi?! - deb yuboribman...

Qo'rqib ketganimdan o'zimga kelolmasdim. Turib tashqarilarga chiqib keldim. Yotib yana tush ko'ra boshlabman. Ovozini juda aniq-taniq eshitardim:

- Yaxshiyam Siz borakansiz, qaynujonum, - derdi bu gal kennoyim, - mingdan ming rahmat, Yodgormurodumni olup ketupsiz! Uni o'pub qo'ying! Xo'p?..

Yo qudratingdan! Shunaqa ham aniq-taniq tush bo'ladimi? Bor-yo'gʻa, iltimosini ado etib, Yodgormurodni ko'zdan nariroq olib ketganimmi? Keyin-chi, bu yerdanam ilib ketishdi-ku, baribir. Nimadan belgi ber-yapti bu tush? Nimaga tabib to'ramning berganlari emiga tushmabdi? Tushuna olmasdim...

Bugun ishdan chiqiboq ko'rib kelishni o'ylab ishxonaga borsam, oyna ustida omonat xatcha turibdi. Yuragim shigʻa etdi: hamxonalarim yozib qoldirishadigan bunaqa xatchalarning ko'pini ko'rganman. Nari borsa, muharrirning yo'qlovi yo topshirigʻa bo'lardi. Ammo buni ko'rib... etlarim jimirlab ketdi.

Xudo haqqi, qo'rqibgina ochsam, mudirimizning yozuvi. (U kishi menga hech xat-pat qoldirmasdi. Har qanday oshigʻa ich topshirigʻ bo'lsa betma-bet ayttardi.) Bu gal yirik-yirik harflar bilan yozardi:

"Maqsudjon, qaerlarda yurasiz! Shifoxonadan chaqirishdi. Uchib borarkansiz. Bugun operatsia kuni ekan. Sizga juvob! Yordam kerak bo'lsa, aytarsiz. Abdulla akangiz.

Tushim yodimga tushib... ichim shuvillab ketdi. Nahot kennoyim?.. Tabibning dorusi-chi? Kor qilmasdimi? "Yodgormurodimni o'pib qo'ying degani shundan ekanmi?

Chiqdim. Xat qaerda qoldi, eshikni qayta yopdimmi-yo'qmi, bilmayman. Katta ko'chaga tushib, duch kelgan mashinani to'sdim.

Egasi chakkasiga oq oralagan, hiyla bosiq odam ekan, iltijomni eshitiboq bosh irgʻa:

- O'tiring.

Balki mening kuyib ketganimni ko'rib, rozi bo'la qolgandir. Chindan men hozir kennoyimdan bo'lak narsani o'ylamasdim: "Tavba, Hizrday oq-oppoq qariyani tushlarida ko'rib, duosini tildan qo'ymay o'tirgan odam... nechuk operatsiaga rozilik bera qolibdi? Yo biron kor-hol ro'y berdimikan? Ichimni it tatalab, shayton xayolimni har yoqqa olib qochardi. Shofyor ham "ignaning ustida o'tirganimni ko'rib, mashinasini chorrahalaridan epchillik bilan o'tqazib borar, o'zim esa, qaysi ko'chadan ketayotganimizni farqlamay qo'ygandim.

- Katta darvozasiga boravuramizmi? - dedi u bir mahal.

Men dafatan anglamagan ekanman, keyin tushunib qoldim:

- Ha, ha, o'sha yoqdan, - dedim, shu barobar xayolimda anuv "jonimni qoqay xushro'y ayol - eshikbon aya jonlandi. Axir kennoyimni qaerga olib ketishganini bilar-ku, u.

Shifoxona darvozasining biqinidagi mo'jazgina yo'lagu dorbonxona ko'zimga olovdek ko'rinib ketdi. Yugurgilab chiqib borsam, oynavand yo'lakning orqasida xushro'y opaning o'zi sarvdek bo'lib turibdi. U kishining o'zi ham meni ko'rib, ichkaridan chiqib keldi:

- Voy, bormisiz, opovsi? Qaerga opketishganini bilasizmi?

- Qaerga?.. - dedim yutoqib.

U uzrxohlik bilan boqardi:

- Kecha birato'la ayta qolmaganimni qarang. Ovora bo'lib kelib o'tirmasdiz. Kechasi bilan ich-etimni yeb chiqsam-a...

Mashinangiz bormi?

Men bosh irgʻa, tashqari qarab yuraverdim:

- O'zlari qandaylar, o'zlari? Bugun ko'rdizmi o'zi?

- Ko'rdim-ko'rdim,- dedi ovozi o'zgarib.- Bagʻa-berim-ga bosib, shu tasalli beraman, deyman, qani bera olsam. Qaytaga o'zi bardoshli ekan: "Xudo bor, opa, O'zu qo'llaydu. Uning xohlagani bo'ladu, biznikumas. Rahmat, yaxshiyam Siz borakansiz, deydi, alqaydi. Yigʻa-ylab xayrlashdik. Oydek juvon... yarimta bo'lib qayt-sa-ya?..

- Nimaga birdan aynib qoldilar? Tuzuk edilar-ku?

- Tuzuk edi, opovsi, rangi-ro'yi ham ochilib borayatuvti. Nima bo'ldi-yu... do'xtirlar chop-chop qilib qolishdi...

- Yo anuv opkelgan dorumni... ichmay qo'ydilarmi?

Opa bosh to'lgʻa:

- Yo'q, ichgan sarim yengil tortyapman, deb o'tiruvdi. Qolaversa, Siz bilganiz yo'q, to'ramning o'zlari kelib, ko'rib ketdilar.

Men sapchib tushdim!

- Qanday! O'zlari-ya? Birov bilan adashtirmayotirsizmi?

Miyam o'qday ishlardi: "Yoki birov u kishining suvratida kelib... biron narsa berib ketdimikan? Xayol qursin, ming yoqqa opqochardi.

- Voy, opovsi, u kishini taniyman-ku. Qolaversa, yuzlaridan nur yogʻa-ylab turibdi.

- Unda... qistagan kim, qo'ymagan kim? - dedim ichimga sigʻa-ylab dirolmay.

Opa atrofga bezovta alanglab, qulogʻa-ylab shivirladilar:

- Bosh vrachimiz ikki oyogʻa-ylab bir etikka tiqib, kalam ketishini istamayman, konsilium qarorini buzmaglar, deb turvolganmish.

Hayron qoldim:

- Yo To'ra buva kelganlaridan... cho'chib ketdimi?

- Bilmasam, ketidan keladigan gʻa-ylab to'rasiga tobim yo'q, debdimish.

Kimdan qo'rqyapti? Chaman akamdanmi yo idorasining nomidan? Boshqa gap yo'qmikan?

- Chatoq bo'пти. Qaytaga endi eshitadi eshitadiganini! - dedim zinadan tusha boshlab.

Opa hushyor tortdi:

- O'ziga kira qoling, haliyam bo'lsa.

- Yo'q, endi foydasi yo'q: gʻb ʻisht qolipdan ko'chib bo'пти. Qayoqqa opketishdi? - dedim.

- ToshMIning jarrohliligiga, - dedi qaytaga battar tashvishga tushib. U menga tasalli bera olmayotganidan xijolatda - ich-etni yeb, ergashib kelardi.

- Mayli, rahmat, biz ketdik, balki ulgurarmiz.

Nazarimda, ulgurib operatsiani to'xtata oladigandek edim.

Jo'nadik. Qaytaga, Opoysi opaning o'zi xijolatda qoldi. Hamisha shunday bo'lgan: yaxshilik sogʻʻingan kishilar iztirobda qolaverganlar. Biz burila boshlaganda, u temir darvoza oldida ro'molining uchini tishlagancha mungʻʻ hayib turar ekan, so'nggi daqiqada qo'lini ochib, yuziga tortdimi, tortmadimi - ilgʻʻ hamay qol-dim.

Borsak, allaqachon jarrohlik bo'limiga opkirib ketishibdi. O'pkam bo'gʻʻ ʻzimga tiqilib, kirib boraverdim.

- Hay, hay, mulla aka, qayoqqa? Bu yoqqa mumkin emas, - deb bir hamshira azza-bazza qo'llarini yozib, yo'limni to'sib chiqdi. U oq-oppoq oxorli xalatu qalpoqchalar kiygan, engidanmi-qaerdan boshni aylantirayozgudek atrlar gurkirar edi. Oddiy bo'lsa ham koshki, yuziga qaraboq angladim: u yangi kelinchak edi.

Ochigʻʻ ʻi, uni bosib o'tib keta olmadim.

- Mayli, beri keling, kelinposhsha, - deya shivirlab, chetga imladim.

U bu muomalamdan yuzlari duv qizarib, yana ham ko'hlik tortib ketdi. Ammo o'zi boyagidan ancha tushgan edi.

- Aytavering, - dedi o'ngʻʻ ʻaysizlanib.

- Statsionardan... kasal opkelishdimi? Hozirgina?

- Ayol kishi edimi, opkirib ketishdi, - deb endi menga achinib qaradi. - Esiz, endi qo'yishmaydi. Professorning o'zlari shu yerdalar.

- Demak, kesishmoqchi? Shundaymi? - dedim ichim sidirilib.

Kelinchak menga haligidek achinab boqdi:

- Iloj qancha, bo'lmasa, asrab qolisholmaydi: qorason, axir!

- Qorason?!

Men xushim uchib, o'zimni unutgan ekanman, hamshira zo'r berib meni yupatardi:

- Siz qo'rqmang, professorimizning qo'llari yengil: qanchalarni qutqarib qolganlar...

Qulogʻʻ ʻimga shunga o'xshash taskin-tasallinamo gaplar kirar ediyu o'zim deraza rahiga suyanib qolgan edim. Shu holimga men bu soddadil kelinchakka nimaniyam tushuntira olardim. O'sha oyogʻʻ ʻi kesiladigan ayol ham uningdek bir mushfiqa ekanini, boshida hech kimi yo'qligini qanday ayta olaman? Qolaversa, qarinq- doshlaridan hech kim bu ishga rozilik bermaganini-chi? Tushuntirganimda ham bu hamshiraning qo'lidan nima kelardi?..

Bo'shashib, shundoq deraza tagidagi o'rindiqqqa cho'ka qoldim: Nima qilsam ekan? Xat kirgizsammi? Xatimga qarasharmidi?

Yodgorga ovora bo'lguncha, o'sha yoqqa chopmaymanmi! To'ra buva kelganlarida men bormabman! Borsam, operatsiaga qo'yarmidim! Endi Chaman akaga nima deyman? Akamga-chi?!

Kimdir ship-ship kela boshladi. Yo'q, yo'lakdamas. Shu yaqinda. Qarshimda to'xtab edi, boyagidek atir gurkirab ketdi. Ko'zimni ochsam, chindan o'sha kelinchak.

- Balki... boshligʻʻ ʻimiz bilan... gaplashib ko'rarsiz. Huv, anuvi xonadalar, - dedi yolgʻʻ ʻiz o'zimga eshitarli qilib. Shundagina uning surma tortilgan ko'zlari kiyiknikidan ham masum ekanini ko'rdim. Taklifi esa, undan ham go'zal edi.

Darovqe, nega bo'shshyapman?! Meni kim aytadi muxbir deb? Qizil guvohnomam-chi? Shu yerda ish bermasa, qachon ish beradi?!

- Bormisiz! Boyadan beri aytmaysizmi!

Men tura o'sha xonaga intildim.

- Faqat meni aytdi, demaysiz, o'ldirishadi, - dedi kelinchak shivirlab.

Men o'girilib, boshim yerga tekkudek tazim qildim:

- Ishoning, miq etsam tilim... kesilsin...

Eshikni o'zim ochdimmi, birovmi - bilolmay qoldim. Ostonada yuzini yoshligida chechak chakichlab ketgan barvasta odam turardi. Boshdan-oyoq oq-oppoq kiyingan kishi ogʻʻ ʻziga oq doka tuta-tuta chiqib kelmoqda edi. Biz sal qolsa, urilib ketarkanmiz.

- Jon do'xtir aka, bir daqiqa, - deya bostirib kira boshlab edim, u oq togʻʻ ʻdek bo'lib yo'limni to'sdi. Ogʻʻ ʻzidan oq matoni olib o'tirmay:

- Mumkinmas. O'zim kech qolyapman, - deb gʻb ʻo'ldiradi.

Bo'sh kelsam, ko'kragi bilan turtib eshikdan chiqarib qo'yadigan.

- Bugun sizlarda nodir operatsia borakan. Shunga kelib edik, - dedim so'nggi imkoniyatimni ishga solib.

Boshliq garangsi:

- Qanaqa-qanaqa?

- Nodir operatsia.

- U nima deganingiz?

Men bo'sh kelmadim:

- Yani, qorason. To'gʻʻ ʻrimi?

U noiloj bir qadam chekindi:

- Xo'sh, nima bo'пти?

- Shaxsan professorning o'zlari qilyaptilar ekan.

- To'gʻʻ ʻri, - dedi u hamon hech narsaga tushunolmay, lekin oq dokaning bogʻʻ ʻichini qulogʻʻ ʻidan tushirib, rost-mana odamga o'xshab gaplasha boshlagan edi. - Qaerdan bo'lamiz, deysiz?..

Men gazetaning nomini aytib, qizil guvohnomamni uzatdim:

- Mumkin bo'lsa, o'sha operatsiaga qo'ysangiz. Bitta xalat topilar, axir?

Chechak izlari tundlashib, u bosh chayqadi:

- Afsuski, ruxsat berolmayman. Professor siz o'ylagancha emas.

- Qanday? - dedim garangsib.

- Sizga qo'shib meni ham haydab chiqarishadi. Shuni istaysizmi?

- Unda... unda...

- Ilojingiz qancha. Shu xonada kutib turasiz. So'ng epini qilsangiz, gaplashib olarsiz. Xo'p, men ketdim.

U oq bog' ichini tuta-tuta chiqib ketdi. Men miq etolmayin ham qolaverdim. Ana, yol bo'g'inning umri! Hatto qizil guvohnomam ish bermadi!.. Ol-a, endi nima qildim? Yo'lakka chiqolmasam (to'g'ibrisi, kelinchakning yuziga qanday qarayman?), pastga tushib ketaverishga bo'g'ururim yo'l bermayapti. Ne-ne vazirliklarga kirib bora olgan odam... shu yerda yo'l topa olmagan edim. Noiloj stulga cho'kdim. Bosh muharririmizning so'zlari quloqlarim ostida jaranglar edi: "Bizning muxbirlar hech kimning kabulxonasida kutishga haqqi yo'q. Hamma eshiklar unga ochiq. Kirolmadimi, tamom, gazetachi emas! Emas, emas, emas.

Menga alam qilayotgani bu ham emasdi: shunday qo'l cho'zsa yetgudek joyda turib, mana, yetib keldim, deb kennoyimga birrov ko'rinish berolmayotganim, og'ibir kunda tepasida bo'lolmaganim alam qilardi. Qolaversa, nima bo'lgan o'zi? Nega kesishyapti? Shusiz mumkin emaskanmi?

Chidamay turib ketdimu betoqat kezina boshladim. Yuragim bo'g'ibimizga tiqilib kelib, tars yorilay der edi.

Shu vaqt eshik ochilib, ostonada boyagi hamshira ko'rindi.

- O'tiribsizmi? - dedi u jilmayib. - Ketib qolmasakansiz. Xo'p?

- Nima, biror yangilik bormi? - dedim entikib.

U shirin im qoqdi:

- Bor, bor, hali aytishadi.

- Hozir ayta qoling? - deb yalinib boraverdim.

- Ketmay turarkansiz, professor aytdilar.

- Professor?

- Ha, gazetaga yozadigan ish bo'lyapti ekan.

- Shoshmang, tushuntiribroq ayting.

Kelinchak yelkasini shirin qisib, qimtindi:

- Jindak sabr qiling - bilasiz.

Nafasim ichimga tushib ketdi: Nahot operatsia tugab, kesib ulgurishdi?! Professor nima bilan maqtanmoqchi? Kennoyimning ahvolini tasavvur etib, etlarim junjikib ketdi.

Kelinchak qaytayotib o'girildi.

- Siz suyunchini hozirlayvering, - dedi shipshib. So'ng ichiga sig'ibirolmay aytdi-qo'ydi: - Kesishmaydigan bo'пти, bildiz.

- Voh. Olloh bor ekan-ku! - Men do'ppimni osmonga otadigan holga tushgan edim: - Nechuk?

- Arra olmabdi.

- Olmabdi? Olmaydi ham-da! Ana, men nima devdim?! - Men yangi bo'lgan jinnidek shovqinlab, quvvar edim!

Hamshira shoshib qoldi:

- Voy, kiring-kiring. Meni baloga qoldirasiz.

Shu vaqt yo'lak oxirida uch-to'rt oq xalati kishilar ko'rinib, kelinchak battar o'tinib-yalinishga tushdi:

- Ana o'zlari, iltimos, kirib tura qoling.

Men ostonada turganicha ich-ichimdan yoqa ushlardim:

"Yo, tavba, bu qandayin mo'jiza? Arra olmaganmish!

Men hamon garangsib turarkanman, oq xalatiyu bilagiga qadar kiydirib qo'yishgan zangor yenglikkacha o'ziga yarashib tushgan professor yaqinlashib kela boshladi.

- Mana shu yigitni aytuvdim, - dedi boyagi chechak yuzli boshliq.

Professor yoqimli jilmaydi:

- Ayni vaqtida kepsiz. Hizr emasmisiz, mabodo?

Rost shekilli?! Men hayajonda unga qarab alpang-talpan qadam tashladim. U yigitlardek kaftini kaftimga urib ko'risharkan, qo'ltig'ibimdan olib ichkari boshladi.

- Men hammasini birma-bir aytib beraman. Ammo avvaldan kelishib olaylik: yozmaysiz. Yozmayman, deb so'z berasiz, - dedi u.

- Nega? - Men quvonishimni ham, quvonmasimni ham bilmasdim.

- Chunki bu gazetalarda ovoza qiladigan ish emas. Bu - mo'jiza! - dedi u meni tong qoldirib. - So'z berasiz, a?

- Ayting, aytavering-chi, - dedim sir bermay.

- Yo'q, mening boshim ikkitamas, o'rtoq muxbir. Qolaversa, sizniki ham, - dedi u xonaga kirgan zahoti o'zini divanga tashlab.

So'ng yarim yonboshlab oldi-da, qarshisidagi stulni ko'rsatib, o'tiring, dedi. - Men umrim bino bo'lib, bunaqasini ko'rganamasman.

O'lay agar. Yuzlab odamlarni operatsia qilganman. O'nlab oyoqlarni kesib tashlaganman. Lekin bunaqasi bo'lmagan.

- Qanaqasi? Mumkin bo'lsa, tushuntiribroq ayting, - dedim yaqinroq surilib.

Professor negadir labini jiyirdi, so'ng qaddini ko'tarib o'tirdi:

- Rosti, dahriyroq bo'p ketganmizmi o'zimiz ham...

- Xo'sh, xo'sh?..

- Bu juvonda bir gap bor. Hamma alomatleri aytib turibdi: qorasan boshlangan, kesmasa bo'lmaydi. Lekin qanday duo o'qib qo'ygan, arra oyoqni olmayap- ti - pichoqni yo otib yuborib, yo sinib tushyapti.

- Tizzasi-chi, shish-chi? - dedim yutoqib.

Professor ko'zoynagini olib, aftimga tikildi:

- Siz... qaerdan bilasiz?

Men qovun tushirib qo'yganimni anglab, yerga qaradim. Endi rostiga ko'chmasam bo'lmasdi:

- O'sha juvon - mening kennoyim bo'ladilar.

- E, shunday demaysizmi?- Professor tepakalini silab, o'ziga keldi va orqasiga suyanib, qaytarib so'radi.- Rostini ayting, tabibga qaratayotganmidig-lar?

Men uning yuziga qarayolmay bosh silkidim. U chuqur tin oldi:

- Aytuvdim-a, texnikaga nima jin urdi deb. Sizga ruxsat, xushiga keltiradigan xonaga olmaslaridan ko'-rishingiz mumkin.

Men sakrab turib, eshikka yo'naldim. Professor xo'rsindi:

- Faqat bir narsani aytmay ketib qolmang-a.

- Nimani? - dedim hayron qolib.

- Arra olmaganining boisini. So'rang-chi, qanaqa duo ekan?

- Albatta, albatta. - Yo'lakka chiqsam, haligi xonadan to'rt gʻBildirakli aravachada oq-oppoq choyshablarga o'ralgan biravni opchiqib kelishyapti. Yugurgilab bordim. Bir aniq baxtsizlikdan qutulib qolgan kennoyim yuzlari oqarib, o'zini bilmay yotar, hatto suniy nafas yuboradigan apparatlarigacha olinmagan, ko'zlari ham yumuq, faqat mijjalarda ikki tomchi yoshmi - nima, yiltirar edi.

- Kennoyijon? - dedim men ich-ichimdan bir titroqqa tushib.

Ammo shu tobning o'zida ikki hamshira ikki qo'ltigʻBimdan olib, chetga tortdilar.

- Mumkin emas, siz kimlari bo'lasiz?

Men aytdim. Ular bosh chayqadilar:

- Xushlariga kelishlarini kutasiz.

- Kutaman, faqat boshlarida o'ltirishga ruxsat etsangiz bas, - dedim to'liqib.

- Yaxshi, chaqiramiz.

Men shunga ham mingdan ming rozi edim. Asrga yaqinmi, allamahalda u hushiga kelib, ko'zini ochdi va ming shukrki, ko'z ochib meni ko'rdi.

- Xudoyimdan... intiqib-intiqib... so'rab edum, yetub kebsuz... So'rganlarumnu... barchasinu ijobat et-du, - dedi juda ham past tovushda.

- Yetib keldim, yetib keldim. Ming qatla shukr, topib keldim, - dedim bo'zgbʻimga so'zlarim cho'gbʻdek yopishib. Keyin engashib, men ham quloqlariga shivirladim: - Tuzalib chiqsangiz, menga ham o'rgatib qo'yasiz o'sha duo-iltijolarni.

- Xudo xohlasa,- dedi u o'sha-o'sha shikasta ovozd.

* * *

Kechga yaqin kutilmaganda kennoyimni palataga olishib, javob tegib qoldi. Katta do'xtirlar statsionarga olib ketaverish mumkin, deyishibdi. Birpasda mashina yetib keldi. U kishini aravachada pastga olib tushib, joylab berishdi. Men yonlaridan bir qadam jilmay birga borayotganimdan yosh boladek boshim osmonda. Kennoyim undan xursand, undan mutaassir. Ikki gapining birida yaxshiyam siz borakansiz, yaxshiyam yetub kebsuz, deydi. Siznu qadamlariz, duolariz sharofatu bilanmu, Alloh ham qo'llab yubordu, asradu, deydi.

Bunga sari men uni xursand etadigan, sevintirib-suyuntiradigan voqealardan so'zlagim keladi, ko'nglini ko'targum keladi:

- Bilasizmi, aytgan joylaringizga chiqdik. KattabogʻBga, eski uylarimizga kirdik.

- Voy, shunaqamu? - U yotgan yerida bir yerga yetib termuldi: - Turgan ekanmu, topdingizmu?

Mashina allaqachon jilib ketganu men u kishining yonginalariga o'tirib olib, (qaerdan ham boshlab qo'ydim, hali urintirib qo'yamasam edi!) ming xijolatu hayajonda o'sha mahfuz xatlarni qanday topganimni so'zlab boryapman. Ichimda, miridan sirigacha shartmidi, deyman. O'zimni to'xtata olmayapman, tiya olmayapman:

- Turganakan, qarang. Jin ham urmabdi. Ammo shunday quruqshab ketibdiki, xazonday shaldiraydi. Aytgan joyizda ekan, ari inida...

U ko'zlari bir chaqna ketib, yana allaqanday bo'-shashdi.

- Allohga shukr, asragan O'ziga shukr,- deya pichir-ladi, qaytib minnatdor tikildi.- Loy-tuproqqa qori-shib, birovlarining qo'liga tushib ketmabdi, xayriyat.

- Ha, ha, - dedim men uni tinchlantirishga urinib. - Vaqtida borganakanmiz, surib yuborsalar, ke-yin topolmay yurarkanmiz.

- Sizga mingdan-ming rahmat, - dedi u.

Ammo men uni bu rahmatu tashakkurlardan chalgbʻitgim, boshqa yangiliklar bilan xursand etgim kelardi:

- Qolaversa, Yodgormurod bir xaltacha topib oldi.

- Qanday dedungiz?

- Duxoba xaltacha ekan. Mimitdek. Ichida...

- Voy, ushatta ekanmu, u ohanrabolar?

- O'shatda ekan. Yodgor topdi.

- Uni qarang-a, o'ziga buyuribdimu? - dedi kennoyim entikib.

Shu vaqt mashina to'xtab, hamshiralalar gʻBimirlab qoldilar. Yetib kelgan ekanmiz. U kishini tushira boshladik. Keyin aravachaga olib, yonlarida bora boshladim.

- Yaxshi topubsiz. Bo'lmasa, yomgʻBhur-sellarda qolub nima bo'lardu, - dedi u bitiklarni yodga solib.

- Kelasi gal opkelaman, maylimi? - dedim men.

U bosh tebratdi (O'zi chayqadimi yo aravacha gʻBildirab borayotib, chayqalib ketdimi, anglolmay qoldim.)

- Turavursin. Shu ishonchlub.

Hayron qoldim. Xatni aytayaptimi, ohanrabo xaltachanimi? Qaytarib so'rashga esa tilim bormasdi.

- Omonat bo'libmi?.. - dedim axiyri.

Kennoyim im qoqib, bosh silkidi:

- Maylun, - dedi-yu, yana mutaassirlana boshlab, nigohini olib qochdi. Ovozi ham allaqanday titrab chiqqa boshlagan edi. - Bir kun klub... balki o'zlariga topshirarsiz...

Mening ham xalqumimga bir narsalar tiqilib kelardi.

- Unday demang, yaxshi niyat qiling, kennoyijon,- dedim to'liqib, - mana ko'rasiz, hammasi yaxshi bo'lib ketgay, - deb yonlaridan qolmay ergashaverdim. Biz o'sha tanish yo'lka, azim teraklar tagi bilan ketyapmiz-u, qulogʻBim tagida bir narsa shovullaydi.

Vaholanki, teraklar u qadar barg yozib ulgurmaganlar. Nima ekan, bilolmasam. Ko'zlarimni esa yosh qoplab boryapti, hech nima ko'rolmayotirman. Aravacha tutqichini ushlab olganmanu qo'yib yubormayman.

- Ilohum, - dedi u.

- Mana, qarab turasiz, - dedim yana, - hech narsa ko'rmagandek bo'lib ketasiz.

- Ilohum, aytganiz kelsun. Yodgorumning baxtiga. Akanguzning baxtlariga.

Men bu so'zlarni o'z qulogʻBim bilan eshitdimmi yo shunday tuyulib ketdimi - ajrata olmasdim.

Bu orada biz o'sha oldi peshayvonli binoga yetib borgan, hamshiralar aravachani gʻʻildiratib, allaqanday eshiklaru pastki yo'laklardan olib o'tishar, men ergashib boraverishimni ham, hovlida qolishimni ham bilmasdim. Nihoyat, ular o'rta yo'lakka chiqib, o'sha tanish kunjakdagi xona tomon keta boshlashdi-yu, men o'zimga kelib, bu yaqin oradan bir telefon izlab qoldim. Men ishxonaga qo'ngʻʻihiroq qilib, qaerdaligimni aytib qo'yishim, zarur bo'lsa, yetib borishim kerak edi. Qilsam, mudirim bor ekanlar.

- Qalay, qutulib qoldingizmi? - dedilar.

- Qaytarib olib keldim, yaxshilar, - dedim.

- Unda kirib o'tarsiz, biz sho'ttamiz, - dedi u kishi. Bildimki, borishim zarur.

Vada qilib chiqsam, hamshiralar ham joylashtirib, aravachani olib chiqishyapti.

Izn so'rab kirib bordim.

Kennoyim "o'lan to'shagida mening kirishimga intiq yotar edi. Ko'rishi ila minnatdor tikildi:

- Siz ham ishlarizdan qolub ketdungiz menu deb.

- Hechqisi yo'q, muhimi, siz qutulib oldingiz, - dedim men. - Balki To'ra buvaga o'tib kelish lozimdir? Agar dorilaringiz qolmagan bo'lsa?..

- Yo'q-yo'q, tashvishlantirmang u kishini, dorularim hali bor, - dedi kennoyim.

- Nega, qaytaga xursand bo'ladilar-ku, bu suyunchilikdan, - dedim.

Kennoyim bosh chayqadi.

- Undan ko'ra, vaqt topolsangiz, ertami, indin-mi, - dedi u o'tinib, ham ko'zlarimga mo'ltirab, - toychoqgʻʻumni ola kelsangiz.

ʻʻKipriklarida yosh yiltirab, ovozi ham o'zgarib borar edi. - Ko'rmaganumga ham qancha bo'ldu.

Men kutilmaganda bo'shahib tushgan, mana, hozir kennoyim uchun jonu jahonimni berib yuborishga tayyor odam... endi nima deyarimni bilmay qolgan edim. Axir Yodgormurod qaerdaligini koshki aniq bilsam?! Ustiga ustak uni biznikidan olib ketishganini... koshki bu kishiga aytib bo'lsa?!

* * *

Yo rabbiy! Bugun qanday kun bo'ldi?! Ertalab operatsia xabari bilan o'pkamni qo'ltiqib, bir enlik etdan tushgan edim.

Kennoyimni Xudo asrab, shifoxonasiga joylab qaytsam, ish stolimga o'tirmasimdan qo'ngʻʻihiroq bo'lyapti.

- Maqsudjon, Sizga ekan, - dedi mudirim. - Bugun nima bo'ldi, erta demay, kech demay, sizni so'roqlab qolishdi?

Men chindan xavotirlanib gaplashgichni oldim.

- Allo, eshityapman, - dedim yuragim po'killab.

Sim ortidan ayol kishining muloyimdan muloyim ovozi kelardi:

- Maqsutxonmisiz?

- Ha, o'zim.

- O'sha gazetada ishlaydurgon?..

- O'sha, o'sha, - yuragim battar hapriqib kela boshlagan edi, dam o'tkazmay so'radim. - Kechirasiz, o'ziz kimsiz?

- Men Asal opangiz... uzr, kech bo'lsa ham bezovta etduk.

Ammo men bunday shirin ovoz egasini hech eslay olmasdim.

- Qaysi?.. - dedim uyatlu bo'lsa-da.

- Chaman akangizning... opalari-chi, kelgansiz-ku.

Iya, sim ham odamni shunchalar aldarkanmi? Ichimda shu o'sha Asalmi, derdim-u, tilim aylana qolmasdi. Nihoyat, ming bir xijolat ila:

- Eshityapman. Tanidim-tanidim, - dedim. Nima bo'la qopti?! O'sha zahar-zaqqumoyning o'zi sim qoqmasa? Yo kemshiktoy topilibdimikan?!

- Mumkin bo'lsa bir kelib-keting, jon uka, - dedi u kutilmaganda Xudoning zorini qilib.

- Aytavuring, aytavuring, nima bo'ldi? - dedim yuragim chiqib.

- Akbarimizni bir qayoqlarga opketishayotgan ekan, Yodgor fahmlab. Tushunyapsizmi?.. Uni anuv kennoyingizni bolasi deb o'ylashib...

- Qaerdan oldingiz bu gapni? - deb yubordim. Bilasangiz, esim teskari bo'lib ketayozgan edi bu xabardan.

- Siz manavini ko'ring, o'qing...

- Nima u, ultimatummi?

- Ultimatumiz nimasi? - dedi u.

- Garovga olib, shart qo'yishsa, yuborishadigan xat. Shundaymi?

- Yo'q, unaqa gap yo'q, yo'ldan jo'natishibdi. Po'chtada.

- Shunday demaysizmi, - dedim sal o'zimga kelib. - Qaerdan tashlashibdi?

- O'shdan ekan.

- O'shdan?! Muhri shundaymi?

- Shunday.

- Unda qo'rqmanglar, - deb taskin beraverdim, - tinchlik ekan.

- Siz shunday deysiz-da, o'qib esimiz chiqib ketdi-ku.

- Nima deb yozibdi? - Darvoqe, men xatni ko'rgan-bilganday taskin berishimni-chi! Qaytarib so'radim.- Jichcha o'qing-chi.

- O'zi jindak.

- Unda hammasini o'qiy qoling.

- Hozir, - u gaplashgichni qo'yib, allaqayoqqa yo'q bo'lib ketdi. Meni esa gʻʻam bosib kelardi: "Akbari avrab olib ketganlar Yodgorning ham iziga tushmadilarmikan ishqilib? Bu orada u qaytib keldi. - Mana, eshiting: "Yetib malum bo'lsinkim, jilla qursa, bola tirik ekanidan xabar topinglar, deb shu xatchani jo'-natyapmiz. Faqat qarqʻʻamangiz. Bular musofirchilikning toshdan qattiq noniga ko'nib-ko'nikolmay yurishganidan shuni maqul ko'rdik. Biz bolani buvasi- nikiga olib ketyapmiz. Eson bo'lsak, onasini ham yetkazgaymiz bir kun. O'sha Tangritogʻʻga. Ollohdan sabr tilangiz... Xudoyberdi beshikchi.

- Kim?

- Beshikchi.

- Sizlar tarafda shunaqa odam... bormi? - dedim garangsib.

- Eslay olmayapmiz. Eshitmagan ekanmiz.

- Qiziq-ku, - dedim. Ular kim bo'lishi mumkin? Hech aqlim yetmasdi.

- Nima qilaylik? Ovoza qilmay o'tiraturaylikmi yo... ertaga o'ziz kelasizmi?... - dedi o'zini Akbar saritoyning onasiman, deb atayotgan ayol.

Men o'zini sal taniyotgan bo'lsam-da, ovozini hech o'xshata olmayotgan edim. Shunday bo'lsa-da:

- Sabr qiling, ertaga boraman. Hech kimga og'ibiz ochmang. Eshidiz-a? - deb tayinladim. Rostdan ham nega bormay? Saritoyni Yodgor fahmlab o'g'ibirlab ketishadiyu... yana onasi - aziz kennoyijonimni Tangritog'ibga olib ketmoqchi bo'lishadiyu... men yetib bormaymanmi?! Yaxshiyam, kennoyim shifoxonada! Bo'lmasa, naq o'g'ibirlab ketisharkan! Biz qo'limizni burnimizga tiqi-ib qolaverarkanmiz.

- O'libman-da... - dedi Asal opa endi o'ziga o'xshay boshlab. Uning zahar tili qichib kelayotganini ko'rib, men gapimni andavalay qoldim.

- Anuv Zokir badbaxt kelsa, deyman-da. Bilasiz-ku, uni, yo'q yerdan hid oladi. Qorasini ko'rsatgani yo'qmi ishqilib?

- Qayoqda! O'sha dab bo'lgancha ketib boryapti. - Shu vaqt unga kimdir nimadir dedi. Ayol kishining chalakam-chatti ovozi eshitilganday ham bo'ldi. Asal opa "Xo'p, xo'p, aytaman, deya menga "yuzlandi: - Darvoqe, Sizga omonat gap bor ekan, oyim aytyapti- lar.

- Omonat? - Men xushim boshimdan uchib, go'yo oyog'ibim ostida yer aylanmoqqa boshladi.

- Ha, Chaman akangizdan, - dedi u.

Ana, xolos! Shuncha borganimda indashmagan, endi aytishyaptimi? Uchini ham chiqarishmagan edi-ku?

Men simning u tomonida odam borligini ham unutib, "Nima ekan o'sha omonat?", der edim o'zimga o'zim.

Mana shunisi hammasidan og'iblati edi.

Tangritog'ib Tomonlaridan Ayniy Boshlagan Ob-Havo...

Oftobga qaragam, u teatr binosi tomidan oshib o'tib, kun peshinga yaqinlashib qopti. Biz ana shu muhtasham koshonaning shunday biqinida, ko'chaning berigi betidagi binoda o'tiramiz. Derazamiz ham o'sha favvorali maydonga qaragan. Maydonni gir o'ragan chinorlarning shohchalari endi bo'rtib kela boshlagan, qayrag'ibochlar hali boshidan qora ro'molini olib ulgirmagan bo'lsalar-da, favvora ishlab ketgan, shuvillatib suv otib yotar, atrofida odamlar sullanib kezishni boshlagan edilar. Maydonchadagi gulzorlarda oq, sariq, pushti gullar yer bag'ibirlab chandon ochila ketganlarki, tepadan bir chiroyli bahor kapalaklariga o'xshab ko'rindilar. Ko'chada ham odamlar gavjumlashib, og'ibimirlashib qopti. Demak, tushlik yaqin. Hamonki, Yodgormurodlarnikiga o'tadigan bo'lsam, yo'lakay qittak tamaddi qilib olganim maqul. Qaytgumicha oshxonalar tim-tirs berkilmasa ham sovuq ovqatga kunim qolmasin. Hozir Toshkentda nima ko'p - quruvchi ko'p, har yurtdan kelganlar ko'p, bizning oshu kaboblarimiz tansiq. Har burchagu burilishda oshxona ochilib, doshqozonlar osilayotgani bilan o'sha tansiq narsalar tugab, bir soatga yetmay choyxonalargacha huvillab qolyapti.

- Men surdim, - deb pastga tushib, ko'chani kesib o'tayotsam, orqamdan birov chaqiryapti. Otimni aytsa ham mayli ekan, erkalab chaqiryapti:

- Hov, pakana pari!

Yalt etib o'girilib qaragam, ko'cha yoqasidaga qayrag'iboch takkinasiga bir ajoyib xorij mashinasi sekinlab kelib to'xtayapti.

Jonivor ilonning og'ibizidan chiqqandek yaltiraydi. O'sha kinolarda ko'radiganimiz - shamoldan tez, xayoldan uchqur qora "Volva. (Bunaqasi Toshkentda yagona bo'lsa ham ehtimol. Agar hukumatnikini hisobga olmasa!) Ichidan esa norg'ibul birov tusha boshlagan-u, men uni tanimayroq turar edim. Ovozi tanishdek eshitilgandi, lekin kim bo'lsa ekan? Shaharda hech kim meni bunday atamas edi-ku?!

U o'girilib, ko'z-ko'zga tushdi-yu, men shoshib qoldim. Nigohi juda ham tanish edi-yu, ammo o'zini hech o'xshatolmayotgan edim. Nahot shu - o'sha qiltiriq Olim akam bo'lsa? U Sultonmurod akamga o'xshab norg'ibul tortib ketgan edi. Yo Sultonmurod akamning o'zimikan?!

Men sarosimada qolganimni ko'rib, u o'sha yerdanoq mayin jilmaygancha quchoq ochib kela boshladi:

- Voy-vo', ko'rar kun bor ekan-ku! Topar kun bor ekan-ku sizlarniyam! Sen tanimasang, men tanidim. Men topdim! Borakansizlar-ku!

- Olim aka! Nahot o'ziz?!

- O'zim-da, jigargo'sham, o'zim!..

Men-da, quchoq ochib talpinib bordim-u, yo'l o'rtasidayoq quchoqlashib ko'risha ketdik.

- Voy, uchratgan joyimni qara-ya! Qaerlardan izlamadim sizlarni, qaerdan surishtirmadim! Birov Farg'ibonaga ko'chib ketishgan, deydi, birov qaytishgan. Borakansan-ku, jigargo'sham, - deb quchog'ibidan qo'ymay u peshonamdan o'par, yuzlarini yuzlarimga suykab, kuraklarimni silardi.

Men esa uning quchog'ibida bamisoli yo'q bo'lib ketgan edim. Olim akam tog'ibalarimdek shunaqa norg'ibul tortib ketibdi. Hatto chekka sochlariga oq oralab ulgurib, katta kishi nusxi urib ketibdi. Voh, shuncha suvlar oqib ketibdimi?

- Qaytganmiz, qaytganmiz, - dedim.

- Men ham qaytdim. Bo'lar shuncha tentiraganlarim, dunyo kezganlarim, - dedi u ham, - endi odamga o'xshab yashay men ham.

Sog'ibindim o'zimiznikilarni, - derdi u, menga tikilib to'ymasdi. Hali bag'ibriga tortadi, hali peshonamdan o'pib qo'yadi.

- Uni qara-ya, "Hizrni yo'qlasam bo'larkan. Ko'ng-limdan o'tishing ila yo'limni kesib chiqib turibsan. O'tir, ketdik, - deb qistashga tushdi u.

- Qayoqqa? - dedim beixtiyor.

Qolaversa, u juda bemavrid yo'liqqan, qistalang paytda uchragan edi. Men yo'lakay biron joyda tushlik qilib olib, Saritoylarnikiga o'tmoqchi edim. Vadam bor...

- Qayoqqa desang, men tayyorman. Ozod qushman. Faqat sen imo bersang, bas.

Biz bu dunyoning erka kiyigi "Volvaga o'tirvolganmiz, qayoqqa desam, o'sha yoqqa haydaydigan. Ammo men o'sha yoqni aytolmay turibman, niyatu vadamdan kecholmay turibman.

- Shu kechqurun biznikiga keta qolsak-chi, oyim ham boshlari osmonga yetar edi, - dedim.

- U endi qochmaydi. Hozirgisidan gapir. Yaxshisi. hozir bir yetga o'tamiz. Bir otamlashayluk, - deb u mashinasiga o't oldira boshladi. Shunda ham ko'zimdan ko'zini uzmay rizoligimni kutar edi.

Men esam uni Xudo yetkazganidan suyinish o'rniga imillardim. U bilan Yodgormurodlarnikiga borgim yo'q. Ishqilib, Kalkovuz bo'yidagi o'sha hovliga yaqinlashtirmasam deyman. Akamga aloqador odamlarni bilmagani maquldek.

- O'zgina tamaddi qilib olib, o'tadigan joyim bor edi, - dedim axiyri.

- Yaxshi, hammasiga ham ulguramiz. Avval biron bahavoroq joyga boraylik, so'ng tashlab qo'yaman. Bunga nima, cho'tmi? - dedi tulporiga ishora qilib.

- Shunday-ku, lekin... qanday tushuntirsam... - deb mijgib hovlana boshlab edim;

- Agar men bilan boshlashib borishing lozim bo'lmasa... o'zing o'taverasan. Yoki birga tamaddi qilging ham yo'qmi? - dedi u hech ogib tirmay.

Haligi xayollarga borganimdan uyalib ketdim.

- Yo'q, nega? Qani edi tulporingiz o'sha jin ko'chalarga kirib borolsa! Jon derdim-ku!

- Ketdik, ketdik. O'ychi o'ylaguncha, tavakkalchining ishi bitibdi.

Eshikni yopib, orqaga suyansam, deng... voh, o'rindiq degani shunchalar yumshoq-rohatijon bo'ladimi! Ang-tang qolibman.

Bunaqa rohatni umrim bino bo'lib, kuyovlik chimildigib tuga kirganda to'rt qavat duxoba ko'rpacha ustiga cho'kib ham tuymagan edim. Shunaqa mayin, ham yumshoq, so'ng bir ajoyib iforlar gurkirab kelar ediki...

Olamda shunday ujmohlar bo'lar ekanmi, deb alang-lar ekanman, u ohista jildi. Jildi nimasi, turgan yeridan xuddi suvda suzgandek suzib chiqib, ko'cha o'rtasiga tushib oldi-da, shuvillab keta boshladi.

- Zo'r-ku, biznikilar buning oldida qaldiraq arava ekan-ku, - dedim akamga. - Biz so'kkan kapitalizm-ning mevasimi shu?

- Sen bu "qo'g'ibirchoqlariga mahliyo bo'lma. Orqasidan keladigani yomon, - dedi akam negadir qo'l siltab.

- O'zingiz-chi, opkepsiz-ku?

U menga qarab qo'ymayin ham burnini jiyirdi:

- Havas qiladiganmas ularning hayoti. Yegani oldida, yemagani orqasida bo'lgani bilan... ertasi voy.

Men tushunmadim:

- Qanday qilib?

- O'lo' bularning bu dunyosinigina bergan... u dunyosini bilsami, uvvos solib yigib t'lardi hammasi.

- Yo'g'ib-e.

- Hammasi oxiratidan bexabar. Oxiratini o'ylasa, zakotu sadaqani ham bilardi. Dunyo to'la och-nahorlar. Lekin o'shalarga bir miri ilinsin-chi! He, yo'q, ularning falsafasi - yashab qolish, boshqalar ezilib o'lib ketmaydimi!..

Olim aka yo tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketgan, yo meni sinash uchun aytayotgandek edi bu gaplarni. O'zi-chi? O'zi o'sha narsani minib yuripti-ku, yana bu dunyo mato'hlarni mensimaganday so'kishi g'balati. O'zi qaysi boyvachchadan kam?!

Bo'zsuvda, akasining qarorgohida nimalar qilib yurib edi, (necha yil yo'q bo'lib ketib!) endi oxirat haqida gap sotib qopti?!

Ustamonlik ham evi bilan-da! Qo'yib bersa, muftiylik sallasini o'rab amru maruf qilmoqchi.

Men mashinasiga chiqqanimdan pushmonda edim: qani endi bir mo'jiza ro'y berib, ko'cha o'rtasida o'chib qolsa-yu, ishim zarurligini bahona qilib, surib yuborsam...

Qayoqda! "Volva katta yo'ldan shuvillab boryapti, qilt etsa qani! Boshqalar shamoliga ham yetolmay qolib ketyapti. Go'yo bu g'bildiragini ichiga tortib olganu yo'ldan to'rt enlik ko'tarilib olib, uchib borayotgandek.

- Baribir tan berish kerak, biz hali-veri yetolmaymiz ularga! - dedim men besh ketganimni yashirmay.

Olim akam mening g'bo'rligimdanmi, nimadan ilja-yib qo'ydi. Go'yo sen nimani ham bilarding, deganday.

- O'ksishingga arzimaydi! Ular yetgan joyga biz ham yetarmiz, lekin bizda boriga ular yetolmaslar!

- Tushunmadim...

U xo'rsindi:

- Bizdagi oqibat, muruvvatpeshalikning urvog'ini topsalar, do'ppilarini osmonga otar edilar. Afsuski, u yerlarda mushuk ham bekorga oftobga chiqmaydi. Bilding?

- O'sha yerda ham Xudo taolo deydiganlar bordir, axir?

- Bor, lekin oqibat o'ziga yarasha, bizdagiga qiyoslabam bo'lmaydi.

- Bu yoqdan o'tib borganlar-chi? Axir bir vaqtlar ozmuncha odam... - dedim.

- Hijrat qilib ketganlarni aytasan-da? Ular alohida olam. Kerak bo'lsa, jonlarini fido qilib yuborishadi. Men anuv o'zlarini dunyoning ustuni hisoblab yurganlarni aytyapman. Asli O'lo' ularni dunyoga sochib, to'zitib qo'yibdi-yu, anglab yetgilari kelmaydi. O'z aqlariga mahliyolar: manavinaqa ilonning og'ib-zidan chiqqandek mashinalar, kemalar, uchoqlar yaratolganliklaridan o'zlarini unutib qo'yganlar. Vaholanki, insonga hardal urug'ibicha ham ilm berilgan- mas...

- Biz qayoqqa ketyapmiz? - dedim birdan atrofga alanglab. Qarasam, Xadraning chorrahasidan o'tib borayapmiz.

- Qaerga bo'lardi, "JARga-da. Ovqatning doda-xo'jasi o'shatta-da. O'shanaqasi boradigan yeringga tashlab qo'yaman. Xasti Imomga borasanmi? - dedi Olim akam labining chetida jilmayib.

Men yoqa ushladim: "Xasti Imom tomongaligini qayoqdan bila qoldi? Kimmikigaligini ham bilar balki?

- Biz qirolmaydigan jin ko'chalar yana qaerda qopti? Hammasi buzilib bo'pti-ku, - dedi u.

Men o'zinning anqovligimdan o'zi zil ketib, gapni burdim:

- Ishqilib, o'ziz markazroqda turibsizmi? G'irotingiz bunaqaligiga yarasha?

- Menmi? - dedi u yalt etib qarab. - Aytmadimmi hali? O'sha ishxonangga yaqin yerdaman. Hukumatti uylari bor-ku. O'tganmisan hech?

- Yo'lim tushganicha yo'q, - dedim tan berib. (O'shatdanki, joy olgan bo'lsa, demak, xizmatni qilib qo'ygan ekan-da? Obbo, anoyey, yana oxiratdan gap sotadi!).

- O'sha Tuproqo'rg'ibonning orqasida. "Qush uchib o'tolmaydigan joylar bor. Shunday pastimizdan anhor oqib yotibdi.

- Anhor yoqasi bo'lsa, yomonamaskan, - dedim ichimdagini qult yutib. Ichimda esa, boshqa narsa g'himirsilayapti: o'zi zodagonlarning qavatiga joylashib op-ti-yu, yana kimlarni so'kyapti?!

- Sen bir kun ishdan chiqadigan vaqtningni aytsang, men kutib olardim: bir otamlashardik. Keyin xolamlarni, kelinni opkelasan.

Bordi-keldi qilamiz. Odam odamga g'banimat, - dedi u yana ham yaqin olib.

- Xudo xohlasa, - dedim manzirat fahmlab, - mavridi ham kepqolar.

- Yo'q, chindan aytyapman: bordi-keldi qilaylik. Bu dunyoning ziynati shu-da. Qolaversa, payg'bambarimiz ayrganlar:

qarindoshlar bilan orani yaxshilang, deb. Shuncha uzilishib ketganimiz yetar. Hali Nusrat pochchanikiga topib borolganimcha

10 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

yo'q. Qo'ldosh to'g'ri hamlaru kenja to'g'ri hamizni, bir-biridan aziz xolalarimni ko'rgim, duolarini olgim keladi. Istantang birgalashib o'tardik. Zilzila bo'lib, hammalari har yoqqa to'zib ketishibdi. Topishib yuborsang, xo'b savobga qolarding-da.

Olim akam ayni damdagina shunaqa kayfiyatdamidi yo chindanam sog'ri tinganmi, hech ajratolmasdim. Olloh o'zi kechirsin.

Ko'nglimga bir-biridan shubhali gumonlar oralab, aylanib-aylalanib kelyaptiki: odatdagi tilyog'ri hamaligi emasmikan, deyman va shu zahoti bu fikrni kallamdan quvib solaman: Astafirulloh, astafirulloh, qanaqa odammiz o'zi? Shayton yetoviga tushib qolmaganmizmi mabodo? Birov sidqidil yuragini yorsayu biz qayoqdagi gumonlarga borib yursak?!

- Nega boshlab bormaskanman, bir og'ri biz so'zingiz... - dedim ich-ichimdan chiqarib.

- Rahmat, ukaginam, - u rulda o'tirgan yerida qayrilib yelkamga qoqib qo'ydi. - Shunaqa deyishingni bilardim. So'zimni yerga tashlamasligingni, chaqirsamoq uchib kelishingni bilardim. Rahmat, sen o'zi bir bo'lakhasan. Zo'rsan, pakana pari.

- Judaya unchalikmas, qo'ying, - dedim xijolatlarga botib.

- Yo'q, behazil. Endi chin aka-uka bo'lamiz. Maqsud. Axir xolam kimlar bizga? Onadek gap...

Kap-katta, salobatli odam o'zini bunday kichkina olib, iltijo etib tursa... og'ri halati bo'lib ketdim. Mutaassirlanib, ichim allatovur tovlanib, qaradim. Boyagi og'ri hashliklarning urvog'ri ham qolmagan edi:

- Sekinroq aytasizmi,- dedim iyib kelib,- bor davlatimiz shular-ku - xolalarimiz, to'g'ri hamalarimiz-ku.

- Nimasini aytasan! Qadrlariga yetmay qayoqlarda yuribmiz, nimalarga ovoramiz?! - U pushmonini yashirmay bosh chayqay-chayqay tizzasiga shappalab qo'yar- di, - kim kunda, kun ora kirib xabar olibdi, ziyorat etibdi, duolarini olib qolibdi - o'sha chin yutuqqa erishibdi! Odamdan qoladigani shu-ku. Biz nima qila olibmiz?

Shu holatda mashinani tepada qoldirib, "JARga tusha ketdik. Pastga qadar aylanib tushib borgan jin ko'chaning qay bir qayrilishidagi yakka tavaqali ko'k eshikning yo'lagidan o'tib, kaftdek hovlining bir chekkasidagi supada ikkitadan jigar kabobu bir talinkadan xasip yedik. Men ko'pdan bunday tansiq taom yemaganimni shunda esladim. O'zimizam ovro'pacha oshxonalarda pishirilgan sovuqmijoz narsalarga ko'nikib ketib, chintomoq bo'lib qolibmizmi, bundan ortig'ri biga yaramadim. Ammo tami og'ri himda qoldi. Kimsan, muxbir bo'lib ham shunaqa joylar borligini bilmas ekanmiz. Bu yerda hatto ovrupocha kiyingan, (dunyoning teskariligini ko'ring!) ayollari sirib shim kiyvolib, erlari xalitdan tizzasi ochiq kalta bir narsaga o'tgan xorijliklar chug'ri rlab yurishar, bu tuproq tomlari pastak uylarning sodda-to'pori egalari shunaqa lazzatli taomlar tayyorlay olishlariga besh ketib, ular turadigan mazgillar, bu tik ko'chalaru tor yo'laklarni, so'ri ostidagi supachalarni, norin to'g'ri boralaru xasip solingan qozonlarni suratga olib charchamas edilar. Qay birlari bu tansiq narsalardan ko'proq yeb qo'yganni, yuqorilab ketgan aylanma yo'ldan ko'tarilolmay mishillab qolgan edilar.

- Ochopati xayitda o'ladi, degani shu-da. Bular nafsidan bo'lak nimani biladi? - dedi Olim akam ijir-og'ri hanib.

- Tansiq-da, bular uchun. Ekzotika qidirib kelishgan axir, - dedim men. - Boshqa nima og'ri hamlari bor?!

- G'amlari shu-da, dunyoning lazzati. Olloh ham niyatga qarab beradi, - dedi u.

- Nimani? - dedim uni angalay olmay.

- Bu dunyosini-da. Oxiratini o'ylarmidi bular.

Hayratangiz hol: akam ilgari Olim emas, birov uni almashtirib qo'ygandek edi. Fikri ham boshqacha, qarashi ham. Biz o'lsak ham bunday deya olmaymiz. Lekin akam o'ylab o'tirmay aytib tashlayapti. Nima bu? Dunyo ko'rgani alomatimi yo atay o'zini menga ko'rsatib qo'ymoqchimi? Tushunolmadim. Nimadan ijir-og'ri hanyapti? Badnafslıklaridanmi yo qadamlari shu yergacha yetib kelganidanmi?

- Biz yurtimizni qiz-og'ri hanishni ham unutilib qo'yayapmiz shekilli. O'tir, tashlab qo'yaman. Ishingni ham bitirib ketaqol, - dedi u tepaga chiqib.

- Vaqtiz... - dedim xijolatga tushib.

- Vaqt nima! Mashinaga besh minutli yo'l. Agar ishing tezroq bitsa, kutib turishim ham mumkin, behazil, - dedi u.

- Yo'q, rahmat. O'tadigan joylarim, gaplashadigan kishilarim bor, ushlanib qolamiz, - dedim shosha-pisha. Ochig'ri Bi, Chaman akaning uyini unga ko'rsatgim yo'q. Bilib bo'ladimi!

- O'zing bilasan,- dedi u tulporini jildirib.- Ammo ertaga bir vaqt ajratsang: anuv ilhom sutchinikiga o'tib kelardik. Adam rahmatlining qarzi salomlari bor. Surishtirib qo'yarsan?

- Surishtirishga-ku, surishtiraman, lekin ertagacha topib bo'larmikan? Yong'ri biz odam... qayoqqa ko'chdi, kimning qavatiga bordi? - dedim rostiga ko'chib.

- Nima, bola-chaqasi yo'q, so'qqaboshmikan? - dedi akam bir og'ri halati hayratga tushib. U yalt etib qaraganidan sezdim, bo'lmasa etibor bermayotib edim.

- Bor, deb eshitganman. Lekin bordi-keldi qilishmas ekan.

- Qiziq-ku?! Issiq-sovug'ri Bi-chi, kim qaraydi ekan? Shunday odam bilan yuzko'rmas bo'p ketishmagandir, axir?

- Bilmadim, biz esimizni tanibmizki, sutchilik qilib, yol-og'ri biz turadi.

- Tarki dunyo qilganmi yo? - dedi Olim akam ishonqiramay. Nimaga bu odamga qiziqib qoldi - tushunolmasdim.

- Darvesh bo'lib... darvesh emas. Faqat qanaqadir odamoviroq.

- G'alati, - deb taajjublandi akam, ammo qaytib boshqa so'ramay qo'ya qoldi. Iymandimi yo boshqa gap bormi, bilolmadim.

Sag'ri bondan o'tib, Xasti Imomga burilgunimizcha ham jim bordi. Men esam endi uni gapga solishga jurat etolmay, bu qadar uzoq sukutga ketganidan xavfsirab o'tirardim. Tushunuksiz bor hol: qarzi salomini yetkazadigan odamni shunchalik surishtirish zarur ekanmi?

- Har ehtimolga qarshi manavini opqo'y, - dedi u nihoyat jimitdek mezbonqog'ri boz uzatib. - Qo'ng'ri Hiroqlasharmiz, bo'ptimi?

- Yaxshi, ishlarimdan qutulishim bilan qilaman,- dedim maydonga yaqin joyda tushib qolayotib.

- Uyda bo'lmasam, ishxonamdan topasan. Tortinmay so'rayver, - dedi u.

Demak, ishlaydi. Uzilishib ketmagan ilgari xizmatidan. Sutchini zo'r berib surishtirishi ham bejizmas.

- Yaxshi, - u haqda yana yomon xayolga bora boshlaganimdan xijolatga tushib, mashina eshigini tez yopaqoldim.

U jilmayibgina im qoqdiyu zig'ri bircha ham shubhaga bormay jo'nab ketdi. Men uyalib qolaverdim. Eng yomo-ni - o'zimga taskin beradigan so'z topolmasdim. Dunyoda birovi haqda yomon fikrga borishdan yomoni yo'q ekan, tavba.

Lekin Olloh o'zi kechirsin, boshiga shuncha tashvishu ko'rgiliklar tushib turgan bu xonadonni, uning egalarini har kimga malum qilib ham bo'lmasdi-da. Qolaversa, Chaman akamni Olim akam tanimasa ham mayli ekan...

Bir chiroyli tarab qo'yilgan toklar tekis sho'ralay boshlabdi. Oldi (kungay tomonlari) bir ajo- yib - jimit barglar yozib o'tob nurini ema ketganlar.

Ko'klam ishkamlar ustiga ko'k yopinchigʻini yopish harakatiga tushgan bo'lsa-da, hov - tepadagi ovloq hovuzning gir atrofiga saflangan qora tollar allaqachon orolanib, shamolda chayqalib yotibdilar. Faqat hovuz jonivor necha yildirki, suv ko'rmagan. Ariqlarni tozalab, suv ochib kelguvchi kimsaning o'zi yo'q, Chaman akam o'sha ketgancha bedarak. Yana qanaqa omonat qoldiribdi ekan menga? O'sha kelganida beraversa bo'lmas ekanmi? Yo shunday tayinlaganmi o'zi?

So'ri tagida to'xtab, chaqirganimdan so'nggina ichkaridan sarvdek bo'lib opasi chiqib keldi. U uzun sariq atlas ko'ylakda edi, taqimiga tushib turgan yo'gʻbon ikki o'rim sochi undan-da bo'ychan ko'rsatardi uni.

- Keling, keldizmi? - dedi u tangʻbigan ro'molini peshonasiga tushiribroq o'rab. Mulozamat - ayol kishining ko'rki-da, qarang, unga ham yarashayotib edi. Faqat hamisha chirsillab, yuzidan zahar tomib turguvchi bu ayoldagi o'zgarish - tushunksiz edi. Chindan asrandisiga achinyaptimikan? Borida turtkilab bir yerga yetarkan, endi qadri o'tibdimi?

Men salom berib, yaqinlashib bordim. Ammo ich-ichimdan hayiqib turibman.

- Yaxshi o'tiribsizlarmi, xolamoyim bardam-baquvvatmilar? - dedim cho'chibgina.

Bilib bo'ladimi, bu zaqqumoyini? Chindan ham uning zuluk qoshlari chimirilib tushdi.

- Anuv tentiraganning yurishini ko'rmaysizmi? - dedi boshlamasiga.

- Kim? - debman anglab-anglamay.

- Hamisha shu! Bir ketsa - badar ketadi! Na uyini o'ylaydi, na joyini. Bilmadim, oyim ko'chaga tuqqanmilar uni!..

Tushundim! Chaman akamni yanib boryapti. Yanigandayam oyisiga eshittirib, uzib-uzib oladigan qilib sannab boryapti. Sal bundayroq aytaversa, boyaqishni ayasa bo'ladi-ku, yo'q, feli shunaqa, albatta, nishini birovga suqib turishi kerak!..

Meniyam ichimdan bir narsa toshib kela boshladi:

- Meni shunga chaqirganmisiz? - dedim ergashishdan to'xtab.

U xushi uchib qayrildiy avzoyimni ko'rib (qarasa, burilib ketvorishdan ham toymayman!) yumshadi, yuziga binoyi odamlik siyohi yugurdi:

- Voy, maqib turibsiz, kelavurmaysizmi?

Men ham "o'zizni gapizni qarang, zardangizni qarang!, deganday chimirildim.

U qo'l silkidi:

- Men qo'yavering, etibor qilmang. Azbaroyi to'yib ketganimdan aytaman-da, - deb yorildi. - Ilgari qanaqa edim, xo'... bilmaysiz. Hammasi anuv sho'rtumshugʻimdan boshlandi. Bo'lmasa, yuruvdim sannab-sannab, gar-gar kekirib... Hech kimga so'z bermay.

Bazan zaharimni sochib, bazan nazaringa ilmay. Bu turmush deganlarigayam tupurib... Shu bola shunaqqib ketdiyu... - U endi yonimga tushib olib, dardi dunyosini to'kib borardi, - men uni "Ha, arazladi-da, bir, deb o'tiribman. U bo'lsa, nima qilib ketibdi!..

- Nima qilib ketibdi? - dedim men o'girilib.

U to'xtab, hamma gap shunda-da, deganday im qoqdi:

- "Groylik qip ketibdilar, o'zlaricha.

- Yo'gʻbon-e, - dedim ishonolmay.

U yaqin kelib qulogʻbimga bir narsa demoqchi bo'lib edi, yalpiz hidi gurkirab ketib, uning bo'yiga esim ogʻbndi. (Qulogʻbida yo ko'ksida ekanmi, yalpiz jonivor, bilolmadim). U shipshidi:

- Oyimlarga aytib o'tirmang-u... anuv, baloga yo'liqqurginganing Yodgorini qidirib kelganlar shunga yo'liqqan chiqadi. Bo'lmasa, men Yodgorman deb ketvoradimi? - U nari chekilib, yana yalpiz hidi gurkiradi. Uning bo'yi shunaqa tansiq, shunaqa toza ediki, dimogʻbizga urilishidan odam o'zini yo'qotib, olamni unutar edi.

- O'z ko'ngillarida meni bir kuydirmoqchi bo'lganlar-da.

- Yo'gʻbon-e, bola-ku, hali. Qolaversa, qaysi bola onasiga yomonlik sogʻbinadi, - dedimu tilimni tishlab qoldim. Men o'zim sezmay qovun tushirib qo'ygan edim, orqasidan siporishlashga urindim: - Shoshmang, bu gapni... qaerdan oldingiz?

- Qaysi, Yodgorman deb ketvorganinimi? Ko'chovzadigilardan-da. Bolalarni o'rtasida gap yotarmidi, - keyin men tomon engashib, shivirladi: - Oyimlarga bildirmay qo'yaqoling, keyinam nechtesi so'roqlab kelib-ketdi.

- Nechtesi? Kimni so'roqlaydi? - Tushuna qolmasdim men.

- O'sha kennoyizni arzandasini-da, kimni bo'lardi.

Yuragim shuv etdi:

- Qaerdan is ola qolishibdi?

- Bilmasam...

Biz yuqoriga qarab yuraverdik, lekin mening ichim gʻbʻurmishlagandan gʻbʻurmishlab boryapti.

- Nima istaydilar? Aytmaganingizga qo'yishmayaptimi? - dedim qo'rqa-pisa.

Asal opaning qoshlari chimirildi:

- Siz menga oson tutmang, opovsi, - dedi feli ayniy boshlab, - o'zimniki yetmaganday, unikiga ham kuyishim kerakmi? Dalaga opketishgan, dedim.

- Bekor qilibsiz shuni, - dedim ogʻbʻrinibgina.

U yalt etib o'girildi:

- Nima, topib borishdimi?- dedi sarosimalanib.

- Shunga o'xshashroq, - dedim mavhum qilib, asli o'shalmi, boshqalarni - bilmasdim. - Necha kishi edilar?

- Kim?

- O'sha kelganlar-da.

- Ha, ularmi? Bittasi aniq esimda: juda po'rim kiyinib opti-yu, o'zi chetda turibdi. Qolganlari bozorning bolalari edi shekilli.

- Qiziq, - dedim men, - qaerdan bila qoldiz?

- Tilidan-de, shu o'zimizni Toshkanni "votti-votti bollari.

- Shu xolosmi?

- Tagʻbin bittasi kelganmish sambitdek yigitcha men yo'gʻbimda. Oyim biladilar.

- Qaerdanligini aytishmadimi? - dedim ichim toshib.

- Ijroqo'mdanmiz, debdi shekilli.

Ichim shuv-v etdi: Aniq o'shalar! O'z idorasining nomi qolib, ijroqo'm soyasida yurguvchilar! Qolaversa, bu sochi uzun - aqli kaltalarga hech zamonda to'gʻbrisini aytarkanmi?! Boshqa kim ham bo'lishi mumkin?

Birdan ichkariga kirmayin ham... ketvorgim kelib ketdi! Hali biznikiga borganlar ham shularga tegishli chiqmasa edi?!

Ichim gv Turmishlab, Asal opaning yuziga termul- dim:

- Har gal yolgv Biz kelarmidi?

U dabdurustdan tushunmadi:

- Kimni aytasiz?

- O'sha ijroqumni bolasi-da.

- Ha, yo'q. O'zi ikki martagina kelibdi. Anuvlar esa almisoqdan qolgan "Pobeda minib olishibdi, tagv Bin dimogv B'laridan qurt yogv Biladi.

- Tushunarli, - dedim-u, lekin o'la qolsin, agar bir narsaga tushungan bo'lsam, kim yuborgan ekan ularni? - Xatni ko'rsam bo'ladimi? - dedim nihoyat.

- Aytmoqchi, hozir opchiqaman, ungacha oyimlar bilan ko'risha turing, - deb u o'z uyi tomon yurdi. Rosti, bu o'ziga toza bino qo'ygan juvonning unchalik ham aqli emasligiga hayron qolib turardim. Shu husn, shu qad, shu ko'rkn bergan Xudo uni nainki farzanddan, ozgina aql dan ham qisgandek edi. Bo'lmasa, birovning bolasi, ko'zining oqu qorasini (aniq aytmagan taqdirda ham!) qayoqqa olib ketganimizni aytadimi? Men bilmayman, desa olam guliston-ku, O'zini yoqtirmasa, bolasiga achinmaydimi? Ona bo'lib ko'rmasa, qiyin ekan-da.

Oyto'ra buvi bir boshqa olam edi, o'sha o'tirgan yerida qalampirmunchoqmi, mushk-anbarlar hidigami ko'milib, o'sha-o'sha oq-oppoq bo'lib o'tirar edi. Mening ovozimni eshitgandayoq bir gv B'lati jonsaraklik bilan yo'limga ko'z tikib o'tirgan ekanlar, ko'ra yuzlari oftobdayin yorishib ketdi.

- Voy, o'zim aylanay, mirzo yigitdan. Bormisiz, bo'ylarizdan o'rgilay, keling.

Men engashib, yelkamni tutib bordim. U kishi bagv B'riga tortib, kuraklarimni silay ketdi.

- Voy, bolaginamning suyangan togv B'ginasi, ishongan bogv B'ginasi. Yaxshiyam siz borakansiz. Sizni ko'rib sogv B'ingan ko'ngillarimiz bir xotirjam tortdi.

Xontaxta o'rniga ham ustiga yalangqavat bir narsa tashlangan kursi yoniga cho'kib:

- Tinchlikmi, buvi, qanday o'tiribsizlar? - dedim duodan so'ng.

- O'tiribmiz, mirzo bolam, o'tiribmiz. Qarang, kelganiz qanday yarashib turibdi. Qadamlarizga xasanot, uylarimizni to'ldirib yubordingiz, - derdilar buvi hech yerga sigv B'may. Faqat o'tirgan yerlaridan turolmasdilar. Turolsalar, bilmadim, qanday aylanib-o'rgilar ekanlar ustimda. Tavba, bu ayol qariganda shunchalik, yoshligida qanday o'tgan ekan? Yuzlaridan yogv B'ilayotgan bu nur qaydan balqib chiqib kelayotibdi - hech ado bo'ladiganmas. Ikki ogv B'iz shirin gapirsalaroq yo suyib tikilsalar bas, balqib chiqib kelaveradi, chiqib kelaveradi.

- So'ratgan ekansiz, - dedim iymanib.

- Ha, aytmoqchi, Chamanimdan odam keluvdi.

- Odam?! - dedim hayratga tushib: qaysi birini aytayaptilar ekan?

- O'sha, o'zining ob-havo ishxonasidan. Sambitdek yigitcha.

- Qanaqa ishxona? - Sambitdek yigitchani fahm-lagandek bo'ldim-u, lekin ishxonasiga... tushunmadim. Chaman akadek bexalovat odamning qo'nim bir ishxonasi borakanmi?

- Voy, o'sha togv B'-toshlardagi gadoytopmas istansalarigami - shularga qaraydi-da... Oylab badar ketishi shundan, bolam, - dedilar buvi hamma onalarga xos bir sodda-do'lvorlik bilan. Yo menga shunday tuyuldimikan? Lekin o'zim bu gapni eshitib ang-tang qolgandim. U kishi esa yuzlariga bir xotirjamlik inib, tushuntirar edilar:

- Shunaqa badar ketganida, uzoq-uzoqlardan bir-bir idorasiga xabar berib, uyga odam yuborib qo'yadi. Bizzi so'rab, ham xotirjam torttirib. Yubormasa, nima qilardik? Duoi jonini qip o'tirishdan bo'lak nimaga yarardik? Ilo-oy, sogv B'-omon ko'rishtirsin O'zi...

Mening xayolimda esa tamomi boshqa o'ylar gv B'ujgv B'on uradi: ob-havoni kuzatish idorasi?.. Qanaqa "ob-havoyu qanaqa "kuzatish? Hech tasavvurimga sigv B'masdi Chaman akaday bir odamning shunaqa ishda ishlashi, istansalarma-istansa aylangani ketishi. Mening tasavvurimda u tamomila boshqa ish bilan "sanqiydigandek edi. Hozir qay biri haq-rostligini ajratolmay sarang edim.

Ammo bitta narsadan ko'nglim to'q: Asal opa o'sha o'zi ko'rolmay qolgan sambitdek yigitcha... biz o'ylagandek gv B'lati so'roqlab keluvchi emas, Chaman akaning ishxonasidan ekan. O'z odami ekan. Bundan hiyla xotirjam tortib so'radim:

- Yaqin orada qaytib qolarkanlarmi yo boshqa gap bilan keptimi?..

- Yaxshi esimga soldiz, unutay debman. Sal ushlanib qolayotgan ekan, tayinlab yuboribdi. Sizga tegishli gap, - buvi ovozlari ni pastlatib, tashqari hovliga alanglab oldilar. - Atay Asalim yo'gv B'ida kelib, aytib ketdi.

Men bu gapdan hayron qolgan edim:

- Yo'gv B'ida aytib ketdi?

U kishi manoli bosh silkidilar:

- Yodgorimizni ayasini sizga tayinlab ketgan ekan, shuni...

- Tayinlab ketganlar, to'gv B'ri, kami borakanmi? Nima deydi?.. - dedim yuragim po'killab. Operatsiadan xabar topa qolibdimi yo? ... Shunga ko'ngli tinchimay...

- Bilmadim nega, javob tegishi bilan dalangizga opchiqib ketarkansiz. Yodgoriniyam, o'ziniyam...

- Nega, tinchlikmikan? - dedim ichim allatovur simillab.

- Bilmasam... Juda qattiq tayinlabdi. O'zi tushunadi deganmish.

- Tushunadi?! Kim, menmi? - dedim battar xavotirim ortib.

- Ha, bolam, sizni aytdi.

Ammo mening ichimda tushunuksizdan-tushunuksiz bir qo'rquvlar uygv B'onib kelar edi. G'alatidan gv B'lati xabar. Chaman akam o'sha yoqda turib nimaning isini sezibdiki, meni qidirib qopti? Yodgorni so'roqlab kelishlari, Kemshiktoyning "Men Yodgorman deb ketvorishlarida... hammasida chindanam bir sir bordek edi. Endi bunday topshiriq!.. Rostdan ham ob-havo o'sha Tangritogv B'tomonlardan aynib kelayotgan ekanmi? Ular Sulton akamning o'zi qolib, endi ayolini izlab qolishgan bo'lsa-chi? Chindanam qo'rqqulik-ku! Es borida etakni yopgulik-ku!

- O'sha yigitcha har ehtimolga qarshi Sizning adresizni yozib oldi. Qangv B'lida turishadi, dedim...

- Kim? - dedim dafatan anglab yetmay.

- O'sha Chaman yuborgan yigit-da, bolam, kim bo'lardi?

- Ha-a, - dedimu birdan nafasim ichimga tushib ketdi. - Shoshmang, u Chaman akam bilan ishlasa, o'zlari yuborgan bo'lsalar,

adresimni aytmabdilarmi? G'alati-ku, - dedim buviga.

- Voy, shuni ayting. Menam laqqa tushibman-ku. Chamanim aytsa kerak edi, - dedilar bo'shashib.

Men ijkilab so'rashga majbur edim:

- Ilgariyam kelganmi hech?.. Chaman akam borlarida?.. - dedim aqlim bir tiniq ishlay boshlab.

- Sambitdek yigitchami? Yo'q, endi ko'rishim shekilli, - dedilar yuzlariga ajinmi-nima ina boshlab. (Lekin ajabki, bu ajinlar ham yuzning ich-ichidan balqib chiqmoqda bo'lgan, anuv ipakday muloyim nurni yo'qatolmas edi.) - Siz uni kim deb o'ylaysiz?- dedilar u kishi tashvishlanib.

- Hayronman. Chaman akam tayinlagan bo'lsalar, ishxonamdan o'q topib olardi. Bu yerdan izlab yurmasdi.

- Ha-ya, shuni ayting. Bizni xo'b avrab ketibdi-mi, a?

- Bilmasam-bilolmasam,- dedim men, - uyga borsam, malum bo'lmasa, hozir bir narsa deyish qi- yin.

- Voy, men esi yo'q, Chaman desa, laqqa tushi- ib o'tiribmanmi? Qaytta turishizni aytib beribmanmi?.. Voy, men - esxonasi uchgan! Nima qip qo'yibman?

Oyto'ra buvi azza-bazza o'zini qo'yarga joy topolmay adyol ostida tosh qotgan oyoqlarining tizzalariga shappalagancha, aytib kuyinar, qo'lini tizzalariga har tashlaganda, o'zining zalvoridanmi, alamining zo'ridanmi, karavot lopillab silkinar, kampirning o'zini ko'tarib tashlagudek bo'lar edi. Shunaqa kuyib ketibdi.

Men esa u kishining qo'llariyu tizzalariga yopishib, bir nimalar deb tasalli berib yotibman.

- Voy, xolamoyjon, axir Sizda nima gunoh, tinch-laning. Hali hech gap yo'q-ku. Men to'g'v B'ri o'sha shifoxonadan kelyapman-ku. Tinchlik-omonlik-ku.

O'zim shunday deyapman-u, ichim sidirilib tushib boryapti: O'zi bugun bir o'limdan qolgani bilan bu yoqda hali shuncha xatarlar turgan ekanmi? Endi nima qilamiz? Tuzalmay turib, shifoxonadan qanday opchiqib ketay? Yodgormurodni-chi, qaerdan topdim?..

* * *

Uyga qanday yetib kelganimni bilmayman. Shunaqa vaqtda o'zi bir belgi beradi shekilli: ich-ichimdan g'v B'ulgb B'ula aralash bir qo'rquv turib, bosh ko'tarib kelyaptiki, oqibatini eslasam... nafasim ichimga tushi-ib-tushib ketardi. U yog'v B'ini o'ylashga hatto jurat etolmasdim.

Uyga kirsam, qo'rqqanimdek, "Amaqujon!lab chopqillab keladigan bolakay na hovli sahnida ko'rinar, na ichkaridan ovozi chiqardi!

Uylarimiz allaqanday huvillab qolgandi.

- Yodgor qani, bola qani? Kim opketdi uni? - deb baqirib yuborayozdim ayolimga.

- Voy, adasi... o'ziz bilarkansiz-ku...

- Kimni bilarkanman?! Nimani bilarkanman?..

Saida ko'zlarini pirpiratdi:

- Buvasi... - dedi duduqlanib.

- Nima, buvasi?

- So'ratibdimish-ku, ko'rgisi kelib.

- Shu gapga ishonib o'tiribsanlarmi? - deb yubordim umrimda birinchi marta sensirab. - Kim keldi, qanday nobakor?

Mening ovozimga oyim uylarini ochib, ostonada ko'rinish berdilar. Joynamoz ustida tasbeh aytib o'tirgan bo'lsalar, qo'rqitib yuboribman shekilli, deb sal past tushdim.

- Telefonim bor, ishxonam bor, men o'lgani ketgan emasman-ku, xabar qilmaysizlarmi?

- Qildim-ku, adasi.

- Bo'lar ish bo'lib, bo'yog'v B'i o'chgandan keyin...mi?

- Ha, bolam, o'zingni bos, - oyim ayvonga chiqiboq gilam ustiga cho'ka qoldilar. - Hammasi sen qo'rqqanchamas. Kelinga aytmo'vdim. Mana, xat tashlab ketgan, - dedilar nimchalari cho'ntagidan buklog'v B'liq qog'v B'oz chiqarib.

Qarasam, tumor xat. Qo'llarim titrab ochdim: "Uka, To'ra buvaning iltimoslari shunday bo'ldi. Yodgormurod jiyanchamizni yana ham bexavotirroq joyga ola ketdik. UZR, kutolmadik. Qisinmang judayam. Men o'zingiz bilgan Zohidxonman...

- Chin-mochinni otliqqa ham topilmas qora kostum-shimida... sal boyvachcharoq ko'rindi, xolos, bo-lam, - derdilar kamiga oyim.

- E, o'sha Zohidxonmi!..

Oyim erkin tin oldilar:

- Ana, tanirkansan-ku, bolam. Odamni yuragini chiqarib yubording.

Taniganda qandoq! Kennoyimga tabib izlab borganimda kimni uchratibman?! O'sha keptimi?

Unda sambitdek yigitcha kim? Chaman akamning nomidan uylarigacha izlab borgan? Yodgorni so'roqlab yurgan? Bularga qanday dahli bor?

Tagiga yetib ko'r-chi, bu jumboqni!

Men hotirjam tortishimni ham, tortmasimni ham bilmasdim...

Eshon Buvaning Qarz Salomlari (yoxud shafolat huquqi)

Oyimlarga berib ketishgan xatcha chittak qanotidek kelib-kelmas, biz bolalikda yasab oladigan qog'v B'oz qushchalarimizga juda-juda o'xshab ketardi. Faqat buning jindek dumchasi bor-u, tumshug'v B'i yo'q.

Shunaqqib Yodgormurodni ana shunday semurg'v B'chaning belchasiga o'tkazi-ib, uchiri-ib ketishibdi! Yana uni "bexavotirroq joyga ola ketdik deb avraganlariga o'laymi! (Endi u menga bir avrovdek tuyulmoqda edi. Aldanib qolganga o'xshardim.) Obbo boyvachcha-ey, so'ramasdan-istamasdan olib ketaveribdi-da? Darvoqe, kim deydi? To'ra buva deydimi? O'sha yuzlaridan nur yog'v B'ilib, chiroyli kuzalgan soqollariyu biroz qisq, bodomqovoq ko'zlari anavi rasmlardagi Navoiy bobomizgami, kimgadir juda o'xshab ketadigan tabib... yuboribdimi? O'sha borganimda, keldingizmi, belgi bergan sizning kennoyingizmidim, deb... tokchadan avvaldan tayyor-lab qo'ygan dorularni olib bergan odam-a? Nahot o'sha odam hamma narsadan voqif?..

Yoki kechagi ko'ngil so'rab borganlarida... kenno-yimning o'zi iltimos qildimikan? Yodgormurodimdan ko'nglim tinchmas, deb? Balki.

Xudoning qudratini qarangki, shu bir og'v B'iz so'z kifoya etib, men tinchiy qolgan edim. Chindan ham To'ra buva aralashgan bo'lsalar, nimadan qo'rqaman, xavotirlanaman?!

Faqat bir narsadan hayratdaman. U kishi kenno-yim yotgan joy - shifoxonani qanday topib bordi-yu, Yodgormurod biznikidaligini qaerdan bildi? Axir kennoyim bizning yangi joylarimizni bilmaydi-ku, aytdi desam? Balki bular ham hov o'shandagidek, doru tayyorlab, birov kelishini kutib o'tirganidek, o'zi belgi beradimikan? Bolaning ustida, bu mushtipar oilaning tepasida aylangan qora xatarni ham shunday sezib... bularga qayishdimikan?

- Balki Hizr deganlari shudir?..

- Kim deding? - oyim mushtdek bo'lib, tasbeh o'girib, sano aytib o'tirib edilar, yalt etib yuzimga qaradilar.

- Tabibni aytaman.

- Qaysi? - u kishi anglamay ko'z piriptardilar, so'ng kaftlarini o'pib, salga yoshlanib kelaveradigan, ajinlar mijjalariga qadar siqib borgan ko'zlariga bosib qo'ydilar.

- Mahfuz kennoyimga qarayotgan odamni aytaman. Yodgorniyam o'sha odam oldirib ketibdimish o'z pano-higa.

- Heh, bolam-a, - dedilar oyim cho'zib, so'ng bosh chayqab, bilinar-bilinmas lablarini jiyirib qo'ydilar. - Bandaning dasti qaerga yetardi?! Avvalo, Olloh o'z panohiga olsin!

- Har qalay-da, oyi. O'zi ham o'sha yoqdan ekan. Bekorga...

- Qayoqdan-qayoqdan? O'sha Mirzaxo'jaboylar borib qo'ngan tarafdin ekanmi?

Men dafatan anglay olmadim.

- Mirzaxo'jaboyingiz kim?..

- Esingdan chiqdimi? Kim bo'lardi, o'sha kelinimizning boy otasida, o'g'v'lim. O'sha bir vaqtgi qoch-qoch, quv-quvlarda qayoqqa qochib, jon saqlabdi?!

- Ha-a... o'sha ko'chib borishgan yeri - Tangritog'v'ida ham bu yoqdagidek bir Olmazor bog'v' qilib, ungayam bir anhor suv opchiqqan, o'rtasida hovuzu shiyponu supa-supachalar qurdirgan, shusiz bu yoqdagi joylarini unutmagan odamni aytasizmi?

- O'sha tabibing... boyni, bularni bilsa kerak- da!

- Bilsa kerakki, odam yuborib, Yodgorni opkettiribdi. Bo'lmasa, unga nima edi qayg'v'urib?..

Ammo oyim birdan mahzun tortib, qo'llarining yuzini (o'sha terisi bir kuyib tushib, qayta et bitgandayin quruqshab qorayib qolgan, tomirlari esa ko'k ipakdayin ingichka tortgan qo'llarini) silab qoldilar. Ichimga g'v'ulg'v'ula tushib, yuragim dukirlab keldi: "Nimani nazardan qochiribman? Oyim huda-behudaga tashvishga tushmasdilar-ku... O'zim esa yurak yutib so'rolmasdim. (Urishib berishlaridan hayiqib turibman.)

- Akang tinchmikan, o'zi? Hech bir xabar bo'lmadi-ku, - dedilar xavotirlanib.

Men ichim sidirilib, bosh chayqadim.

- Bilsa, o'sha Chaman akam biladi, u ham bir ketgancha... badar ketib boryapti. Nega unaqa deyapsiz, oyi?

- Mahfuz kennoyimga daragi chiqqanidan bir suyuniblar edim, Ollohning marhamati bilan o'zi ham osmondan tushganday kirib kelib qoladimi, deb o'tiruvdim. Manavi voqealar... yaxshilikdan darak bermayotganday-ku?

- Qaysi voqealar, oyi, - dedim zo'rg'v'la. Siz nimani nazarda tutyapsiz, demoqchiman-ku, aytolmasdim.

- Kennoyimga daragi chiqqanida bu tabibning paydo bo'lib, anavi bolaning yo'qolishi, Yodgorni oldirib ketishlari... - dedilar oyim nigohlarini uzmay, - hammasi allaqanday g'v'ulati-da, bolam.

Etlarim jimirlab ketdi. Lekin o'zim sir boy bergim kelmasdi:

- Yo'g'v'la-e, oyi, siz o'ylaganchalikmas, hamma-hamma bilan shunaqa halim, taqvodor odam-a? Qo'ying.

- Otasi unday bo'b ketuvdi, bollari bunday to'zimasa deymen-da.

Men esa fikrimdan qaytolmasdim:

- Qolaversa, u tabibni o'zim izlab topib borganman, oyi, u bularnimas...

- Keyin-chi, keyin ham ko'rgani yo'qmi?

- Kimni? Kennoyimga? - dedim bo'shshib.- Boribdi...

- Ana, aytdim-ku.

Men oyimning yuzlariga esim og'v'ibroq tikildim:

- Bularda bir sir bor... deysizmi?

- Shahringda nima ko'p, kelgindi ko'p. Ayniqsa, o'sha yoqdan kelganlar.

- Kelsa, hammasi qochib o'tganlar, - dedim men.

Baribir, oyim bosh tebrab, qo'shilmadilar:

- Ularning orasida qancha - eshtar qulog'v'bi, ay-g'v'boqchisi boriykin? Ularam anoyimasdir?

Oyim shunga zingil tashlaganlariga hayron qolib, beixtiyor mehrim tovlandi. (Axir, bu hammasi kennoyim uchun-ku, shular ham bir xalovat topa qolsa edi, deb kuyinganlardan-ku, bo'lmasa, u kishiga nima!):

- Siz haqsiz, oyi,- dedim chiniga ko'chib,- lekin Yodgorni oldirib ketib yaxshi qilibdilar qaytaga.

- Shunday bo'lsayam, - u kishi iltijo etgandek tikildilar,- oying o'rgilsin, ehtiyot bo'l, chuv tushirib ketishmasin tag'v'bin. Hammadan burun Olimdan hazir bo'l.

Men har narsani kutsam ham, buni kutmagan edim:

- Siz... u hamma narsani biladi, deb o'ylaysiz-mi?

U kishi boshlarini quyi solintirdilar:

- Bir narsa deb... Ollohning oldida gunohkor bo'lib qolishdan qo'rqaman-u, lekin, bolam, akangning boshida yana qora bulutlar o'ralashib qolganga o'xshaydi. U bekorga kelmagan. Esilasang, ilgariyam bir shunday bo'lib edi.

Qarorgohga sallot tashlashgandagisi rost. Lekin endiyam uni o'rta suqishyaptimi? O'z ukasining qo'li bilan nima qilishmoqchi? Ichimda shunday savollar charx urib yotibdi-yu, aytolmasdim:

- Endiyam deysizmi? - deya oldim zo'rg'v'la.

- Ishqilib men adashayotgan bo'lay, bolam. Kimni hidoyatga boshlab, kimni zalolatga solib qo'yganini yo'g'v'biz O'zi bilmasa, bandasi nimani biladi!

- Nima qil, deysiz? - O'zimni nochor-notavon, maslahatga muhtoj sezib ketdim.

- Ehtiyot bo'l, bolam. Har kimni o'zingga sirdosh tutaverma. Davlatni katta gazetida ishlaysan. Orqa-o'ngingga qarab yur. Seniyam olib ketib qolishsa, men nima qila olaman?..

v'v'v'Oyi, hov, oyi, nimalar deyapsiz? - Hech kutmaganimda oyim gap o'zanini bu yoqqa burib, ko'zyosh qilib qolishlaridan o'zim g'v'ulati bo'lib ketdim. - Hozir unaqa davrmas-ku, axir.

- Sen aytaverasan!.. Lekin bularning tuslanib-tovlanishiga, so'zlariga ishonma. Yetimning boshini silashlariga, dushman izlamasliklariga ishonma! Hamma balolarni ko'rgan men bilamanmi, sen bilasanmi bularni? Sen hali nimani ko'ribsan? Ko'rmaginam, kuymaginam, ilohim.

Oyim ro'mollarining uchini mijjalariga bosa-bosa axiyri tinchidilaru yuzimga xijolat aralash qaradilar:

- Nima deydi? Yorildimi hech?

- Kim, oyi? - dedim dabdurustdan anglamay.

- Olim akang-da. Bekorga o'ralashib yurmaganidir orqangda, - keyin qo'shib qo'ydilar. - Bizga-ku, sir bermaydi. Lekin senga aytgandir.

- Ayt, oyi, aytdi. Bir kishini topishvorish kerak ekan, - dedim yotig'bi bilan.

U kishi yalt etib qaradilar:

- Yana kimga qiziqib qopti?

- Anuv eski mijoziz bo'lardi-ku, ilhom sutchi. O'shanga.

- Voy, o'lmasam, u g'bit tarkidunyo qilgan odam-ku. Uning nimasiga qiziqadi? - Oyim hayratlarini yashirolmay yuzlarini siypab qo'ydilar. - Ayt, tinch qo'ysin boyaqishni. O'zining kuygani yetarli.

Mening savol xaltam ochilib ketgan edi:

- Nimadan, oyi?

- Birov tagiga yetolmaydigan tarix bu, bolam.

- Nima tufayli?

- Koshki bir og'bit so'z bilan tushuntirib bo'lsa.

Oyim nimaningdir andeshasida bu tarixni ochgilari kelmas, men esam tagiga yetmagunimcha ko'nglim joyiga tushmas edi:

- Yuzko'rmas bo'lib ketishganmi yo...

- Unday deb ham bo'lmas...

- Bolalari bormish-ku, bizlar tengi. Shunday odamlar ham... - Men aytmaganlariga qo'ymay ijikilay boshlagan edim.

- Ha, endi, bolam, taqdirning yozmishi-da. Kim undan qochib qutulibdi. Bular ham o'sha imtihon tuzog'bitiga tushganlardan,- dedilar oyim o'zlaridan qochirib.

- Imtihon tuzog'biti? - Men endi hech narsaga tushunmay boshlagan edim.- Kim tufayli? Qachongi tarix?

- He-e, bolam-a, Olloh suygulik qilsa qilsin ekan-u, kuygulik qilmasin ekan hech kimni. Bularni tarixi shunaqaroq, - dedilar bir chekkasini ochib. Judayam qiziq edi, qaytarib so'radim:

o'g'bit o'zlariga biron so'z olib qo'yganmilar?

Oyim, shunga yaqinroq, degan kabi bosh silkidilar:

- Bo'lmasa, o'zi boyni qizini opqochib kelib, o'qitib muallim qilib, nikohlab olgan. Shunaqa mulla odam. Ammo oraga urush tushib, bir kun qaytib kelsaki, o'z xotini ayol zotiga suyagi yo'q mudirning qo'lga ishga o'tib qopti. Shu og'bitlashgan... uyining ostonasigayam qadam bosmay ketdi.

Shunaqa rashkchi ekanmi? Yo biron gap eshitib, to'nini teskari kiyibdimi? O'zim ming xil o'ylarga borib kelyapman-u, koshki oyimlardan so'rolsam...

- U odamga ham bir og'bit bir narsa demabdimi? - deya oldim axiyri.

Oyim bosh chayqadilar:

- Nima degan, nima qo'ygan - bilmadim. Lekin shu voqeadan yarim yil o'tib, o'sha odam qamalib ketdi. O'z oyog'bitidan yitdimi, u qamatdimi - yolg'bit Olloh biladi.

- Shundan keyinam qaytmadimi?

- Qayoqda. Qancha odamlar o'rta tushdi. Xotiniyam xiyonat qilmagan ekan... Lekin u so'zidan qaytmadi. Boshqa uylanmaydigan, ro'yxush ham bermadi. Shaharda katta idorada ishlarkan, u yerdan ham ketib, bizning shu Cho'lponotaga kelib qoldi.

- Odamoviligi shundan ekan-da?

- Bir chekkasi shundan bo'lsa, bir chekkasi ishidan ham etak silki ketganga o'xshaydi. Odam shuna- qa - bebaqo, bolam, u yuz o'g'irsas, har aqllilar devonaga aylanib, u kulsa, har adashganlar hidoyatga tushib qoladi. Bu odam serzardaroq ko'ringani bilan o'zi halim. Faqat har kim bilan iqi suyib gaplashvermaydi.

Oyim aytganlaricha bor edi. Ayniqsa, qora sovuq tushgan qish kunlari eski movut ko'ylak-shimiyu nag'bitalli etigi ustidan uzu-un jun chakmonni ilib, namat telpakni bostirib olsa, deng, juda tund ko'rinar. Qo'lga bitta nagan yetishmasdi. U bo'lsa bir gala sutdan bo'shagan bonkalarini obkashiga qo'shib orqalagancha bozordan qaytar, atrofiga qarab qo'ymasdi. Bazan Soli pismiqning gapida ham jon bormi, deb o'ylab qolardim. Anvar kennoyim (Solining oyisi) topgan uzun-quloq gaplarga qaraganda bu odamning oldiga, o'sha birovning tashqisida turadigan joyiga manman degan og'bitlar ham yurak yutib kirolmash. Boshiga naganini qo'yib yotarmish. Anvar kennoyi bu gapni qaerdan olgan, naganni qaerdan ko'ra qopti - hech kim bilmaydi. Lekin necha yilki, shu duv-duv gap to'xtamaydi-tinmaydi. U ham birontasining peshonasidan darcha ochib qo'yganini hech kim ko'rganini ham, eshitgani ham yo'q. Ammo u o'tib ketguncha hammamiz hayiqib turganimiz-turgan edi.

Mana endi Olim akam shu odamni surishtirib-so'roqlab yuripti. "Bu buz-buz, ko'ch-ko'chlarda qayoqqa jildiykan, surishtirib ko'rsang, o'tib kelardik, deydi. O'zi uni qaerdan biladi, bizning tomonlarga kelib qolganining daragini qaerdan eshitgan - aytib o'tirmadi. O'zi shaxsan tanimagan (balki tanir) odamni orqavartdan surishtirib, qidirib yurishi qiziq. Men uni topib berishga ham, bermaslikka ham hayron edim. Axiry o'ylab-o'ylab oyimlarga maslahat solishga majbur bo'ldim.

- Balki shu ko'ch-ko'ch bahonasida bolalari... endi qayoqqa ham borasiz, deb... olib ketishgandir? Ular asli Ko'tarmadanmidimi? - dedim.

- Sutchimi, qaytsa o'sha boshidayoq qaytardi. U tuflagan tufugini qaytarib oladiganlardanmas. Undan ko'ra haliyam bo'lsa guzardan surishtir, - dedilar oyim.

- Yaxshi, lekin boshlab borib uyaliq qolmasmikanman? - dedim oyog'bitim tortmayotganini sezdirib.

- Nima ishi borakan o'zi? Aytdimi?

- Bir uchini chiqarganday bo'ldi.

- Nima deydi?

- Otam rahmatlining qarz salomlari bor, deydi.

Oyim bu gapdan eslari ogʻib, aftimga tikildilar:

- Nima, nima?! Kimning gapini gapiryapsan?
 - O'zining gapi... Shu odamga qarz salomlari bor, yetkazishim kerak, deydi.
 - O'ylab gapiryapsanmi? Eshon pochchani olib ketishganiga qancha bo'lyapti?! U kishi tengilar ko'karib chiqdi-ku...
 - Men bilmasam, oyi. O'shoqdan keldim, qo'limda jon berdilar, deydi.
 - O'shogʻib - qayoq... ekan? - dedilar oyim hamon o'zlariga kelolmay.
 - Tangritogʻibdan... topdim, deydi.
 - Yo qodir Olloh! Hayot ekanlarmi?!
 - Daraklarini eshitib, topib borganmish. O'zi qo'li bilan yerga qo'ygannmish.
 - Subhanalloh! Oxirgi damlarini ko'rib qolish unga buyurgan ekanmi? - deb oyim azza-bazza ko'zlariga yosh oldilar. - Eshon pochchani-ya? Qancha vaqt, qancha suvlar oqib o'tib-a? Tumanli yurtmi - allaqayoqqa olib ketgan deyishardi-ku. Bu yoqda ekanlarmi? Ollohim hifzu himoyasiga olib, rizq-ro'zlarini shu yoqqa sochgan ekanmi, tavba?
 - Oyimlarga qo'shilib, men ham gʻʻalati bo'lib ketdim; tavba, biz bu yoqda ne xayollarga borib yuribmiz: tumanli yurtlarga surgun qilingan bo'lsalar, go'rlari qaerlarda qoldi ekan, shunday odam kafansiz ketdilarimkan, deb o'tiribmiz-ku! U kishi esa, mana, qaerda ekanlar! Yana u odamni tirik ko'rish, duolarini olib qolish - kelib-kelib kimga nasib etibdi!
 - Voh, kim bu xonadonni to'zitganlar bilan kelisholmay, qaerlarda sarson-sargardon yuribdi, hatto yurtiga sigʻibmay - bosh olib ketdi, unga yo'liqmay shu Olim akamga yo'liqibdilar? U kishini ko'rib, duolarini olib qolish shunga nasib etibdimi? Bunda qanday siru sinoat, hikmat bor ekan, anglab yetolmasdim. Axir, Sultonmurod akam ham o'sha Tangritogʻib tomonlarda edi-ku?! Qolaversa, u kishi u diyorga qanday borib qolibdilar? Nima bu, taqdirning karamimi yo Ollohning inoyati? Oyimlar aytmoqchi, Olloh xohlasa, bandasini chohlardan ham tortib olib, adashgan farzandi-zurriyodiga ro'baro' qilishga ham qodirmi?!
 - Oyim shunday xabarlar topib kelganimdan bir yerga yetib, yuz-ko'zlarimga mamnun-mamnun tikilar ekanlar, yana allaqancha narsalarni so'ramoqqa shaylanib-shaylanib ham qo'yar edilar. Nihoyat, bir kalima Quron tilovat etib, savobini bagʻʻishlagach:
 - Aytmoqchi, u kishi sutchini qaerdan tanirkanlar? - deb qoldilar.
 - Kim? - dedim men anglab-anglamay.
 - Eshon pochchani aytaman-da. Hamonki, qarz salomlari bo'lsa?..
- Chindan gʻʻalati edi: eshon pochcha qayoqdalaru hukumatning ishongan idoralarida xizmat qila-qila bu dunyo xoyu havaslaridan etak silkigan sutchi qayoqda!

gʻʻBilmasam, oyi. So'ramabman, qarang-a,- deya oldim.

- So'rashing kerak edi, bolam. Eshon pochchaday Olloh aziz qilgan odam har kimga ham duoi salom yo'llamasalar kerak. U kishining nazarlari tushibdimi, shundan bilaver. Topishib yuborsang, savobga qolasan.

Oyim shunaqalar. O'tganlarga daxldor ish chiqsa, tamom, mahkam ushlab oladilar. Olloh rozi bo'ladigan ish ekan, orqasidan qolma, deb turib oladilar. Ado etilmaguncha so'rayverib, surishtiraverib, kishini hol-joniga qo'ymaydilar.

Hozir ham raylariga qarab:

- Xo'p, bugunoq o'tib, surishtirib kelaman, - dedim-u, lekin yuragimning bir chekkasidagi gʻʻashlikdan hech qutula olmasdim. Qulogʻʻim ostida ko'zga ko'rinmas bir mahluq hadeb visirlar edi:

"Hamma qolib, shu dogʻʻbuliga ishondingmi? Olimga-ya? "Xonumoningni kuydiradi-ku, bu seni Ilhom sutchingga qo'shib!..

Yurtdan Mujdayu Suyunchilugʻʻ (yana o'sha hikoyachiga qorongʻʻu, muallifga ayon safar tarixidan)

U qadaga o'tirib, endi paygʻʻambar alayhissalom haqlariga salovat boshlab edi, hovlida qachondan beri chertak o'ynab, xalinchak uchayotgan qizaloqlar gurra chopishib qoldilar:

- Voy, opoqbuvamla...
- Chopdik-uchdik, eshontamla!
- Guzardan keluttila...
- Namozdan keluttila...

Hojining daragidan kap-katta odam Xudoyberdi ham shoshib, ikki yoniga salom berib, namozni yakunlay qoldi. Bu vaqt noz-nematlarga to'la dasturxon ham bir chetda qolib, lo'labolishni tirsagi tagiga tortganicha asta yonboshlagan Aka pochcha - shunday alp odam ham uyqu elitib mishillay boshlagan edi. Togʻʻu tosh oshib, duch kelgan yerda tunab kelaturgan safar kishilari uchun boy otanikidagi bu etiboru bu mulozamatlar... ularni elitmay kimni elitsin...

U bir tabiatli, islamiy gullar solinib, oq ipakdan suvlar yurgizilgan, ustiga ustak allaqanday iforlar gurkirab turgan joynamozni tokchalar o'rtasidagi qoziqqa ilib, sherigini shoshirdi:

- Hoy, aka pochcha, turing, tura qoling, Hoji buva keliptilar...

- Nima, kim? - Aka pochcha azbaroyi cho'chib tushganidan boshini sirlangan devorga urib oldi. Ko'zi moshdek ochilib, norozilandi: - Vahmangni qara-yu...

- O'zingiz ham, - dedi beshikchi, qistab kelaturgan kulgusini bosib, - cho'kdim deguncha boshiz ogʻʻib ketovurmasin-da. Mehmon degan nomiz bor.

- Chittakdek odam o'zingga teng qildingmi? - Aka pochcha ijirgʻʻbanib o'rnidan qo'zgvʻʻoldi. - Tagʻʻin qiyomatli o'rtoqmish bu.

- Biz bilan yurib hali duoni kattasiga sherik bo'lganizda bilasiz. Hali Hoji ota bilsinlar.

- Hammasidan bir chimdim uyqu o'taversin, - deya to'ngʻʻbillab, usti yopiq xanik chetida yarqirab turgan oftoba bilan turnadek bo'yni cho'ziq obdasta tomon o'taverdi u.

Beshikchi kuldi:

- To'nu sovgʻʻba-salomlardan ham-a? Yelkangizga tashlashganda yoqib qolar?

Beshikchi o'ziga qaytib keladigan gapni sezmay qolgan edi. Aka pochcha miyigʻʻbida kuldi:

- Saritoyini cholga nevarasi o'rnida o'tkazib-a? To'n teshib chiqmasin.

Bu gapdan beshikchining boshi aylanib, etlari jimirlayozdi:

- Olloh asrasin! Kim bu niyatda keptiyu shunday bo'ladi, deb o'ylabdi? Siz meni kim deb o'ylayapsiz, aka pochcha?

- UZR-uzr, unday demoqchimasdim, o'zingga olmaysan. - U cho'nqayib, yuzini chaya boshladi. Ulkan odamning yuzidan ortgan suv oftobaning do'ngalakchasini o'pib tushib, ichiga jildirab yo'qolar ekan, u oshnasining ko'nglini oladigan bir so'z qidirinar edi.

Nihoyat, belbogʻʻbiga artinib turib edi, o'sha so'z ham tiliga kela qoldi:

- Shu bilan qiyomat qarzdand qutulsang - biz xursand, oshna. Sovgʻ b̄a-salomsiz ham odamni kuni o'taveradi.

- Ha, bu boshqa gap, aka pochcha, endi o'zizga keldiz..

Bu orada nashvatilari moyguldayin ochilib, asalarilarga "vatan bo'lib ulgurgan hovlida boyagi qizaloqlarning quvalashib chopishgani, rahmat aytib bir yerga yetganlari - sakrab quvnaganlari eshitildi. Ular Eshon otadan nasibalarini olib qaytmoqda edilar. Keyin qay biri chugʻ b̄urlab, u kishidan suyunchi ola boshladi:

- Voy, Eshonta, memon boluni ko'rmabsizu...

- Qani-qani? Qanday bola?

Boy otaning alanglab, kamzullari hamyonini kavlashtirib nevaralari ichidan saritoyini izlaganini tasavvur etib, beshikchi beixtiyor jilmaydi. So'ng o'zi ham u kishining istiqbollari chiqarkan, sherigini shoshirdi:

- Bo'la qoling, aka pochcha, u kishini tavof etgali chiqqaymiz.

U hovliga tushib borganda cho'qqi soqolidan nur yogʻ b̄ilib, ko'zlari hamisha yoshlanib turganday, ammo su-yib-suyib tikilguvchi o'sha jikkak chol yo'l-yo'l banoras to'ning poylari yerni o'pgancha cho'nqayib, memon bola - kemshiktoyning peshonasidan o'pib turar edi.

Boya chittigul o'ynab, halinchak uchayotgan, qirq kokillari yetmaganday, tolchovkandan sochpuklar taqqan qizaloqlar biri olib, biri qo'yib, buvalariga tushuntirish berishar edi.

- Buva, buva, ular dovon oshub kelishiptu...

- Uzoqdan kelishiptu... Toshkan degan joydan kelishiptu.

- Valloh, valloh! Olloh aziz qilgan joylardan-a? Shundaymi, bo'tam? - derdi boy ota bolakayning yuz-ko'zlariga yutoqib tikilib.

Mushtdek yuragi jimitdek vujudiga sigʻ b̄may qolgan bo'lsa ehtimol. Suyib, bir yerga yetib tikilar edi.

- O'shoqdanmu? - derdi allaqanday titrab-qaqshanib. Ammo o'shoqning nomini ayto'lmasdi. - Ota diyor-lardan-a?

Saritoyning ovozi chiqa qolmas, yuzlari duv qizargan, o'zi oyogʻ b̄i ila yer chizardi. "Hm, dedi axiyri bosh silkib.

Boy ota uni shu ko'yi bagʻ b̄riga tortib, bo'ynidan iskalamoqqa boshladi:

- Aytuvdim-a, qanday tanish bo'ylar ufuryapti, deb. Voy-voy-voy, bo'ylaringdan seni, - derdi mutaassirlanib. Va shu ko'yi ko'zi beshikchiga tushib: - Valloh, kimni ko'ryapman?! - deb yubordi, - Xudoyberdi, qanday shamollar uchirdi?! - dediyu bo'shashganidan o'rnidan turolmay qoldi. Nazarida, butun kuchi oyoqlaridan yerga o'tib ketgan-u, bolakayga suyanib qolgandek, agar bagʻ b̄rida shu saritoy bo'lmasa, yerga o'tirib qolsa ham mumkindek edi. Va nihoyat, qariya o'zida qanday bir kuch topib, asta qaddini rostladiyu mutaassirlanganidan biron so'z ayto'lmay quchogʻ b̄ini yarim ochgancha unga qarab yuraverdi. Hamma ko'rib turibdi, boy buva undan bo'lak hech nimani ko'rmay, hatto oyogʻ b̄ining tagiga qarashni-da unutilib, unga quchoq ochib kelar, endi atakchechak yurishni o'rgangan kishiga o'xshar edi...

- Kimni ko'ryapman, Xudoyberdi?!

Beshikchi chidolmadi.

- Men, boy buva, o'zingiz bilgan Xudoyberdi, - deb (ichdan bosib kelgan xo'rsiniqlarni-da yutib) u tomon talpindi. - Shoshmang, men o'zim...

Uchib bordimi, ikki xatlashda yetib bordimi, lekin naynov terakdek bo'lib boy otaning bagʻ b̄rida turarkan, bu tabarruk mo'ysafidni dast ko'tarib olaqolgisi, yuzlarini yuzlariga suykab, oppoq soqolidan o'pgisi kelar, ammo o'sha yuzlarni issiq bir tomchilar yuvib tusha boshlab, lablari chekkasidan sho'rtang bir narsalar sizib kirar ediki, o'zini tuta olmaganidan uyalibmi, hadeb yuzini chetga burar, bu ahvolu bu alpozda u zotga qaray olmas edi. Ammo salom berib, tavof etmak ham qarz, ham farz.

Ozmuncha yaxshiliklar ko'rganmi bu odamdan!

- Esonmisiz, boy buva, Sizga uy ichimizdan salomlar obkeldim. Nevaralarizdan, kelinizdan...

- Bormisan, Xudoyberdi?! - dedi qariya to'liqib. - Ko'rsatganiga shukr, hazor-hazor shukr. Diyordagilar... - dediyu u yogʻ b̄ini ayto'lmadi.

Shusiz ham tushunarli edi. Beshikchi qariyaga qattiqroq chirmashdi:

- Omonmiz, omon. Tangriga ming qatla shukrlar, - dediyu qariyaning bagʻ b̄ridan bir olam rohat olayotgandek takrorladi. - Qaytib ko'rarmanmi, yaxshiliklaringizni qaytarmanmi, derdim, yetkazganga shukr. Qiyomatga qolmadi.

- Faqat shuning uchun... shundan shu yoqqa... dovon oshib keldingmi, Xudoyberdi? Boshingni tashvishlarga qo'yib?..

- Tashvish nima, boy buva! Qiyomat qarz edi, uzib qo'yay deb keldim. Yaxshi mujda uchun dovon nima ekan, Muzotdan oshsa arziydi.

Qariya boshini ko'tarib, uning ko'zlariga bemajol tikildi. Nigohi kemshiktoyga borib-kelardi.

U tushundi:

- Ha, boy buva, tomingizning tomirini topgandekmiz. Bu o'zini...

- Yo Qodir Olloh! Qizimizning daragini topib keldingmi, Xudoyberdi?! Bu... mehmon bolam, desam, o'z tomirim - nevaramizmi hali Xudoyberdi?! - Qariya azbaroyi dovdirab qolganidan shu turgan yerida cho'ka qolib, bir qo'li ila kemshiktoyni quchogʻ b̄iga tortgan, bu qo'li bilan Xudoyberdini uzun oyoqlaridan quchib olgan edi. Goh uning peshonasidan o'pib, goh buning tizzalariga yuzini bosar edi. - Oh, o'zim o'rgilay sizlardan. Xudoyimning muruvvati - marhamati shunchalar ulugʻ b̄ bo'larmi! Ko'zim ochiq ketmaydigan bo'ldi, Xudoyberdi! Men sendan u dunyo - bu dunyo roziman. Bergan tuzlarimga-da, qanotimda olib o'tirganlarimga-da, roziman. Ollohning karami keng. Sen tufayli men qariyaning boshini ko'kka yetkazdi. Endi omonatini bemalol topshirsam mumkin. Mahfuzamni Parvardigor o'zi asragan ekan, hifzi-himoyasiga olgan ekan. Oh-oh, maning saman toychoqqinam, qizalogs̄ b̄imning yodgorginasi.

Kemshiktoy Yodgor nomini eshitib, bir unga qarab, bir ko'zlarila yer chizardi.

Xudoyberdi o'rtaga tushishga majbur bo'ldi. Cho'nqa-yib, bolakayning avval yoqasini, so'ng yo'lakay O'shning bozoridan olishgan pistonli iroqi do'ppisini to'gʻ b̄riladi. Erkalab, yuzini siypab qo'ydi.

- Katta Eshontang... bizni boy buvamiz - mana shu kishim bo'ladilar. Etaklarini o'pib, tavof qil. Bu kunlarga yetgan bor, yetmagan bor... - deb Xudoyberdining o'zi boy otaning yo'l-yo'l banoras to'ning barini ko'ziga surtib o'parkan, beixtiyor ko'zlariga yosh quyilib keldi. Darvoqe, boshiga musibat tushib, bola-chaqasi ila ko'chada qolgan u kezlari, o'shanda mana shu muruvvatpesha odam jonlariga ora kirganini unutilib bo'ladimi! (O'shanda masjiddan qaytayotib ekanlar. Ahvolni anglab, qo'rgʻ b̄onlariga boshlab ketgan, tashqi hovlilaridan joy bergan edilar. Yana qancha - bir qish o'rniga uch qish qolib ketishib edi). Ana endi bu kishining o'sha tuz-namaklari, muruvvatlarini uzish, qaytarish vaqti yetganda, shuning uchun yetib kelganda u yigʻ b̄lamay kim yigʻ b̄lasin?! Bu zotning etaklarini u o'pmay kim o'psin?!

Faqat (uning niyati xolis ekanini) bu bolakay qaydan bilsin? Anavi kungi xarxashasi, "uyimga keta-manlari, bu kungi soqovligiyu mana bu biroz iymani, ham tumtayibgina turishlari - hamma-hammasi qaerga kelganiyu qanday ulugʻ B xonadonga mansubligini o'zi bilmaganidan-da. Agar shu Hizriday pok kimsa o'z buvasi ekanini bilsa edi... quchogʻ Biga otmasmi edi o'zini! Manavinday iymani, tumtayib turguncha.

Yo boy otaning salovatlarini bosib... jim qoldimi, bolakay?

- Salom berdingmi, o'zi? Bor, o'p. O'zingni tanit,- dedi u dalda berib, ham kuragidan sekin itarib. - Qara, barlaridan qanday bo'ylar ufurib turibdi. Jannat asli shu kishilarning oyoqlari ostida, bolam...

Ammo iymanchiq bolakay (tavba, Toshkanda bunday emasdi-ku, dovon oshib, oyogʻ B "sinib shunaqa bo'ldi-ko'ydi!) jurat etguncha boy buva barlarini tortib, bir qadam tisarilib ulgurgan edilar.

- Hay-hay, Xudoyberdi, bu nimasi? Sizlarda etak o'pmak, sajda etmak... hali-da rasmi? Undan ko'ra, turingiz, ichkariga kiringiz. Qaerlardan mozor bosib kelmabsiz, axir. Turingiz, - deb azza-bazza qo'ltigʻ Biga qo'l yubordilar. Dagʻ Blikdan tamomi holi qo'l - ajib taftli edi. Xudoyberdining etiyu vujudi shirin jimirlab kelib, o'zi turib ola qoldi.

- UZR, boy buva, Olloh azbaroyi shu kunlarga yetkazgani shukronasiga edi, boshqacha tushunmang. Diydor shukronasi edi.

- Olloh kechirsin, shirk gʻ B ulusi dilimizga-da, oralab kirgan bo'lsa, shayton vasvasasiga uchgan bo'lsak. Aziz mehmonim bo'lingiz. Bir otamlashayluk, diydorlashayluk. Qani, toy bola, o'zlari ham yursinlar.

U kemshiktoyni pinjiga tortib, quchib olgan, yuz-boshlarini silab, bir yerga yetar, quloqqinasining takkinasidan hidlab-o'pib, qistar edi.

Yo'lakay ariq bo'yida qo'l qovushtirib turgan Aka pochchani ko'rib, unga-da, mulozamatlar qildi:

- E, mehmon, togʻ B oshib, mozor bosib kelgan qadamlarizga xasanotlar. Keling-keling. Urinmay-la, yaxshi yetib keldingizlarmi? Dam gʻ B animat - diydor gʻ B animat. Qani, bir omonlashib qo'yaylik.

Ajab dunyo. Shunday basavlat odam jinhaloqdek chol oldida qo'l qovushtirib tazimda turar, ko'zlariga tik qarashga botina olmas, musulmonchilik andishasimi, nimadir yo'l qo'ymas edi. Aslida u hammas, bu hammas, cholning o'ziyu so'zidan yogʻ Bilib turgan mulo-yimligu halimlik, ham yuzlaridagi tiniq bir nur uni gangitib qo'lygan edi: tavba, odam qarib-munkillab ham shunchalik ko'hlik tortib ketuvi, yoqimtoy bo'lib qoluvim mumkin ekanmi? Qaydan shuncha nur yogʻ Bilyapti? Balqib chiqyapti?

Aka pochcha umrida birinchi marta qari odamga havasi kelib, suqlanib boqdi. Yo, Olloh, shunday qarimoq mumkin ekanmi? Qarib ham yoqimtoy bo'lib qolmoq mumkin ekanmi, tavba?!..

Yo zuvalasi o'zi shundoqmi, hammasi nasabdanmi?

- Qani, qani, Toshkanimizni nafasini olakelgan azizlar, biz sogʻ Bingan diyordan mujdalar kelturgan mehmonlar, o'tgaysiz. Mozor bosib kelgan qadamlarizga hasanotlar bo'lsin. Hoy, Darveshali, qaydasan, o'gʻ B lim. Ota yurtdan elchilar kepti-ku, axir. Tomirlarimiz kepti-ku, bizni so'roqlashib. Nima qip turibsan? Opchiqmaysanmi qora qo'chqorni?! Oyoqlari ostiga dumalatmaysanmi?!.

Darveshali deganlari:

- Hoziroq, boy ota, - deb ko'zdan chekilgan edi, ular hovuz bo'yiga qaratib solingan mehmonxonaga yetmaslaridan bir qo'chqorning dumbasiga arqon solib, surgaklab keldi va ko'z ochib yumguncha, Xudoyberdining hay-haylashiga qaramay... uni o'sha arqoni-la kullaklab, jonivorni bularning oyoqlari ostiga bo'gʻ B izlab yubordi. Kemshiktoy bunaqa urflarni endi ko'rishi edi, hayiqib cholning pinjiga tiqildi. Keyin oyogʻ Bidan puflanib shishirilayotgan qo'y ustiga to'dalashib kelib, cho'nqayishgan bolakayu qizaloqlarni ko'rib, o'ziga keldi.

Ammo Eshon buva uni bu yerda qoldirgisi kelmay qistagandan-qistar edi.

- Yuring, toy bola. Bu qo'y allaqachon jannatga kirib ketdi. Yo aytaymi, pufagini sizga olib qo'ysinlarmi? - Eshon buva shirin kulib qo'yib, qo'yning oyogʻ Bini ko'tarib puflayotgan Darveshaliga tayinla- di.- Hoy, qassob akasi, eshitdingiz-a, pufagini begona qilmaydigan bo'ldiz.

Darveshali qorni do'mbira bo'lib shishib, oyoqlari ko'tarilib borayotgan qo'yni surib, bosh silkidi:

- Bir ogʻ B iz so'ziz, boy buva...

- Ana, eshitdingiz-a, toy bola. Sizdan o'tib hech kim unga ega chiqolmaydi. Yurdik, yurdik.

Dasturxonlari tuzatilib, ustiga yengilgina doka tortilgan mehmonxonaga kirib borisharkan, boy buva o'sha-o'sha so'zamollik ila kimnidir chaqirdilar:

- Qani, baraka topgurlar, opkela qolinglar, bizga atalgan nematlaringizni.

Avval choy, ketidan ustiga jindek murch sepilib, bir qoshiq asal solingan shirchoy keldi. Oh-oh, uning mazasi! Asalining gurkirashi! Bu dunyoning shirchoyi bo'lmabdi! Xudoyberdi bunaqasini qachon ichganini eslolmadi.

Shu asnodda suhbat ham qovushib kelib, bir-birovlaridan ko'ngil so'rashga tushdilar. Ayniqsa, boy buvaning yonlariga chorlatib olgan "nevaralari ila tanishuvlari go'zal kechardi:

- Oling, toy bola, buni shirchoy deydilar, sovutmay oladilar. Jindek non to'gʻ B rab yuborsangiz, naq moy bo'lib ketadi, ha, oling.

Ana shunday bo'lsin. - Sal o'tib qaytarib so'raydilar. - Darvoqe, otiz nimaydi, toy bola?

Kemshiktoy shirchoyga non to'gʻ B rashdan to'xtab, Xudoyberdiga javdiradi: rostini aytay desa, bular o'tiripti, ikki birday odam.

Yolgʻ B onlashga tili bormayapti. Xudoyberdi shunday tushundi, bolakay ne deyarini bilmay undan izn kutardi. Shunga ham shukr. Bolaligiga borsa, nima qila olardi?

U qosh uchirib, bosh irgʻ B adi:

- Ayt, aytovur.

Ammo saritoy uning imosini o'z bilganiday tushungan edi:

- Akbarali, - dedi.

Hammalari ang-tang qolishdi. Xudoyberdi kosani qo'liga olgan joyda... Aka pochcha esa shirchoyni xo'rillatib ichishga tushgan kezda... U hatto qalqib ketdi va sherigiga "Odamning har narsa bo'lgani yaxshi!, deganday qaradi. Busiz ham Xudoyberdining dami ichiga tushib ketgan edi. "Shuncha pishiqlaganda... toza uyatga qoldirdi-ku, bu huvari! Gungurs devona bizni toza tushirdi-ku. Shularga ishonib... yo'lga chiqib yuribmizmi?

O'rta gap sigʻ B maydirgan (na oqlab bo'ladi o'zini, na tushuntirib!) jimlik cho'kkan edi. Xijolatdan Xudoyberdining burni uchlariga qadar ter bosdi-yov... Dunyo yuzini ko'rib, bunaqa o'ngʻ B aysizlikka tushmagan edi...

Eshon buva - eshon buva-da. Ularni bu o'ngʻ B aysiz ahvoldan o'zlari qutqardilar. U kishi hech kutilmaganda, kemshiktoyning yelkasiga qoqib, boshini siladilar:

- Ulugʻ B-ulugʻ B. Ko'p qutlugʻ B nom topishgan ekan. Ikki dunyo kam bo'lmagaysan, bolam. Niyatlariga yetishsin validu validalaring. Qani, menga ayt-chi, nechaga kirding?

Boy buvaning yoniga cho'kkancha kosa gardishini "o'ynab - silashga tushgan bolakay xaloskor amakilarini xijolatga tushirib qo'rganini sezibmi, boshini ko'tara qolmas, javobga ham shoshmas edi.

- Xo'sh, nechaga yetib, nechadan sakrab o'ttiz?

- Sakkizdan, - dedi bola axiyri zabon bitib.

Boy buva undan nazarini uzmay o'zicha xomcho'tlar edi:

- Ko'p yaxshi-ko'p yaxshi. Qaddi ulugʻ B, kabir yigit bo'lar ekansiz, Xudo xohlasa. Ol, bolam, shirchoyni sovutma. Noni ham moyga aylanib ketgandir.

O'zi shirchoydan ho'plab, bolani ham qistadi:

- Men seni suyib qoldim, ol, bolam, to'gʻ B riso'z ekansan. Oxirigacha shunday bo'l, ilohim. Ayt-chi, kimning o'gʻ B lisan?

- Adamni... - dedi bola endi-endi elakisha boshlab.

- Adang kim, taniymizmi? - dedi qariya allaqanday intiqib.

- Men ularni.. hech ko'rma...ganman, - dedi bola mayus tortib.

Boy buva uning kuraklarini siladi:

- Qaerga ketgan, ayang bilar? - Qariya yana nimagadir umid tutar edi.

- Bilishmaydi, meni... asrab olishgan...

- Asrab olishgan?..

Keng uyga allatovur jimlik cho'kkib, boy buva tomoq qirdi:

- Ayangni-chi, eslay olarsan?

Bolakay bir qarab qo'ydi-yu, ko'zi gʻ Biltillab, bosh chayqadi.

Hammalari mutaassirlanib jim qolishdi. Aka pochchaning-ku, qovogʻ B i tushib ketdi. Ora-chira yer ostidan sherigiga o'qrayib-o'qrayib qarab qo'yadi. Lekin u ham qani bosh ko'tara olsa: ich-etini yeb, tizzasini silab o'tiribdi.

Boy buva uzun tin olgan kabi ko'zlarini yumib, bir muddat jim qoldilar-u, so'ng qo'z gʻ B oldilar, boyagidan ham yumshab-halim tortib, bolani yelkasidan quchdilar.

- Yetimning baxti yettita, - dedilar suyib, - sen o'kinma, bolam. Avvalo, gʻ B hamxo'ri Xudo. U qo'llab tursa, bosh silaguvchi qo'l topilmay qolmas. - So'ng yelkasini silab, o'zlariga tortib qo'ydilar. - Bu amakilaring ham hafa qilishmagandir, axir? Ularga qanday ro'baro' bo'lding? - dedilar uzoqdan kelib.

- Eshigimizga devona kelib edi, - dedi bola endi yashirmay.

- Qanday devona? - dedilar u kishi Xudoyberdiga qarab olib.

Bola tushuntira olmay qiynaldi:

- Ka-at-ta... sap-sariq odam.

- Tilanibmi?

- Eshikma-eshik yurgan ekan, "haq-do'stini aytib...

- Darvesh ekan-da, So'fi Olloyordan o'qib borgan bo'lsa?! Yo qalandarmidi?

Bola yelkasini qisdi. Uning o'rniga ham Xudoyberdi javob qildi:

- Jindek biladi shekilli o'shani ham...

Qariya bu gapga etibor qilmay, boladan so'radi:

- Keyin-chi?

- Ergashib Kalkovuzni ko'prigigacha bordik.

- Xo'sh-xo'sh? - dedi qariya bir narsalarni anglagandek bo'lib.

- Keyin anhor bo'yiga o'tirib, so'ray ketdi.

- Nimanu?

- Musofir bormu, kimnikida turadu, dedi.

- Sizlar-chi? - dedi qariya titrana boshlab.

- Biznikida, dedim.

- So'ng?

- Sen kimusan, dedi. O'gʻ B illariman, dedim.

- La ilaha illalloh! - dedi qariya ichdan imon keltirib.- Xabarini chiqaraman, desa shu ekan-ku!- U gapiravur, gapiravur, degandek, im qoqib, bolaning yelkasini silar ekan, qo'llari titrashga tushgan edi.- Otingni... so'ramadimi?

- So'rab edi... Yodgor, dedim...

- Nega, bolam?

Bola ko'zlari ila yer suzdi:

- U bilan ketgim, ketib qolgim keldi.

- Voy, seni! Nega, axir? Kim xafa qila qolib edi?

- Ular urushganlari-urushgan edi...

Hammalari hayratda qolgan edilar.

- Ularning kim? - dedi boy buva. U hamon saritoyning kuraklariyu boshlarini silar edi.

- Asal opam... tergayverib... urishaverib qo'ymasdilar.

- Kim, asrab olgan opangmi? Yo aya dermiding?

Bola burnini tortib qo'ydi:

- Aya, deb ham ko'rdim, opa, deb ham... Qargʻ B haganlari qargʻ B hagan... edi.

- Ha-a, - dedi qariya bolaning holiga tushunib. Uzoq jim qolib, yelkasiga qoqdi: - Musofirlar-chi, Yodgor-chi, kim edi sizlarga?

- Ular boloxonamizda turishardi. Togʻ B ham ko'chirib kelgandilar.

Qariya shoshib qoldi:

- Shoshma, shoshma, tushuntiribroq ayt. Qaysi togʻ B hang? Qaerdan ko'chirib kelgan edi? - dedi boy buva bir narsalarni anglab yetganday, yetayotgandek. Qolaversa, yana boyagidek uning kuraklarini silab-siyपालashga tushgan edi.

- Men bilmayman, Chaman togʻ B ham biladilar, - dedi bola.

- Ular-chi, Yodgorni o'zi, opasi-chi? Darvesh borganda qaerda edilar? - negadir ijiklab so'rashga tushib ketgandi qariya.

- Yodgorning ayasimi, bannisada edilar.

Xudoyberdilar hech narsa deyoqmay qolishgan, savol-javobni yolgb Biz boy buva qilar edilar.

- Valloh-valloh! Ko'pdan berimi? Bola boyaqish-chi?

- Kim, Yodgorni? Sogb Binib ketganda obborishmasa, boshqa oborishmasdi. Chiqarishmasdi uydin.

Boy buva ichi olovga to'lib borayotgandek bir holatga tushib, xo'rsindi.

- Yo Olloh! - dedi ichi sidirilib. Bir muddat boyagidek, balki undan ko'proqdir, ko'zlarini yumib tek qoldi. So'ng: "Shundaymidi, shunday kunlarga qolishib edimi? deb shivirlarkan, bolani qayta-qayta bagb Hriga tortib, peshonasidan o'par, nima qilayotganini o'zi uncha anglab yetmasdi. Axiyri o'ziga kelib, bolaning ko'zlariga qaradi:

- Darvesh-chi, uzoq-uzoqlarga olib ketsam... ketasanmi, dedimi?

Bola bashoratchi cholning yuzlariga termulib qolgan, qaerdan bila qolganini anglab yetolmas edi. U devonaning gaplarini so'zmaso'z aytayotgan edi.

- Ha, - dedi bola axiyri hech narsani yashir- may. - Tangritogb Hga ketsanmu... buvanglarni yurtiga, dedi.

Cholning vujudi titranib kelib, o'zi bemajolgina orqasiga suyaldi. Suyaldi bir burda tortib, par yostiqa botdi-qoldi. Ammo xayol opqochib, qisq tort-gan ko'zlarini bolakaydan uzmas, uzolmas edi. Unga allatovur bir umid-la boqardi. Nihoyat, zo'r-bazo'r yutindi:

- O'shal Yodgortoyning ayasini ko'r... ko'rganmisan, o'zing?

- Nega ko'rmay?! Boloxonada kattakon rasmlari turar edi, - dedi jonlanib. - O'zlari yaqinda tuzalib chiqadigan edilar.

- Tuzalib chiqadigan? Shunday degan tilingga shakar sening, bolam. Shu vaqtgacha qaerda eding?! Avvalida aytmaysanmi shuni!

Qanday mujdalar olib kelganingni bilasanmi, bolam! - qariya uni qayta bagb Hriga tortib ulgurgan, peshonasiyu yuz-ko'zlaridan o'pib tolmasdi. Ora-orakay Ollohga hamdlar, shukronalar aytib tinmasdi.

- Yo, qodir Olloh, chindan buyuksan, har narsaga qodirsan, chevarsan. Shularni sababchi etib, jigarlarimdan xabar bermoqdamisan, mujdalar yetkazmoqdamisan? O'zing naqadar rahimu rahmonsan. G'amxo'ru mehribonlarning mehribonisan, - derdiyu bolani bagb Hridan bo'shatmay yoshli ko'zlarini yuzlariga suykar, boshlaridan iskananib, peshonalaridan o'par, bu dunyoniyu qayda o'tirganlarini unutmagan edi. So'ng o'ziga kelib, yana alqay ketdi:

- Yodgortoyning ayasi degan tillaringdan seni!.. Nima deyayotganingni, qanday ulugb H xabar keltirganingni bilasanmi, bolam?!

Biz ota yurtga yo'llagan, Olloh panohiga yuborgan qizimiz, tirnoqqinamiz tirik ekan! Hatto Yodgorchasi, toychogb H bor ekan! Tillaringga shakar sening! Ularni ko'rgan mana shu qora ko'zlaringdan seni. So'zlarini eshitgan mana bu jimit quloqlaringdan o'zim o'rgilay. Nevaraginamiz bilan bir hovlilarda chopqillashib o'ynagan oyoqlaringning gardi bo'lay, bo'tam. Yurtga osh tortib, ziyofatlar berishga arziydigan xabar keltiribsan, o'gb Hlim! Barchangizning qadamlaringizga xasanot.

U avval qisinib, so'ng lol qolib o'tirgan Aka pochchayu Xudoyberdilarga o'girilib, minnatdor-minnatdor tikilarkan:

- Sizlarga-da, hasanot. Ollohning rahmatlari bo'lsin, - deb alqardi. - Sizlar qisinmang, xonadonimga suyunchiligb H opkelasiz-u, xijolatga botasizmi?! Avval-boshda niyatingiz toza bo'lgan, ulugb H bo'lganki, mana, Olloh ham sizni uyaltirmadi. Qaytaga yuzlaringizni yorugb H etib turibdi. Tangri shunday buyuk, pok niyatlarni yuzaga chiqarib, yuzni yorugb H etguvchi zot. Unga hamdu sanolar bo'lsin! Subhonallohi va bihamdih, subhonallohil aziym.

Eshon buva kutilmaganda deraza tavaqalarini ochib, tashqariga ovoz berdilar:

- Hoy, kim bor? Darveshali?

- Labbay, boy ota. - Katta kadi nok tagida qo'y so'yayotgan boyagi norgb H ul yigit qo'lidagi pichoqni terisi shilini, oyogb Hidan ayrishoxga ilinishga taxt bo'layozgan "pilla qo'y (jonivor bir enli yogb H bogb H lab ketibdi o'ziyam!) yoniga tashlab, o'zi ariqdan xatladi.

Ammo Eshon buva (odam chaqirishga chaqirib qo'yib!) hayajonini ovoza qilishdan tiyilgan edi. Mehmonlardan istihola qildimi yo fikridan qaytdimi, qo'l silkidi:

- Mayli, biz o'zimiz... o'zimiz kira qolamiz. Toy bolam bilan, xushxabar opkelgan elchi bolam bilan. Axir otin buvingiz bor u yoqda, ichkaridagilar bor, mujdaga ilhaq o'tirganlar bor. Yuring, toy bola. Amakilar aybga buyurmay o'tirib turishadi. Biz ichkari kirib chiqqaymiz. U yoqdagi sandiqlarni ochtiraylik-chi, otin buvimizning bizga atagan nimalari bor ekan!- deb mehmon bolani yetaklab, avval hovliga tushishdi, so'ng ariq ustidagi taxta ko'prikchadan o'tib, ichkiri hovliga qarab yurdilar. Katta ariq ham xuddi o'sha joyda devor tagidan o'tib, ichkariga kirib ketgan, u yoqda ikki chetini sapsar gullar tutgan suv yoqalab borgan yo'lka ko'rinar, u hovlining o'rtasidagi hovuz-shiyponni aylanib o'tib, yana bir taxta ko'prikka taqalar, u yogb H gulini qiygub H os to'kib, xumchazirak taqib yuborgan gilozzor ortida ichkari uylarning derazalarigina ko'zga chalinir edi. Ichkari shunaqa orasta, gulu gulzorlarga, satta gilozzorga ko'milgan, u yoqdan tiq etgan tovush kelmas edi.

Lekin oradan bir muddat o'tib, Eshon buva toy bola bilan boshlashib, o'sha taxta ko'prikdan ham o'tib (uning ikki chekkasiga bejirim panjara o'rnatilib, havorangga bo'yab qo'yilgan, shunaqa ko'prikchalar har yer-har yerda - shiyponga boriladigan, oshxonaga o'tiladigan joylarda ham ko'rinar) ojizalar saltanati - otin buvining qaramoqlariga kirib borishdiyu ichkari bamisoli beshiksolar tusini olib, ayollarning hay-huvlariyu bola-baqrallarining qiy-chuvlari bilan to'ldi. Ular sochqi terarmidilar yo kelinga tishlatib olingan nonni opqocharmidilar - dafatan anglash qiyin edi. Ammo sochqi sochilayotgani aniq, duolar qilinayotgani aniq. Boyagi halinchak uchayotgan qizalogb H bolakaylar o'sha yoqqa yugurib ketishgan, goh bir yerga yopirilib, bir nimalar terishar, goh bir-birlariga ko'z-ko'z qilib, sakrab-quvnashar edi. Eshon buva aytmoqchi, otinoyining sandiqlari ochilib, soch-qi qutilari bo'shayotir edi.

Toy bola esa qanday sarupolar bilan siylandi ekan?!

Bu yoqda Xudoyberdi bilan Aka pochcha ichlari tushib, juda hayallab ketishdi-ku, deganday hovliga mo'ralashar, bir ko'ngillari qo'yni nokka ilib, ichak-chavogb H ini togb H oraga olayotgan qassob yigitning oldiga chiqqilari, u yoq-bu yoqdan hangomalashgilari kelardi-yu, izn berguvchi yo'qligidan qimiray olishmasdi. Lekin, axiyri yaxshi chiqdi, a, uyaladigan ish bo'lmadi, a, degandek bir-birlariga jilmayib qo'yishar, butun fikru zikrilar ichkarida edi.

Bu orada xo'ppasemiz oshpaz oxun kirib, choyni yangilab ketdi. Orqasidan chinni likopchalarda jimitday qoshiqchasi ila (oh-oh, shunaqayam gurkiraydimi hidi!) nima deng - no'xatsho'rak kiritishdi! Aka pochcha umri bino bo'lib bunaqa mazali (ilig-a, ilik!) taom yemagan edi! Ustida yogb H i-dumbalari bilan yana! Tavba, endigina nokka osilib, hali bo'laklab ulgurilmagan, boya oyoqlari ostiga so'yilgan qo'yning dumbasi qachon qozonga tushib ulguribdi ekan? Yoki bu boshqa qo'ydir. Darvoqe, boy otaning qo'ylari bittami, so'yib bo'lishguncha qozon osolmay o'tirishsa.

Shu tob bolalarning shod qiyiriqlari yangray ketdi:

- Pufak, pufak! Mehmon bolaga pufak!..

Xudoyberdi o'girilib, ichkari ostonasidan xatlab o'tgan o'rtadagi mehmon bolaga ko'zi tushdiyu g'halati bo'lib ketdi. Uni qarang, kim kelyapti?! Chindan ham boy ota bilan yetaklashib kim deng - og'v'izi qulog'v'ida to'y bola, ha-ha, zar to'nga o'ralib, boshiga yaltir-yultir pistonli do'ppi, uning ustidan oq-oppoq salla o'ragan, peshini esa qulog'v'ida yonidan tushirib (voh, shahzoda bo'p ketibdi-ku, bizning kemshiktoy!) naq peshonasiga jig'v'ida - ukpar taqqan toy bola kelar edi. Oyog'v'ida poshnali jajji qizil etik. Shahzodadan qayeri kam?!

Eng orqada esa ikki xizmatkor qo'shqo'llab sarupo ko'tarishgancha shu yoqqa kelishar edi. Ularga atalgani shekilli?!

- Ie, hali bizni uyaltirib... nima qilmoqchilar?- deb yubordi Aka pochcha.

- Mening qo'rqqanlarimni ayting, Eshon buvadan uyalib qolamanmi deb!.. - deya yengil tin oldi Xudoyberdi. - Bu yog'v'ini Olloh o'nglab qo'yganini, Yodgor bo'lmasayam, o'sha hovlidan bo'pchiqqanini ko'ring! Chindan Olloh o'zi chevar ekan-a!

- Nimasini aytasan. Adashtirsa, hozir kim edik?! Bir qop loymi?..

- Ilohim, bundan keyin ham O'zi o'nglasin, uyalgulik qilmasin, - dedi shivirlab Xudoyberdi.

Shu tob zinada oyoq tovushlari eshitilib, ular shoshib o'rinlaridan qo'zgv'bolishdi.

Ostonada zar to'ning yoqalariga qadalgan pistonlariyu yaltir-yulturlari ko'zni olgudek, sallasining jig'v'idasidagi upkari sepkil yuzini biram ochib yuborgan toy bola ko'rinib, beshikchi unga qarab yurdi.

- Voy, saritoy "shumtakaey, shu kunlarni orzulab, o'sha yolgv'bonni to'qigan edingmi? Balo ekansan-ku! Shahzoda bo'p ketibsan-ku, - deb yubordi u. Keyin ikki qadam bosib, quchoq ochgancha cho'nqaydi:

- Kel-kel, o'sha yarqiragan peshonangdan bir o'pay,- dedi intiqib.

O'sha Dovqurlardan Biri

I

- Voh, uni qara, Maqsud! Zilolligiynu tiniqligini ko'r! - Olim akam ko'prikdan o'tiboq mashinasini yo'l chekkasiga burdi. - Bu suvda yuzni chayib, to'yib-to'yib ichmaslik, tavof qilmaslik gunoh...

U sog'v'bingan narsasiga yetishgan kishidek, ko'prik tagidan qaynab-charx urib chiqayotgan bir tegirmon suvga suqlanib qolgan edi. Anhor esa yoqasidagi maysayu yalpizlarni o'pib, yana chappor o'rib oqib yotardi.

- Qaerlardan o'tib kelyapti, bu jonivor, bilasanmi, Maqsud?

- Naq Beshog'v'bochdan keladi. Ko'lning ichi bilan o'tib, Semonko'prikning tagi bilan chiqib, shunaqasi Chilonzoru Qatortol oralab...

- Qoyil, bilarkansan. Chindan pakana parisan-da, o'zing, - deya akam anhor bo'yiga cho'nqayib, yuzini pishib-pishib chaymoqqa tushdi. - Oh-oh-oh, hech yerda topilmaydigan anhorimiz bor-da.- So'ng yarim o'girilib, im qoqdi: go'yo kelmaysanmi, sog'v'binmadingmi, demoqchi bo'lardi.

Uning kayfiyati menga ham yuqib, yaqin bordim-da, cho'nqayib ko'zyoshdan ham tiniq suvni hovuchimga olib turib qoldim.

Jonivor hovuchimda kilkillab turar, nafsim qilqillayaptimi, suvni ajrata olmasdim.

- Bunaqasi jannatlarda bo'ladi, xolos. Qonib-qonib ich, hali o'rmiga yuz-ming dumalab ham topolmaysan, - deya Olim akam hovuchlab-hovuchlab icha ketdi.

- Unaqa demang. Hammayoq buzilib ketsa ham, bu anhorlar qoladi, - dedim men. Rostini aytsam, ichimga bir g'v'bashlik o'rmalab kirgan-u, uni o'zim ham tan olgim kelmasdi.

- Heh, sodda-beg'v'hubor ukam-a! - deb yuzini artmayin ham maysa ustiga uzanib oldi akam. O'ziga qolsa, shu sharqiroq suv bo'yida, mana shu tol soyasida yonboshlagisi bor. Keyin ko'chaning ikki yoqasidagi o'z holicha g'v'buvg'v'bon gullay boshlagan yetim oluchayu noklarga parishonhol tikilib, qult yutindi. Ko'zlari namlanib keldi.

- Shunday guzargayam... it tegibdi, Maqsud, - dedi burnini alamli jiyirib. Lekin o'zi ko'zlarimga qaray olmasdi.

Men hovuchimdagi suvni to'kib, u aytgan tomonga o'girildim. Tuprog'v'bi o'ynab ulgurmagan ko'chaning ikki betidagi tomlari ochib tashlanib, eshigu derazalari allaqachon ko'chirib ketilgan hovli-joylar bir g'v'barib ko'rinar edi. Kimsasiz hovli-bog'v'blarda kesilmay qolgan mevalarning o'z holicha qiygv'bos gullab yotuvi undan-da g'v'halati edi. Asalarilar ustida ming g'v'buvg'v'bon o'ynamasin, qarqunoqlar qiv-qivlab, qushlar uchib-qo'nmasin, ko'zni quvnatolmasdi. Guzar balo oralab, odamlari shosha-pisha tashlab ketgan bir mazgilni eslatar, anhor yoqasidagi choyxonalar bo'm-bo'sh, supalar huvillab yotar, maktab hovlisi suv quygandek jimjit edi. Kattakon darvozasi valongor qolgan, bir tavaqasi qulab tushib, ko'prik ustida yotar, sinfxonalar ham buzib ketila boshlagan edi. Hov, nariroqdagi- na - Mastuba opaning do'koni oldida allaqanday qa-lang'v'bi-qasang'v'bi odamlarning qorasi ko'rinadi. Biz bir mahallar - hayitlarda Mirto'xa amakining choyxonasi oldidagi sharqiroq ariq bo'yiga cho'nqayib, mitti ruh qoshiqchalar ila bu olamning eng xushxo'r tao- mi - no'hotsho'ragimizni paqqos tushirib, jajji likopchalarni yalab qo'yadigan joyimizda endi o'sha kelgindilar uchta-uchta bo'lib, Mastuba opaning do'konidan opchiqqan narsalarini maydalashar edi. Nechuk, Mirto'xta amaki ko'rmay qoptilar? Ko'rsalar, uzun supurgilarini olib, quvib qolardilar-ku. Ha, ana, o'zlari:

- Endi senlar qoluvdilaring, bu yerlarni harom qilmagan! Tanglaylaringni shu bilan ko'targanmi, nima balo, shu do'kongta tanda qo'yvoldilaring? Qurgan imorating bilan qo'shmozor bo'lgurlar. - Mirto'xta amaki - jimit boboy sannay-sannay, vaysay-vaysay u "chaqirilmagan mehmonlarni quvib yuborib, supurgilarini taxtasori tagiga tashlagancha ichkari kirib ketdilar, do'kon oldiga boshqa "laylak tumshuq mashina kelib to'xtab, ichidan boshqalari tushib kelishdi. Mastuba opaning do'koni xuddi chanqovbosdi bir chashmayu ularning boshqa boradigan yerlari yo'qdek edi...

- Guzar ham xarob bo'пти, - deya Olim akam qo'lini qoqib, o'rnidan turdi. - Ketdik.

Shusiz ham tushunarli narsani aytib o'tirganidan og'v'brinib, betiga qarab edim, u battar achitib, chaqib oldi:

- Bular tumshug'v'hini tiqmagan shu yer qoluvdi! Shunday deb yozib ko'r-chi, bosarmikan gazetang?

Alamimni qult yutib, men ham turdim. Indamay borib, mashinaning orqa o'rindig'v'biga cho'kdin-da, eshigini qars yopdim.

Ichimda esa, bir olam g'v'halayon kechardi: siz o'z akalaringizning qarorgohidan mashvaratlar xabarini berib yurgan chog'v'v'ida shu aqlingiz qaerda edi?! Hammani kallavaram "qo'y hisoblaysiz!.. Pichoqni avval o'zingga ur, og'v'brimasa birovg'a...

U qishloq yo'lga hecham yarashmagani yilt yangi (hov yong'v'boq tagida, kimsasiz choyxonannig supalariaro quvalashib uchib yurgan bir juft qorashaqshaq qanotidan ham qoraroq) mashinasiga kelib o'tirib, kaftdek old oynasidan mahzun qarab qo'ydi:

- Kechirasan, pakana pari, yarangni yangilab qo'ygan bo'lsam...

Shu bir og'v'biz so'zi bilan... voh, ginalarimni par-qudek to'zitib yuborsa-ya.

- Ketdik, hov anavi tut tagida to'xtab o'taylik, - dedim, - zora Mirto'xta amaki bilsa, qaytdimikan, yo'qmi?..

- Kim?

- Qidirgan kishimiz-da.

- Ha-a,- dedi u eslab va bir xijolatga tushib.- Otto togv Bami?

O'z navbatida men hayratga tushdim:

- Kim, sutchimi?

Akam bir tur o'zgardi: aytsa, xuddi sirni ochib qo'yadigandek o'zini go'llikka solib, mashinasiga chal-gv Bidi:

- Rost aytasan, mashinani o'sha yerga tashlab keta qolamiz. Chang jonivorning ich-ichigacha kirib bormasin.

- Ixtiyoringiz, - dedim men.

- U yogv Bi oz qoldi shekilli?- dedi u tusmollab.- Tepadan o'tsak, bas-da!

- Yo'q, - dedim men, - Umarjon akaning tepasini oshmayoq shunday mezananing pastida.

- Esladim. Anavi devor bilan o'ralgan yolgv Biz qo'rgv Bonni aytasan-da. Bilaman, bilaman, - dedi u mashina oynasini artishga chalgv Bilib.

U chalgv Bigan sari mening savol xaltam ochilib borar, boyagi gapi hech qulogv Bim ostidan ketmasdi. "Otto togv Basi nimasi ekan, o'zining bir chiroyli ismi-chi?. So'rashga esa tortinardim.

U arzasiga o't oldirib, ohista yo'lga burdi-da:

- Qara-ya, - dedi, - shunday mashhur odam umrining oxirida qaerga kelib makon tutibdi!

- Obkash ko'tarib yurishini aytasizmi? - dedim men.

- Darveshnamo turishi-da, - dedi u.

- Balki shu yoshga yetgach, hamma ham tinchini ko'zlab qolar?

- Hamma o'z yo'lga, lekin u bo'lak toifadan. Sen bilmaysan-da.

- Qanday? - dedim men ichim qurib.

- Hov, - dedi akam bir gv Bhalati entikib, - uning-dek bo'lish hammaga nasib etsin-chi! Etmaydi! - U ichimga olov yoqib, qarab qo'ydi. - Bilasanmi, ilgari uni kimga mengzashardi? O'sha eng gullagan chogv Blari?

- Kimga? - dedim hayratim ortib. Ichimda esa bir olam ishtiboh! O'shanday odam... shuncha shuhrati bilan hammasiga etak silkib, manavinday sutchilik qilib yurarkanmi? Qayoqdagi gapni aytadi?

- Chinakam ritsarlarga! Bo'ladi-ku, o'tda yonmas, suvda cho'kmas mard kishilar! O'shalardan ham o'tar edi.

Olim akam meni mahliyo etib qo'yib, endi o'zi betimga qarab ham qo'ymas, qora tulporini ohista haydab borar edi. Men esam uning ko'zlariga, ko'z qorachiqlariga bir qur qarashga zor-intizorman. Opqoch-yaptimi, chindanmi - bilgim keladiki, u yogv Bi yo'q. O'zi esa, kamiga davom etardi:

- Eng qaltis ishlarni shunga topshirishadi ekan! Shugina o'rinlatib kelarkan!

- Shunaqa, chapanisi ekanmi?!

- Chapaniyam gapmi!

- Etik yechmay suv kechgich, deng?

- Bo'ladi-ku, yerga ursa osmonga sapchigich, te- girmondan ham butun chiqquvchilar! Tasavvur etyapsanmi?

- Etdim. Dovqurning ham dovquri!

- O'lma! Botur deydilar bizda. Ular esa ritsar! - dedi u viqor bilan. - Bekorga Otto togv Ba derdilarmi?!

- Otto togv Basi nimasi? - dedim o'sha kaftdek cho'zinchoq bejirim ko'zgudagi "ko'zlaridan nigohimni uzmay.

U jindek qizardi, ha-ha, oq yuzining bir chekkasiga bilinar-bilinmas qizillik yugurib, o'sha ko'zgudan xijolatli qarab qo'ydi. Ammo javobdan qochishga bahonai sabab topolmadi:

- Avvalo, nima emas, kim! - dedi o'lganining kundan. - Ottodan ham o'tadi deganlari! Bo'lgan-ku, shunaqasi: Otto Skortseni deganlari. Eshitganmisan?

- Qaysi, anavi Mussolinini opqochganmi?

- Bizdan ham bitta o'shanaqasi chiqqan ekan.

- Nima, u ham shunga o'xshash topshiriqni... ado etganmi? - "Kimni.. opqochgan? demoqchi bo'lardim-u, tilimning uchidagi so'zni aytolmasdim. Shu tob qay bir pagv Ba bulut oftob ustidan suzib o'ta boshlab, soyai rahmatini yerga tashladiyu Olim akamning yuzidan ham nur qochdi. O'zi tulporini bir chetga olib, to'xtatishga chalgv Bidi.

Biz choyxona oldidagi ulkan tut tagiga kelib to'xtagan edik.

- Buni, ochigv Bi, hech kim bilmaydi. Taxmin qilishadi, xolos, - dedi kalta qilib. - Qolaversa, bu davlat siri. Tushunding? - deb u mashinasidan tusha boshladi.

- Tushundim, - dedim men ham. Lekin hamma gapni tushunib turgan bo'lsam-da, ichimda mingta ishtiboh charx urar, ularning bironasiga tayinli javob topolmasdim.

- Mavrudi kelib, bari ochiladi, - dedi u pastga tushib olib, - albatta, ellik yo yuz yil o'tib, lekin unda dunyo ikki aylanib kelgan, sutchi ham, boshqasi ham ko'karib chiqqan bo'ladi. Bu dunyo shunaqa, ukam. Har dovqurlargayam bo'lishganmas. Bo'lishsa, shu odam topardi qadr.

Voh! Shuning uchun baridan etak silkib, sutchilik qilib yurgan ekanmi?! Uy-joyidanam, yaqinlaridanam kechib?

Astafirulloh! Shu xayol kechguncha vaqt ichida sutchi nazarimda Ulugv B xokisor odamdan - mayda, o'tkinchi bir kimsaga aylanib ulgargan, ko'nglim undan irib bormoqda edi. Nahot bor-yo'gv Bi bir jizzaki kimsa bo'lsa? Biz uni kim deb, salkam avliyo sanab yursagu...

- Dovqurligi shumi? - dedim hafsalam pir bo'lib.

Olim akam yuzimga qarab turib, ichimdan o'tayotgan narsani anglab qoldi shekilli, nogahon yumshadi:

- Balki biz adashayotgandirmiz. Axir, birovdan o'tganini biroq qaerdan biladi?

- Shunisi ham bor...

Axir hazilmi, hammaning nazdida kim bo'lib yurgan odam... bir kun kelib, manavinday tarki dunyo etib, bir kulbaga kirib olsa?!

Olim akam meni bu kabi o'ylardan chalgv Bitish uchunmi, ko'cha o'rtasiga tushib, bir aylandi:

- Voy-bo', - dedi u atrofga alanglab, - guzarning guzarligi qolmabdi-ku. Qani uning gurillagan davrlari?

- Bu-chi? - dedim men atay, sut bozorning qavatida yolgv Biz omon qolgan do'kon bilan choyxonaga imo etib.

- Bu ham besh kunlik omonat-da, keyin nima qoladi? Guzarga avtobus ham kelay qo'ygannish-ku, to'gv Brimi? - dedi u.

- Ancha bo'ldi, pastki yo'l bilan Qangb ʻBliga o'tib ketyapti. Bir obod bo'lgan joyning bir xarob bo'lishi shu bo'lsa kerak-da, - dedim bir enlik et tashlab.

Olim akam chetga chirt tuprindi. Biz ilgari baqqolchilik rastalari ro'baro'sida mahzun turar edik. Hozir u rastalar o'rnida na qurutchi Olim otaning kursisiyu na yoymachilarning himarilgan xaltalari ko'rinar edi.

Shu tob Mirto'xta amakining o'zi choyxonasidan sannab chiqib kela boshladi:

- Hoy, Mastu, uyingang kuymagur Mastu, bularingga nariroq bor, desang tilginang qirqiladimi? He do'koningga o't ketsin, shularni sugb ʻBorguncha. Ikki dunyong kuyib ketdi-ku, bu savdongdan.

U jaholat ichida bizni ko'rmagan ekanmi yo ko'rgan bo'lsa ham, bu do'kaylar eshitib qo'ysin, deb shangb ʻBillayotgan ekanmi, ko'chaga chiqqan joyida hovridan tushib, to'ngb ʻBillab qo'ydi:

- Odamnig har narsa bo'lgani yaxshi: shusiz kuning o'tmay qolyaptimi?! - So'ng qo'llarini qoqib ko'rishgani kela boshladi.- Ie-ie, voy, eshon bollar-ey. Nechuk-nechuk, bu puturi ko'tarilgan guzarlarga kirib yuribsizlar?

- Bir tanishimizni so'roqlab-da, ota, - dedi akam gapning uchini ochib, - qarasak, hammayoqning itirqinini chiqarib tashlashibdi. Kim ko'chgan, kim qol- gan - tasmollabam bilib bo'lmay qopti.

- Nimasini aytasiz, o'gb ʻBlim, itirqinam gapmi, to'zitdi-ku juda. Shunday joylar xarob bo'ldi-ya, voy-voy-voy, uvoli tutsin-a, uvoli. - U mushtdek boshini sarak-sarak qilganча yanogb ʻBidan ham kichkina tortib ketgan dahanini qoq barmoqlari bilan tutamlab-silar edi. - Kimni aytyapsiz, balki tanirman?

Men tushuntirdim:

- Anuv Umarjon akaning tepasidagi mezananing tagida turadigan kishi-chi, sutchi...

- Ha, avliyami? - dedi amaki gb ʻBo'ldirab, ammo uni suyib-yoqtirishi yuzidanoq ko'rinib turardi.

- Qanday avliya? - dedi akam tushunolmay.

Mirto'xta amaki tishsiz milklarini ko'rsatib, sassiz kuldi:

- Oxiratini deb, bu dunyosiga etak silkib qo'yg'an odamni avliyo demay, kim deymiz?!

- E-ha, shundaymi? - dedi akam.

- Hammayam etak silkiy olsin-chi! Olmaydi, nagaki dunyo shirin, - dedi u bir gb ʻBalati bosh irgb ʻHab. - Ilhom qori bir yo'la hammasidan kechdi.

- Qori? Bir yo'la?.. - Akam hech narsadan hech narsa yo'q, qalqib ketgan edi.

- Halloq-halloq. Xaloq deng, eshon bola, - de- di u.

Akam qaytarib, o'ziga keldi. Mirto'xta amaki davom etardilar:

- Iymoni butun ekan, kechdi-qo'ydi-ya, hammasidan. Mana, biz ham o'tiribmiz-da, choyxonamizdan ajrasak, bor budimizdan ayrilib qoladigandek...

- Bugun ko'rinmadilarmi? - dedim gap orasida.

- Avliyami? Har kuniyam asrga qolmay qaytadi. Peshinni Kamolondami, Novzadami o'qib, asrni, albatta, tahoratni yangilab, uyida o'qiydi. Uning bu tarz - faqir kishi panada yurishi ham shundan. Darvoqe, topib bora olarmikansizlar, yo bola qo'shaymi?

- Tepako'cha surilib ketmagan bo'lsayoq topib olamiz, - dedim.

Mirto'xta amaki "hovlab, qo'l silkidi:

- Ho-ov, eshon bolalarim-a, tepa qoptimi-ya?

- Mezanasi-chi, uniyam olib tashlashmagandir?..

- Turibdi so'ppayib, o'lgan otni ustixoniday... Hamma fayz o'sha tepaminan ekan.

- Demak, togb ʻBa ham ko'ch-ko'ronlarini ko'tarib... - tasmolladi akam.

- Kim, avliyami? Qayoqda! Hech yoqqa jilmay, qum-toshdek o'tiribdi.

- Yo'gb ʻB-e?! - dedik baravariga.

- Barakalla o'shanga! - dedi amaki gb ʻBo'ldirab, ham ko'tarilib. - Ko'kragida yoli borakan! Boshqalar miq etmay ko'chib-ko'chib ketganida, u qo'zgb ʻBolibam qo'ymadi! Qani, hamma uningdek bo'lolganida! Qo'zgb ʻBotib bo'larmidi bu xalqni bu jannat joylardan? Hammalari har yoqqa hijrat etib bo'lgan ekan. So'nggisi shu ekan!

Men Mirto'xta amakining gaplaridan ang-tang qolgan edim. Kimni aytyapti bu odam? Nahot Sul-tonmurod akamni, u bilan bogb ʻBliq tarixlarni biladi? O'shalarning so'nggisi, demoqchimi?

Yalt etib Olim akamning yuziga qarasam... u ham amakining gaplaridan lolu hayratda turibdi!

- Chindan-a? O'sha necha bor "tegrmonga tushib chiqqan odam-a? Zada bo'lmabdimi? - dedi, so'ng amakining javobini ham kutmay bosh to'lgb ʻBadi, - yo'q, esini yeb qo'yibdi, togb ʻBa! Bu o't, bu olov bilan o'ynashib bo'larkanmi?!

Mirto'xta amaki boshini orqaga tashlab-tashlab kuldi:

- Xeh, eshon bola-ya, eshon bola! U siz bilgan II-hommas hozir.- Amaki kulganida tirqirab chiqqan ko'zyoshlarini dam kaftiga, dam yengiga artib tinchidi-da, aftimizga qaramayin ham: - Qani endi hamma ham u qo'rqan narsadan qo'rqib, qo'rqmaganidan qo'rqmay qo'ya qolsa! Olam guliston bo'lar edi-ku! - dedi.

- Yo'gb ʻB-e, - akam qansharini hardamxayol siladi.

- Shu odamlarning duosidan qiyomat qo'pmay turibdi-da, ukam, O'tsangiz, kech kirmay o'tib kela qo-linglar. Asrdan keyin topa olmay qolasizlarmi, uy buzuvchilar oldiga aylanib ketadigan odati bor. Mashinangiz shu yerda qolaversin. O'zim ko'z-quloq bo'lib turaman.

Mirto'xta amaki shirin gb ʻBo'ldirab (uning ovozi negadir qulogb ʻBimga yoqib qolgan edi, tavba) sidqidil duo qildi va biz jildik.

II

Daydi yomgb ʻBir shivalab o'tib, ko'cha tuprogb ʻBini chakichlab ketgan katta ko'chadan pastga qarab borib, o'ngga burildik. Guzar ham baharnav ekan. Qayrilishdan o'tib, anhor bo'yiga chiqdigu qayoqqa yurarimizni bilmay qoldik. Hammayoq kavlab-surib tashlangan, na Tuvakko'chaning ko'chaligi, na paxsa devorli qo'rgb ʻBonlarning qo'rgb ʻBonligi qolgan edi. Anhor yoqasidagi o'rikzor-ku, dovuchchasi qinidan chiqmayoq kundakovga tushibdi. Qanchasi simarqon bilan sugb ʻBuriib, yetimxona devori tagiga olib borib tashlangan edi. Esiz-esiz qantak o'riklar, shu hollariga endi barg yozib kelar edilar! Sal beriroqda esa hali kuchalasini tashlab ulgurmagan azim yongb ʻBoq ildiz-pildizi bilan sugb ʻBuriib olingan edi. Qanday kuch, qanday texnika topishibdi ekan?! Qarab turib, ichim sidirilib ketdi: qiron kelsa, shu ekan-da?!

- Qanday o'tamiz? Anhor yoqalab boraveramizmi?- dedi Olim akam. Qarasam, yo'lni yo'gotib, garangsib turibdi.

- U kishiniki bu yoqda, tepadan o'tgach edi, shekilli, - dedim o'zim ham tushmollab.

- Qanday tepa?.. Tepaning o'zi ko'rinmaydi-ku?!

Rostdan ham hozir na yo'lni, na uning ikki betidagi tepani tanib bo'lardi. Hammasi surib tashlanib, yolgb Biz mezanagina (o'sha oyoq qo'yib chiqqan saring bir ajoyib jangillaydigan temir mezana!) hayhotdek tagi bilan so'ppayib turardi. Hov narida esa, tepadan chiqqan tuproqlar togb B-togb B bo'lib yotipti. O'sha yerdan kirib borilardi, shekilli, sutchinikiga?..

- Yaxshiyam mashinani qoldirib kebmiz, - deya handaqdan hatlab yo'l boshlayverdim.

- Bu ahvolda u kishi qanday tirikchilik qilyapti ekan? - dedi akam ortimdan ergashib.

- Qaysarlik qilmay, do'm olib qo'ya qolmabdilar-da, qari odam, - dedim.

- So'z qilgan bo'lsa, olmaydi. Shunaqa toifa, - dedi akam.

Tushunmadim. Olim akam uni qayoqdan bila qopti? Osh-qatiq bo'lib yurgan odamdek gapiradi-ya!

- Aytdi-ku, amaki ham...

O'girilib qarab, hayron qoldim. O'zi ohorli tufisini ayab, loy-tuproqlardan bir-bir sakrab, o'tib kelyapti-yu, xayoli menda: seziladi-ku, bazan... Tavba, kimni gel qilyapti?.. Rosti, gb Hashim keldi. Uni sutchining oldiga boshlab borayotganimdan, shu ishni bo'ynimga olib qo'yganimdan... o'zim hafa bo'lib ketdim. Bir ko'nglim: "Hov, aka, nima niyatda kelyapsiz o'zi?.. Yaxshisi, meni aralashrtirmang, bu ishlarizga, degim bor-u, lekin andisha kuchlilik qilyapti!

Noiloj, yurib ketdim. Egalari tashlab ketgan hovliyu chorbogb B'larda omon qolgan yakkam-dukkam daraxtlaru ishkamlar bir

gb Harib ko'rinsa, anavi surilgan tuproq uyumi orqasidagi tizza bo'yi o't bosib, lolaqiz-gb B'aldogb Bu chuchmo'malar ochilib

bergan yolgb Biz tomda kaptar qonidek qirmizi qizgb B'aldoqlar shabadada bir chiroyli tebranib, chuchmo'malar salomga egilib-egilib kelar edi.

- Qarang, Mahmudjon akaning tashqisi shekilli? U kishi sutchiga rahm qilib berib qo'ygan joy, - dedim akamga ko'rsatib.

- O'sha ekanmi, hech kim teginolmayotgan joy? - dedi u hayratlanib. Qizgb B'aldoqlargami, nimaga tikilib qolgan, xayolidan

nimalar kechyapti, bilib bo'lmasa-da, hayajonlanayotgani, sutchini ko'rishga mushtoqligi yuz-ko'zidan shunday ayon edi. Xuddi dovrugb B'ini eshitib yurib, ming yildan beri o'zini ko'rmagan odamni istab kelayotgandek, bir intqlik bor ko'zlarida. Rostdan bir ko'rishga orzimi? Niyati-chi, qanday?

Ko'nglimning bir chekkasida bir turli gb B'ilu gb B'ashliklar qaynab kelyaptiki, uning zo'ridanmi buning sidqidilligiga hech ishonolmasdim. Tavba, shunaqa shubha-chi, ko'ngli bir sovusa, qaytib ilimaydigan odam ekanmanni? Bu yaxshi fazilat emas-ku.

Axir, o'shandan beri qancha suvlar oqib ketdi-ku. Nazarimda, men uni bekor boshlab kelayotgandek edim.

Tuproq uyumidan o'tishimiz-la haligi ustini tizza bo'yi o't bosib, bo'gb B'otlarida lolaqizgb B'aldoqlar ochilib bergan tom yonidan chiqib qolibmiz! Darvozasi qayoqda ekan bu antiqa qo'rgb B'onning, deb alanglab tursam, quruvchi-buzuvchi tushmagurlar tepani shu yergacha surib kelib, xayhotdek darvozani azza-bazza to'sib qo'ygan ekanlar. Kiradigan odam devorga qisilib, zo'rgb B'a o'ta olardi.

- E, barakalla, ko'mib yubora qollaring birovning uyini!

Izimdan kelayotgan akam ham ajablandi.

- Shungacha ham miq etmabdimi? Balli! Togb B'a chindan qaribdi.

Nega shunday dedi - tushuna olmadim.

Darvoza qo'sh tavaqali, bir vaqtlargi darvozamisan - darvoza edi. Faqat oftobda o'ngib, devor rangiga kirib ketibdi. Devor esa, tagidan uqalanaverib, allaqancha joyi yemirilib tushgan edi. Lekin tom esa suvalaverib, loy chiqaverib, tirsak bo'yi ko'tarilib ketgan, shuncha tuproqni bu uy, bu devorlar qanday ko'tarib turibdi, aql bovar qilmasdi.

- Shumikan, o'zi? - dedi akam alanglab.

- Chaqirib boqaylik.

Men darvozaning pastki xalqasini tutib, hayron qoldim. Shunday ulkan darvoza shunchalik yengil ochiladi, deb o'ylamagan edim.

U qo'lim tekkandayoq o'z-o'zidan ochila boshlagan edi. Ochilganda ham bir qismi ochilib kelar edi. Qarasam, bolachasi ekan.

Ol-a, darveshlar, biz qanday kirarimizni bilmay turibmiz, ochiq ekan-ku!

"Bolacha shu yarim ochiq holiga hovlining talay qismi - o'rtadagi pastak devorgacha ko'rinib turar, u tamomi nokzor bo'lib,

baland-baland qari noklar - shuncha qariligiga qaramay, qiygb B'os gullab yotar edilar. Qolaversa, qachon to'kib ulgurgan - tagi

ham oppoq, usti ham oppoq. Tagidagi ko'pmi, ustidagisimi - ajratib ko'r-chi! Lekin ustida asalarilar shunday gb B'ujgb B'on

o'ynayaptilarki, vizillagan ovozlardan ular to'pi-to'dasiyu poshshosi bilan shu hovliga tushib, qo'r to'kkanga o'xshardi.

Ichkariga bir qadam bosib, chiqirmoqqa hozirlangan joyimda darvozaxonaning xoyhotdek shiftiyu yon ustunlariga ko'zim tushib, angrayib qopman.

Darvozaxona bir baland, uning yonidan chiqib borgan yogb B'och zina undan uzun, tepada esa oldi ochiq boloxonaning eshigi

ko'rinar edi. Bir vaqtlar o'sha yerda ham o'tirilgan ekanmi, tavba. Aqlim bovar qilmasdi. Pastdagi jilovxonona esa undan ajoyib.

Ustunlaru tirgaklar vaqt kechishi, zamon o'tishi bilan o'ngib-oqarib ketgan bo'lsa-da, o'sha-o'sha baquvvat, o'sha-o'sha mahobatli

edi. Ustunlarning qo'l yetar joylarida yassi qalpogb B'iga qadar zanglab ketgan ulkan mixlar ko'rinadi. Bir vaqtlar bu xonadonga

uzoq-yaqindan aytuvli-aytuvli mehmonlar kelib turgan, ot-ulovlari o'sha mixlarga bogb B'lanib, o'zlari ichkariga olingan shekilli.

Hozir o'sha ichkaridan asar ham qolmagan, faqat shu jilovxonaga yondoshib tushgan yolgb Biz uygina omon edi. Boyagi tomini tizza bo'yi o't bosgan shu uy bo'lsa, ehtimol.

- Chaqirmaysanmi? - dedi akam mo'ralab. Uning ortimdan kirib kelavermay allaqanday tortinib turishi... gb B'halati edi. Tavba, unga nima bo'lgan - hech tushunolmasdim.

- Hov, kim bar? - deb ichkariga kirib bora boshlagan joyimda ovozim jilovxonada jangillab ketib, qisib to'xtadim. Chindan asalarilarning kimsasiz nokzor hovliga ega chiqib, bir maromda vizillab yotuvi, buning ustiga manavi jilovxonaning jangillab aks-sado berishi gb B'halati edi. Bular hammasi qo'shilib, odamni tushunuksiz sir bosib kelar edi.

Shu mahal darvozaxonaga tutash uyning hovliga qaragan eshigimi, derzasimi (harqalay bizga ko'rinmasdi) ochilib, birov tomoq qirdi:

- Hozir...

Muloyim ovozidan sutchining o'zi edi.

- O'sha, - dedim ostona tomon chekilaverib.

- Rostdan-a? - dedi akam javdirab - Shunaqa qarib qolganmilar?

- Haliyam qarimasinlarmi, qachongi sutchi? - dedim.

- Vaqtning o'tishini qara-ya.

Hayron qoldim: akam uni kim deb fahmlayapti? Qolaversa, uni oxirgi marta qachon ko'rgan ekan?

Bu orada qariyaning o'zi ko'rindi. Ha, o'sha, birov bilan ishi yo'q, daroz odam chiqib kelar edi. Faqat hozir yengil uy kiyimida, Nusrat pochchaga o'xshab, uzun oq ishtonu oq ko'ylakda, ustidan yengil nimcha kiyvolgan edi. Boshida esa uchli taqya. Joynamoz ustidan turib chiqyaptimi yo kitob ko'rib o'tirgan joyidan - bilib bo'lmasdi.

U muloyim jilmayib (qarangki, muloyimlik unga yarashib turar edi!) o'sha hovlidanoq mulozimat qilib kela boshladi:

- E, sizlarmi, kelinglar-kelinglar! Men tagb'Din anavilarmi, deb to'nimni teskari kiyib chiqayotgan edim. Allohga shukr, sizlar ekansiz.

- Kim? - dedim fahmlab turgan bo'lsam-da.

- "Buz-buzchilarning elchilari-da, kim bo'lardi,- deb boyagidek halim tortib, jilmayaverdi qariya. - Bilmaydilarki, men anavi mezanadan ham ogb'firroq toshman. Qani, jildirib bo'lsa.

Akam ostona hatlab oldinga o'tdi:

- Assalomu alaykum. So'rab-so'rab Makkani topganlaridek, o'zlarini topib kelyapmiz. Bardam-baquvvatginamisiz, togb'ha? - dedi u borib qo'shqo'llab ko'risharkan.

- Ie, ie, yo'qlab-a, atay-a? - Qariya hali tanib ulgurmagan bo'lsa-da, mutaassirlanib qolgan edi. - Kelingiz, kelingiz.

Qadamlaringizga xasanot.

Akam qaytarib so'radi:

- Kim ekan o'sha bilib turib, qistalang qilayotganlar?

Sutchi yumshoq kulib, yengil qo'l silkidi:

- Etibor qilmang, olsa shu kulbani oladimi? Men uni talashayotganim yo'q. Uning orqasida qancha bogb'lar, bolalar dam oladigan joylar bor. O'shalar ketmasin, deyman-da.

Endi esladim. Anhorning yoqasi keta-ketguncha, guzardan Kattabogb'ha qadar o'rikzoru yongb'boqzor bogb'lar edi, shu soya-salqinda yoz bo'yi bolalar dam olishar, Bo'zsvu bo'ylariga sayohatga chiqishar, bunaqa bahavo joyni hech yerdan topib bo'lmasdi.

- Bormisiz! Yaxshiyam o'rtaga tushibsiz! - dedim men ich-ichimdan quvonib: bor ekan-ku, "hey deydiganlar ham!

- Atay o'tiribman, atay, - dedi qariya bizni ichkari boshlayverib. - Nima yo'qotardik biz - safar kishilari - Olloh chaqirgan kuni huzuriga qaytadiganlar? Nimamizni oladi! Quraman, desa boshqa joy qurib qoptimi? Qani, kela qolinglar, kiraveringlar.

Yakka tavaqali ko'k eshikdan dahlizga kirib bordik. Uy nimqorongb'bu, zax-mogb'bor aralash ko'hna ki- toblar hidi anqib turar edi undan. Kaftdek derazani aytmaganda, yorugb' b tushadigan joyning o'zi yo'q, ikki tomon tokchalaru taxmondan iborat edi.

Eski namat tanchagacha bo'lgan joyni zo'rgb'ha to'ldirgan, uning chetidan bo'yraning titilgan uchlari chiqib turibdi. Tancha kovshandozning shundoq yonginasida - derazaga yaqinroq joyda edi. Uning yonlarida yupqa - yalangqavat ko'rpachalaru kovshandoz tomonda qora po'stak ko'rinardi. Sandal ustidan yakandoz yopilib, girdob to'nkarib qo'yilganu ustida odmi ko'zoynak bilan muqovasiga qizil jild sirilgan qalin kitob ko'zga tashlanadi, xolos.

Sutchi kirishi bilan ularni tokchaga olib qo'yib, gardin patnisni o'ngardi-da, qoziqdan yo'l-yo'l dasturxon olib yozdi. u gb'baribgina yashashi shulardan ham malum, o'zi bundan boshqalardek qisib-qimtinmas, balki allaqanday emin-erkin edi.

- Qani, azizlarim, yuqoriroq o'tavering. Hamonki, mehmon bo'lib kepsiz, joy-joyingizni bilib-bilib o'tiring. Mana, men cho'kdim, - deb deraza ro'baro'siga o'tira boshladi.

Noiloj, o'tdik, akam - to'rga, men deraza tagiga - amakining ro'baro'siga. U qo'lini duoga ochdi:

- Qani, omin, qadam yetdi, balo yetmasin. Olloh barchamizga to'zimu qushoyishlar bersin. Nima niyatda qadam ranjida qilgan bo'lsangiz, niyatingizga o'zi yetkazsin. Ollohu akbar. Xush kelibsizlar.

- Xushvaqt bo'ling, - dedi akam, men unga qo'shildim.

Sutchi qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

- Tilagingizni Olloh bersin.- Keyin ikkimizning yuzimizga qarab qo'yib, mulozamatomuz dedi: - So'raganning aybi yo'q, jindak choy qo'yay, qumgb'onim salda qaynab chiqadi. So'ng bafurja...

- Siz nimani lozim ko'rsangiz, shu. Biz so'rab-so'rab topib kelmoqdamiz. Qolaversa, men uzoq bir yurt - muxojirotdan omonat salom keltirganman. O'zingiz yaxshi bilgan kishining... qiyomat qarz salomlari.

Sutchi har narsani kutsa ham buni kutmagan ekan, xushyor tortib, akamning yuziga qaradi. Qariyalarnikidek qisiq-muloyim va sal xomush ko'zlarida hayrat uygb'hondi:

- Muxojirotdan?!

- Ha, o'sha o'ziz bilgan Tangritogb' b tomonlardan, - dedi akam.

- Valloh-valloh!.. Muxojirlarga ansorlardek quchoq ochgan yurtdan-a? Munavarrai soniydan-a? - Qariya azza-bazza qayta cho'kkalab, akamga o'girilib ol-di. - Ochiq-yoriq aytavering, men qariyani qiynamay! Nahot - ul zotning huzurlaridan?..

- Ha-ha, o'shal zotdan. Sizdan bu dunyoyu u dunyoda qaytaribu uzub bo'lmas yaxshiliklar ko'rgan bir kishining qarz salomlarini ola kelganman. Omonat vasiyatlarini yetkazishga buyurilganman.

- Subhonalloh!.. Siz... Siz ul zotga kim bo'lgaysiz? Eshon pochchamni qaerda bilgaysiz?

Sutchi ilon avragan odamdek akamning ogb'bziga tikilib qolgan, shundan bo'lak narsani so'rash-istash xayoligayam kelmay, javob kutar edi.

Akam xijolat aralash jilmaydi:

- Men u kishining kenjalari... xizmat yuzasi- dan o'shoqlarda yurgan o'gb'billariman. Endi tanidin- gizmi?

Sutchi bu xabardan hayratlanib, azza-bazza o'rnidan tura boshladi:

- Alloh, Alloh! Uni qarang-a, shunday deng-a?! Ikkita zuryodlari bor, deb eshtar edim. Sizmi biri?- deya akamni quchogb'biga olib, tavof etarkan, uni ko'rganidan bir yerga yetgan edi. - Urinmay-la keldizmi? Sizni yetkazgan Xudoimga hamdu sanolar bo'lsin.

Kutmagandim, kutmagandim. U tomondan, eshon pochcham tomonlaridan, deb o'ylamagandim, - deb yelkalariga qoqib, kuraklarini siladi. So'ng o'tirib duo qildi, biz qo'shildik. So'radilar:

- Kenjalari, deysizmi?

Akam tizzalarini yigb'bib o'tirib, xijolatli boqdi:

- Padaribuzurkvorimizni olib ketishganda... biz yosh bola ekanmiz.

- Tushunarli, tushunarli.

- U kishi hayot ekanliklarini ham bilmasdik. Ollohga ming shukrlarki, daraklari o'sha yoqdan chiqib, o'sha yurtda ko'rish nasib

etdi.

- Uni qarang-a, duolarini olib qolish... sizga nasib etibdi, - dedi sutchi behad mutaassirlanib.

- Ha, rozi ketdilar bizdan, - dedi akam allaqanday tasirlanib ham ovozi o'zgarib kelib, - shu jumladan, Sizdan ham...

Bu tarixlarni eshitish, ayniqsa, kelib-kelib, o'sha Tangritog'v tomonlarda yurgan Sul-tonmurod akamga emas, ayni Olim akamga u kishining duolarini olib qolish nasib etgani g'v'halati ham hayratlanarli edi. Buning hikmati nima ekan, hech aqlim yetmasdi.

Akam yonidan ro'molchasini chiqarib, namlangan ko'zlarini artishga tutinarkan, men uning kipriklarida nogoh bir tomchi yosh ko'rib, o'zimdan shunday jirkaniblar ketdimki... qochishga qani joy topilsa! Ammo boshga qilich kelsa-da, chinini aytmq kerak: ko'nglimning tub-tubida, kallamning allaqaysi bir puchmoqlarida tiyolgv'blamalik qilmayaptimikan bu ustomon, degan ishtiboh charx urar edi, tavba.

Sutchi nogoh tin olib, to'lgv'bondi. Va:

- Hay, darigv'v! Bu foniy dunyo o'shanday zotlarni ham sigv'vdirmadimi-ya? - deya tebrandi. U tebranarmidi, to'lgv'vbonarmidi, ajratib bo'lmasdi. Uning taqvodor chollardek shu tebranib o'tirishini suyib qolmaslik, yaxshi ko'rib ketmaslik mumkin emasdi.

Keyin ko'zlarini yumib, o'sha cho'k tushgancha miq etmay qoldi.

Akamning ko'zlariga qalqqan namdan ham ko'ra, uning shu o'tirishi tasirliroq edi. Ularning o'rtasida qanday kechmishlar, qanday bogv'v'liqliklar borki, unuta olmayapti - bilib bilolmasdim, so'rab so'rolmasdim. Ammo nimadir borligi aniq. Shuni sezib turgandayman-u, nimaligini ajrata olmayapman. Qolaversa, akam ham so'ramayapti, o'zi ham aytmayapti.

Nihoyat, u o'siq-baroq qoshlarini ko'tarib bizga qaradi-da:

- Unday bo'lsa, bir kalima Quron bagv'v'ishlab, duoi xayr lozim ekan, - dediyu cho'kkalab olib, tilovatga berildi. Nazarimda tangri taolo bizni ko'rishtirib, yodlashtirib qo'yganida ham bir sir, bir hikmat borday tuyular-u, uni to'la anglab yetolmasdim. Nihoyat, qariya yuziga fotiha tortdi-da:

- Alloh rahmat qilsin u zotlarni. Baloning qattigv'v'iyu zo'rini bekorga ularga yubormagan. Hikmatini hamma ham bilaversin-chi, bilmaydi. U balolarini agar toqqa tashlasa, togv'v' ko'tara olmasdi, ular ko'tarib ketishdi - deb, ogv'v'ir so'lish olib, tura boshladi. - Men jilla qursa choy qo'yib yuboray. Shundoq tabarruk joylardan mozor bosib kelibsiz. Qo'shimiz qolayotgani yo'q, qolaversa, dam gv'v'banimat, diydor gv'v'banimat.

- Siz urinmang, faqat ko'rsatvorsangiz bo'ldi. Mana, Maqsud qaynatib kela qoladi, - dedi akam meni turishga undab.

Men sakrab turdim, ammo qariya unamadi. U eshon pochcha nomini eshitiboq o'tirolmay qolgan, u zotning hurmati uchun ham bizni siylashga tushib ketgan edi. Ozgina kallakqand, jindek mayiz ham yongv'v'boq degandek, piyolaning tagida durda olib kelib qo'ydi. Tokchadagi non qutidan yarimta gijda bilan ushatigv'v'lik churrak non olib qo'yarkan:

- Aybga buyurmaysiz, eshon bola, sal suvi qochibdi nonimizni. Bugun do'konga kirolmab edim. O'zi shunaqa paytda mehmon keladi, - deya xijolat tortgan bo'ldi.

So'ng tashqaridagi gv'v'hisht o'choqqa olov qalab, o'tni jo'nashtirib yubordik. Salda qumgv'v'bon jigv'v'billay boshladi. U kishi meni urintirmay mushtdek choynaklariga choy damlab kelib, yana sandal atrofiga - hammamiz o'z joyimizga cho'kdik. Choy quyilib, yana suhbat o'z maromiga tushdi. Akam boyagi gapni ulagan bo'ldi:

- Men, rosti, hali-hali aqlim bovar qilmaydi, o'sha ishga qanday jurat etganingizga. Axir, hazilmi, bir odamni Sibirday joydan - shundan shu yoqqa o'tkazib yuborish?! Yana qamoqdan opchiqib!.. - dedi hayratini yashirolmay. - Otam rahmatli o'la-o'lguncha ham duo qilib o'tdilar. O'sha yaxshiligingizni unutmay.

Men ham hayratdaman-u, o'z ogv'v'v'zidan eshitmagunimcha ishonolmay turibman: Chindanam qaysi yurak, qaysi jurat bilan qildi ekan bu ishni? Chegaradan olib o'tdi ekan?

Lekin sutchi allaqanday xijolatga tushib, qisib-qimtinardi:

- Alloh rozi bo'lsin. Biz nima, Parvardigor iroda qilmasa, agar.

- Harqalay-da, - dedi akam, - qancha suvlar oqib o'tib ketdi, endi aytsa bo'lar?

- Eshon pochcham... aytmaganmilar? - dedi qariya o'sha voqeaning sirligicha qolishini istaganday.

Akam qo'lidagi choyni qo'yib, bosh to'lgv'v'v'adi:

- Yo'q, bu yogv'v'v'iga o'tmasdilar. Alqardilar, duo qilardilar-u, tafsilotiga ko'chmasdilar.

Sutchining yuziga mamnunlik balqdi:

- Qari bilganini pari bilmas, deb... shuni aytadilar, - dedi shirin kulimsirab.

Demak, bu ham aytmaydi. Bu shunday sirki, uni inson zoti tagiga yetolmasligi kerak. Aks holda hali ham gap tegib qoluvi, kimdir jabr ko'ruvi mumkin... shekilli. Balki shu tufaylidan uni muddatidan ilgariyoq jildirib yuborib, kishi ko'ziga shunday bir ovloq go'shada oshini oshab, yoshini yashashga mahkum etib qo'ygandirlar-u, bu sutchilik qilib yurganmikan? Men shunday taxminlarga borib o'tirarkanman, akam uni tushuna qolmasdi. Balki atay ijkilayotgandir, o'z ogv'v'v'zidan ilintirmoqchidir? Men o'z xayollarimdan o'zim cho'chib, uning yuziga qarab-qarab qo'yardim. Akam xijolatlarga tushib bo'lsa-da, elanishini qo'ymas edi:

- Bir uchi, bir chekkasinigina ayta qoling. Faqat o'zimiz uchun.

Sutchi o'sha-o'sha shirin kulimsirab, choyga alahsidi. Ammo ilojini topsa, gap o'zanini boshqa yoqqa burib yuboradigandek ko'rinar edi. Shu boisdanmi, akam unga qayta yuzlanib iltijolandi:

- Ishoning, shu gap sho'ta qoladi! O'ttiz ikki qo'riqchisi bor bir qo'rgv'v'v'onda muqim qoladi. Eshon otamizning xotiralari haqqi-hurmati. Sho'roning o'sha chohlarida qolib ketganlar haqqi-hurmati...

- Hov, akam juda usta ekan! Bir shirin so'zlar, takallumlar bilan uni avrar, ikki o'rtada bir emin-erkinlik paydo qilar ediki, qariya uning samimiyligidan mutaassirlana boshlagan va bu ketishda uning iltimosini rad qilolmaydigan bir holga tushib borar edi.

Qolaversa, o'zim ham uning ogv'v'v'zidan chiqadigan so'zga intiqib o'tiribman. Tavba, birov nazarga ilib-ilmaydigan, nihoyati bonka ko'tarib, sutchilik qilib yurgan bir kishi shunday ishlarga qodir bo'lsa! Ota diyoridan quvilib, bir umrga sovuq-tumanli o'lkalarga badargv'v'v'ba etilgan, quyosh yuzini ko'rmay, qor kechib, muz teshib yashashga mahkum bir mahbusni bu dunyoning azobu jahiymidan qanday opchiqib kelibdi ekan? Qamoqxona qo'riqchilariyu iskovuchlari ko'zini qanday shamgv'v'v'halat etibdi ekan?

Mulla odam jilla qursa, umrining oxirida emin-erkin yashasin, xotirjam ibodatini qilsin, deb o'sha togv'v'v'li diyorga opchiqib qo'yibdimi? To'gv'v'v'v'ri, Ollohning iznisiz birovning biron soch tolasi, tuki ham to'kilmas, hech kimga ro'shnoqlik eshigi ham ochila qolmas. Lekin bu odam nima umidda bu ishga qo'l urdi? Niyati nima edi-yu, nimaga erishdi?

Sutchi choynak ustiga sochiq tashlab, chetroq surdi va tomoq qirdi:

- Bu tarixni hammadan yashirsak ham sizlardan yashirib bo'lmas. Negaki, Eshon pochcham boshlariga tushgan musibat - unaqa-bunaqa musibat emas. U balo Sizlarni yetim qilib, kindik qoningiz to'kilgan joylarda o'ynab-kulishdan, emin-erkin o'sishdan ham

mosuvo etdi. Yetimlik ko'chalarida tentirab, alamzadalik zardoblari ila sugʻbordidi. Hali-hanuz to'zib yuribsiz, diyoridan adashgan turnalardek. Sizga aytmay kimga aytaman, yuragingiz hovrini sal-da oladigan bu tarixni.

Voh, sutchiga qilt etmay tikilib qolgan Olim akamning ko'zlarida (nimani deng?) gʻbʻiltillab aylangan, kiprik qoqsayoq duv to'kilishga tayyor yoshni ko'rib, ko'nglim buziliblar ketdi. Hiqillab qolmaslik uchun ko'zlarimni olib qochdim. O'zimni bir nimalarga chalgʻbitishga urinar edim.

- Ayting, aytavering, - dedi akam to'liqib, - kuygan yuragimizga zora malham bo'lsa so'zlariz. Umrbod qarzdormiz biz Sizdan. Siz hech kim qilmagan, qilolmaydigan yaxshilikni bizning otamizga - padaribuzrukvorimizga qilasiz-u, biz topib kelmaylukmi, tavof qilmaylukmi! Ayting, jon quloqlarimiz-la tinglaymiz gavhar so'zlaringizni.

Qariya iymانبgina tizzasiga to'kilgan non ushoqlarini terarkan, akamga qarab qo'ydi.

- Hamdu sanoni Allohga aytmoq kerak. U yolgbʻiz Tangrimga yarashadi. Biz nihoyati Alloh roziligini qidirib yurgan bandalarmiz, - deb jim qoldi.

- Harqalay, Sizdan boshqasi. jurat etarmidi, yo'qmi, - dedi akam.

- Unday emas, eshon bola. Men bo'lmasam, boshqasi qilardi, boshqani sababchi etardi Alloh. Muhimi, otangizning musibatlarini arib turgan. Biz sababchi, xolos.

Biz miq etmay, hatto nafas yutmay o'tirardik. Yutsak, chalgʻbitib, uni tinglolmay qoladigandekmiz. U esa bir maromda, qariyalardek salmoqlanib davom etyapti, goh-goh ushoqlarni kaftiga terib jamlab, ogʻbʻiziga solib qo'yadi.

- Xullas, deng, shunday topshirigʻbu vazifa bo'lib qoldi: bir odamni o'shoqdan olib, boshqa yurtga tashlash lozim ekan, - deb qariya akamga manoli qarab qo'ydi. - Bo'ladi-ku, shunaqalar: xizmati tugaguncha mahbuslar ichida qoladiganlar...

Men sotqinlar ekanmi, deb tushunib, tepa sochim tikka bo'layozdi. Lekin akam xotirjam bosh silkidi:

- Xo'sh-xo'sh?

- Shunaqalardan bittasi topshiriq bilan yangi joyga o'tkazilishi kerak ekan.

- Tushunarli, - dedi akam.

Bunga sari meni ijirgʻbanishmi, nima qamrab bor-yapti. Yodimga Olim akamning o'tmishiyu anuv yo'q bo'lib, badar ketganlari tushib ketyapti. O'zi esa, parvosiga keltirsa, o'lsin agar. "Xo'sh-xo'sh, keyin-chilab qariya-ni qistash, ogʻbʻizidan u tarixni "sugʻbʻurib olish bilan ovora.

- Hamma hujjatlarini to'gʻbʻirilab, har ehtimolga qarshi bitta toza muhrlangan qogʻbʻoz ham qo'shib berishdi.

- Tushunarli, tushunarli, qayta to'latish kerak bo'lib qolsa-da, - deb qo'ydi akam.

- Poezdadan poezdga o'tib, taqira-tuqur bilan to'qqiz kun deganda yetib bordimmikan, vallohi alam. Qamoqxonasiyam shahardan naq bir kunlik yo'lda, o'rmonning ichida ekan. It azobida topib borsam, (Xudo ol qulim, desa shu-da) mahbuslarni yogʻbʻo'ch qirqishdan olib kelishayotgan ekan. Darvozadan kirib ketishguncha ichim achi-ib qarab turibman. (Harqalay, mahbuslar, buning ustiga, o'zimiznikilar, qirov bosgan oppoq soqollilarini demasa, paxtalik shim-kamzullaru bir xil quloqchinda, millatiniyam ajratish qiyin.) Shunda yonimdan o'tayotganlardan birov otimni atab, tashlanib qolsa bo'ladimi: "Ilhom, azizim, oshna! deb. Chop-chop, hay-hay bo'lib ketdi. Soqchilar yugurib kelib, tortib olishdiyu sudrab ketishdi. Haligi mahbus oyogʻbʻi yerga tegmay boryapti-yu:

- Ilhom, azizim, oshna, tanimadingmi, menman! - deb baqiradi.

Birpasda soqchilar meni ham o'rab olishdi. "Kimsan, bu yerda nima qilib turibsan, deb tergash, turtkilash boshlanib ketdi-ku.

Bo'sh kelsam, mahbusday tiqib qo'yishlari ham mumkin. Hujjatimni ko'rsatib, turma idorasini so'ray qoldim. "Ha, shundoq demaysanmi, o'rtoq, deb ko'rsatib qo'yishdi. Men qidirib borgan odamim hamon mahbuslar orasida ekanidan, unga ham boshqalardek muomala qilishayotganidan hayron edim. Nima gunoh qila qolibdi - hech tushunolmasdim. Hali javob bermay qo'yishlari ham mumkinligini o'ylab, hushyor tortgan edim.

Boshliqqa ham elburutdan uning qogʻbʻozini ko'rsatib o'tirmay:

- Bir-ikkita "zeklar bilan ko'rishishim kerak, sharoit yaratib bersangiz, - dedim.

- Marhamat, ana, bo'sh xona, ayting, chaqirib berishadi, - dedi u. Ishim xamirdan qil sugʻbʻirgandek oson ko'chayotganiga hayron edim men. Lekin sir boy berib bo'ladimi! Aytdim. Shunaqib, haligi odamni chaqirib berishdi.

- Kim ekan, tanidingizmi? - dedi akam.

- Qayoqda! - dedi qariya. - Hech eslay olmasdim, u bo'lsa, tanib, yalab-yulqab yotipti. Nuqul yigʻbʻlaydi, ko'zyoshlarini shashqator oqizib, shu tavallolar qiladi, siqtaydiki, qani ovutib bo'lsa, tinchitib bo'lsa... Men bu eshonlarning qaragʻbʻishiga qoldim, namozxonlarning duoibadiga uchradim, deydimi-ey, qaerdanam shularning ichiga tashlashdi, ularni sotib, tutib berdim, deydi. Yigʻbʻlab-siqtab, bir yerga yetayapti. Bu ko'rgiligu qiynoqlar holva, deydi, hali oxiratdagisi, Mahshargohdagisi bor. Ana o'shanda Ollohga qay til bilan javob qilaman? Mana bu til, mana bu ko'zlarim guvohlik bersalar, o'zimga qarshi guvoh bo'lib tursalar, deydi. Ollohning do'zaxiga surgab ketishayotganda kim, qaysi idora qutqarib qola oladi meni, Ilhom, deydi. Sizlar o'z holingizdan ortarmikansiz? Holingiz menikidan yaxshiroq bo'larmikan, deydi.

Nogoh titrab ketdim. U to'gʻbʻiri aytyapti-ku, degan o'y ichimni o'rtab, achitmoqqa boshlarkan, o'zimni ham, uni ham bu holdan qutqarib, chalgʻbitish uchun, qo'ynimdagi qogʻbʻozni olib, stol ustiga tashladim.

- Bu nima? - dedi u ko'zyoshlarini yengiga artib.

O'zingga shukr, tinchidi-ku, deb o'ylab, buyruqni aytdim.

- O'zga yurtgami endi? - dedi u kutilmaganda.

- Alam-achchiqning o'rnimas. Xudoga shukr qil. Esilariga tushib qolganingga. Boshqa vazifa chiqib qolganiga, - dedim men.

- Bu gunohlarim kam bo'lsa, u yoqda, u yurtda to'ldirar ekanmanmi? Shundaymi? - dedi u "to'nini hamon teskari kiya boshlab.

- Esingni yigʻbʻ, bundan ortiq yaxshilik bo'lmaydi. Qolaversa, sen bilan men qaerda, qaysi yurtda o'tirganimizni unutma. Ular chaqirib qolmaslaridan hal qil. Hali bu qogʻbʻozlarni ko'rsatganim yo'q, - dedim.

U qogʻbʻozlarni qo'liga olib, xo'mraygancha ko'z yugurtirarkan, kutilmaganda muhrlangan, oq-oppoq qogʻbʻozni ko'rib:

- Bunisi nima? - dedi ko'zlari chaqnaq.

Men tushuntirdim:

- Har ehtimolga qarshi: qayta to'lgʻbʻazish kerak bo'lib qolsa...

U sovuqdan mo'mataloq bo'lib, shishib ketgan kattakon kaftini haligi qogʻbʻoz ustiga tashladi. Uning vajohatidan qo'rqqulik edi, shunaqa o'zgarib ketgan edi u.

- Gap bunday, - dedi u eshikka alanglab, allaqanday past tovushda, - bir ish qilamiz. Faqat mening aytganimga kirasan.

O'lay agar, biron narsa tushungan bo'lsam.

- Bu nima deganing? - dedim oriyatim qo'zib. - Men seni olib ketgani kelganmanmi yo sen menimi? - dedim turib.

- Shoshma, o'pkangni bos, - dedi o'tirishga undab, o'zi stolga ko'kragini berib, yopishib opti. Ko'zimdan ko'zini uzmaydi. - Musulmonmisan? - deydi.

- Alhamdulillah... - dedim.

- Xudo bittami? - dedi u o'sha-o'sha, tusi o'zgarmay.

- Bitta, - dedim gapni qayoqqa burayotganini anglab-anglamay.

U kutilmaganda o'tirgan yerida cho'zilib, ikkala qo'lini yelkamga chovutday tashladiyu silkib qo'ydi:

- Hozir ham yolga biz emasmiz bu xonada. Xudo shohid, u ko'rib turibdi barcha-barchasini... Shundaymi?.. - dedi niyatini ocha qolmay.

- Shunday, - dedim.

U yelkamni qo'yib yuborib, boyagi-boyagidek stolga ko'kragini berib tikildi.

- Shunday ekan, bir ish qilamiz. Manavi bo'sh qog'bozlarini men aytgan odamning nomiga to'ldirasan. - So'ng chaqnagan ko'zlarini ko'zimdan uzmay qaddini sal ko'tardi, - ikki burdek odam, Xudoni tanigan ikki o'zbek til topisha olarmiz?!

- Nima demoqchisan? - dedim yuragim gurs-gurs ura ketib.

- Qo'rqma, pand bermayman. Qolaversa, seni hamisha mard, deb eshitganman. Mardni esa Olloh ham qo'llaydi, - dedi u. -

Shuncha gunohlarimiz evaziga bir ish qilib ketamiz. Ogb'ir kunda meni suyagan, mendan irganmagan, betimga tupurmagan bir odam bor: o'shani ola ketamiz! Faqat yo'q demaysan, deya ko'rmaysan. U kishisiz ketsam, Xudoning oldiga nima bilan boraman?! Tushun.

- Kim? - dedim.

Shunda u eshon pochchani nomlarini aytdi meni hayronu lol qoldirib. Ko'z oldimdan esa halimdek yumshoq cholning nurli yuzi o'tib, ichimdan xo'rlikmi, yig'ibimi bir narsa toshib kelardi.

- U kishi ham shu yerdamilar? - deya olibman.

- Ha, men tufayli, mendek nobakorlar tufayli, - dedi u...

- Eshon pochchani o'sha odam tufayli qutqarib kelganmiz va chegaradan o'tkazib qo'yganmiz, qolaversa, - dedi u bir yengillik tuyib. - Tushuninglar, men hech kim emasman u kishining oldida. Agar shu ishimizga savob yoziladigan bo'lsa, allaqanchasi uning chekiga tushgay.

O'rtaga allaqanday bir xushhollik inib, hammamiz jim qolgan edik.

- Axir yo'q demabsiz-ku. Shunga-da, mingdan-ming tashakkur, - dedi akam.

- Sizning o'rningizda boshqasi unarmidi, yo'qmi, - deb yubordim men.

Sutchi halim qariyalar singari shirin kulimsiradi va shu barobar yuzlaridan nur yog'ibilib:

- Deyolmasdi, - dedi ishonch ila. - Alloh xohlab tursa, qay banda yo'q deya oladi?! - deb betimga qaradi. - Alloh "kun desa, bas, o'sha narsa bo'lgay. Eshon pochchamning musibatlarini arib turganki, biz yetib borganmiz, o'sha qog'bozlar ila...

Tashqarida maynami - bir nima sayradi. O'girilib qaragam, ikkita qorashaqshaq yaltiragan qora qanotlarini yozib, oq-oppoq gullagan noklar tagida quvalashib uchib yuribdi. Bu nimaning alomati edi, tushuna olmasdim.

III

Shu mahal darvoza bolachasi ochilganday bo'lib, o'sha yoqdan qiz bolaning ovozi keldi:

- Amakijon?..

Sutchi o'rnidan og'ib'ir qo'zga b'aldi:

- Men qaray-chi.

O'sha cho'kkalab o'tirishida oyog'bi uvishib qolgan ekan, uni silab-siypashga tutindi va shu yerdanoq ovoz berdi:

- Hozir, puchuq qizim, hozir...

- Men qaray qolay, - deb o'rnimdan turayotib edim, u kishi unamay, kovshandozga tushdilar.

- Qimirlamang, o'zim chiqmasam, kasal bo'p qolibdilar ekan, deb vahma qilib yurmasin, tag'bin.

Bu orada puchuqning o'zi hovlida ko'rindi va derazadan ko'zi bizga tushiboq orqasiga pusindi. U ajina gulli ko'ylak ustidan bir chiroyli jajji nimchani sirib, sochini mayda o'rgan, kamiga pistonli iroqi do'ppi kiyib olgan edi, qo'lida tugunmi, bir nima bor.

Sutchi chiqib, akamga savolchan qaradim:

- Shundoq odam... shunday yashasa-ya?

Akam barmog'binini labiga bosdi:

- Jim, eshitsu og'bininadi, - deb shivirladi, - o'zi shuni istasa nima deysan. Bo'lmasa, har izzat-ikromlarga haqli.

- Yo haydalganmi, o'sha ishi ochilib? - dedim.

Akam qat'iy bosh tebradi:

- Bilishmaydi hatto.

Ammo mening savol xaltam ochilib ketgan edi:

- Ochilib qolsa-chi, nima bo'ladi?

- Qamashadi, albatta, - dedi akam boshqa gapga o'rin qoldirmay.

Yuragim achishib kelib, gajirligim tutdi. Munofiq, devorgim keldi uni. Otasiga shuncha yaxshiliklar qilgan odamni nima deyapti?! Qamashadi emish! Olloh-chi, qarab turarkanmi!..

To'rsayib oldim. Buni ko'rib u yalpizlashga tushib edi, sutchi qayta boshlab, jonimga ora kirdi.

Uning qo'lida ustiga bitta gijda yopib, bog'blangan tuguncha bor, tagidagi kosa ekani bilinib turar edi.

Sutchi kelib joyiga cho'kdi, so'ng tugunchani dasturxon o'rtasiga qo'yib, yecha boshladi. Uyni yengil non-qovurdoq hidi tutib borar edi.

- Nasiba-da, eshon bollar, puchuq qizim menga ilinib opchiqqan ekan, o'rtada baham ko'radigan bo'ldik. Qutlug'bi uydan quruq ketilmaydi, deb shuni aytiladi-da, - deb qizchani qarda turishini tushuntira boshladi. - Ular mijozim bo'lishadi, ilgari sutlarini olib turardim.

Kosadagi ovqat chindan non-qovurdoq edi. Sutchi siri ko'chgan, lekin toza bir lagan olib kelib og'bdarib edi, bir lagan chiqdi.

Bug'blanib, ajoyib bir hid taratib, nafsni qitiqlay ketdiki, beixtiyor og'biz suv ochib borar edi. Uy egasi bitta yog'boch qoshqi

keltirib akamga tutdi, biz qo'lda oladigan bo'ldik.

- Qani, yetkazganiga shukr, nematini mahtal qilmay olamiz, - deb o'zi bismilloh-la boshlab berdi.

Men ko'pdan bunday totli taom yemagandim, nuqul bolaligimizda - Yakkabog'ida turganimizda oyimlar pishirib beradigan o'zi jindek, lekin hech tami og'ibizdan ketmaydigan qo'ziqorinu non qovurdoqlar ko'z oldimdan ketmasdi. Boyagi gapim - shundoq odam, shunday g'barib turadimi, deganlarim esimga tushib, ich-ichimdan uyalib o'tirardim.

Ovqat yeyilib, bir piyoladan issiq choy ichib edik, uy nazarimda, shohona saroylardan alo tuyilib ketdi. Va sutchining qulfi-dili ochilib, hikoyatgami, rivoyatgami tushgan edi:

- Alloh suygan qullarini ora-chira bu dunyoning nematlari ila siylabam turadi. Lekin afzali Abu Dardoning tutgan yo'li, - deb qoldi.

- Abu Dardo? - dedi akam nimanidir eslaganday, sutchining yuziga yalt etib qarab.

- Ha, payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasalamning shunday sahobalari o'tgan. Qavmidan eng keyin iymonga kelgan odam.

Lekin etidan tirnog'bigacha iymonga to'lig'ib bu odam dunyo moliyu matohini qo'shqo'llab itqitgan ekan. Tijoratim meni Allohning zikridan qoldiryapti, oldi-berdilar ibodatdan chalg'ibityapti, deb hatto do'konidan voz kechgan ekan. Boshqa sahobalarga yetib olish uchun, dinga kech kelib, yo'qotgan savoblari o'rnini to'ldirish uchun ham shunday qilgan ekan. Sovuq va izg'birinli tunlarning birida ana shu Abu Dardoning uyiga yo'lovchilar tunashga izn so'rab kiribdilar. Abu Dardo ularning oldiga issiq ovqat kiritibdi-yu, ko'rpa-to'shak bermabdi. Yotar chog'ib qo'noqlar biron cho'yshabmi, nimadir so'rab uning hujrasiga borishsa, Abu Dardoning o'zi sovuqdan g'bujanak bo'lib yotganmish. Kampiri esa bir chekkada bukchayib o'tirganmish.

Ustilariga yopadigan biron narsa ko'rinmashmish.

Qo'noqlar taajjubda Abu Dardodan so'rashibdi:

- Yopishga ko'rpa-to'shagingiz yo'qmi? Ular qani?

Shunda Abu Dardo: "Bizning boshqa joyda hovlimiz bor. Topgan matolarimizni o'sha yoqqa jo'natganmiz. Bu uyda biron narsamiz bo'lganda sizdan ayamasdik. Qolaversa, narigi uyimizga eltadigan yo'l ustida o'tish og'ibir bo'lgan, mashaqqatli dovon bor. Undan oshish uchun yengillashib turgan chog'ibimiz edi, degan ekan.

Hazrati Umar halifalik davrlarida o'sha sahobani zo'rlab Shomga voliy qilib tayinlashibdi. U yerda odamlarning rohat-farog'bat ketidan quvib, dunyo jamlashga berilib ketganlarini ko'rgan Abu Dardo xalqni masjidga chorlab, bunday xutba o'qigan ekan: "Ey Damashq ahli, Sizga ne bo'ldiki, olimlaringiz ketib bormoqda, johillaringiz ulardan hech narsa olib qolishga shoshilmayapti? Ey Damashq ahli, Sizga ne bo'ldiki, Alloh taolo o'z zimmasiga olgan narsaga iqbol qilib, o'zingizning zimmangizga yuklangan narsani unutyapsiz, tark etyapsiz? Sizga ne bo'ldiki, yeb bitirolmaydigan narsangizni jamlash bilan ovorasiz? Yashamaydigan binolaringizga bino qo'ygansiz? Yetisholmaydigan orzularingizga intilganingiz intilgan?..

Ey Damashq ahli, Od qavmining ahliyu mol-dunyosi yer yuziga sig'ibmas edi, kim bugun mendan ulardan qolgan merosni ikki dirhamga sotib oladi, deganida butun masjid ahli, uni tinglayotganlar hiq-hiq yig'iblashgan ekan.

O'sha pokiza zotlar haqida yana bir rivoyat aytay. Hazrati Umar qo'l ostidagi viloyatlarni tekshirishga chiqib, Shomga bemahal - tunda yetib kelibdilar-da, to'g'ibiri do'stlarinikiga tushibdilar. Ochiq turgan eshikdan tortinmay kirib borgan mehmonni Abu Dardo turib kutib olibdi. Chiroqni ham yoqmay suhbatlashib o'tirib qolishibdi. Bir mahal hazrati Umar Abu Dardoning yostig'ibini paypaslab ko'rib, do'sti egarga bosh qo'yib yotganini sezib qolibdilar. Shoshib to'shakka qo'l cho'zsalar, qo'llari qup-quruq qum bilan mayda toshlarga tegibdi. Yana bir paypaslab, do'stining egnidagi Damashq ayozig'a dosh ham berolmaydigan yupun kiyimni payqab qolibdilar.

- Hoy, Allohning rahmatiga yetishgur, bu nimasi, qo'ling shunchalik qisqami, axir imkoniyatingni kengaytirib qo'ygandik-ku, - debdilar xalifa.

Shunda Abu Dardo:

- Esingdami, ey Umar, Rasululloh (s.a.v.) bizga nima degandilar? - debdi ohista.

- Xo'sh, nima deb edilar?

- "Sizning dunyodan oladigan nasibangiz musofirning xurjunidagi ozuqasicha bo'lsin, demabmidilar? Biz-chi, u kishidan keyin nima ishlar qilib yubordik, ey Umar? - debdilar.

"Shundoq-shundoq, deb turgan xalifa yig'iblab yuborgan ekanlar. Biz u zotlarning oldida kimmiz? Bu amalu ibodatlarimiz Alloh bir puf desa, changdek to'zgb'ib ketmaydi, deb kim ayta oladi? Yana Alloh o'zi bilgay: rahmat nazari bilan kimga qaraydiyu kimga nazarini ham ravo ko'rmaydi!..

- Vo-oy, - dedi akam biz xayrlashib eshikka chiqqach, (uzr, oldindan aytib qo'yayapman!) - xuddi shu gap, shu rivoyatlarni otam ham aytar edilar-a! Qay birlari qay birlaridan eshitgan ekanlar-a, tavba-a...

Men sal ilgari lab ketdim, ungacha - turgunimizcha akam yana bir gapni aytdi. To'g'ibrirog'ibi:

- Tog'iba, Sizdan bir narsa so'rasam maylimi? - dedi. Men unga hayron qoldim. U biz toshkentliklarga o'xshab amaki deb murojaat etish o'rniga farg'ibonaliklar kabi tog'iba demoqda edi. O'z ko'nglida ulug'ibroq ko'rdimi, yo yaqin oldimi, bilolmadim. Harqalay shunday murojaat etdi.

Sutchi amaki ham bunga ortiqcha etibor qilgani yo'q.

- So'rang, eshon bola? Siz so'raysiz-u, men yo'q deymanni? - dedi yumshab, tobora halimlashib.

- Siz... siz to'ramning tergovlarida qatnashgan ekansiz...

Qariya kulimsirab, bosh to'lg'ibadi:

- Sizga chatoq malumot berishibdi. Hoziq to'rani hech kim so'roq qilganmas. U kishi uy qamog'ibida o'tirib, o'sha inqilob qanday amalga oshirilganini Moskovning iltimosi bilan qog'ibozga tushirib berganlar. Arab imlosida ekan, men o'girganman, xolos.

Mendan keyin o'rischaga ag'ibdarishgan.

- Ha, shuni so'ramoqchiydim, bir uchini eshitib edim, - dedi akam shoshib qolib.

U endi so'zsiz bosh to'lg'ibadi va hiyladan so'ng dedi:

- Mening sizga maslahatim - bunga qiziq ko'rmang ham, surishtirib yurmang ham. Bu narsalar ellik yilsiz ochilmaydi. Balki umrbod ochilmas.

U kelishdik-a, deganday kiprik qoqib, qo'lini fotihaga ochdi:

- Iloho omin, eshon pochchamdan yaxshi mujdalar olib kelgan siz azizlarni Allohning o'zi hifzu hi-moyasiga olsin va u kishining ruhlarini yashil qushlariga joylab, jannatlariga chorlagan bo'lsin.

Shom tushib kelar edi, sutchi biz bilan xayr-xo'shlabshiboq namoziga shoshildi, biz esa guzarda qolgan mashinamizdan

xavotirlanib, qadamimizni tezlatdik.

Osmon hali ham sinkaga solingandek begʻʻubor edi-yu, ammo tuproq uyumlari ortiyu tomi o'pirilgan vayronalar ichi bilan, yetim paxsa devorlar tagilab, bir qorongʻʻulik o'rnlab kelar, shu pallada anavi surilgan tepalik o'rnidagi temir mezana tagidan hayhotdek bir qora uning ustiga tarmashib o'r'lamoqchiga o'xshar, o'xshayverar edi. Hech yerdan negadir azon tovushi eshitilmasdi. (Darvoqe, uylari tashlab-tashlab ketilib, huvillab qolgan joyda azon tovushi nima qilsin!)

Ammo akam handaqlardan sakrab, tuproq uyumlarini aylanib o'tib, shoshib borarkan, "Voy, Maqsud, uni qara-ya, deya tasirlanishini qo'ymasdi.

Axiyri o'girilib:

- Bilasanmi, otam, uni nima deb duo qilardilar?- dedi.

- Nimaga o'ziga ayta qolmadiz? - dedim men hayron qolib.

- Aytolmadim, yuragi ko'tarmaydimi, deb qo'rq-dim,- dedi akam.

- Nega?

- Chunki har kimga ham unday duo nasib qilavermaydi.

- Qanday? - dedim sabrim chidamay.

- Bir sahar joynamoz ustida o'tirganlarida bexos eshitganman, - dedi u qimir etmay allaqayoqlarga tikilganicha.

- Shundaymi? - deya oldim men, oraga boshqa gap sigʻʻmas edi.

- "Ey, Alloh, sendan yolgbʻʻiz iltijom, agar jannati naimlaringga musharraf etgudek bo'lsang, usiz meni kiritma. Jilla qursa, shafolat huquqini beru men uni bu dunyoda qilgan yaxshiliklari evaziga jannatga chorlay olay... derdilar. U shu odam edi.

Hoziq Buvaga Ayon Bergan Narsa (yoxud hikoyachiga qorongʻʻbu, muallifga ayon tarixlardan)

Eshikbon o'sha xushro'y juvonning o'zginasi edi. U to'ntarigʻʻbʻliq piyolaning orqasiga o'sma siqib o'tirgan joyida bularni ko'rib, tipirchilab qoldi. Qoshini apil-tapil chayib kelib, peshvoz chiqdi:

- Assalomu alaykum, Hoziq buva! Bizning tomonlargayam kelarkansiz-ku, ko'radigan kunlar bor ekan-ku sizni... - deya

toshkentcha manziratlar ila so'ra-sha ketdi, - Xolamoyim bardam-baquvvatginamilar? O'zinglar o'rganishib qoldinglarmi bizni shahri azimlarga?

- Rahmat, poshsha qizim, rahmat. Ie, uni qa- rang-u, Allohning marhamatini ko'ring. O'zingiz-ku, mushkulimizni oson etibdi-ku.

U shu bir ogʻʻbʻiz so'zdanoq tashrif boisini anglab, yurakkinasi shirin qalqib-hapriqdi. Ustiga ustak, tabibning qavatida yopishibgina turgan javdiroq bolakayni ko'rib (u qosh-ko'z'lari popukdek, qiz bola bo'lib tugʻʻbʻilishiga bir baxya qolgan shirintoy edi), ichi shigʻʻbʻ etdiyu dukirlashga tushib berdi! Bu mitti chehra chindan ham o'sha mushfiqaga o'xshab ketar, quyib qo'ygandek edi.

- Voy, o'zim o'rgila qolay, ayajonisini ko'rgani kelgan toychoqlar ham tortinib-begonasiraydimi? Voy, o'zim bo'ylaringga qoqindiq, zap kelibsiz-da.

U siqilgan o'sma hidlarini gurkiratib, bolakayning peshonasidan o'pdi va kuraklarini silab, bu-larga yo'l berarkan, qariyaning ko'nglini olishga urindi:

- Keling, to'ra buva, jindak nafas rostlang. Issiqqina choy qilay.

- Rahmat, poshsha qizim, bogʻʻbʻ tuzukdir, bahavoroq,- dedi tabib azim teraklar tagiga intiqayotganini sezdirib.

- Maylin, maylin, u yerning gbʻʻir-gbʻʻir shabadasiga nima yetsin, - deb yo'l boshlarkan, ichidan "Sogʻʻbʻinibdilar-da, terakzor taglarida aylanishlarini, degan o'y kechdi.

Tabib entikdi.

- Bu yerning naq jannatdan chiqadurgan o'ynoqi bir yel-sabosi bor, bogʻʻbʻboni xo'b topgan joyni. O'tgan bo'lsa, Alloh rahmatiga olgan bo'lsin, tirik bo'lsa, umrini ziyoda etsin.

- Ilohim, ilohim, - deya duoga qo'shilishdi juvon ham.

Yo'lakdan o'tib, qator quloch yetmas azim teraklar tagi bilan borisharkan (uning xol-xol kumushrang tanasidan tortib, ko'klab borayotgan shohlariga qadar yurakka yaqin edi, tavba), havo ham yumshab borayotganga, allatovur bo'ylarni taratib, bir ajib epkinlar yuzga urilayotganga o'xshar edi. Shu epkinlar ichida shifoxona hidi dimoqqa urilib qo'yardiki, uning bahor bo'ylaridan begonaligi yaqqol bilinib qolar edi. Ular yo'lka yoqasiga - tagidan qizgbʻʻish surx navdalar berib, bo'y ko'rsata boshlagan gulzor chetidagi o'rindiqqa cho'kisharkan, tabib uzrli qaradi:

- Nechuk, hech kim ko'rinmaydi, bemavrid kelib qoldikmi?

- Bemavrid emas, Hoziq buva. Siz kelasizu kim nima deydi?

- Harqalay gap tegmagani maqul-da.

- Xudo xohlasa, tegmaydi. Muolaja vaqti ham tugab qoldi, zo'r kelsa, o'zim chaqirib chiqa qolaman,- deb u otlana boshlab edi, qariya to'xtatdi:

- O'zi qalay? Qadam bosyaptimi?

- Bosyapti-bosyapti, bergan dorungiz patoslarini taqa-taq to'xtatdi. Ollohga shukr, Sizdan shunday minnatdorki...

- Hammasi Allohdan. Qolaversa, ko'rgiliklari arib turganki, doru em bo'пти. O'ziga shukr, uyaltirmaganiga shukr. Yaxshiyam jujugʻʻbʻi - toy bolani opkelibman. Ichikkanlar bir yayrashsin.

- Shuni ayting, - juvon bolani quchib, boshlarini siladi. - Voy, o'zim o'rgilay quralaygina ko'zidan. Ayasining boshi osmonga yetadigan bo'пти-da. Qolgan dardlariyam arib.

- Yana muolaja belgilashdimi? - dedi Hoziq buva xavotir ichida. Uning nazarida o'sha damlab ichiladigan doruning o'zi kifoya edi: bu do'xtiri tushmagurlar yana nimalarni tiqishtirishib yotishibdi ekan?

- Yaraning o'rniga-da, bitirishga-da: nurmikan, moymikan...

Qariyaning ko'ngli joyiga tushib, xavotiri bo'shshadi:

- Unday bo'lsa, bezarar-bezarar. Biz shu yerda sha-badalab o'tira turaylik, siz xabar beradigan bo'lsan-giz.

Izn tekkan ayol qargbʻʻashoyi ro'molini o'ray-o'ray ichkariga yo'nalarkan, ikki o'rim sochi nimchasining belidan pastini o'pgancha to'lgʻʻbʻonib borar, Hoziq buva ilgari ko'rganidan hiyla kaltaygan ko'rinar edi. Tavba, xash-pash deguncha bu yerda turganiga ham hiylagina vaqt kechiptimi? U mana shu yo'lkada erta saharu shomdan keyin sayr etishni yoqtirar, hech kanda qilmasdi. Hozir ham asta turib, toy bolani yetaklagancha qator azim teraklar tagi bilan ketgan soya yo'ldan sekin yurib borarkan, o'sha yoqdan o'ynoqlab kelgan epkin-shabboda yuz-ko'zlarini o'pib o'tib, tanish nasimdan ko'ksi ko'tarilib tushdi. O'zi bogʻʻbʻ chekkasidagi shu

yo'lkada Xudo bergan bir boshqacha fayz bor: O'sha nasim, o'sha shabboda o'ynoqlab o'tdi deguncha ichdagi gʻʻuborlarni sugʻʻurib keta qoladi. Teraklar ham bu havo yoqib tushib shunday bo'y talashganlarki, yengil shovullab kishini shunday allalaydilarki, asti qo'yaverasiz. Bu orada gulzor yoqalab, hoshiyasi qora-qora, qanoti momiqdan ham oq kapalakni quvib yurgan bolakay ham nihoyat qaytib kelib, savollarini qalashtira ketgan edi:

- Bu yer qanday bogʻʻ, opoqbuva? Do'xturxonaga boramiz, deb edingiz-ku.

- Olmazor bogʻʻ, bolam, olmazor bogʻʻ, - deb tushuntirgan bo'ldi buva, so'ng yo'l yoqasidagi suyanchigʻʻli o'tirgichga cho'kib, uzana qoldi.

- Chiroyluv ekan,- dedi bola atrofga suqlanib.- Voy, anavuni qarang, filquloqmu? - u gulzor o'r-tasida bulturgi ko'milgan bandidan fil qulogʻʻ bidek barglar yoza boshlagan o'simlikka (hoynahoy bu atrofnikimas, qaysi bir iqlimdan ko'chirib keltiril- gan - o'shanga) tikilib qolgan edi.

- Topding, bolam, biz tomonlarning gulimas bu.

- Siz ko'rganmusiz, bilasizmu? - Bola uning tizzalariga suykilib erkalandi, - ayting.

- Necha yilda bir ochiladi. Men ham ko'rmanman. Sovuqqa yo'q narsa, - dedi u.

- Bu yerda-chu, qanday o'syaptu?

- Avval ichkarida o'stirishgan, keyin o'tkazishgan. Tushunding?

Bola "tushundim dediyu xayoli boyagi o'sma qo'ygan ayolga ketdi:

- Anavu opoqu nima deydu? Biz kimnu ko'rganu kelganmuz?

- Ayangni. Seni bir xursand etay deb aytmb edim,- Hoziq buva uni erkalab, boshini siladi.- Qarasam, sogʻʻ binib ketibsan. Nima, ilgari opkelishmaganmi?

Bola azbaroyi tasirlanib, ko'zlari bir turli gʻʻiltilladi. O'zi qult yutiniib, yer suzdi:

- I-im, bu yerga hich kelmaganmu. Bala-and uyga chiqqanmuz...

- Xudo xohlasi, bu yerdan o'z oyogʻʻi ila yurib chiqqay. Mana, ko'rasan.

- Hozirmu? Xuddu hozir-a? - Bolakay ichi toshib, sakramoqqa, mitti kaftchalari bilan uning tizzalariga urmoqqa boshladi.

- Chiqsa kerak, aytgani ketishdi-ku, - kulimsiradi u.

Bola yana koptokday sakrab, o'ynoqladi:

- Ur-re, chiqadikandar, chiqadikandar. Ayam tuzalubdilar. - Qaytib kelib yana yopishdi, - ayting, opketamizmu, javob berishadimu?

- Xudo xohlasi, opketgani ham kelamiz.

- Nega?... Hozir javob berishmaydimu?.. - dedi bola birdan so'nikib. U hafa bo'lib qolgan edi. Qariya bagʻʻ bʻriga tortib erkaladi:

- Faqat sen shoshma-da. Shuncha kutgan, yana jindek sabr qilsang bo'ladi-ku.

- Maylu,- dedi bolakay kutilmaganda ko'nib.

- Ana bu - boshqa gap. Aqling gurkirab ketsa - shu-da, - deb qariya uning yelkasiga qoqib qo'ydi. - Boraqol, ungacha filquloqni tomosha qilib tur.

- Bo'ptu. - Bolakay o'sha yoqqa qarab chopdi.

U endi o'ziga tanish oshiyon tomon - jigarrang eshik-derazasidan tortib, peshtoqlariga qadar qadrdon bo'lib qolgan o'sha mo'jaz ham ko'rkam oq binoga qaradiyu hayratda qoldi. Fasubhonalloh! Bu qana-qasi?! Oq binoning peshtoqlaridan tortib, butun to-mi shafaqrang alanga ichida qolgan, quyosh nurimi desa, alanga uning bo'gʻʻ bʻotiyu peshtoqlaridan toshib chiqar va qizgʻʻ bʻish cherepitsali butun tomini o'rab borar edi. Vodarigʻʻ bʻ, bu nimasi? Kuppa-kunduzi o't ketyaptimi?!

Qariya o'rmidan turmoqqa urinib, asosini paypaslab-izlab qoldi. Lekin shoshganda salomga alik topilganmi, aso qo'liga ilinmasdi.

U hushyor tortdi: "Unda nega hamma jim? Baqir-chaqir yo'q? Demak, bu bir gʻʻ bʻayb, sirl ko'rinish, xolos. Tavba, nega shunday bo'lmoqda? Ilgari ham bir kelganida shunga o'xshash hol sodir bo'lmab edimi?! U nimadan belgi beryapti? Qachondir o't ichida qoluvidanmi? Kimga ham ayta olasan bu holni?..

Xassa shunday yonginasida ekan. Uni qo'lga oldi-yu, lekin turib ulgurmadi. Qaytib oq binoga nazar tashlaganda alanga susayib, nihoyati azim teraklar ortidan qiyalab, enlamasiga tushayotgan oftob seliga aylanib ulgurgan edi. Vo ajab, nechanchidir marta shunday bo'lmoqda. Avval tom baravar ko'tarilib (hatto quloqlariga olovning charsillab yonishi eshitiliblar ketdi!), gurillab turadi-yu, so'ng tomga yotgan nur bo'lib chiqadi! Bu nimadi? Darvoqe, bu narsa birinchi marta qachon ko'rinish edi? Kelganining uchinchi kunimi? O'shandan beri necha yil kechdi, mo'jaz oq bino - o'sha o'zi ikki qishgina istiqomat qilgan joy, qarang-ki, hali ham qilt etmay turibdi. Nazarida, erta-birisi kuni guv etib yonib, kul bo'lib tushadigandek! Hozir manavi shifoxonaga qo'shib berilganmish. Aytuvli faxriylar tushib qolsa, shu yerga joylashtirishar ekan. Atrofidagi quyuq shapaloq bargli tutlar tagiga yogʻʻ bʻoch karavotlar qo'yib, gilamlar to'shab, ko'rpachayu par yostiqlar tashlab qo'yilganidan bilavereng. Bu hukumat, bu katta dargohlar risolaga ko'ra, xalq gʻʻ bʻamidani boshqa narsani bilmasa-da, o'zini ham unutmagan ko'rinadi. Ammo... shunday joyga, bir musofir musulima, manavi bolakayning mushtipar onaginasida qanday tushib qoldi ekan? Kim joylashtiribdi?..

Yalpiz hidinimi, bodroq isinimi gurkiratib shabada o'ynoqlab o'tdi. Qariya entikib ketdi. Haligi muattar isni sogʻʻ binib, yana bir hidlagisi kelib, chuqur tin oldi. Yo'q, u shabada qurgʻʻ bʻur gulini allaqachon to'kib, o'rmiga qo'sha-qo'sha ko'k ziraklar taqib, barg yozi boshlagan pastdagi olchazor ko'chalar tomon o'ynoqlab o'tib ketib ulgurgan, bu yoqdan esa, xushro'y juvon pildirab-shoshib kelmoqda edi.

- Topdim, ota, faqat... - havomi, nima yetmay yutoqdi, - faqat biroz kutasiz ekan. Muolaja tugashi ila tushib keladi. Tabib to'ram o'zlari keptila, ko'rgani keptila, dedim. Eshitib bir yerga yetdi...

- Mayli, mayli. Biz mana shu bahavoroq joyda o'tira turamiz. Bu ham bo'lsa, Xudoimning marhamati. Bahri-dilimizni ochmoqchi ekan, shu yerlarga yetkazibdi, kuta turamiz...

- Bir piyolagina choy olib chiqayin? Xitoyni xushbo'y choyidan bor, kiyik o'ti aralashgan? - uning ko'nglini ovlashga urinib, parvona edi ayol. Uning jonnisorligi, kuymanchikligi o'ziga bir yarashardi. (Birovning ustida o'lib-qutuladigan ayollar hozirgi kunda anqoning urugʻʻ bʻi, mingtadan bitta topilar. Lekin shuniyam borligi - Allohning marhamati. Bu millatga bergan katta nemati) Qariya iyib ketib, bosh silkidi:

- Mayli, bir piyolagina bo'lsa... malol kelmasa agar...

- Maloli nimasi, men hozir... - deb tinmagur ayol kiraverishdagi mo'jaz uychasi tomon pildiradi. Shunda boyagidek muattar yalpiz hidi gurkirab ketdiy u ayolning siqimidagi ro'molchadanmi, nimadan kelayotganini ilgʻʻ bʻab ulgurdi. Kimdir ilinib inom etganu xalatining cho'ntagiga sola qolmay, ro'molchasida anqitib borar edi.

Bu orada Yodgortoy oldidan ikki bora chopib o'tdi, shisha ko'zli to'rqanot ninachini quvlab, yana gulzor tomon chopdi. Qariyaning

xayoli esa bu go'shaga kelib tushgan o'sha birinchi kechaga qochgan edi...

Uni hukumat bogʻi dagi dam olayotgan joyiga chaqirib borishdi. Ingliz elchisining qabuliga kiyib borgan qo'mondonlik formasini hali yechib ulgurmagan edi. Shunchalik qistalangmish.

- Sizni shaxsan Olampanoh so'rayaptilar! Sharq tabobatini bilgan tabib sifatida! O'ylaymizki, u zotning iltimoslarini rad etmassiz?

..

- Unda men... tabiblardek kiyinib olay, - dedi. Qayoqda! O'zini Mussolinini togʻ dagi qarorgohidan olib qochgan nemis yasovullaridan kam tutmayotgan bu qarchigʻ haydek epchil yigitlar hech gapga ko'nmasdilar. Javob qisqa bo'ldi:

- Chegarada kutib turishibdi! Kerak bo'lsa, ortingizdan yetkazib borishadi!

- Tabib xaltalar-chi? Uni olmoq lozimdur? - dedi atay.

- Bizga unisi buyurilmagan, tabibni gard yuqtirmay yetkazib kelgaysizlar, deyilgan, vassalom.

- Tushunarli. - Ne mushkul damlarda qilt etmagan yuragi bir seskandi. Va Allohga tavakkal qilmoqdan o'zga iloji qolmaganini anglab, "O'zimni O'zingga topshirib, O'zingni vakil qildim - Hasbiyallohu va nemal vakil..., deb shivirladi.

- Nima dedingiz?... - qulogʻ biga yarim-yorti kir-gan kalomulloh kalimasidan gʻ halati holga tushgan yasovulboshi (u dovqur ko'rinsa ham yoshi bir qoraga yet-gan odam edi) tisarilib ketdi. - Duoibad eta ko'r-mang.

U esa vujudidan boyagi titroq chekilib, o'rniga bir yoqimli xotirjamlik oqib kira boshlagan edi, jilmaydi:

- O'libman-da, mo'min mo'minga yomonlik sogʻ hingaymi? Alloh asrasin! Demoqchimanki, hamonki olib ketishingiz lozim ekan...

- Xo'sh? - dedi u feli aynib. - Unda nega imillayapmiz?

Tavba, na yaxshi gapga ko'nadi, na yomoniga. Naq azob farishtalarining o'zi... O'zlari Allohning chinakam azob farishtalariga yo'liqqanlarida nima qilishardi ekan? Pushmonlari ish bermasligini bilsalar edi...

- Menga ham quloq solinglar, jilla qursa? - dedi qatiroq qilib.

- Ayting tez, vaqtimiz ziq, - dedi u.

- Hamonki ish shu darajaga yetibdi, men qariyani mazur tutinglaru tahorat yangilab olmakka ruxsat etinglar.

Yasovul yigitlar (kim xangu mang, kim xushi qochib) bir-birlariga qarashdi. Qanday dahshatli ishga bosh suqqanlarini birinchi marta anglab qolganlar ham borday edi oralarida. Qay birlarining ichlaridan shaytanat chekilib, iymon yuz ko'rsatgudek: ruxsat ber, devorgudek ham edilar-u, ammo so'nggi damda yasovulboshining yupqa labida allatovur nur ko'rindi:

- Bizga Sizni dor tagiga emas, boshqa dargohga eltmoq buyurilgan. Qo'rqmang, Hoji aka.

Togʻ ha yoxud pochcha desa, Madaminbek yurtidan ekan-da, deb o'ylasa mumkin edi. Bu "akalayapti, qaerdan ekan? Lekin tagiga ot, qo'liga qilich bersang, kimga yigit bo'lganini uzoq vaqtgacha anglamaydiganlar hilidanga o'xshamasdi, tavba. Unda na millat tuygʻ busi, na millatdoshlik - dindoshlik tuygʻ busi yo'q deyish ham qiyin. Faqat hammasini yasovulboshilikka almashvoribdimi?! Shunga qaramay, buyruqlari, o'zini tutishi bir poshocha edi!

- Baribir, biz biron yerga tahoratsiz chiqmaganmiz. Bexosiyat bu, - dedi chinidan qaytmay.

Qattiq turmasa, bu besharmlarda subut bormi! Biron jar yo o'rda orqadan tigʻ b urib, gum qilib ketmasliklariga kim kafolat beradi! Kalima keltirib ulgurasan yo ulgurmaysan. Tahoratsiz ekaninggayu banda so'nggi tilagini tilashga haqli ekaniga qaraydimi bular.

Namoz vaqti yoxud yuviqli-yuvuqsiz, bebismilloh qo'shilib qolgandan bino bo'lgan bu shaytonvachchalar.

Yigitlardek chapdast boshchisi qatiy bosh to'lgʻ badi:

- UZR. Hozir mavridimas. Har qancha tahorat bo'lsa, o'sha yoqda ulgurasiz. Chegaradan o'tib olayluk, keyin, - dedi u qo'lini havoda teskari sermab va yasovullariga buyurdi. - Jildik.

Uni yagona opel mashinasiga o'tqazib, o'zlari ham suqilib kirdilar-da, eshiklarni qars-qurs yopganча ruldagi yigitning yelkasiga qoqdilar:

- Qani, qanoting bo'lsa, chiqarib uch!

Rulda (qay ko'z bilan ko'rsinki!) o'z shofyoridan bitta tuki kam bo'lmagan dungan yigiti o'tirar edi. Bilmagan odam hukumat mashinasi yo'lga chiqib, To'ram davlat qayoqqa o'tlanibdilar, derdi. Ana ustamonlik! Bu yoqda ular bogʻ b qorovullaru soqchilarni gum qilib, yo almashtirib qo'yib, darvozadan chiqib olganча "kelishilgan joyga surib borardilar. Bu yerni tinchitgan, chegaradan o'tolmaydimi?! Xamirdan qil sugʻ b gurgandek o'tarlar... Hammasi ado bo'pti! Nihoyasiga yetipti! Ozodligi ham, mustaqilligi ham! Nahot barcha-barchasi tugab, yetim qolmoqda bu aziz yurtu unga ishongan, jonu jahonini tikvorgan xalq?! Imm, qaerda adashdi? Nimani hisobga olmadi?! Yo o'sha birvaqt, dovonda yo'liqqan mahluq... bejiz emasmidi? Barchasi besamar ketuvidan bir imdodmidi? Hikmati ne edi?... Yoxud farmonda shoshdimi? Bu uch viloyat - butun Tang-ritogʻ b degani emas! Hali yetti viloyat ozodlik deb ingrab yotipti, mujohidlar, butun qo'shin shay tursin! Ular ozod bo'lsa, biz ham ozodmiz. Ularga hurriyat olib kirsakkina, barchamiz hurmiz, butun Tangritogʻ b hurdir! deb... shoshdimi? Balkim...

Chegarada - hammayoq o't-o'lanu ufqqa qadar lolaqizgʻ b aldogʻ b larga ko'milgan dashtda gʻ b ir-gʻ b ir shabadalar hukmron, qir qushlari o'zlari bilan o'zlari andarmon bir tarzda qaybiri ko'katlar ichra, qaybiri musaffo osmon bagʻ b rida chuldirab yotishar, bu yoqda tekis maydon o'rtasida ninachidek uchib kelib, ko'klam gilami ustida qo'nibmi, to'xtabmi qolgan kichkina uchoq qanoti soya-sida xumdek boshi ustarda qirtishlangan norgʻ b ul bir odam betoqat yurinar edi.

Nihoyat, u qizgʻ b aldohlarni to'zgb b itib, orqasidan esa qo'sh ko'kish iz qoldirib o'zi tomon uchib kelayotgan pildiroq qora qo'ngʻ b himisol opelga ko'zi tushib, shoshib qoldi va qo'lidagi kepkasini kiyishni-da, unutib, ular tomon peshvoz yurdi.

U ogʻ b zi qulogʻ b ida, bu buyuk mamlakatning katta rahbarlariga rasm bo'lgan kitelining tugmalarini yechib-qadarkan, rapidaday qo'lini ko'tarib, to'xtang, ishorasini berishdan o'zini tiya olmadi. Bu dunganlarga o'xshab keng peshona, kepchik yuzli, xumbosh odam uni huzurida ko'rayotgandanmi (balki topshiriq qotirib ado etilganidandir!) o'zida yo'q xursand edi. Va bundan jilla qursa, andesha qilishni unutgan edi.

U buning shoshqaloqligidan uyaldi. Kim tagiga ot berib, ustiga to'n yopsa, hamiyat ko'rsatib, oqsoqol ko'tarsa, xalqi qolib o'shanga xizmat etib ketaverishdan toymaydigan o'gb b lonlari bor bu millat uchun achinib, ichdan zil ketdi: biz ham qachon odam bo'larkanbiz? Bir-birimizning payimizni qirqmoqdan uyalarkanbiz, to'xtarkanbiz? Bir millat bolalari kabi yasharkanbiz?... deb ingrandi.

Lekin uning ich-ichidan otilib chiqmoqqa tayyor ingroqlarini kim ham eshitardi, kim ham ahamiyat berardi?!

Bunga sari u o'zini tutmoqqa, ko'z soqqalari ostidan-da, tirqirab chiqmoqqa tayyor ko'zyoshlarini bosmoqqa, bu odamlar oldida past ketmaslikka urinar edi. Bosdi ham, har narsaga qodir Alloh so'raganini berdi ham. Unga chindan oson ekan: arzimas daqiqa ichida xotirjamlik ato etdi-qo'ydi. O'ziga hamdu sanolar bo'lsin! Es-hushini yo'qotib, bir zambar loydek o'tqazib qo'ymadi.

Xotirjamlik bilan baro-bar gʻ b ururiniyu haybatini, shuncha ishlarga bosh bo'la olgan kishi salobatiniyu o'zligini qaytarib bergan

edi.

U ham bir hukumat boshligʻi sifatida tushib bordi.

Mezbon uni avvalo qo'mondon kiyimida ko'rib, kapalagi uchdi. Yaqiniga borgunga qadar ham xushi o'ziga kelmay haykalday qotgan edi, so'nggi daqiqada, ko'z ko'zga tushib, tiliga jon bitdi. Va salom berib, ko'rishgani bormagi lozimligini anglab, peshvoz yurdi:

- Assalomu alaykum, togʻba. - Ayiqdek beso'naqay odam - shunchalar samimiy bo'lib chiquvi - gʻhalati edi: Yo bahoda yanglishdimi? - Yaxshi yetib keldingizmi? Uzi, bezovta etduk.

Uning qo'li qattiq edi: yoki ortiqcha samimiyat ko'rsataman deb qattiqroq qisib yubordimi? Harqalay shunga yaqinroq edi. Uning yumshoq kaftini siqib turuvni o'ziga ep bilmay nihoyat ikki kafti orasiga olib, tavof etgandayin yarim xijolat ichida silay boshladi.

- Mazur tutasiz bizning yigitlarni, - dedi yana bir bor uzr aytib, - Topshiriq qistalangroq edi, boshqacha yo'l ko'rinmay... kirib boraverishga jurat etishdi...

Chegara degani qo'shning devori emaski, har bir uloqqan ko'ppak xohlagan nahradan oshib o'taversa, istagan joyini harom oyoqlari bilan payhon etib ketaversa! Yana qaergacha kirib borishibdi! Elchi yo'llash degan gaplar qani? Ikki davlat o'rtdasidagi bordi-keldi rasm-rusumlar-chi, ular qayoqda qoldi?

Mezbon o'ngʻbʻaysizlanib, uning qo'lini qo'yib yuborishni ham, yubormaslikni ham bilmas, qo'llari yengil titrar edi. Bu uning qo'y ko'zlariga qarab qo'yib:

- Nima gap? - dedi, o'zi esa dil gʻbʻashligini yengillatsa zora, deb qir tomondan esayotgan shabadaga yuz tutdi. Qani, boyagi xotirjamlik? O'zini Allohga topshirib qo'yib kelayotgandagi ko'ngil tinchligi? Bu gʻbʻashlik qayoqdan oralay qoldi-yu, uni ukpandanam yengil manavi nasimlar ham ko'tarib ketolmayapti? Nahot hammasi tugab, nusrat yuz burdi? Mustaqillik tongi tugʻbʻib ulgurmay uning shomi kelib yetdi? Mezbon javob o'rniga ham uning qo'lidan tutib, kuraklarini silardi...

- Togʻba, o'zingiz tushunasiz-ku. Hamma tushunmasa ham Siz tushunasiz-ku. Biz Uning oldida kimmiz?! Kim ekanmiz! Xohlasa chivinday ezgʻbʻilab tashlaydi, xohlasa kaftida ko'taradi. Ilojimiz qancha?..

Ana, sidqidiliga ko'chdi! Tan oldi... bor-yo'gʻbʻi kichkina odamligini! Tagidagi ot ham, egnidagi to'n ham birovniki ekanini! Qulligi evaziga berilganini! Boyaqish millat! Kimlarga kuning qolgan?!

Ufqdami, qaydadir, so'ngsiz ko'm-ko'k guldor gilamning oxiri - qirning musaffo osmon bilan tutashgan joyidadir balki, kumushday yaltirab kattakon suv ko'ringanday bo'ldi. Nahot suv musaffo osmonga tutashib keta olsa? Nima u, dengizmi yo ufqdan ham berida yotgan bir narsa? Balki sarobdir. Kuppa-kunduzi sarob ko'rinsa-ya? U namlangan kipriklarini qoqib hayron qoldi: haligi dengiz bir tomchi ko'zyoshga aylanib, o'z bilagiga tomdi. Yo, Alloh, bu nimaning belgisi, nimadan imdod? Nahot hammasi tugadi?

Achchigʻbʻi keldi va to'gʻbʻri kelgan tomonga yura ketdi, shu barobar zarda ila:

- Sen kichkina odamman desang, men kimmanki, desam, qachon odam bo'lamiz o'zi? - dedi qalbi sidirilib-oqib. - Bormi o'zi bu yurtda el uchun boshini tika oladigan bir inson?!

Mezbon unga yetib olishgayu tinchlantirishga urinib, orqasidan talpindi:

- Togʻba! Tushuning, axir. Har narsaga yetgan aqlingiz nahot shunga kelganda oqsasa? Tushunib turibsiz-ku! Nega tushunmaganga olasiz?..

Ammo u qulogʻbʻi goh chippa bitib, goh shangʻbʻillab ochilib ketsa-da, uning iltijolariyu rov-ro'kachlarini tinglashni ham istamas edi.

- Bormi tilka-pora qilsalar-da, soxta paygʻbʻambarlarga iymon keltirmaydigan mardlar?! Bormi Xuzofadek dinini sotmaydiganlar? ! Badanimdagi tukim qadar jonim bo'lsa, shu dinimga sadqa hammasi, deya oladiganlar! Bormi?! - derdi bo'gʻbʻilib.

U esa yetib olib kuraklarini silar, zo'r berib bagʻbʻri bosib, "jon togʻbʻalar edi.

- Jon togʻba, bir gal mening ham so'zimga kiring. Shaytonga hay bering. Uning rayiga to'gʻbʻanoq bo'la ko'rmang. Xo'p deng, deya qoling.

U jim qoldi.

Osmoni falakda to'rgʻbʻay bo'zlab-bo'zlab yigʻbʻlar edi, kim mening makonimga beso'roq kirdi, polaponlarimni oyoqosti etti, deb. Hov, qirda bir bijildoq qushcha gʻbʻumay shoxchasiga qo'nvolib shu chuldirar ediki, u roz aytyaptimi, bo'zlayaptimi, bilib bo'lmasdi.

- Xo'sh, nima deydi, o'shal Olampanohing... kremlida o'tirvolib?! Hozir to'gʻbʻri o'shoqqa olib bormoqchimisanlar? - dedi taqdirga tan bergisi kelmay.

- Yo'q, - mezbon quchogʻbʻidan qo'ygan bo'lsa-da, yelkalarini silashdan to'xtamasdi.- Hozir bizning qarorgohga boramiz. Alohida joy hozirlatib qo'yganman. O'shatta bir-ikki kun tura turasiz. Dam olasiz. So'ng malum bo'ladi - qabul vaqtlari.

- Bu sizlarning qaroringizmi yo kremliga qamalvolib, butun mamlakat uyquga ketganda ish ko'radigan o'shal zotning amri?

Mezbon bo'shshab, uning ko'zlariga o'tinch-la tikildi.

- Bilasiz-ku, togʻba, biz kimmiz - nihoyati kichkina odamlar. Hammasi o'sha Olampanohning rayi. Bizda ixtiyor qancha?!

Bir chekkasi achindi, bir chekkasi - to'gʻbʻrisiga ko'chganidan suyundi: bilarkan-ku, hechkimmasligini! O'shal zulm mashinasining nihoyati bir murvati xolos ekanini!.. Shunga-da, shukr. Ammo gunohi kabiraning eng badbaxti shu emasmi? Bilib turib zulm itlarini mamlakatga qo'yib yuborish, o'z qavmini talatish emasmi? Javobi bor-ku, axir bu ishlarning ham!..

- Taxt bor-u, toj yo'q. Nom bor-u, nishon yo'q. Mamlakat bor-u, ixtiyor yo'q! Shu holingizga "Sharqdan chiqqan marshalmisiz?

- Togʻba, mening o'rnimda boshqasi ham bu o'yindan chiqolmasdi. O'zingizdan qolar gap yo'q-ku, togʻba. Biz hammamiz uning qurchoqlarimiz-ku, axir.

U bo'shshadi.

Jilla qursa, tan olyapti-ku. Ammo Mahshargohda bu bilan qutula olgaymi?

Sekin so'radi:

- Biz musulmonmiz-a?

- Alhamdulillah.

- Alloh haq-a?

- Haq, haq.

- Kitoblari bor-a?

- Bor.

- Paygʻbʻambarlariga ham ishonamiz-a?

- Ishonamiz, togʻba. Haq hammasi.

- Qiyomat-chi, qayta tirilish-chi? Haqmasmi?

- Haq, togʻba...

- Haq bo'lsa, bu ishingiz uchun qiyomatda ne deb javob bergaysizlar?

U o'zini tortib, dabdurustdan tisarilib ketdi! Shu barobar o'sha tomondan dimogʻbiga allaqanday achimsiq hid urildi. (Nima bo'lsa, ekan bu?).

- Qaysi ishimizni aytmoqdasiz?

- Mana shu... - u o'zlarining mana shu yolgbiz turishlariga, sal narida esa bir ogʻbiz so'ziga mahtal yasovullariga ishora etdi, - mana shu qilmishingiz - kuppakunduzi bir mamlakatning kattasini imi-jimida o'gb'irlab ketishingizni aytaman.

U elanib bir qadam bosdi:

- Togʻba, Siz tushuning...

- Butun bir xalq ana endi erkka chiqdik, mustaqil bo'ldik, deganda, o'z ixtiyorimizcha, iymon-ishonchimiz bo'yicha yashaymiz, deganda, uni kim qilib ketmoqdasizlar? Qiyomatda Alloh oldida nima deb javob bergaysizlar? Bu xalq talab qilolmaganda, bo'zlab qolaverganda, har narsadan ogoh Alloh bor-ku? Unga nima degaysizlar?

U yer chizib, tosh qotdi. So'ng bir titrab-seskanib tushdiyu kepchik yuzi quv oqardi. Ko'ziga zo'rgʻba qaray olib, shivirladi:

- Men bu yoqlarini o'ylab ko'rmagan ekanman. O'lay agar, o'ylagan bo'lsam. Faqat Siz meni tushunsangiz bas, kechirsangiz bas. O'shanda Olloh ham kechir- gay, gunohlarimdan o'tgay, togʻba. - U boyagidek elanib, yopishib keldi. - Togʻba, bo'lar ish bo'ldi. Eshiting meni.

Boyagi yolgbiz achimsiq, qo'lansa hid uning ogʻbizidan kelayotgan edi. Ko'ngli ketib, o'zini chetga tortdi:

- Ayt, ne deysan?

- Bo'lar ish bo'ldi, bu yogʻbiga menga ishonang. Yalinib-yolvorib bo'lsa-da, men sizni u Jodidan tortib olgayman. Asrab qolgayman. G'isht qolipdan ko'chgan. Sizni asrash mumkindir-u, mamlakatingizni asrab bo'lmaydi. Mustaqilligingiz allaqachon birovlariga inom etib yuborilgan! Eshityapsizmi, inom etib yuborilgan. Tangritogʻbday mamlakatni ular hech qachon bir yalov ostiga birlashtirib qo'ymagaylar. Yon bosmagaylar, o'vora bo'lasiz! Sizing tutgan yo'lingiz - shariat bo'yicha ish ko'rishdan tortib, qolgan viloyatlarni ham ozod etmakka qilgan chaqirigʻbu ahdingiz - hamma-hammasi u zotga malum. Allaqachon yetkazilgan. Men kelmasam, boshqasi yuborilardi. Boshqa bir jallodning qo'li bilan yo'q etardilar. Yaxshisi, taqdirga ko'nyalik. Sizni mening qo'lim bilan yo'ldan ko'tarib tashlasinlar-u, ammo bu yogʻbini... bu aziz boshingizni asrashni menga qo'yib bering. Buni bir sizni bir men va yolgbiz Olloh bilsin. O'zga yo'l yo'q, togʻba. Balki shu turishimiz, shu kelishuv Ollohning xohlashidir. Bizni o'z panohida asrashidir..

Hech zogʻbga, hatto eng ishongan yelkadoshlari tugul, ayoliga-da, ogʻbiz ochmagan, isini-da chiqarmagan pokiza niyatlari, dilga tukkan, o'ylab qo'ygan ishlari nima bo'ldi? O'ndan biriga-da jazm etmagandi-ku, hali?

U oyogʻbining ostiga, ko'kat bagʻb'iriga qarab qoldi. Voh, ne ajabki, u - yerga o'ylab, ohista qadam qo'yguvchi odam, biror jonzotga jabr qilib qo'ymadimmi, deb titrab turguvchi inson... yer bagʻb'irlab o'sib-da, emin-erkin tup yozib yuborgan, tup yozish nima, bir ajoyib gullab yuborgan laylakoyoqni bosib turar, uning laylakoyogʻbi misol qizgʻb'ish-pushti gullari etigi ostida ezgʻb'ilanib yotar edilar.

Joni achib, tisarilib ketdi! Lekin u qolib, boshqasini bosdi, boshqasini-da ayab, yana yangisini ezdi. Qayoqqa qadam qo'ysa, bahori kelib yashnagan bir gulni, ochilib-sochilgan bir ko'katni bosar, payhon etardi. Ajinagullaru lolaqizgʻb'aldoqlar toptalar edi.

Chumoliga-da ozor bergisi yo'q odamki, shunday noiloj qolsa!... Yokim ochilmoq bor ekan, payhon bo'lmoq ham bormi? Xuddi uning niyatlari kabi, maqsudi kabi. Endi gul ko'rsatganda... yakson etsalar?

Uning alam-achchiq ichida, labini tishlab, tishlamasa - ingrab yuborari hech gap emasdi - jim qoluvini mezbon qanday tushundi (balki rizolik alomati deb bilgandir) va anov yasovullariga qanday ishora berib ulgurdi, qizgʻb'aldoqzor o'rtasida turgan uchoqqa birdan jon bitib, parragi aylana ketdi. Ovozi o'tlogʻbu qirni tutib, uning qulogʻbi chippa bitdi...

Kimdir tizzasiga yopishib, bilaklariga shappalar, yengidan tortqilab, holi-joniga qo'ymay xushiga keltirmoqchimi, o'ziga qaratmoqchimi bo'lar-u, u nimaligiyu kimligini anglay olmas edi. Alhol, qaqajon qizaloqnidek bir ko'hlik yuzga, (tavba, kipriklari muncha uzun-uzun?) ko'zlari oxunikidan ham mayusroq bolakayga (ha-ha, u o'gb'ibil bola edi!) ko'zi tushib, qaerda va qay taxlitda o'tirganini eslab, bir seskandiyu quloqlari zing ochilib, o'ziga keldi.

Bola mushtchalari ila uning ko'ksiga mushtlab, bidirlar edi:

- Buva, buva, uni qarang, men kimni topib oldum! Qarang, kim keloptu. Eshitopsizmu?..

- Eshitdim, eshityapman, - U o'girilib, yetti qadamcha narida ang-tang qotgancha turib qolgan juvonn ko'rib, bir uning, bir tizzalari orasiga suqilib olgan bolakayning yuzlariga qarab, hayratga tushdi. Bu istarasi issiq, jajji yuzni yana qaerda ko'rgan ekanman deb yuribdi! Yo musavviri olam, quyib qo'ygandek-ku! Nur ingan bir tomchi suvday-ku ikkisi!..

Bola uning ichidagi gb'halayondan bexabar soqollariyu yuzlarini silab, o'ynoqlardi:

- Qarang, buva. Menu qaeraga opkelupsiz? Ayamnu opketub qolushgan joyga opkelupsuz. Qarang, tuzalup qoptular. Yurup ketuptular, qarang.

Hoziq buva uning boshlarini silab, do'ppichasini to'gb'irilab qo'ydi.

- Ko'rdim, bolam, ko'rdim, niyat xolis bo'lsa, shu-da. Alloh shifosini bersa, shu-da. - U hassasini qo'liga olib, shoshqich turishga unnaldi. - Keling, qizim, opoqmisiz endi? Allohning madadi ila san ko'r-man ko'r bo'p qoldimi uzvlaringiz?

- Voy, turmang, qo'zgb'holumang, - juvon sal oqsagancha kuymanib joyidan jildi, - menga Siznu aytishub edi. Yodgormurodumnu ko'rib, esum ogʻb'ib qolibdu. Kim bila qanday kelibdu, deb...

Buva tavoze-la bosh egdi:

- Mazur tutgaysiz, qizim, mendan o'tibdi. Men dunyobexabar qariya... aytirishim kerak edi...

Juvon shoshib qodi:

- Yo'q-yo'q, aslo!.. (Unday deya ko'rmang!) Qaytaga bagʻb'rum to'ldu, ko'rub bir yerlarga yetti boshum. Sogʻb'ingan ekanman qo'zimnu... - deb yopishib borgan o'gb'bilchasini o'ziga tortib, boshlarini siladi.

O'zining parishonligidan (qanday gb'haflatda qoldi, tavba!?) jindek sarosimagami, xijolatgami tushgan qariya kalima keltirdi: La ilaha illalloh! Chindan Allohning karami keng, hikmati beqiyos! Uni sababchi etib, bularni yolgbiz ko'rishtirgani qanday go'zal bo'pti! Onasining etaklariga yopishib, bagʻb'iriga singib bora-yotgan bolakayga nigohi tushib, yeng uchi ila mijjalarini kishibilmas artib olarkan, bu topishuv asli dardlarning arishidan bir mujda ekanini o'ylab ketgan edi u.

- Voy, nega bu yerda o'tiribsz? Yuring, ichkaru kiring. - Juvon bu orada o'ziga kelib ulgurgan, mulozimatga tushgan edi. Ammo qariya yellar izmiga bo'y berib, kumush "kaft-chalari ila o'ziga xos qarsak chalib yotgan (ular ham Tangriga tasbehoh aytib charchamasdilar) manavi azim teraklar ostidan jilgisi, bu salqin ham tinmagur shabadalardan ajragusi yo'q edi. Tashakkur aytib, yengil tazim etdi:

- Agar mumkin bo'lsa, shu yerda o'tira qolayluk. Jannatning bir bo'lagidek joy ekan: orom yogv B̄ila- di-ya, jonivor bu teraklaru tinmagur yellardan.

- Voy, nega mumkin bo'lmasun. Ixtiyorungiz-ixtiyorungiz.

Yodgortoy ham ayasiga yopishib, nimchalaridan tort-qilar, qistar edi:

- O'tiramuz, o'tiramuz. Endi hech yoqqa ketmaysuz. Sizsiz ketmaymuz biz. To'gb̄Trimi, buva? - Bolakay qariyadan najot kutganday qaradi. - Aying siz.

Qariya jilmaydi:

- Zo'rgv̄Ba topib olganimizda qanday tashlab ketarkanniz? Opketamiz... erta-indin, Xudo xohlasa.

Bolakay sakrab-qunadi:

- Ana, opketarkannuz, opketarkannuz.

O'gb̄B̄ilchasing bu "qiligv̄B̄idan xijolatlariga botgan (ammo ichida yayrab borayotgan!) juvon atrofga alanglab, jujugv̄B̄ini bagv̄B̄riga tortdi:

- Voy, jim, eshitganlar nima deydu? Bu yernu bilmaysanmu?.. Bu yerda shovqun solmaydular.

Bolakay onasining quchogv̄B̄idan qariyaga javdira- di:

- Shunaqamu, buva? Urushub beradularmu?

O'ltirishga chogv̄B̄lanayotgan qariya tagv̄B̄in-da shirinroq jilmaydi:

- Senga kechirarli. Hamma ham ayajonisini senday topib kelsunchi...

- Ana-ana-ana! Eshitduz! - deb ayasining quchogv̄B̄idayoq sakrab-quvnadi u.

Juvon esa uni quchogv̄B̄idan qo'ymay qulogv̄B̄iga bir nimalarni shivirlar edi:

- Yodgor, senu kim aytadu, mening Yodgorum deb?!

"Yodgorum deb?! Qariyaning peshonasidan bir nima yurib borayotgandek... bexos vujudiga titroq indi. Ichidan yuragini sidirib-kuydirgudek bir nima tilib o'tdi: "Kimning Yodgori? O'sha Boturnimi yoxud boshqa birovni? Boturning tirnogv̄B̄i deb adashmadikmikan ishqilib? Unda bu mushfiqa kim bo'lib chiqqay? Ayolimi?"

O'ltirdilar. U o'sha boyagi - joylashib o'ltirsayoq bellariyu kuraklari bir ajoyib qolipga tushgandek, xush yoqib o'rtnashadurgan joyga cho'kdi. Oyoqlari hatto (to'rt enlikkina) ko'tarilib ham qoldi. Bundan tizzayu boldirlari bir orom topayotgandek edi. Ammo ayol kishining oldida bu o'ltirishi o'ziga ep ko'rinmay, qaddini ko'targan edi, oyoqlari yerni o'pib, o'zi jindek taskin topdi.

Juvon esa chekkaroqqa omonatgina cho'kkan, unga qarab qiya o'ltirar edi. O'gb̄B̄ilchasi bo'lsa, allaqachon uning bagv̄B̄ridan chiqib, o'rtadagi joyga tarmashar, ikkovlarining o'rtalarida bir yayrab o'ltirmoqqa hozirlanar edi. Bolaligim - poshsholigim, deb shuni aytdilar-da, ko'ngliga kelganini qilmay qo'ymaydi. Qani, shu yoshda bo'lib qolsa... Allohdan nimani tilar edi? O'tgan umri, bosib o'tgan yo'llarinimi yo... dediyu ichidan bir gv̄B̄uluv uygv̄B̄onib kelib, bo'shshib ketdi. Shu bo'shshuv ichida tili istigv̄B̄foriga juftlandi: "Astafirullohil aziymi va atuvbi ilayhi. O'zing magv̄B̄firat aylagaysan... taqdiri azaldan qochib bo'lurmi? - dedi tin olmay. Manavilar ham yuribdi ekan-ku, musofirlik tuzini totib... Tangritogv̄B̄dan uzoqda. O'zi to'zitib, ayriliqqa solib qo'ygana bo'lsa-da, shukr etib... chidab.

Ammo shu bilan birga ko'nglining bir chekkasida nimadir gv̄B̄imirlar edi: rostdan shular Boturga tegishli ekanmi? Bu uning tirnogv̄B̄iyu unisi ayoli?

So'rashga ogv̄B̄iz juftlab-juftlab qo'yayapti-yu, lekin tili bormasdi. Teskarisi bo'lib chiquvidan qo'rquyaptimi? Balki.

Axiyri, bo'lmadi, qariya tomoq qirdi:

- Men sizdan xabar olish bahonasida toychogv̄B̄ingizni yetaklab kelganimdan xafamasmisiz?

Juvon ham yorildi:

- Ollohga shukr, Tangri bersa, qo'shqo'llab beradi ekan.

- Yo'gb̄B̄-e, yana qanday yangiliklar? - dedi qariya shoshib qolib.

Juvon uning yuziga botinib-botinmay qarab qo'yib, chiroyli juftlab o'tirgan tizzalari ustida qovushtirgan qo'llari ila uringangina ko'ylagining etaklarini siypadi.

- Bugun nurga solub ko'rishib edu...

- Xo'sh-xo'sh? O'zgarishlar qanday? - Qariya yarim o'girilib, o'rindiqdayam tinchimayotgan bolakayning tizzalariga qo'lini qo'ygancha, juvonning xayrli so'zlar chiqayotgan ogv̄B̄iziga tikilgan edi. U esa allaqanday to'liqib, xo'rsindi:

- Sizga, Siznu menga topub berganlariga minnatdorligumni qanday izhor etsam: gv̄B̄ubor ham qolmaganmush...

Qariya yengil tin oldi: u mavlosigami, kimga shivirlar edi: xayriyat, uyaltirmabsan qulingni. Sening ilmu qudrating oldida bandangniki hechdir. Tomchicha ham emasdir. O'zing qo'llamasang, kim ham qushoyish berolgay edi manavi mushfiqaga?!

Unga ham shu gapni aytdi:

- Biz sababchimiz, xolos, najotni bergan Alloh. Barcha tahsinu hamdlarga yolgv̄B̄iz O'zi loyiq, O'zi sazovor. Bandasi nima qila olardi, agar Alloh qo'llamasa, xushlamasa. Xushlasa, yuz yillik dardlar ham arigay bir zumda. Uzun judoliklar barham topgay.

Ayriliqlar ado bo'lib, sogv̄B̄inganlar qanday topishganini bilmay qolgaylar, xuddi bugungiday. Qo'zichogv̄B̄ingiz oldingizdan o'ynoqlab chiqib qolganday. To'gb̄B̄rimi, puchoqtoy? - deb erkalab, barmogv̄B̄ini bolaning tugmachaday burnichasiga tekkizmoqchi edi, Yodgor boshini onasining bagv̄B̄riga olib qochib qiqirladi:

- Hecham-de.

- Nega endi? Yomonmu tugmachaga o'xshasa? - dedi qariya tegishib.

- Yo'q, - dedi u biyron va onasining yuziga qarab qo'yib. - Mening burnum, bilasizmu, kimnikiga o'xshaydu?

- Xo'sh?

U o'rindiqdan sakrab tushib, ayajonisining yoniga turib oldi.

- Qarang endu, kimnikiga o'xshaydu?

Juvon loladek qizarib ketgan edi, uni uyalibgina bagv̄B̄riga tortdi:

- Voy, sen tushmagur. Bu gapnu qaytdan topdung?

- Maqsud amaquam aytdula. Yomonmu?

Qariya boshini orqaga tashlab, tasirlanib-tasirlanib kularkan, mijjalariidan tirqirab chiqqan yoshni kaftlariga artib, ado etolmasdi:

- Qaysi, doruga borgan yigitchami? U aytgan bo'lsa, ishonmoq kerak, ishonmoq, - deb turib, juvondan so'rab qoldi: - kechirasiz, u Sizga kim bo'lgay?

- Qaynum, - dediyu juvon qizarib ketdi.

- Ie, shunaqamu? - dediyu qariya o'zining savolidan o'zi o'ngib baysizlanib qoldi. U mushfiqaga sir berib qo'yganidan ichidan zil ketmoqda, hojati bo'lmasa-da, tizzalarini uqalab, to'nining barlarini to'g'ib hilab-tekislar edi. Nima go'zal, har narsaning chini - haqiqati go'zal. Lekin shu tobda andisha o'ndan- da go'zalroq edi. Ayniqsa, manavi toy bolaning oldida, uning mushfiqa ayajonisiga tegishli narsalarda. Negaki, o'zining gb'amlari yetarli, ko'rguliklari yetarli. U shu asno ayajonisining tizzalariga yopishib, bemavrid elanayotgan bolakayga chalg'igan kabi, unga su-yibgina qarab qo'ydi.

Kelin (toy bolaning ayasi) u o'ylagandan ham sezgir edi. Uning shu nigohidanoq bir narsalarni sezab, o'g'ib hilchasia javob berishga shoshildi:

- Xo'p, bolam, xo'p, faqat uzoqma. Gulzorlarga oralab ketma.

Uchib-qo'nib turgan toychoqqa shu kerak edi: u ikki yonchasiga shattalab, samantoylardek chopa ketdi.

Qariya o'ynoqlab boraturgan bolakaydan nigohini uzmaskan:

- Bunizzi u yoqda ko'rsangiz, dalada yayrashini ko'rsangiz, - dedi.

- Qaerda? Maqsudxo'jalarnukidamu? - dedi juvon til-zabon bitib.

- Undanam nari... - dedi qariya chinimi-chiniga ko'chib. - Tarnovda. G'ir-gb'ir shabadalar diyori - bizning bog' b'imizda.

- Voy, nega? Bularniku-chi? - dedi u tashvishga tushib.

- Harna ko'zdan nariroq,- dedi tabib o'sha-o'sha halimlik ila chinidan qolmay.

- Tushunmadum, - dedi kelin titranib.

Qariya uni xotirjam etgali, muloyim boqdi:

- Shunaqa iltimoslar bo'lib edi.

- Iltimoslar?- dediyu kelin u yog' b'ini aytolmay tek qotdi: Aytishga uyatmi, xayomi, andishami - qo'ymasdi.

Qariya shoshib qoldi: xijolatlarga botdi:

- Siz qo'rqmang, eski qadrdonimiz Mirzahojimdan... elchi kelub edi.

- Elchu? Adamlardan-a? - Kelin esi og' b'ib, turib olgan, qaytib o'tirish xayoliga-da kelmasdi. - Siz u kishinu...

- Taniganda-chi, - dedi qariya. So'ng yuzlaridan nur yog' b'ilib: - Shunaqa, bir qarashda olam keng, hamma begonadek ko'ringani bilan aslida unday emas, - dedi.- Odam igna emaski, yo'qolib qolsa. Mana, Alloh kushoyish bersa hech gap emaskan.

Qadrdonimizning siz aziz gavharlarini topib turibmiz. Faqat u Botur Mirzahojimga kuyov bo'lishini bilmaskanmiz. Bilsak, allaqachon yetib kelardik-ku bu yerga. Shungayam shukr. Dilimizga solganiga, ko'rishtirganiga shukr, - dedi qariya Allohga hamd aytib.

Mushfiqa kelin esa sevinchlari buloq suvidan-da tiniq ko'zyoshlarga aylanib, yuzlarini yuvib tushar, shuncha quvonch ustiga Botur haqida so'rashga jazm etolmas, hayosi qo'ymas edi. Qariya shu holiga mushfiqani bir yo'la xursand etmoqni o'ylab, uning yana bir aziz kishisi haqida so'z ochgisi kelardi.

- Darvoqe, Hojimning kuyovlari, bizning Boturdan qanday daraklar bor? Ko'rganimga ham vallohi alam necha yillar kechdi? - dedi so'rash o'zi uyatlu bo'lsa ham.

Taxmini rost chiqib, boyaqishgina gangib qoldi.

- Kim, Sultonmurod akamu? Siz... u kishinu-da tanigaymusiz? Bilgaymusiz? - deb yubordi bir yerga yetib.

- Nega bilmayin, qizim? - dedi u tomog' b'iga issiq bir narsalar qadalib ham kuydirib kelib. - Meni deb... yurak yutib bu yoqlarga-da dovon oshib kelgan Boturni unutib bo'larmi?

- O'sha kishi-ya? Shu yoqlarga-ya? - Juvon bir qachongi tarixlarni xotirlab xushhol tortdi, ichi yorishib, o'zi qaltirab borar edi. -

Qachon, qay vaqt? Besh yillar burun...mi? - deya oldi.

- Shunday-shunday. Oldi oq o'riklar hol tashlagan kez. Men hech kutmagan bir kun, asr bilan shom orasi, - dedi qariya xotiralarga berilib. - Shu-shu qaytib ko'rmadim. Bilolmadim, hollari ne kechdi. Ishqilib, Alloh o'z panohida asragan bo'lsun u boturlarni, u toza o'g' b'lonlarni.

Qariya-ku, kumush terak tepasiga tikilganicha jim qolgan, botirlarining taqdirini o'ylab ketgan, juvon esa ikkala kaftini yuzlariga bosganicha hiq-hiq yig' b'lar edi. Bugina emas, unga qo'shilib tepadagi azim teraklar shovullab, adoqsiz kumush barglari ko'klam yellarida pipirab titrar edilar. Kumushdan ham tovlanaganroq orqa betlarini ko'z-ko'z qilishar-u, ammo buni uning ostida o'tirganlar ko'rar ahvolda emasdilar.

Olloh ularni ayni shu mahal, shu soatda anavi gulzor yoqalab hol-hol gulli mitti kapalakning goh balandlab, goh pastlab qanot qoqib boruviga xushi og' b'ganicha qolgan bolakay tufaylidan uchrashtirib, hech kimga-da ochib bo'lmas sirlaridan voqif etarkan, buning hikmati ne - yaxshilikkami va yana anduhgami, bilolmasdilar.

Shu tobda qariyaning ko'zi dafatan oq binoning peshtoqidan o'r lab chiqib borayotgan tanish alangaga tushib, sergak tortdi. Alanga bir muddat kuchayib-guvillab bordi, ammo bu gal tomnning peshtoqlaridan kutarilmay bo'shshmoqqa boshladi. Qariyaning ko'z o'ngida susayib borib, och qizg' b'ish peshtoqning o'ziga singib keta qoldi.

Tabib kuppakunduzi sodir bo'lib turgan bu narsaga ishonishini ham, ishonmasini ham bilmay qotib o'tirarkan, juvondan uyalibmi, istihola etibmi, ko'zlarini yumganicha shivirladi: "Yo qodir Alloh, bu ne karomat? Karomat bo'lsa, hikmati ne?", deya oldi.

Uning bu o'tirishiyu bu holiga ko'zi tushgan juvon hovliqib qoldi:

- Voy, Sizga nima bo'ldu? Ko'zingizni oching, beri qarang.

Qariya ko'zini ochib, boshini saraklatdi va ohista orqasiga suyandi:

- Hechqisi yo'q, o'tib ketdi,- dedi xijolat aralash.

Juvon seskandi:

- Nima edi? Nima ko'rindu?

Qariya uning yuzlari oqarib borayotganini ko'rib, qo'z g' b'olib qo'ydi. Va hech gap yo'qligini bildirmoqchidek, tizzalarini uqaladi:

- Siz mabodo o'sha oq binoda turmaysizmi? - dedi teraklar ortidagi oppoq binoni ko'rsatib.

Juvon bosh to'lg' b'adi:

- Yo'q, biz bu yoqdagisidamiz, nimaydi, ota?

- Unda bir sir bor, odam bolasining aqli yetmaydirgan, - dedi qariya bosh ko'tarmay va xayolga tolib qo'shib qo'ydi: - Hovfimda

ko'rinsa, tabir qilish mumkin edi, o'ngimdagisi qiziq, u nimadan belgi bermoqda, hech tushuna olmadiml.

Teraklar shovullar, yellar rayhon hidlarini sochib o'ynoqlab o'tar, gulzor atrofida chopgan bolakay hali to'rqanotli ninachilarga, hali unqanot kapalaklarga mahliyo - tikilib-tikilib qolar edi.

Bahorning tinch, beg'ubor bir pallasi edi. Ko'p tarixlarga shohid oq bino esa yarmi soyaga ko'milib, yarmi nurga cho'milib yotar edi.

Oq Binoning Yolgb'iz "Egasi (yana o'sha muallifga ayon tarix davomiga)

Nihoyat, bozorliqni quchoqlab ko'tarib olgan Yodgortoy oldinga tushib, uning qiliqlariyu o'ziga yarashgan "viqorli yurishlariga mahliyo onaizor orqasidan ergashdi:

- Maylu, biz tezda qaytamuz.

- Bemalol, bemalol. Bamaylixotir tashlab chiqaveringiz. Men o'tiraturaman, - dedi qariya.

Jujugb'ini xo'b sogb'ingan mushfiqa o'gb'liga qarab to'ymasdi. Oldiga tushib, bir qop semirib, erkalanib borishlariga mahliyo-mahliyo tikilar, ko'zlariga ishonmasdi. Dardi ariy boshlagani ustiga buning keluvi boyaqishginaning boshini ko'kka yetkazgan edi: qolaversa, insonga ko'pam nima kerak? Allohdan bekorga jindek xotirjamligu tan sogb'ligb'ni so'raladimi?

Olmazor ortidagi chakalakda adashib bulbul sayradi. Unga jo'r bo'lib, bogb' ichida qorashaqshaqlar beozor quvalashib uchib-qo'ndi. Teraklar orasidan bir to'p chumchuq (qayoqqa shoshadi bular?) o'qday uchib o'tdilar. G'imirlagan jon borki, ko'klam nematlari ichida o'ynab-quvnardi. Ichida zarhal qaynab, o'n sakkiz ming olamga nur sochayotgan oftob ham oq bino ortidagi qo'sh terakning belidan oshib qolgan, shu turishida ikki terak o'rtasiga zar hallinchaklar tashlar edi.

Bu yoqda, qariya o'tirgan yerga esa azim teraklardan hamon soyaga qo'shilib, orom yogb'ildardi. Kimdir pastdan shipillab kela turib, yakkam-dukkam ochilib bergan bo'ychan sariq safsar gullar tagidagi o'rindiqa o'tirgan oq-oppoq cholni ko'rmay o'tgan joyida, salom berdi:

- Assalomu alaykum...

- Vaalaykum...

Ovozidanmi, nimadan u qariyani tanib, turgan yeridan jilolmay qoldi.

Qariya ham uni salqi qovoqlariyu shilpiq ko'zidan (pastki mijjalari o'sha-o'sha osilib, jiyaklari qizarib turardi) tanidi. Bu o'sha oq uyning mutasaddi pazandasi edi. O'shanda bir ogb'iz so'zi bilan javobini berib yuborishgan edi-ku, yana qaerdan paydo bo'la qolibdi?

- Ha, Jamoloxun, qanday shamollar uchirib?.. - dedi qariya Ollohning gunohkor bandasini xijolatdan qutqarib.

U nochor-noiloj qayrildi. Ming xijolatga botib (er o'pib kel, desa kelardi!) oppoq ham to'mtoq barmoqlarini cho'zib (nima bo'lgan - o'ng qo'lining to'rt barmogb'ni tekis yo'q edi!) ikki bukilib kela boshladi.

- UZR, to'ra buva, ilg'b'hamay qolibman. Esonmisiz-omonmisiz? Nechuk-nechuk?..

Qariya uning dovdirashidan miyigb'ida kuldi: qo'lini olmasa bo'lmay (axir kechirgan!) dedi:

- O'zlariga yo'l bo'lgay?

Jamoloxun battar o'ngb'aysizlanib, shilpiq ko'zlarini olib qochdi:

- Xizmatchilik, yana chaqirib qo'yishmay, - deb qisindi.

Qariya "vazifang ogb'ur, Mansur!" deb yuboray de-di-yu, mulzam etib, gunohga botgisi kelmadi. Dunyoda bandasini izza qilgandan yomoni yo'q. O'libdimi, endi qaytib u ishlarga qo'l ursa. O'zi esa o'sha muzdek begona qo'lni bo'sh qo'ydi:

- Yaxshi borgil, ko'rganimdan xursandman. Harqalay gb'imirlab yurgan ekansan-ku.

- Rahmat, hazrat. Kechirasiz, to'ram taqsirim, - deb gap o'rtasida uzr ham so'rab qo'ydi. - Bizga xizmatlar bo'lsa, tortinmay buyuraverasiz, - deb jilpong'ladi. (O'zi qutulganiga shukr qilib, qocholmay turibdi-ku, yana yaltoqlanadi. Sut bilan kirgan - jon bilan chiqarkan-da!)

Hoziq buva ichida Allohning qudratiga tahsin aytib turgan bo'lsa-da (nega aytmasin, Alloh bunday bandalarini nimaga yaratib qo'yibdi - turgan-bitgani hikmat-ku!.. Odam qay ko'chaga bosh suqsa - mahluqqa aylanajagiga misol-ku bu!), o'ziga qattiq-quruq gapirmadi.

U esa, "rahmat, hazrat, kechirasiz, to'ram taqsirim, deganicha qo'li ko'ksida besh qadamcha tisarilib borib, so'ng shipillab keta boshladi.

"Chaqirib qo'yishmadi... Nima rost - shu rost. Sho'ro o'ziga xizmat qilganlarni unutmaydi, xor qilib ham qo'ymaydi. Ayniqsa, mana bunga o'xshaganlarni...

Hoziq buva irkit o'ylardan chalg'b'imoq uchunmi, o'rnidan turib, terak tagidagi sharqiroq ariq labiga bordi. Qarangki, u jaladan keyingi bo'tana suvdek loyqa edi. U yuz-qo'lini chayib, bir yengil tortgisi kelib edi, niyatiga yetolmadi. (Bo'ladi-ku, axir shunday: hamma narsa xohishingga teskari kelaveradi!). U bahavoroq joy izlab, yo'l yoqalab pastroq tushdi, teparoq chiqdi. Yo'lning bu yoqasidagi yolgb'iz qari sada tagigacha bordi, ammo o'zi boya o'tirgan joyga o'xshatmadi. Qaytdi. Hammasi gb'bir-gb'bir yellarga ko'ksini ochgan o'sha joydan o'taversin edi! Ammo... ammo buva o'zini shuncha chalg'b'itgani bilan o'sha o'tmishni - anavi irkit kimsa ila kechgan voqeani unutmadi...

- "Mana, zogb' ham kirolmaydigan bogb'. Tangritogb'hdagi bogb'ingizdan zo'r bo'lsa zo'rki, kam emas. Bu ham hukumatniki. Mana shu oq bino butun xizmatchilari ila Sizning ixtiyoringizda. Istagan narsangiz o'sha zahoti muhayyo etiladi. Bemalol yashayvering. Faqat bogb'hdan bir qadam jilmaysiz. Birovlar bilan muloqot, oldi-berdi man etiladi. Ulugb' Olampanohdan izn bo'ldi deguncha qabullariga eltamiz. Ungacha... shu yerdasiz.

Shunday deb tashlab ketishganicha... uchinchi kuni peshindamikan, vallohi alam, qasr namozini endi o'qib bo'lib, joynamozning bir chetini qayirib, tasbeh o'girayotib edi, eshikni shamolmi - nima itargandayin "gb'iyt ochilib, turib qoldi. Hech kim kirmadiyam, ko'rinmadiyam. Yolgb'iz namoz o'qigan kezlari shunaqa bo'lguchi edi, u yoqda. Buni jamoat bo'lib namoz o'qimoqqa tushgan farishtalarga yo'yib, bir gb'halati sir bosib, xushu va xuzu ichida qolar, eshikni yopishni ham unitar edi. Hozir ham o'shandayin bir narsa sodir bo'lib, shu holatga tusha boshlagan chogb'ida... o'sha qiya ochiq eshikni yana bir nima asta itardi. Sharpa shu qadar gb'hayritabiiy (shamol bo'lib shamol emas, maxluq bo'lib maxluq) ediki, tirmogb'hdan boshiga dovur duvillab bir jimirlov yugurib, soch tolalaridan chiqib ketdimi, tirmoqlari uchidan tizza- lariga, undan joynamozga o'tib ketdimi, bilolmay ham qoldi. Farishta tushsa, namoz tugab tasbehotga o'tirganda tushadimi? Asr payti bo'lsa ham bo'lak gap edi: farishtalar almashinmoqda desa... hali peshin-ku...

Shu tob bexos o'shal eshikdan asta mo'ralamoqqa boshlagan kimsaning oq-oppoq yapasqi yuziga ko'zi tushib, shuncha qaltis

damlarda qilt etmagan yuragi shigʻib etdi. Bu titroq tizzalaridan joynamozga o'tib ulgurmay... o'rniga bir shukr, bir taskindan avval... qazoi qadarga taslimiyat - o'limni bo'yniga olmoqlik bosib keldiyu "inna lillahi va inna ilayhi rojiyun deya shivirladi. "O'zingga shukr, Allohim, omonatingni bosh-qa biron joyda emas, joynamoz ustida oladigan bo'libsang, deb ko'zlarini yumgancha... tasbehga berildi. Tili tasbehohdayu dilidan boshqa o'ylar kechardi: "Ho', biz kim bo'pmiz, qanday ulugʻ zotlar shu joynamoz ustida sharafli o'lim topmishlar: Rasulullohning ulugʻ sahabalari - xulafoi roshidonlar - hazrati Foruq, harati Usmon, hazrati Ali!.. O'zingga shukr, o'shal shahidlar jumlasiga qo'shgan bo'lsang... Kipriklari o'z-o'zidan namlanib kelib, o'sha sharpa qoplondek tashlanishini... kutib qoldi.

Ammo qoplon... hansiragancha yopishib, ishini bitira qolmasdi...

Chindan ham eshik gʻibiyat etib, yuziga yopildiyu taxta polda o'sha qoplonningmi, nimaning ship-ship yurgan oyoq tovushlari uzoqib borib, tindi-qo'ydi. Shunaqa bir xunuk sokinlik cho'kdiki, buning oldida tungi jimlik avlo edi. Kuppa-kunduzi, peshin chogʻib, yana namoz payti dunyo nafas yutmay jim qolishi (!) gʻiblati edi. Uy ichida tiq etgan tovush eshitilmas, bu-ku, ichkari, hatto tashqarida yutib yuborgudek bir jimlik hukmron edi. Xuddi ulkan zilzila yoxud qazoi qadar oldidan bor mavjudot tosh qotgandek edi! Uy orqasidagi qo'sh terakda ertadan kechgacha chugʻib turlab bozor qilib yotadigan chumchuqlar ham (xuddi ofatini sezib gurra ko'tarilganu gʻiboyib bo'lgandek) qani bir ogʻib churq etib qo'ysalar. Jimjitlikki, quloq solib turib, vahimaga tushib ketmoq mumkin edi.

Eng yomoni, zuljaloli qodir Alloh uni bu besharaf asirlikdan qutqarib, shahidlik sharobini ichira qolmagan, bu dunyo mosuvolliklaridan bir yo'la ozod etib, oxiratning ulugʻ martabasiga yetkaza qolmagan edi! Ravo ko'rmadi shekilli... Munosib sanamadimi yo'..

Tasbehoh sanogʻida ham adashib ketdi. Ilgari o'ttiz uch marta "Astafirulloh allazi-mallazini aytgandayoq xotirjam tortib qolar, so'ng hamdga berilar edi. Hozir istigʻib formi uch o'girdi hamki, taskin topolmasdi.

Axiyri quloqlari ortidagi o'sha tinimsiz chuyvillash birdan tinib, o'zi sergak tortdi! "U yapasqi yuz kim bo'lsa ekan? Qachon, qaerda ko'rib edi? "E-ha, Jamoloxun-ku. Boshida oq qalpogʻib ham borday edi!.. U bo'lmay, kim bo'lsin! Unda... nega mo'raladi-yu, eshikni yuziga yopib qaytdi? Balki...

Ana shu balki tasbehohni adadiga yetkazmayin ham yuziga fotiha tortib, turishga majbur etdi.

Qani, chiqib boqsin-chi, kutyaptimi yo qorasini ham ko'rsatmay gum bo'ldimikan? Shipillab survorgan bo'lsa, niyati chindan buzugʻbu, jindek kechikkan, agar kutyapgan bo'lsa, bo'lak gap: o'zi shayton vasvasasiga uchgan bo'lib chiqqay.

Chiqsa, o'rindiqqa omonatgina cho'kkancha, haq deb kutib o'tiribdi. Ko'ra dik etib turib, hojasining qarshisida qo'l qovushtirib, bir hokisor qiyofaga kirdi. Kamiga namozning haqqi - qarz salomini unutmadi.

- Assalomu alaykum, hazrat...

- Vaalaykum... - deb alik oldi-yu, ogʻib turinganini yashira olmadi. - Ha, Jamoloxun, yanami?

U tushundi:

- Uzr, to'ram taqsimim, - deb tazim etgancha ikki qadam tisarildi, - endi qaytarilmagay. - Shu turishida qo'li ko'ksiga yopishib ketgan, tavezosi samimiy ko'rinsa-da, ko'zi gʻiblati bejo edi: tik qaray olmasdi. Yuziga ham tushuniksiz allanimalar soya tashlab turgandek. Nima bo'lsa ekan? Ko'p dogʻibuli odamlar shunday yumshoqsupurgi bo'lmasmidi?.. Balki uniyam tushunish kerakdir. Bir chekkasi xizmatchilik, bir chekkasi hazilakam odamga bogʻibliq vazifalar. Yo'qsa, oshpaz qiyofasidagi tingchidir, "ko'zdir, "qulogʻibdir, balodir-badtardir, ishqilib, bir xufiyadir. Bekorga qo'yilmaydi-ku. O'zi-chi, kimsan Tangritogʻibdek bir mulkning moliki edi. Oddiy tutqun bo'lsaki, it ham, bit ham turtib-netib o'taversa.

- ... olib kira... vurayinmu?.. - dedi u allaqanday javdirab-izn kutib.

Ana shu javdirashi ittifoqo gʻiblati ko'rinib (yo Xudoning qudrati!) ko'ngliga bir ishtiboh oraladi:

- Opoy-chi, bu go'shaning oqsochi? - dedi u tomon yarim o'girilib.

Jamoloxun o'zi oqsariq odam... duv bo'zardi, so'ng bir nimadan hayiqqan kabi bir qarich tortib keta turib, sir boy bermaslikka urindi. Yapasqi yuziga uzrxohlik qalqdi:

- Kechirasiz, to'ram taqsimim, bir qoshiq qonimdan kechasiz. Sizdan beruxsat Opoyga javob berib qo'yibman: ko'nglum bo'shligi qursin, ayol kishi ko'zyosh qilib tursa, yo'q deya olmayman hech.

Yolgʻibonni ham xo'b to'qidimi! O'z ko'nglida chippa-chin ishontirdim, deb o'ylar. Lekin nimaning choki ko'p - yolgʻibonniki ko'p. Bir yeridan sitilsa, tamom, hammasi so'kilib ketgay! Aqling ko'toh, Jamoloxun. O'zingni ustomon sanaysan-u, sir berib qo'yganingni sezmayсан.

O'ziga indamadiyu to'rt tomoniga ko'k duxoba ko'rpachalar tashlanib, o'rta mo'jaz xontaxta qo'yilgan, hamisha tuzogʻibliq turguchi mehmonxonaga (nomi shunday: tutqunning oldiga qanday mehmon kelishi mumkin, axir!) qarab yuraverdi.

Buni ijizat deb tushungan Jamoloxun esa tazimda tolgan qaddini ko'tarmay ham tisarildiyu xizmatga shoshildi. Xuddi shu mahal bo'gʻibot ichidami, peshtoq tagidami - ishqilib, guldor faner orasida in qurib, vatan tutgan chumchuq bolalaridan qay biri chigʻib chigʻiblab, potirlab berdiyu zum o'tmasdan tinchidi-qoldi. Faner ichida bir nima sirpanib, to'sin ortiga o'tib ketdi-da, suv quyandek jimlik cho'kdi.

Bu uy, bu go'shani vaqtincha vatan tutgan tutqun hali mehmonxonaga kirib ulgurmagani edi. Bir oyogʻib ichkaridayu o'zi ostonada shiftga alanglarkan, ichi gʻiblashlanib, o'zi allatovur cho'chidi:

- "Sirpangan - nima bo'lsa ekan, ilonmi, nima balo?

Ostonada bu alpoz turuviyu poloponning xunuk chigʻib chigʻiblashini yomon fol olib, bir ko'ngli qaytmoqni ham o'yladi. Lekin islomda yomon fol olmoq nojoizligini eslab, ichida "Har yaxshilikni berguvchi ham, har yomonlikdan asraguvchi ham O'zingsan. O'zingni vakil qildim, deb duo o'qib, ichkari kiraverdi. Ko'ngli hiyla xotirjam tortib, ko'rpachaga cho'kkalab edi hamki, oyna ortida rang ola boshlagan sariq gilos shoxida ona chumchuq birdan chirqillay ketdi. U shoxdan-shoxga sakrab, tinim bilmay charx urib chirqirar, tumshugʻibda ola kelgan ko'kish qanotli bir narsani tashlamayin ham (axir poloponlarining rizqi, ular esa joyida yo'q) o'zini har yon urib, giryon qilardiki, naryogʻib yo'q. Unga boshqa chumchuqlar ham qo'shilib, bir pasda deraza tepasida qiyomat qo'pdi.

Shu asno oq-oppoq bo'lib, bilagiga sochiq tashlab, qo'lda patnis bilan, patnisda esa choynak-piyolayu taqsimcha va kosada nematlar ila ostonada Jamoloxun ko'rindi.

Deraza ortidagi qiyomatga xayoli qochgan mehmonning ko'z o'ngidan Tangritogʻibdagi bir tutamgina eli, go'shasi ketmasdi: Ular ham manavi chirqillab qolgan chumchuqlardan qaeri kam? Ular ham bir tong, hali quyosh choshgohga ko'tarilmay turib sorbonlaridan ayrilib qolmadilarmi? Qayon borarlarini, uni kimdan so'rarlarini bilmay, dahanini ko'kka tiragan togʻblar orasida

yetim kiyikday bo'zlab qolmadilarmi? Farqi, bular poloponlarini oldirib o'tiribdilar, ular esa sorbonlarini...

U ostonadan o'tishga jurat etolmayin qayta-qayta izn so'raru bu ko'z oldi achchiq tutundan tamomi xira tortib-yoshlanib, bu yoshdan jami narsalar chaplashib ketib, bo'g'β Bizga issiq bir narsa qadalgancha qolgan, ostonadagi odamning esa lablari qimirlaru ovozi chiqmas, yo buning quloqlari chippa bitgan edi...

Alhol birov juda yaqindan:

- Ruxsat eting, hazrat... - deya o'tingandek bo'l-di-yu, u azbaroyi cho'chib tushdi.

Ostonada oqsoch... nega oqsoch, oq-oppoq o'rangan bir mahluq - ilon bo'lib ilon emas, odam bo'lib odam - naq oq ilon ikki bukilib, patnis ko'targancha izn so'rab turardi.

Etlari jimirlab, seskanib ketdi: bu qanday ro'yo yoxud ko'rinish? Yapasqi yuzi, qizil jiyaklari osilib tushgan shilpiq ko'zidan kimgadir - odam zotiga o'xshaydi-yu, lekin alang-jalang bejo turuvidan (yo qudratingdan!) ora-chira tilini chiqarib-chiqarib qo'yayotgan ilonning o'zginasi edi. Faqat vishillashi yetmayapti, xolos. Ilon odam kalomida so'zlar edi:

- Hazratim, izn bersangiz, tushlingizni opkelub edum...

Nima bu, insmi yo jin? Ilonlar ham jinlardur, degan hadis bo'larmidi? Unda nega bir qiyofada emas, yarmi ilon, yarmi odam siyoqida?

Kimsasiz gβ Borlarda adashib-uloqib yurishganida qilt etmagan yuragi uvushib, tik jar yoqalab ketgan yolgβ Bizoyoq so'qmoqlarda qaltirmagan oyogβ Bidan jon qochib borardi.

Faqat Xudoga ming qatla shukrki, bu qo'rqinchdan dili orqasiga tortib, tili muzlay boshlamagan edi. Kalima keltira olardi, keltirdi. Yolgβ Biz najot undan edi. O'zidan so'radi: Alloh o'zing haqsan, qiyomating ham, qadaring ham, yozugβ Bing ham haq, rizqimiz bitgan bo'lsa, bu tutunlikda o'lim topmoq peshonada bo'lsa, u ham haq, qiyomatda qayta tiriltirib olmogβ Bing ham haq. "Iyyaka nabudu va iyyaka nastain, ix dinas sirotal mustaqiyim... Yolgβ Biz O'zingga ibodat qilgayman, yolgβ Biz O'zingdan madad kutgayman, hidoyatingni darigβ B tutma, to'gβ Bri yo'lingdan ozdirma, besharaf o'lim topdirma. O'zimni O'zingga topshirib, O'zingni vakil qildim, hasbiyallohi va nimal vakil...

Eti jimirlab kelib, oyogβ Biga jon qaytdi. Ichiga sokinlik cho'kib, yoqimli bir xotirjamlik indi vujudiga. Ko'z oldidagi xira parda ham ko'tarilib, aqli tiniqlashib kela berdi:

- Kel, hamonki, opkelibsan, nega turibsan, kir,- dedi Jamoloxunga bamaylixotir.

Oxun aqli shoshib, ostonada qoqilishigayu qo'lidagi nematlar patnis-matnisi bilan uchib ketuviga bir bahya qoldi.

Ammo so'nggi daqiqada qo'shqo'lab tutib qolib, unga uzrxohlik bilan qaradi, yolgβ Bondakam iltifot qildi:

- Nasibangiz butun ekan, men uchib ketdi devdim...

U o'zini har ogβ Biz so'zi, iltifoti, tazimu tavozesidan tutib bermoqda, oq uyning tutquni esa indamay, miyigβ Bida jilmaygancha uning qalbida kechgan-kechayotgan titrogβ Bu gβ Balayonlarni ko'rib-bilib turgandek edi. Jamoloxun patnisdagi nematlarni dasturxon ustiga qo'yib, cho'kkalagan joyidan turayotib edi, u qo'lini ohista ko'tardi:

- Shoshma, o'tir, - dedi boshqa gapu bahonaga o'rin qoldirmay.

Jamoloxun amrga bo'ysunib, patnisni tizzasiga olgancha, qaytib joyiga cho'kdi:

- Buyursinlar, biron narsa qo'shaymu? - dedi ich-ichidan gβ Bimirlab kelayotgan hadikni jilovlashga, hazratning ko'zini bogβ B lab ketishga urinib.

- Yo'q, haddan ziyod urinib yuboribsan, Jamol-oxun. Bir kishi tugul ikki kishiga ham yetarli-ku buning, - dedi u nimagadir shama etib.

- Rahmat, hazratim, Sizga manzur bo'lsa, bas, shu kifoya bizga, - deb shilpiq ko'zlarini yumdi u.

Ajab. Ko'zini yumsa, binoyi odam ekan-ku! Hamma illat - o'sha qontalash ko'zlaridami ekan? Yo'-o'q, illat ichda, deb turib, o'ziga "mulozamat etdi:

- Qani, patnisni qo'y, tuzukroq joylashib o'tir. Birga-birga sening qo'lingni ham ko'rayluk, - dedi atay. - Qani, bismilloh ila boshlachi, avval qaysinisidan totinamiz?..

- Yo'-yo'-yo'... Nima deysiz? - U bizga mumkin emas, sizning oldingizda biz kim bo'pmiz, degan kabi sapchib tushgan, hatto cho'kkalagan joyidan surinib, gilamga tushib olgan edi.

- Qiziq, jo'ja nima demoqdaki, bu alpozga tushmasang, Jamoloxun? - dedi ulugβ B tutqun.

β B"Jo'ja? Yo'gβ B-e, taom ham gapirgaymi hech zamonda? - deb kalovlandi u.

- Bo'lmasa-chi, aytib turibdi-ku: yemang taqdir, zaharlanganbiz, deb.

- Astafirulloh, sizga-ya, jo'ja-ya? - u yana tisarilib, yoqa ushladi.

Ulugβ B tutqun qo'lini duoga ochmoqqa chogβ Blandi:

- Nima qilay? Allohdan astoydil so'raymi? Sen ham, barcha insu jinlar ham eshitadigan qilib aytsinmi?

- Yo'q-yo'q, hazratim, keragi yo'q, - u to'rt oyoqli mahluqday emaklab-surinib keldi, - o'zim aytgayman, - shu barobar etaklarini o'pishga, o'pib-o'tinishga urindi, - men nobakorni kechirgaysiz, itliq qilib qo'ydim.

U duoga ochgan kaftlarini asta yuziga tortib, shivirladi: "O'zingga shukr, sharmanda etmading. Sharafli o'lim bo'lsa, boshqa gap edi. Mingta jonim sadqa edi senga.

Fasubhonalloh! Avvaliga tuyqus irkit narsaga duch kelgan kabi irganib turib edi, endi uning it kabi bilaklarida surinib kelib, poyini o'pib yotuvidan ichi achishiblar ketdi. Yo qodir Alloh, bu ne ko'rgilik? Avvalboshda o'zing azizu mukarram etib yaratgan zot - bandangga nechuk bu xil turfa taqdirlar bitmishsan? Kim bu? Qobil avlodimi yoxud bobokalonini o'z gunohiga sherik qilish qismati bitilgan kimsami? Muncha ko'p ekan bu xalqning so'qirlari? O'z dindoshiyu birodariga, elatdoshiyu qondoshiga tigβ B ko'tarmoqdan cho'chimagan, zahar solmogβ B qotil nomini olmoqdan hazar qilmagan gβ Bofillari? Qachon odam bo'lamiz biz?

U namozga o'tgan chogβ Bi egniga ilgan uzun sariq yo'lli to'nining bariga biron narsa tegishi yoxud muk tushib, oyoq ostini o'pib yotgan kimarsa dabdurustdan tizzalariga yopishib qolishi mumkindek nari surildi. Kimsa esa boshini yarim ko'tarib, rangida rang qolmay to'ram taqdirga termularkan, shilpiq ko'zlari, vo' ajab, xuddi hozirgina mil tortilgan kabi qip-qizil gβ Biltillar edilar.

- Qo'y, Jamoloxun, endi o'tinchlaring befoyda! Seni Xudo urib qo'yibdi, gunohingni bandasidan emas, O'zidan so'ra. Rahmat-marhamati keng zot rahm aylasa ham, qahr aylasa ham O'zi bilgay. Sendek adashgan, nobakor bandalari ko'p o'tgan, Alloh suygan bandalarini Sizlarning qo'lingiz bilan hamisha mahv etib, huzuriga tilatib olgan. Ularga-ku, jannati naimlarini tayyorlab qo'yib, qotillarini qay jazoga mahkum et-gay - bu menga qorongβ Bi. Bu gβ Bayb, Jamoloxun. Yolgβ Biz Alloh bilguvchiroqdir, - dedi oq uyning yolgβ Biz tutquni shu topda juda-juda xotirjam tortib va ayni payt-da sokin xayollarga botib. - Manim esa, niyatlariz amalga oshmaganidan malumki, habibimga yoqadigan xush amallarim unchalik ko'p emas chogβ Bi. Yoxud bilib-bilmay qilgan

gunohlarim bir talaydir-u, uni yuvib ulgurmagingma muhlat berildimikan? Balki. Shunga-da, shukr. Alloh uni yuvmakka, poklamakka imkon qoldirganiga-da, shukr. Qoldirmasa, nima qilardim? Endi sen tur. O'zing xarom etgan nematlarni o'z qo'ling-la tuproqqami - bir yerga ko'm. Toki, qaytib birovning umriga zomin bo'lma. O'zingni esa bu dargohda qaytib ko'rmay. Qiyomat haq, Jamoloxun. Allohga ro'baru bo'lishimiz bor. Bandasidan uyalmasang, Xudodan qo'rq. Undan uyalgin bu xil ishlariga. Bor.- U turib peshayvonga qarab yuraverdiyu tahoratini yangilashi zarurligini anglab, to'nini almashtirishga tutindi. Tashqarida chumchuqlar chirqillay-chirqillay o'z o'kiniga tushib tinchigan, ichkarida ham Jamoloxunning na shovuri, na oyoq tovushi eshitilardi...

- Buva, buva, biz kelduk, ayam turadurgan joylargacha ko'rub chiqduk,- Yodgortoy hov naridan chopqillab kelgancha, tizzalari orasiga o'zini otdi.- Opketayluk ularni ham, aytung, buva,- deb ko'ksiga yopishdi.

- Opketamiz, bolam. Nega opketmas ekanmiz. Faqat biroz sogv'aysin, - U bolaning kuraklarini silab-erkalab, iroqi do'ppisini to'gv'brilab qo'ydi.

Yodgor arazlagan kabi tosh qotdi-yu, qiz bolanikiday uzun-uzun kipriklarini pipiratmay tikilib qoldi.

- Qaerdan bilduz, ko'rmadiz-ku, - dedi bolalarcha soddadillik-la.

Buva uning ko'ngliga qarab jilmaydi:

- Ko'ring, desang, ko'ribam qo'yaveraman. Lekin rangi-ro'yi aytib turibdi: biroz bor.

Bola chiroyli arazlab yuzini burib oldi:

- Binoyilar-ku.

Qariya uning mitti yelkalaridan quchib, bagv'briga tortdi:

- Sen sogv'bingansan-da, bolam, senga shunday ko'rinayotir.

- Sizga-chu? - dedi u arazidan tusholmay.

- Yana biron hafta bor, keyin bir umrga qaytalamaydi, ayang hamisha sen bilan. - Ko'r, hali ranglari tiniqlashib ketmagan. Dardi arisin, atirgulday ochilib ketgay, demoqchi bo'ldi-yu, aytmadi.

Bu orada kuttirib qo'yanigami, shunday ulugv'bi, qo'li yengil tabibning o'zi, o'z oyogv'bi bilan ko'rgani kelib o'tirganidan xijolatga tushibmi, ildamlab kelayotgan juvon o'sha nariroqdanoq uzrxohlikka lab juftlagan edi:

- Aybga qo'shmagaysiz, uzoqib kettum. Siznu kuttirub?

- Bir-biringizga to'yib olgan bo'lsangiz, men rozi!- dedi qariya Yodgortoyning yelkasiga qoqib. - Endi Asaltoyni ichiktirmay opkelib turamiz. Mana, ko'rib oldik-ku, yo'lni. Shundaymi, toy?

Yodgor yalt etib o'girildi:

- Sogv'binsam, o'zizga aytavuramanmu? - dedi o'sha-o'sha bolalarcha soddalik bilan.

- Aytavurasan. O'zim optushaveraman.

- Hov, o'shaqdan-a? Bogv'bizdan-a?

- Nima bo'пти? Mashina chaqiramizu gv'buva yetamiz.

- Ayamlar-chu, ularniyam o'sha bogv'bga opketamizmu?

- Opketamiz. U yerdan hech kim topolmay yursin. Hatto Maqsud amaking ham, - dedi-yu, shu yerga kelganda tilini tishladi. Shuni aytmay qo'yaqolsa bo'larkan. Juvon "voy dediyu, kaftini yuziga bosib qoldi.

- Hali qaynim... bilmaydilarmu?

Qariya bu uzun tarixni qanday tushuntirarini bilmay tutamga kelib-kelmaydigan, ammo ikki quloq yumshogv'biga qadar uzayib borgan, qorasidan oqi mo'l soqoliyu yuzini silab-siypadi. Shu asno manoli tomoq qirib:

- Qayningiz... Boturning tugv'bishqonimi yoki tutungani? - deb edi, juvonning oq yuziga duv-v qizillik yugurib, qizil gullar ichida qolgan yolgv'biz atirgul tusiga kirdi.

- Voy, tugv'bishgandan ham alo-ku, xolavachchalar-ku,- dedi uyaliygina.

Tabib o'ziga yarashgan va bir boshqacha nuru fayz bervorgan to'nining barini qoqib, o'rnidan turdi. Shunda ham toy bolani o'zidan qochirmay uzun-uzun, tahoratda oqargan barmoqlarini uning yelkasiga qo'yib turardi.

- Shunday deng, biz ko'z qorangizni undan ham nari tutib yuribmiz.

- Nari? Voy, nega? - juvon gapni oqimidan dafatan shoshib qolgan edi.

- Tinchlik-tinchlik, hozircha tinchlik, - dedi uni yupatib, - lekin yaxshi odamlarning xabarlariga qaraganda ehtiyot lozim shekilli.

Bu yoqda Boturning tirmogv'bi borligidan xabar topishmish.

Juvon bu xabardan chayqalib ketdi. Boshi gir aylanib, ko'zi tindimi yoxud avval ko'zi tinib, so'ng boshi aylandimi, anglay olmadi.

Yaxshiyam yonida tabib borakan, uning qo'ltigv'bidan tutib qoldi.

- Sogv'b-omonmikanlar ishqilib? - deya oldi titroqqa tushib. Ovozi qaltirab chiqqanini o'zi ham sezib, battar xo'rligi tutdi. - Siz biladurgon odamlardan eshittizmu? Qaerda jon saqlamushlar?

Qariya bir yonida juvon, bir yonida bolakayni ergashtirib darvoza tomon borarkan, ajablanib to'xtadi:

- Siz hali eshitmaganmisiz, qizim?

- Yo'q, mana necha yildirki, bir ogv'biz xabar yo'q u kishidan, - dediyu ko'zlaridan duvillab oqqan yoshlarni to'xtatolmay qoldi.

- E, balli. Sabringizga balli, ona qizim. O'sha ketgancha... dom-daraksizmi? - dedi tabib azza-bazza to'xtab va qanday yupatarini bilmay kiftlariga qoqib, kuraklarini siladi, - tagv'binam Alloh o'z hifzu himoya-sida asrabdi, qizim, shukr eting. Qanchalar to'zib, dunyoning har chekkalariga tariqday sochilib ketmadi. Sizlarni Tangrim asrabdi, o'z mahfuzasiga olib. Bilmam, kimning baxtiga.

Balki manavi toychoqning baxtigadir yo Boturning omadiga. Buning uchun har kecha, har sahar qancha-qancha hamd aytmoq lozim Allohga! Shukrona joiz. Shunda hamma mushkullaringizni oson etgay O'zi, insha Alloh.

- Aytganim bo'lsin, uzmaganim bo'lsin, - deb shivirladi juvon ko'zda yosh ila.

Shu barobar ko'klam havosidan yashnab yotgan har bir bitta barg, har bitta o'lanni o'pib-quchib toza yel esib o'tdi. Terak barglari shovullab, kumush kapalaklarday qanot qoqib qo'yaqoldilar-u, uchib ketmadilar. Balki u kumush kapalaklar ham emas, manavi jabrdiyda musulmaning chin yurakdan chiqqan tilagiga omin aytayotgan farishtalarga ham o'xshab ketar edilar.

Egizxon Yoxud Favqulodda Mardona Bir Tashrif (muallifgagina ayon tarix davomiga)

Ular safarlari qarib, xo'shlashib chiqishmoqda edi. Toy bola - Yodgormurod ayajonisidan ajralolmay hali u-hali bu tarafidan yopishib borib, bir nimalarni ijkilab-so'roqlab yotar, bular esa, olovrangga mo-yil oynadek yaltiroq marmar ustilab, bir amallab, zinadan tushib kelishmoqda edi.

- Shoshmang, hazir bo'ling, Hoziq buva. Qirrasiga oyoq qo'ya ko'rmang, - deb yugurgilab kelib, qo'ltig' b'idan olgan jonsarak eshikbon juvon o'sha bo'yi jovullar edi, - rasm bo'lmay ketsin, shu oxontoshlari, oyoq tagiga vovsi l bo'lmaskan, shir etib qormi-nima yog' b'orsa deng, tayyor yaxmalak-a! Qish keldi deguncha mening jonim xalak: eski palosmi - bir nimalar tashlaganim-tashlagan.

- Alloh ajrini bersin, - dedi qariya uning ko'magida pastga tushib olganidan bir yengil tortib. - To'g' b'ri qilasiz...
Shu asno yonginalarida kimdir baralla:

- Assalomu alaykum, to'ra buva!- deya tiniq Farg' b'ona shevasida salom berib, tavof etgali kela bosh-ladi.

- Vaalaykum... - deya taraddudlanib qoldi qariya. Qarshisida chaqmoqday kiyingan qilichday yigitlar turar edilar. Taniy olmadi dafatan.

Lekin ular Hizrni uchratgan kabi bir holatga tushgan edilar. Biri hatto qo'shqo'llab ko'rishmak harakatiga-da tushgan, boshqasi iymanib turar edi. Faqat yuzlari-yu o'zlari kishi adashtirib qo'ygudek bir o'xshashki... Hasan-Husan deysiz. Valloh, kim bo'ldi bu qilichday yigitlar?

Qariyani taraddudga solgan narsa ularning bir tomchi suvdek o'xshashligidan ham burun sof farg' b'onacha kiyinib olganlari edi. Hozir uchoqdan tushishganu ro'para bo'lishayotgandek. Egnilaridagi yilt yangi qora las choponu beldagi belbog' b', boshdagi satta anjannusxa do'ppilaridan - tamomi hammasidan vodiy nafasi ufurib turardi!

Yigitning sazasi o'lguncha qo'chqorning shoxi qir-qilsin! Hoziq to'ram iqi suyib jilmaydi va izn bergan kabi qo'lini cho'zdi:

- Kelingiz, qaerlardan so'raymiz...

Tavof etishga ilhaq yigit yugurgilab kelib, qo'lini oldi:

- Taniysiz, to'ra buva? Men Inomaliman.

Inomali-Inomali, vodiyga sochilgan qaysi xeshu aqrabosining tirnog' b'i ekan? Va ular tanib, biz tanimay ketgan, vallohi alam? Eslolmadi.

- UZR, qarichilik.

Qo'lini qo'ymay, kaft ustlariniyu bilaklarini silab-siypashga tushgan yigit tavozulandi:

- Biz hov Safedbiloldanbiz. "Qilichmozor tomonlardan! Esladizmi? Sahobalarning qabrtoshlaridagi yozuvlarni o'qigani borgandingiz.

- Darvoqe-darvoqe... Sizlar o'sha tarafdanni? Azizlar o'tgan joylardan-a?

- Xuddi o'sha Safedbiloldan.

- Ey, uni qarang-a, o'sha tabarruk ziyoratgohdan-a? - U o'sha ko'p qadim va tabarruk mozorotni, u yerda goh ko'tarilib, goh pastlab turguvchi sirli oqtoshni ziyorat etganlarini, Quron tilovatlar etib, yig' b'lab duoi xayrlar qilganini eslab ketdi: voh, qani endi, u joylarni yana tavof etish nasib etsa!

- Vaqtning o'tuvi, umrning ketuvini qarang-a, uch yil bo'ldimikan, vallohi alam?! - dedi mutaassirlanib.

- O'sha safargi borganingizga-ya? Bultur emasmidi, Imomali? - dedi yigit qo'shog' b'iga o'girilib.

- Yo'q, burnog' b'i yilning yozi edi, - dedi iymanchiq qo'shog' b'i, shu davada kelib ko'rishib, - bilqillagan ko'cha tuprog' b'ini satilda qorib, bitiklarga surtishayotgan edi-ku.

- Ha, barakalla, toshdagi yozuvlarni shunaqqib o'qiganmiz. Rost-rost, - dedi qariya ham.

- Ha-ha, toshga loy surtgan sariz bitiklar bo'rtib chiqayotib edi...

Endi ular ikki kishilashib tavof etishar, misoli imom Hasan, imom Husan kabi bo'y yetgan yigitlar, uning o'sha safarini eslab, bir yerga yetishar edi.

- Nachora, shusiz o'qib bo'lmaydigan holga yetgan ekan, u yodgor bitiklar...

Hoziq to'ram bo'g' b'izda qaynoq "tosh, ko'zda achchiq nam ila qabrtoshda tirilib-ajrab chiqayotgan loybitiklarni o'qiyotgan kezlarini eslab, tili o'z-o'zidan duoga aylana boshlagan edi: "Alloh rahmatiga olsin, u roziyallohu anhumlarni, Islom tug' b'ini shu yerga qadar olib kelib, "Qilichmozorda qolganlarni, deya shivirlardi. Endi bu yog' b'iga dovon oshib, boshqa diyorga o'tmoqqa kelganda oraga nizo tushib, ikkiga ajralgan sahobalar tarixi-voqeasi ham yodga tusha qolgan edi. Lekin mana bu Hasan-Husandek yigitlarni qay vaqt uchratgan ekan?

- Siz eslang-a, qoq peshin edi. Bizning shaldiroq aravamiz, - dedi egizlarning kichigi, - naq ro'parangizga kelganda o'qi shaqqa uzilib tushib, sudralib qolsa, bo'ladimi?!

- Qaniy-qaniy... - dedi qariya elas-elas xotiray boshlab.

- Keyin biz mashinalaringizni so'rab bordik. Ogb' b'rib qolgan eshontamizni kasalxonaga yetkazib olaylik deb.

- E, o'shandami? Esladim-esladim. Do'xtir qolib, uyga qaytarganimni aytasizlar-da? - dedi qariya yigitning yelkasiga qoqa-qoqa.

- Xuddi-xuddi. Biz eshontamizni tezroq olib bora qolsak, deymiz. Siz uyda xo'roz topiladimi, ayni qichqiradigani kerak, deysiz. Toza g' b'halati bo'lgan-da.

- Allohning yetkazishi-da! Bekorga aravaning o'qi o'sha yerga borib sinibdimi! - dedi kulib qariya.

- Keyin-chi, keyin? Topib kelgan xo'rozimizni halloslatib quvlatganiz-chi! - dedi yigit.

- Bo'ldi-bo'ldi! Tanidim! Allohning uchrashtirgan joyini qaranglar-a! - dedi qariya behad mutaassirlanib, - Eshon tog' b'a qalaylar? Nafi bo'ldimi, axir?

- Bo'lganda-chi! Eshontam san ko'r, man ko'r bo'lib ketganlar. O'sha xo'rozsho'rva em bo'lib! Ayt, Imomali!

Elakishib qolgan Imomali ham bosh silkidi:

- Hali-hali duo qiladilar: Alloh menga naq Luqmoni Hakimni yetkazgan deb!

- Yo Xalloqul hakim! Hecham qaytalamadimi? Ozigina bezovta etsa keragiydi, - dedi Hoziq buva surishtirishga tushib.

- Rost aytdiz! - deb tasdiqladi Imomali. - Kelasi ko'klam qaytalab, bezovta etib edi... do'xtirga ham uchramay o'sha dorizzi tayyorlattilar.

- Qaysi dorum? Men doru bermab edim shekilli,- dedi Hoziq to'ra hayratga tusha boshlab.

- Yo'q, xo'roz sho'rvani aytamiz-da. Xuqna qildirganizni aytamiz-da, - dedi yigit.

- Ha-a, umi, xo'sh-xo'sh?

- O'shanday xuqna qildirib tashlab edilar, taqqa to'xtadi-qo'ydi og' b'rig' b'i. O'shandan beri otdeklar. Do'xtirlar ham lol-hayron: ko'richakni ham tig' b'siz davolasa bo'larkanmi deb?

Qariya hakimlardek miyig' b'ida jilmaydi:

- Tig' b' chiqmasdan burun nima qilishibdi?! Shunday davolab kelishgan-da, bolalarim. - So'ng qaytish taraddudiga tushib, qo'shib

qo'ydi. - Biz nima, avvalo Alloh shifosini bersin! Mendan duo degaysizlar Eshon buvaga.

- Bo'lmasam-chi, bo'lmasam-chi. Sizni ko'rganimizni aytsak boshlari ko'kka yetadi-ku.

- O'zlariz-chi? - dedi qariya mulozamat lozimligini eslab. - Qanday shamollar uchurib bu tomonlarga kepqopsiz? Hovliga olib ketay? Bir kecha qolib, borarsizlar?

Imom Hasan, imom Husandayin husni xulq egasi bo'lib yetishgan yigitlar qo'llarini ko'ksilariga bosdilar:

- Rahmat, to'ra buva, kelasi safar.

- Uchratganimdan xursandman, - dedi qariya.

- Biz ham. Albatta, Eshontamlarga yetkazamiz duoi salomingizni.

- Allohning panohiga, - deb qayta turib qariya to'xtadi. - Darvoqe, bu yerda kimingiz?..

- Ustoz-domlamiz, shu kishini... - dedi Inomali jindek hijolatlanib. - Kelasi gal, albatta, o'zlarini topib borgaymiz.

- Hisob-hisob. Faqat Eshon tog' Baniyam ola kelasizlar-da. Bizni hovlini Sevzor tomondan so'raysizlar, kelishdikmi?

- Kelishdik.

- Xayr, Tangrim azza va jalla o'zi qo'llab, xotirjamlik ato etsin. Xush qolinglar.

- Xushvaqt boring.

Qariya xo'shlashib, ulovi tomon yurarkan, yigitlarning o'zimi, bir vaqtlargidek sof qishloqcha va ham chaqmoqday kiyinishlarimi - ko'ziga yana olovdek ko'rinib, qayrilib qarab qo'ydi.

Chindan ham ular bo'ysira yoshdan o'tib, adl tortgan, ustiga ustak qo'sh sarvdek egiz edilar, havaslanmasdan, yigitlik cho'g' B'lami eslamasdan bo'lmasdi. Tasavvur etdi! Ayniqsa, qora las choponlarini bir urib, peshonalarini tang' B'isalaru o'zlarini egar ustiga olsalar bormi, kimlarga o'xshab ketmas edilar!

Hov bir gal - xuddi shu tarz - kimlar kelmab edi, axir?!

* * *

U asrga hozirlik ko'rib yol'g' B'iz qavmi - bog' B'bonni kutish barobarida vaqtni o'tkazmay tasbehotga berilgan edi.

Axiyri bo'lmasdi. Oftob hovli-bog' B' o'rtasidagi sadaning yarim beliga qadar tushib, bir tog' B'ora cho'g' B'da-yin ko'z qamashтира boshlaganini ko'rib, ichida g' B'ulg' B'ula qo'pdi. Qorini nima g' B'aflat bosdi ekan, kechikmasdi-ku? Shayton esa, visirlab yozg' B'irar edi: "U ham bir tingchi-da, komil musulmon qayda?"

Qariya oddiy bir bog' B'bon haqida gumonga borganidan uyaldi. Uyalib o'rnidan turdi-da, borib ochiq derazadan bog' B' oralab keladigan yo'l'kaga qarab qo'ydi. Nazarida takbir tushirib, namozga o'tishi ilayoq biroq chaqirib keladigandek edi. Keyingi vaqtda ko'p narsalar xuddi shu tarz - belgi beraveradigan bo'lib qoldi. Nega, nimadan - hech tushunuksiz. Balki manavi oq uyga qamalib olib, uzlatga chekinishga majbur bo'lganidanmikan? Yana kim biladi.

U ixtimat ila joynamozni qayta yozib ulgurmay edi hamki, eshik xalqachasi shiqirlab, ostonada kutgan kishisi ko'rindi.

- UZR, to'ram taqsir, bu yoqda niyat qilib, yugurgilab kelayotganlar bor. - U ostonadanoq mazurlandi, - nafs qursin, alahsimayman desang ham alaxsiyan.

Bog' B'bon hovuchida anjir bargiga o'rog' B'liq bir ni-ma - nega bir nima bo'lsin! - satta oq o'rik ko'tarib olgan edi. Jonivor jannatni mevasidek biram bo'lug' B'ki, suqing kiradi.

- Shumidi alahsitgan? - dedi qariya jilmayib. - Oqarib ulguribdimi, qarang-a?!

Abdufattoh qori qo'lidagini xontaxta ustiga qo'yib chiqib, yo'lakay tushuntira ketdi:

- Kelayotsam, bir sayroqqush o'rik tepasiga qo'nvolib, shu biyov-biyovlayapti, shu laqov-laqovlayapti! To'xtama-chi! Mahliyo bo'lib qopman. Rosa zingil solib qaragam deng... oq o'rik gavhardayin tovlanib yotibdi! Jindek terib tusha qoldim. Omonliq-somonliqqa-da, to'ram taqsir.

Qariyaning xayoli qochdi: qarang-a, yoz kelib qopti-ku! Umrning o'tuvini ko'ring. Kechagida opkelishmaganmidi bu go'shaga?!

Yaxshiyam yol'g' B'iz qavmi - shu bog' B'bon bor. Bo'lmasa, bundoq yozilib gaplashadigan odam ham topmay nima qilardi? Shu bois tegishibroq zamzama qildi:

- Dumbuldur hali? Oqara tursin edi, o'zingizdan bo'lakni ko'zi tushmagan ekan.

- Qayda! - dedi qori ximarilgan yenglarini tushirib, takbirga shaylanarkan. - Oq o'rik oqaradiyu yotib uyqu keladimi?

- Kimni aytasiz?

- Kaminaning o'zlari ham-da, - dedi qori uyatlu kulib, - ko'z qurg' B'ur qachon to'ygan?! To'yganmi hech!

Uning o'rikni terishga terib tushib, endi o'zini "savalashi, nafsini oyoq ostiga olib piypalashi bir chiroyluv edi...

To'ram "yol'g' B'iz qavmini suyib ketdi! (Tingchimi deb gumon qilib o'tiribdi! Qani, shunaqa tingchilardan yuztasi bo'lsa! Hammasi ila qiyomatli do'st tutinardi!)

- Bekorga ko'zdan nariroq qo'ymadim deng?!

- Ha-da, o'rtada shayton bor, har narsalarni chiroyluv ko'rsatadurgan. Namozni ham namoz qilmasin.

- Ayta qoling, bo'lmasa, farishtalarni ham mahtal qilmay, - deb u izn berdi ham, qori kamdan-kam kishilarga nasib etadurgan bir shirali ovoza takbir tushira ketdi ham.

So'ng namozdan forig' B' bo'lishlari ila qori xayr-mazurga tushib, ketishga izn so'radi. O'tadigan yeri bor ekan:

- UZR, shomda yol'g' B'iz qolsangiz, - dedi allatovur xijolatga tushib. - Yetib kelolmaymanmi, deb qo'rqaman.

- Xuftonni ham nasiya etmang, - deb kulindi u.

- Xudo asrasin. Qaerda bo'lmayin, yetib kelgayman. Birga o'qigaymiz.

- Insha Alloh deng, - dedi u.

- Xudo xohlasa, - deb chiqdi bog' B'bon.

Allohning erta rang olib, oqargan nemati yodidan ham ko'tarilgan ekan. Bir muddat zikr aytib o'tirib, kitob ko'rgisi keldiyu, ichkari qarab yurdi va xos mehmonxona oldidan o'tayotib, xontaxta ustidagi ajab oq-sariq gavharlarga ko'zi tushib, nima bo'lsa ekan, deb xayollandi. Gavharlarning har biri zarg' B'aldoq qush tuxumidek bo'lug' B' ham jindek sariqqa moyil edi. Tagida shapaloqdek barg. To'ram o'sha bargdan tanidi: darvoqe, jannatdan tushgan daraxt - anjir bargi-ku. Qorim ilingan narsasini nimaga o'rab kelibdi?!

Burilib kirishila avval anjir barginingmi, uning uchidan oppoq sutdek sizib chiqib qolgan shirasiningmi hidi gurkirab, dimog' B'iga urildi.

Valloh, u Kaba iforlaridan qolishmas, kishiga allaqanday xush yoqib borar edi. Jannatdan tushgan deb atalmish bir daraxtning hatto yol'g' B'iz bir bargi (uzulganiga qancha bo'lganiga qaramayin!) asl vata- ni - jannat hidini ufurib-gurkirab yotar, u odam

bolasiga tanish, nainki tanish, aziz tuyilib bormoqda edi. Shuning o'zi Alloh yagona, Rasul barhaqligiga, kitoblari chin, jannati - tayin ekaniga nishona emasmi? Bo'lmasa, inson bu hidni qaerdan tanirdi, minglab bo'ylar, iforlar orasidan ajratib, jannat hidi-ya, deya olardi?! O'sha judo bo'lgan asl vatanning bo'ylarini tanishga-da qodir etganiga shukr.

U hozir o'zi aziz bilib turgan bo'yni yaxshi farqlamoq uchun ham yozning to'ngb'ich nematlaridan bittasini qo'lga olib, dimogb'iga yaqin keltirdi. Oq o'rik oqara boshlagani bilan hali dumbul edi, asal islari gurkirab emas, bazo'r kelar, allaqanday nimtatir edi. Balki ikki pallaga bo'lsa, gurkirab ketar, ichidan yetilib kelayotgandir? Omonlik-somonliqqa arzir?!

U o'rikni ikkiga bo'layotgan kezda peshayvon eshigi ochilib, oqsoch Opoy ko'rindi. U o'rik bo'yini tuyib ulgurdi, xolos.

- Ishanta, Siza kelishkan ikan. Qo'ngb'iroq itisha,- dedi ostonadan o'tmayoq.

U ajratib ulgurmagan o'rik pallasini qaytib yopdi: nasib etmasa shu-da! So'roqqa olib ketishmasa go'rga edi. Yoz nematini joyiga qo'yib, boshini ko'tardi:

- Kim, deyishadir? - dedi atay irim qilib. O'zi esa, nima deyishadir deb so'ramoqchi edi.

- Yo', ishanta, sahiblar imas, ziyoratqa kilishkan imish. Qopqadan so'rasha.

- Ko'rgani? Qaerdan ekan? - degancha chiqib bora boshladi.

- Ata jurttan, diemishlar. Anjandanmu, qaerdan imush.

Ota yurt - Andijondan? Kimlar ekan? Yodiga hov bir yilgi uzoq mehmonlar - hajdan qaytishibdi, ekan, deb ziyoratga borgan amakivachchalari keldi. O'shalmikan? Ular bo'lmasa, urugb'laridir.

Qariyaning yuragi o'ynab bormoqda edi. Valloh-valloh! Nahot o'sha uzoq aymoqlari topib-surishtirib kelishayotgan bo'lsa? Yana ichiga gb'ulu oraladi: balki shunday o'ron bilan kimdir kirmoqchi bo'lar?

Izn bermay turib surishtirishi, so'nggina ruxsat etishi ham mumkin edi-yu, yomon fol olgisi kelmadi: Nomini atab kelishibdimi, kiritish kerak! Kim bo'lishlaridan qati nazar.

- Aying, qo'yvora qolishsin.

Opoy simning u boshida turganlarga javob qilib, mehmonxonani tartibga sola boshlarkan, oq o'rikka ko'ngli bir sust ketdiyu, lekin damini chiqarmaygina tagligb'idi ila taqsimchaga solib, yuqoriga olib qo'ya boshladi.

Buni ko'rib turgan qariya uning pokizaligidan iyib:

- Oling, bittasini, omonliq-somonliq, qolgani mehmonlarga ham yetadi, - dedi. Ichida esa, talbiya aytardi: Fasubhanalloh, o'shalarga nasib etib turgan ekanmi?!

- Rahmat, Ishanta, - deb Opoy bittaginasini ola boshlab edi, yarim pallasi ajrab chiqdi.

- Butunini oling, butunini, - dedi qariya, o'sha qo'l urgani o'ziga nasib etishidan umidvor bo'lib.

Opoy uni tushunmadi:

- Qaytaga tavarik ikan. Rozu bo'ling, ixlos ettum,- deya qolgan pallasini-da olib, ne niyatda xushlanib iskadi.

Tavba, ana shundan keyin ham rizq berguvchi Alloh ekaniga, birovning nasibasiga birov ega chiqolmasligiga ishonmaymizmi?

Kim o'ylabdi, Abdufattoh qori omonliq-somonliqqa terib tushgan shu bir hovuchgina nemat qandin-qayoqdan keladiganlarga atalgan deb! Nasiba tortib kelayotirlar, qarab turing, desa kim ishonardi? Va chindan ham ular kimlar ekan?

To'ram peshayvonda edi. Terakzor tagi bilan kelayotgan satta bir xil kiyingan, qora chopon, cho'ng do'ppili kishilarni ko'rib, gb'halati bo'lib ketdi. Chindan qishloq tomonning odamlari-ku! Unday desa... choponlari yilt yangi. Yo shahar boryapmiz deb, satta oxorliklarini kiyib chiqishganmi? Kuyov oshiga kelayotgan jo'ralar misoli yana bozorliklarini ham ko'tarib olishibdi! Ichida bittalari o'rtta yoshlik demasa, qolganla- ri - qilichdek yigitlar edi. Anjan tomonlarda bu toifa qanday xeshlari bo'lsa ekan?

Qirqa borib esi kirgan anuv amakivachchasimikan? Bir kun tushida eshon buva "Kitob qaerda bilasanmi, o'shani ol-da, o'qi, yurma bunday, deganmishlar. Na xat, na kitob taniydigan odam ertasidan o'qib ketganmish Quronni. O'shamikan? Amakilari rahmatli tagi anjanlik ekanliklarini aytib o'tirishar-u, xeshu aqrabolaridan ogb'iz ochishmasdi. O'shalardan qay birlari ko'ngil so'rab kelishmoqda ekan? Yoxud Tangritogb' tomonlarga o'tib ketib, jangu jadallarda bedarak yo'qolgan xeshlarini so'roqlab yurganlar daragini eshitib, kelishayotirmi? Qora choponlik beozor kishilar qiyofasida? Koshki tingchilar jim tursa?

Ularning satta bir xil kiyinib, qishloqi odamlar qiyofasida tashrif buyurishlari gb'halati edi: "el-burutdan ko'ngliga buncha gb'hashlik oralamasiz? Jon egamning qo'lida-ku, axir. Olar bo'lsa, oxunning qo'li bilan ham, anuv olib qochgan uchoqqa yetmasidan burun ham olib qo'ya qolar edi-ku. Kuni bitib, qazosi yetgan bo'lsa, o'sha alam-achchiq ustida Olampanohga xat bitgan kunning kechasidayoq olib chiqib, Bo'rijarning qay bir yoqasida otib tashlashmasmidi! Otmadilarmi - endi nimadan qo'rqadi!

Uning ko'z o'ngidan o'sha oq ilon - Jamoloxunni haydab chiqargan kezdagi holatiyu, alam-achchiq ustida xos xonasiga kirib borib, qogb'hoz-qalam olganicha turib qolgani ketmasdi.

Astafirullohil azimu va atuvbi ilayhi!

Alloh uni qaysi iqlimning tuprogb'idan yaratibdi ekanki, haqsizlikni ko'rgan zahoti qay holga tushmasa! Bamisli u bir qavat et tashlab, taqdirning hukmiga ko'ngan asirdan tamomila boshqa odamga - mujohidga aylanib ulgurgan edi. Vujudini ayting! Har bitta tuki bamisli bir qilich bo'lib, tikka bo'lgan edilar!

Uni kim deb o'ylagan ekanlar?!

Tilsiz, zabonsiz bir qurchoq, mo'min-mute bir rikob, bir xufiya debmi? Xizmatini o'tab bo'lgach, imi-jimida gumdon etib yuborsa bo'lvergich? Esiz, qurilgan saltanatlar sharafti, to'kilgan u qonlar javobini kim bergay? Qolaversa, lafz qaerda qolyapti, subut qaerda qolyapti?! Ahd-chi, unga sadoqat-chi?!

Yo'q. Uning ko'ziga joni ko'ringani yo'q. Albatta, jon shirin. Lekin o'sha daqiqada ko'ziga tamomila bosh-qa narsa ko'rindi: shuncha ishni qilib, davlat qurib, adolat o'rnatib... oxir-oqibat uy qamogb'ida besharaf bir o'lim topmogb'idi... ko'rinib ketdiyu ichidan adolatli bir shuur bosh ko'tardi: kim o'zi odil?! Lafzida turib, Tangritogb' hukumatini qurgan, u jabrdiyda diyorga ozodlik nasimini olib kirgan umi yo vazifasi bitdi deb, bir kechada o'gb'irlab kelib, uy qamogb'iga tiqqanlarmi? Kim? Odili Zamon hisoblanmish Olampanohning o'zi-chi? Bexabarmi bu ishlardan? Uning iznisiz tong otgaymi o'zi bu diyorda?

O'sha holatda, qizigb'ida uning nomiga tik turib, bir xat bitdi: "E, voh, jahon ayvonida adolat shevasida gaplashguchi zot qolmabdimi ekan?!

Menim bilganim - adolatpanoh Amir Temur Ko'ragoniydan so'ng, Shomildan so'ng yolgb'iz o'zingizmi, deguvchi edim!

Boshqasini tan olmasdim! Ixtimat ham qo'ymagandim!

Endi bilsam, bu topshiriqlar qaydan kelmoqdayu kimning izni bilan ado etilmoqda ekan, agar o'shal Adolat borgohidagilar tamomi bexabar bo'lsalar?! Ularning nomidan ish ko'rguvchilar, ish yurituvchilar xohlagan paytlari butun boshli xalqlar, ellar, elatlarni ishongan togb'larini yiqmoqlari, sorbonlarini terib olmoqlari, o'zlarini yetim qoldirmoqlari mumkin ekan-da?! Unda Siz - Odili

Zamonning burdi qaerda qoldi? Adolati qaerda yetdi? Ertaga tarix oldida nima deb javob bergaysiz va kim bo'lib qolgaysiz?..

Nima deb yozsa yozdi, faqat shafqat tilamadi. "Allohning yozugʻi bilan bo'lagi - bo'lmagay! deb tugatdi. Faqat xat qo'ldan ketib, allaqachon telegraf bilanmi, liter bilanmi, qaysi yo'l bilan bo'lsin - Olampanohga yetib bo'lganida unga bor haqiqatni qo'shmagani xotirga tushdi. "Uzr, kaminadan noqislik o'tibdi. Qodiri Egam yolugʻi Biz bir zotgagina adolat mezonida mahkam turmogʻi Bu, lafz qilsa, lafzi ustidan chiqmoq fazlini bergan, adolat shevasida gaplashmoqni nasib etgan ekan! U ham bo'lsa, bizning shafqatchi paygʻambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamdurlar, deb qo'shgisi keldi. Ammo kech edi. Kemtik, noqis xatga hech narsa qo'shib ham, uni qaytarib ham bo'lmasdi. Lekin xat o'sha holida ham nishonga bexato tekkan edi.

Olampanohdan imdod bo'ldimi, boshqasidanmi, ertasidan munosabat tamomi o'zgardi: avvalo, necha qavat soqchilar (tashqi darvozadagisidan tortib, oq uy atrofidan jilmaydiganigacha) bir kechada yo'qoldi. G'alati bo'larkan: oq uy allaqanday salobatini yo'qotganday, huvillab qolganday edi. Tunlari tahoratga ham bexavotir chiqayotib edi, endi qanday bo'larkan? Qolaversa, shuncha mashmashaning sababchisi (o'sha pand bermasa, bu xat qayda edi!) anuv shilpiqko'z - naq oq ilonning o'zi - Jamoloxun ham ko'rinmay qoldi. Surishtirsa, (qarang-a, Opoy ham bilmas ekan, borib aniqlab keldi) - bo'shab ketganmish. O'rninga shu mahallalik o'rta yashar juvon bir chiroyli ovqatlar pishirayotganmish.

Yo qudratingdan, qozon-tovoqni shu yerning odamiga ishonsa ham bo'larkan-ku. Hammasidan gʻalatasi-indinga "quda tomondan (naq Maskovdagi idorasidan!) odam uchib keldi. O'ziyam sibirlik ekan, bo'y degan shiftga yetadi. Eshikdan engashib kirdi. Orqasidan yo'l ko'rsatib kelgan kishi uning oldida ushoq boladek edi.

Uning tahorat olib kelayotganini ko'rib, o'sha haqiqiy Ivan bu yoqdagi (uning oldida ushoqdek) qozoqisini to'xtatib:

- Qo'yatur, o'qiydiganini o'qib olsin,- deganini eshitib qoldi,- Senlar bilmaysan,- derdi davom etib u,- bular zo'r xalq - mulla xalq. Qanchasi Sibirning lagerlarida o'tib ketdi. Namozini tashlamay. Haliyam o'qiyaptimi - zo'rliги shu, - derdi.

Ol-a! U ham zo'r ekan, toshiga yarasha ekan, sibirlik ayiqning bolasi. O'sha sibirlik (harqalay ajdodi yaqin - Enasoyning suvini ichib o'sgan!) halol ekan! Boshlab kelgan qozoq-o'risga haloli gapni aytib ketdi:

- Bu kishi bugundan etiboran shu mamlakatning fuqarosi. Bir fuqaro sifatida hamma huquqlaridan foydalanishga haqli. Faqat joy ajratilgunga qadar shu yerda yashab turadi, - dedi.

O'ziga esa:

- Tabii ekan, bemalol tabibchiligingizni qilishingiz mumkin. Sizni ko'rgani keluvchilar hech istisnosiz huzuringizga qo'yiladi.

Faqat mamlakatchilik - odam yigʻimaysiz, hukumatga qarshi chiqmaysiz. Bir fuqaro sifatida uy-joy qilib yashashingiz taminlanadi. Xohlang buni Maskovning inomi deb tushuning, xohlang, Xudoning marhamati. Tangrito- gʻalatingizdan ayirganimiz uchun bizni mazur tutgaysiz. Sizni qaytib bezovta etmagaylar. Omon bo'ling, - dedi.

U omonlik berib ketganiga necha kun bo'la qopti? Ana, qaerdan eshitishgan - turnaqator bo'lib, ko'rgani kelishyapti. Yana qaerdan - ota yurti - Andijondanmish.

Ular gulzor yoqalab emas, qoq o'rtadan kesib tushgan beton yo'lka ila allaqanday begonasirab va ham xushyor tortininqirab kelishmoqda edi.

Balki chindan bobokalonlari yurtidan kelishmoqdadir. O'sha togʻliklar kanorasi orasidagi sahobalar qadami yetgan vodi-diyordan. Boburshohdek bir odam umr bo'yi "ne xatoliq o'ttikim deb qo'msab o'tgan mavo - "anda jonim qoldidan. Daragini eshitib, oqibat ko'rsatib, duoi salomlar keltirishmoqdami?

Tangritogʻ bilan o'gʻirlab ketishgani ovozi o'shoqlarga-da yetibdimi, tavba? Ovozasi-ku, yetar, lekin bu yerda shohona uy qamogʻi bilan o'tirgani qaydan malum bo'la qolibdi? Kishini o'ngʻibaysiz holga soladigani ana shu edi. Ammo daragini eshitiboq, surishtirib kelishayotgani ko'p ulugʻli ish. Alhamdulillah, bu yurtda oqibat, hamiyat degan narsalar yo'qolib bitmagan ekan. Shunisiga-da, shukur, hali ham o'zinikilar o'zligini yo'qotmagan ekan.

To'ram taqdir shu taskin-tasallilar bilan ichkari yuraverdi: Imomlikka o'tganida egniga ilganini odmiroqiga almashtirib ko'ringani ham maqul. Tagʻin To'ram hukumatdan ayrilgach, bu dunyodan etak silkib, toza taqvodor bo'lib optilar, deb yurishmasin...

U shunday xayollarga borishga bordi-yu, o'z istiholasidan o'zi uyaldi.

To'gʻbriroq bo'li, Allohdan uyaldi: Egam o'zi ko'rib turibdi-ku, butun holatini. Taqvodor bo'lak to'gʻbri yo'l qolmaganini anglab, barchasiga etak silkiganini. Yana nimani yashiradi? Allohdan yashirmaganini nega bandasidan yashirmoq kerak? O'zi din fahmini beribdi, imonimizni ham o'zi basalomat etsin.

Imomlik libosini (axir Abdufattoh qori bilan asr o'qishganda kiyaqoluvdi, hamisha kiyib yuribdimi!) almashtirish fikridan qaytganda yo'lakdagi bo'y baravar ko'zguda sallayu to'n o'ziga chindan ham bo'lakcha nuroniylik - o'zi xayolga-da keltirmagan bir nuri safo baxsh etib yuborganini ko'rib, mehmonlarga bunday ko'rinishdan rosti, qisindi. Siporoq ko'rinaravergani maqul. Lekin engil almashtirar ekan ham boyagi suvratini, to'kilib turgan nur ko'z o'ngidan ketmasdi. U nima bo'lsa ekan? Yo' ajab, o'zi ham sal cho'kib, ulgʻayibdimi? (Ko'ziga o'sha munkillagan hazrat suvratini ko'rinish ketdi!) Yo Qodir Alloh! Bu nesi? Nima bu? Barcha Astrobod bo'lganlarga xos yozuqmi? Yolugʻi Biz aso yetmayotir, xolos. Astafirulloh! Hazrat qaydayu biz qayda! Suvrat o'xshagani bilan (hov!) siyratga yo'l bo'lsin! U zotning oldida biz kimbiz?! Gunohlarimiz togʻliqlar, xatolarimiz soch tolasidan ko'p.

Kechirsa, yolugʻi Biz Alloh kechirguy, xolos. Ichida beixtiyor iltijo aytdi: Murod doram - umidim bor, o'ziga oson, o'zi kechirsin!

Balki taqvo deganlari shudir! (Axir, o'zim din nurini beraman degani-ku). Bu fikrdan ichida bir qo'rquvmi - nima uygʻonib, vujudi jimirlab keldi: togʻliqlar qadar yozuqlari turib, Allohim gunohlaridan o'tibdimi - karami shunchalar keng ekanmi uning?!

Magʻbifrat etgani rost bo'lsin, ilohim, biz ojizu notavonlarni, adashib uloqqanlarni.

To'ram odmiroq deb movut chakmoniyu chorburchak takya kulohini egniga ilgan bo'lsa-da, qaytayotib ko'zguda oddiy tabibni emas, negadir hazrat mir Alisherga yaqin kishi suvratini yana ko'rib, hayallandi: yillar shunchalik, oladiganini olib qo'ygan ekanmi? Ko'ngil qaridan nimalar o'tmasdi: vaqt o'z bilganidan qolmasakan-da. Vo darigʻi, inson hech bir o'ylaganiga yetmasdan mo'ysafidlar qatoriga o'tib tursa. Yana kamiga mana bunday uy qamoqlariga tushib o'tirsa. Unda o'sha dovondayoq ko'ringan mahluq tilka-pora etib qo'ya qolmagani, yo'l berganining hikmati ne edi?.. Hay, darigʻi, ne niyatlar niyatligicha qoldimi?

U peshayvonga qaytib chiqqanida kelayotgan xeshlari (tanimagach shunday deydi-da!) ichkariga kirishga kirib, dalaga kiyadurgan sariq ko'n etiklarini yechishni ham, yechmasni ham bilmay, alagʻi turar edilar.

- Assalomu alaykum, mozor bosib kelgan azizlarim. Xush kelibsiz!

To'ramning taqvodor qariyalarga xos ilk salomi mehmonlarni badtar gangitgan, buning ustiga ular shunchalik tez va osonlik ila bu zotning qabuliga musharraf bo'lishlarini o'ylamaganlaridan (ro'barolarida - kim-kim - to'ram taqsiming o'zlari, o'sha Tangritogʻliqlar saltanat qurgan davlatmand odam (!) turardilar, axir!) shundan hayratga tushgan tushib, tillari alikka kelmay

qolgan edi.

- Assalom... - deyishdi ular ham chala yarim, o'zlariga kela boshlab.

- Ie-ie, kiravermaysizlarmi, jigargo'shalarim? Oyoqlaringiz gardi qaysi diyorniki ekanki, tortinasiz! Tog'lar nafasini olib kelgan qadamlaringizga hasanot. O'sha g'ubori - ko'zlarimizga tutiyo bo'lsin. Qani-qani, keling-chi, bir boshdan ko'rishib qo'yaylik-chi, voh, - deb quchoq ochdiyu, yaqinginasida turgan kulcha yuz, patak soqolli kishi dovdor-sovdor qadam tashlab, ilgaritdan tanishdek, yelkasini egibroq kela qoldi. So'nggi daqiqada to'ram uning (qoshlarimi, qovoqlarimi) allaqaeri kimgadir juda-juda o'xshab ketishini ilg'ubadi-yu, lekin kimga - eslay olmadi. Negadir uning ham qaboqlari boya ko'zguda ko'ringan hazratnikiga o'xshabroq ketardi, tavba.

Uni bag'briga oldiyu, to'niga solingan yangi paxta islari xush yoqib, yuzlarini suykey-suykey qayta-qayta iskalandi:

- Oh-oh, ota yurt hidlarini ola kelgan siz azizlardan o'rgilay. Biz jiggar bo'lib borolmagach, o'zingiz kepsiz, qadamlaringizga hasanot.

Bodomqovoq mehmon patak soqollarini soqoliyu yuziga ishqab, quloqlari tagidan iskananarkan, issiq nafasi quloq yumshoqlariga urilib-urilib:

- Tanimadingiz-a, taqsir? - deb sirlidan sirli shivirladi.

Chindan ham bu qora soqoli bodom qovoqlariga unchalik ham o'tirishmagan mehmon... kim bo'ldi? Kishi ko'ziga bo'lmasin tag'bin... bu soqol, bu engil-boshlar?

Yuragi shig'betdi: unda kim bo'luyi mumkin bu kelganlar?..

Shu asno u quchoq'bidan bo'shalib-bo'shalmay keyingi mehmon xo'shlashmoqqa yuzlandi.

Bunisi tepa labining ustiga qaldirg'boch qanotidek nozik mo'ylov qo'yg'an yigit edi. Ipga terilgandek bu mo'ylov unga shunday yarashib tushib, yuzini ochvoribdik... o'sha yuzidami, anavi o'tli qora ko'zlaridami, kishini shoshtirib qo'yadigan bir shaxd-olov bor! Balki hammasi qo'shilib, unga shunday alohida bir shijoat baxsh etayotgandir. Ishqilib, bularning boshlovchisi shu - o'nta bo'lsa, o'rni bo'lak, qirqta yigitning ichida bek sanalgudek mana shu azamatga o'xshar edi.

Faqat o'sha nozik murtiyu - chetlari allaqanday yiltirayotgan peshonasini tang'bigan qarq'bigan qarg'bhoyi qiyig'bin demasa, kimgadir o'xshabam ketayotir. Kimga ekan'bin' to'ram hech eslay olmasdi. Ammo to'nini bar urib, o'zini egarga olsami, naq uloqchi!..

Hozir ana shu "uloqchi bir g'balati entikkan ko'yi uning ko'ksiga singib ketgudek bo'lib, quloq taglari, mo'yin bo'yilarini iskananib to'ymas edi. Va shu ko'yi mutaassir bir holda sivirlar edi:

- Bormisiz, Xondoda?! Biz ishongan tog'blardan kiyiklar chiqmayin qo'ydi desak... Siz bu yoqlarda ekansiz-ku, davlatpanoh?

Evoh! Tanish sas, tanish ovozlari-ku! So'nggi qabulida bo'lgan o'ktam yigit - shu emasmi? Ovozi bunchalar tanish?..

So'nggi farmonga imzo chekishdan avval kimlar bilan uchrashib, maslahatni bir joyga qo'yab edi?! O'shalar-ku. O'sha viloyat vakillaridan biri-ku. (Farmonni so'zma-so'z esladi): "Lashkar, farmonimizga shay turing. Hali najot kutib yotgan necha viloyat bor. U mazlumlar ozod etilmaguncha Tangritog'boch ozod emas! Shunday kun yaqin, kuting!

Afsus, inshaalloh deyilmagan ekan. Xudoning xohlagani bundoq chiqdi!

Qariyaning ichi antar-to'ntar bo'lib kelib, o'zini g'balati behol sezdi-yu, "Botur, Sizmi? deyishga majoli yetmadi.

- Keyin inim, keyin... - dediyo Boturning quchoq'bidan bo'shalishga unaldi.

Qolaversa, bu yer o'zni tanitmog'bu bag'birni bag'birga berib, o'tgan ishlarga ko'zyosh to'kadirgan joy ham emasdi, mavridi ham. Bu yerda devorning ham qulog'bi bor. Ovoz yutgich, gap uzatgichlari, xos tingchilari qancha ekan! Hech kim mehmon o'z oyog'bi bilan kelibdi demaydi. Hamonki jahd etib, mozor bosib kelishibdimi, ichkari kiravermoq kerak. Har qancha gaplari, mehrlari bo'lsa, o'sha yer tuzuk. Nokasu nojinslardan panaroq, ko'zdan nariroq.

Qista-qistov, mulozamatlar bilan ichkari kirdilar. O'tirdilar. Mozor bosib kelgan mehmonlarning qadamlari sharafiga duoi fotiha bo'lib, yengil so'rashib oldilar. To'ram boshlamasiga (Opoy choy opkirguncha) taqsimchadagi boyagi "omonliq-somonliqni o'rtaga qo'ydilar:

- Qani, mehmonlar, yozning oldi nematiga qarangiz. Alloh nasibangizni qo'shgan ekan. Har kimga ham nasib etsin-chi. Qani, mana, men boshladim.

Bitta-bitta oldilaru kim hidlagancha, kim kaftiga qo'ygancha Ollohning mo'jizasidan xushhollanib qoldilar.

- Voh, Toshkentning oq o'rigi-ku, - dedi boyagi bek yigit sarxush tortib, - mashhuri jahon, - dedi u negadir va qo'shib qo'ydi, - Biz uning danagini oshpichoq derdik. Faqat bandi yetishmasdi.

- Kecha eslab edingiz-a, sarhaddan o'tayotib. Bugun yetishib turibsiz, xo'jam, - dedi qora soqolli hayratlanib. - Alloh degan yigitsiz-da.

- Nasiba chaqirsa shu: kelar Shomu Iroqdan deganlar. Olingiz, omonliq-somonliq, - dedi To'ram va o'zi yarim pallasini bismilloh ila og'bziga solarkan, chindan bol tamini totganday bo'ldi.

- Bizda hali g'bo'ra-ku, jonivor bu yerda hol tortganini qarang, - dedi uchinchi mehmon. - Bu tomonlarga oftob avvalroq chiqqaymi, tavba?

- Keyinroq chiqsa-da, to'sguvchi muztog'blari yo'q, - dedi boshqa shunqor yigit manoli qilib.

- Ha-ha, hammasi ham avval bu diyorda yetilib, so'ng u yoqda hol tortadi, - dedi To'ram ham. Xuddi inqilob kabi demoqchi bo'ldi u.

Bek yigit uni tushunib, gapini mengzab ketdi:

- Qizil ajdaru oq ajdarlari qo'yib bersa agar... Tangritog'bning holi shu ekan-ku.

Gapning bir uchi o'ziga qaytib, tekkan edi, To'ram bir so'lish oldi-yu, sezdimadi.

Mavridi keladi, hali hammasini tushunib yetgaylar. Barchasi o'z felimizdan. Felimizga qarab Xudoning yozmishi bu, demoqchi bo'ldi-yu, aytmay ichiga yutdi. Hammaga ham tushuntirib bo'larmidi: aybdor kimu Xudo nimani xohlab turibdi?!

Shu orada oqsoch dasturxonga bozorliqlarni opkirib, choy keltirdi. U kishi ko'ziga mehmonlarni qistadi:

- Qani, olingiz, mozor bosib kelgan narsalardan. Bu yog'bi bizniki bo'ldi. Manavi, Anjanni lochirasimi, jizza solib yopilgan? - dedi atay.

Qora soqolli uni tushunib, (bu gap Opoy uchun ekanini bilib):

- Shundoq-shundoq, xonadonda yopilgan, taqsir, - deb javob qildi.

To'ram gapni uladi:

- O'zlaridan so'rasak, u diyorning qaeridan bo'lgaysizlar? Va qaysi uzilishib ketgan xeshlarimizdan...

Kelgan mehmonlar undan-da sezgir edilar, kishi bilmas ko'z urishtirib qo'yib, javob qildilar:

46 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Xeshlik joyimiz sho'ttaki, - dedi o'sha qora soqoli bodomqovoq yuziga unchalik o'tirishib tushmagan, ammo muloyim tovushlik mehmon, - biz nihoyati sizning ixlosmandlaringiz.

Bo'sh patnisni ko'tarib, Opoy chiqa boshladi.

Hozirgina ota yurtdan, xeshlarimiz deb turgan kishilarning bu javobi g'halati edi. Oqsoch har xil xayol-larga bormasin, deb To'ram siporishladi:

- Ha-ya, tabibchiligimiz vajidanmi?

- Shunday-shunday,- deb shunqor yigit uni quvvatladi,- u yoqlarda Sizning dovrug'ingiz bo'lakcha, taqsir. Ammo yetishmoq, ko'rib turibsiz, dushvordan dushvor.

Bu vaqtda Opoy uzoqib, hatto shippagi tovushla-ri-da eshitilmay qolgan edi. Shunda poygakda o'tir-gan to'rtinchi mehmon bek yigitga manoli qaradi. U esa:

- Mayli, yopa qol, - deb qo'shib qo'ydi, - shu ukamiz yelvizak bilan chiqishib ketolmadi-ketolmadi-da, tabib buva. Davosi muzni teshib, bir cho'milmoq desam, hech ishonmaydi. Ayting Siz...

Bu gaplar yo'lga ekanini hammalari fahmlab turishgani uchun To'ram kulib qo'yaqoldi:

- Muztog'ida uch oy - qish qolib ketsa, umrbod aksa urmaydi.

Ular bir-birlariga yalt etib qarab olishdi:

- Siz... o'sha tog'ida qolib ketganiz - chindanam rostmi? - deb yubordi poygakdagi ushoq yigit hayratini ichiga sig'ib dirolmay.

- Yo'q, u dovonda bir kecha tunab qolganmiz, xolos. Lekin hech kimni - qishi bilan qolib ketgulik qilmasin,- dedi To'ram, so'ng tushuntirdi,- kamina u diyor-ga o'sha sharafli, mashhuri jahon dovon bilan o't-dim-u, qaytishim o'zim ham kutmaganda bunday... chiqdi.

U dasturxon popugini himargancha o'sha qaytish qanchalik alamli kechganini eslarkan (undan o'sha Muztog'ida umrbod adashib-uloqib qolib ketgani afzal edi! Ammo buni endi kimga ayta olasan?!) ro'baro'sida o'tirgan boyagi bek yigit cho'kkalab olayotib, boshidan qiyig'ini, nimasini yechib oldi. Tarang sirilgan bir nima chitirlab-da ketdi. To'ram boshini ko'tarib, qarshisida tamomila o'zga yigitlarni ko'rdi.

Bek yigitning qarag'ashoyi qiyig'ini tizzasida yotar, o'zi do'ppisini ajratib kiymoqda edi. Endi u o'sha chakkasida alifdek chandig'ini bor (mo'ylov-po'ylovi ham yo'q!) chapani yigitga aylangan-qolgan edi.

- Ie, Botur, o'zizmi?

- Ha, menman, Xondoda. Xizimatingizga yetib keldik, mana, - dedi u o'zini qayta tanitayotgandek qaddini rostlay boshlab.

- Yo Qodir Alloh! Aytuvdim-a, qaerdan tanish bular deb... - To'ram ham to'lqinlanib tura boshladi. - Keling, bunday kezda qaytib ko'rishmoq lozim, tavof etmoq lozim. Kutmagandim, kutmagandim...

Ular qayta topishgan ota-boladek, piru murshiddek quchoqlashib ko'risharkanlar, To'ram Boturning kuraklarini silab-siypalar, bir og'ibiz so'ziga ilhaqu shay yigitlarini eslab, ko'zlari namlanib kela boshlagan, o'zi mutaassirlanib:

- Oh, mani dovqurlarim, suyangan tog'larim, shu yergacha topib keldingizmi? - deb shivirlaru bo'g'ibzilariga nimadir tiqilib, u yog'ibni ayolmas edilar.

U esa, o'sha dovqurligi - ushlaganini kesib aytishi qolmabdi, boyagidek quloq taglariyu ensa bo'ylarini iskananarkan, bag'ibridan bo'shatmayoq aytadiganini aytib qo'ya qolmoqda edi:

- Topib keldikkinamas, olib ketgani ham keldik, Xondoda.

To'ram uni bag'ibridan asta bo'shatib, yuzlariga termuldi:

- Qanday, Botur?

- Siz xo'p desangizoq, bas, - dedi Botur o'ziga yarashadigan bir qatiyat ila u kishining tirsaklaridan tutib. - Nima, ular qilgan ishni biz qilolmaymizmi?!

Uning shaxtidan To'ramning yuragi bir qalqdi: qani edi, qanot chiqarib, ucholsa, u yetim qolgan diyorga! Ucholmaydi, qanotini tag-tagidan qirqib tashlaganlar! U bizning qushimiz edi deb! Endi borgan taqdirda ham kimga isbotlay oladi Ozod qush ekanini?!

- Bir og'ibiz so'zingiz, Xondoda, - dedi Botur qaytarib va bo'ldi, desa, hoziroq ishga kirishadigan- dek.

- Botur, Siz begona yurtdasiz, qolaversa, men... - dedi To'ram o'tirib xotirjam gaplashmoq lozimligini anglab tursa-da, o'tirmoqqa-da sabri dosh bermay. Ammo Botur fikrini tugatmoqqa qo'ymadi.

- Nimalar deyapsiz, Xondoda? Bu mening o'z yurtim. Men uning har tosh, har o'ngirini kezib chiqqanman. Bu diyorlarga sig'ibmay o'shal Tangritog'iga chiqib borganbiz.

- Uni qarang, hijrat etibmi? - dedi To'ram endi uning kimligini anglay borib, - Sultonmurod deganlari Sizmi hali?

- Men-da, Xondoda. U yog'ibni so'rasangiz, - deb qulog'iga shivirladi, - shu toshkanlik Abdurahim eshon pochchening o'g'billariman. Eshitgan chiqarsiz balki.

- Qaysi, Sibirga surgun etilganlardanmi? - deya oldi u.

- Ha, - dedi Botur bo'g'ibziga kelgan so'zlarni qult yutib, so'ng dedi, - diyoriga sig'ibmagan kishilarning bolalarimiz.

- O'tiring, Botur. Ulug'ib odamlarning farzandi ekansiz. Tik turib so'rashmoq yarashmaydi bizga, - dedi To'ram va qaytib o'z o'rinlariga cho'kdilar.

- Taqdirlarini biloldingizmi? - dedi xiyla o'zlariga kelishgach.

- Qaerda!- dedi Botur xo'rsinib.- O'sha Sibirdan ham, Tumanli yurtdan ham izlarini topolmadim.

- Izlab borib-a? - To'ram hayratdan Boturning yuzlariga suyib tikildi: qani, hamma ham shundoq farzand o'stira olsa!

Botur ochig'ibni ayitishga qisib xijolatlandi:

- Padar bo'lgach, izlarkansiz.

- Tushunarli-tushunarli, hijratingiz boisi ham,- deb qo'yib, ularning tanishuvlariga tursalar turib, o'tirsalar o'tirib jim qolgan mehmonlarga yuzlandi.- Jilla qursa, Sizlar olishib o'tiringiz, yo'l bosib kelgansiz, axir.

- Xo'p, Xondoda, xo'p, - deb ular piyolalarga choy quymoqqa boshladilar. Keyin uzatishdi. To'ram piyoladagi choyni aylantirgancha o'ziga kelmoqqa urinarkan, bularning rejasiga besh ketib-ketib qo'yardi:

- Demak, yolg'ib emassizlar? U yoqda... sheriklaringiz ham bor?

- Bor, bor. Otlarni taxt etib turishibdi. Bu yerdan chiqib borsagoq... - dedi Botur boyagi shahdamligi qaytib.

- Hali otliqma-yayov dovon oshib kelgan joyingizmi? Shundan shu yoqqa-ya?

- Bizning uchog'ibimiz bo'lmasa ham, uchar otlarimiz bor! Ishonavering!

- Sulaymon payg'ambar zamonlaridagidek-a?!

- Shunday-shunday! Ularga ikki dunyo bir qadam!

- Bu yogʻib-chi? - dedi qariya ichida qaynay boshlagan o'tni bosib-bosolmay, - bu yerdan qanday chiqib ketmoqchisizlar?

- Undan osoni yo'q, Xondoda, - dedi Botur halidan beri qarab qo'yimoqda bo'lgan qora soqolli sherigiga ximo qilib, - tanishib qo'yasiz, bu akaxonimiz sizning o'rningizga o'rindoshlikka kelganlar. Adash deysizmi, qo'shoq deysizmi, o'ziz bilasiz. Xullas, egizingizni topib kelganmiz. Ko'rasizmi?

- Qanday?! - dedi To'ram ularning niyatlarini elas-elas angelayotgandek.

- Marhamat, - dedi Botur yogʻib-chi o'zlari tushunadigan bir imo bilan .

Mehmon yarim iljayib, yarim iymaniy yuzidan niqob soqolini olib edi... ro'barasida jussasiyu yuzi quyib qo'ygandek o'ziga o'xshash xos tabibi paydo bo'lib, hayron qoldi.

- Ie, "Hoziq to'ram?! Xush kelgaysiz!- deya oldiyu quchoq ochib ko'risha ketdilar. Ilgarigi zamonning podsholari ana shunday qiyofadosh odam asraganliklarini, qay biri xon, qay biri soya - ajratolmasliklarini eshitgan edi. Bular ham shunaqasini qidirib, o'zining xos tabibini ola kelishibdimi?..

- Demak, almashtirib ketasiz? - dedi nihoyat niyatlarini fahmlab.

- Qalay, arziydimi? - dedi Botur o'z rejasining pishiqligiga qilcha shubhalanmay.

- Soxtasini qoldirib, chinini ola ketasiz. Shundaymi? - dedi To'ram.

- Shunday. Ular bizni chuv tushirishganda biz tushirolmaymizmi?! Qalay, yaraydimi?

- Yaraydi, yaraydi, lekin.. - degancha ko'zlari chinakam namlanib kelib, ovozi o'zgargancha... nimaga chal-gʻibishini bilmay o'rnidan tura boshladi To'ram. Keyin turib, negadir eshik tomon yurarkan, ichini o'rtab yotgan so'zni aytolmay, qo'li ila yuring degandek Boturni imladi.

Botur ham To'ramning aft-angoridan nima gapligini sal anglagandek bo'ldi-yu, noiloj ergashdi. Ular peshayvonga chiqib, yotoqqami, xosxonagami olib borguvchi yo'lakka burildilar. Shu bir necha daqiqa ichida necha o'n yilga qarib ketgan To'ram oldinda munkillagan choldek boraru lablari shivirlab, tilidan bir duoni qo'ymas, Allohim, o'zingga sigʻibinib, o'zingga tavakkul etdim, o'zing uyaltirma, deb topingandan topinar edi.

Nega? Bu ham yogʻib-chi o'zigayu Allohga ayon edi.

Ular yo'lak adogʻibiga yetib to'xtadilar.

To'ram eshikni qiya ochib, Boturga o'girildi:

- Men kimmanki, bunchalik jonni garovga qo'yib kelibsiz, - dedi titroq bir tovushda. - Men o'zim...- dediyu u yogʻibini aytolmay yutindi va ko'zini olib qo-chib, - sizga chini kerakmi? Ana, o'zlari, o'shal zot, - deya oldi.

To'ram chetlanib, Botur bir qadam oldinga bosdiyu xosxonada joynamoz ustida tasbeh o'girib o'tirgan ajab nuroniy To'ramni ko'rib, hayratda yoqa ushladi.

Ularning qay biri haqiqiy, qay biri qo'shoq - ajratib bo'lmasdi. Faqat buning ko'zlari yoshlimi desa, uniki-da, namliga o'xshar, o'xshayverar edi.

* * *

Ular ko'zda yosh ila xayrlashar ekanlar:

- Bir ogʻib-chi... bir nima so'rasam, maylimi, Xondoda? - dedi Botur.

To'ram, so'rang, deganday bosh silkidilar.

- Endi, tangritogʻib-chi biz yetimlarga ne maslahat bergaysiz, ustoz? - deya oldi u.

- "Innamal amalu binniyati. Niyatni pok qilavering. "Albatta, amallar niyatga bogʻibliqdir. Balkim, Forobiy domlaning vasiyatlariga qarab boqarsiz. O'shal zotdan biron jo'yali fikr chiqsa, mumkindir...- dedilar To'ram taqdir.

Ular qayta ko'rishirmoqni Allohdan so'rab, quchoqlashib xayrlashmoqqa boshladilar. Tashqarida shom tushib kelmoqda edi.

Xeshlar Kimni Izlaydilar? (yana maqsudning o'zigagina malum qissadan)

"To'ra buvanning iltimoslari shunday bo'ldi...

Bu mujda menga jindek taskin bergan bo'lsa-da, turib-turib yana yuragimga gʻibashlik o'rmalab kira boshlardi: "Tavba, biznikidan ham bexavotirroq joy borakanmi? Umuman, uni kimdan yashirishyapti? Nega yashirishyapti? Bu musibatadalarning boshi ustida yana qanday abri balolar aylanib qolibdiki, To'ra buva aralashmasalar? Anavi kemshiktoyning yo'qolishi ham bejizmasmi? Uni bunga adashtirishganmi yo buni unga?... Ishqilib, kalavanning uchini topa olmasdim.

Anuv Zohidxon deganimiz bozor-o'char qilib, Tarnov tomonga chiqib ketganmish. Bahavo joyda bitta oshni qilib, dam olib kelgani ketganmi yo biron tanishining ziyoratigami - unisini aytmabdi. Shu tobda unga telefon numerimni bera qolmaganimga pushaymonlar qildim. Harqalay, To'ra buvanning iltimoslari sababini aytgan bo'lardi-ku, o'zimga. Shundanmi, ichimni allaqanday bir tushuniksiz gʻibashlik kemirgandan-kemirib ishga kelsam, ertalabdan kimdir meni so'rabdi.

- Bir juvon sizni uch qayta so'radi-yov. Yana chaqiradi ekan.

- Kim, kelinoyimmi?! - dedim o'takam chiqib.

Hamxonam yelka qisdi:

- Bilmasam, aytmadi.

Joyimga o'tirolmayin ham qoldim: bo'lak kim bo'lsa ekan? Nima ro'y bera qopti?

Na ishga qo'lim boradi, na chiqib keta olaman! Deraza oldida turvolgancha hali yoz kelmasdanoq suv otaketgan favvoraga, uning to'zonlarini goh magʻib-ribu goh mashriqqa tortqilagan yellar o'yiniga alahsimoqqa urinarkanman, qo'ngʻibiroq ovozidan cho'chib tushdim.

Ustoliga muk tushib, "havodan xolva yasashga tushib ketgan (biz gazetaga tushadigan "labbayka maqolalarni shunday ataymiz) hamxonalarimdan burun go'shakka yopishdim:

- Alyo, eshitaman.

Simning u yogʻibida mahzun xo'rsiniq eshitildi.

- Yana menman, haliyam kelmadilarmi?

O'sha juvonligini bilib turibman-u, hech taniy olmayapman, kim bo'luyi mumkin - kallamga kela qolmaydi!

- Keldim, keldim, men - Maqsudman, - dedim yutoqib.

- Voy, o'zingizmi? - Ayol dafatan kalovlanib qoldi. - Uzr, tanimabman.

- Kechirasiz, kimsiz? - dedim biron bir tanishimga o'xshatolmay.

- Men Asal opangizman.

- E, ha, sizmi?.. Xolamoyim yaxshimilar, yaxshi o'tiribsizlarmi? - Nechuk, zahar-zaqqumoy muloyim-halim bo'lib, qidirib qolibdi?

- Xudoga shukr, duoi joningizni qilib o'tiribmiz, - dedi u. Muomalasidan hayron qolib, so'rashishda davom etdim:

- Qalay, darak bormi ulardan?

U o'zini tutolmay yutindi:

- O'sha... o'ziz bilgan xatdan bo'lak... hech gap yo'q. O'tiribbiza, eshikka qarab.

- Haliyam so'raganakansiz, - dedim. Aytavuring, nima gap, deyishga tilim bormay.

- Ha, - dedi u iymanib, - Oyim so'rab eslari ketyapti. Bir keb ketasizmi?

- Tinchlikmi?

- Tinchlik. So'raydilar-qo'yadilar, so'raydilar qo'ya-dilar, - dedi u oyisi Oyto'ra buviga kuyingan kabi. - O'zizga gaplari bor shekilli.

Vaqt topolsangiz-da.

Uning bu tarz kuyingani (qarang, o'sha Asal ham kuyinadi ekan!) menga xush yoqib, eriy boshlagan edim.

- U kishi so'ragan bo'lsalar, hoziroq yetib boraman, - dedim.

- Rahmat, kutovuz, - deb u gaplashgichni qo'ydi.

Tavba, ko'hlik yuzidan chak-chak zahar tomib, bir o'rim sochi orqasida ilonday to'lgʻʻongan Asal qayoqdayu bu Asal qayoqda edi. Keyingi voqealar uni shunchalik muloyim-yuvvosh qilib qo'ygan bo'lsa-da, negadir ko'z oldimdan ko'chalari adogʻʻidagi anuv kuyib-qorayib tushgan yolgbʻʻiz qora daraxt ketmasdi. Qarang-a, o'sha Zaqqumoy ham muloyim tortishni bilarkan-a...

Borsam, Kalkovuzning suvlari hiyla tiniq tortib, zilollanib qopti-yu, asovligi o'sha-o'sha. Qirgʻʻboqdagi qator tollar tagiga shalop-shulup bosh urib kelib, qora ildizlarini o'pib, patak ildizlarini o'ynab, nafis-nafis tarab yotibdi. Suvning bu erkalashidan tollar ham gurkirab, yashnab ketganlar. Novdalari bir ajoyib chayqalib, suluv-suluv tebranadilar. Ularga osilib halinchak uchgan-uchayotgan yellar ham shu Kalkovuz mehmoniga aylanganlar. Hatto "yoshini yashab, oshini oshab bo'lgan paxsa devor ustida unib, gulini to'kib, urugʻʻb bogʻʻblab ulgurigan qizgʻʻbaldoq bir chiroyluv chayqaladi. Faqat anuv qora daraxtgina qarqʻʻbʻish urgandek, o'sha-o'sha so'ppayib turibdi. Sulaymon paygʻʻbʻambarning qurt yeb ado qilgan asosidek bir kun o'zi chirib tushmasa, ungacha shu turishi turish, qayta ko'klashi dargumon.

Ostonasi tagiga katta xarsangtosh yotqizilgan (u chiqiladigan o'ziga xos zina ham edi) yakka tavaqali eshikdan kirib boraverdim.

Yuqoridagi boloxonali uyning hovlisigacha cho'zilib borgan ishkamlar xuddi Kattabogʻʻning ishkamlaridek tagiga bir ajoyib olachalpoq soyalar tashlab, yashnab yotar, gulini to'ka boshlagan uzum boshlari ko'k marvarid shodalaridek tok barglari orasidan mo'ralar edilar. Ishkom ichidan uzum gulining islari gurkirab kelar va biz ichlarida shabboxun urib katta bo'lgan bogʻʻblarimizni yodga solar edi. Farqi, bu ishkamlar ichi tizza bo'yi o't emas, balki yo'l edi. Shu yo'lakdan tepa hovliga chiqib borilar edi.

Men o'zim kirib boraverishga haddim sigʻʻbʻmay, har ehtimolga qarshi ovoz berdim:

- Chaman aka! Hov, Yodgormurod!..

Ular yo'qligini juda yaxshi bilaman. Chaman akam qaytsayoq qidirib topar edi. Yodgorni esa qaerdaligini aytib ham berolmayman.

Menga ham ishonmay, qayoqqadir oldirib ketishibdi. To'ramning gaplari bilan. Shunday bo'lsa-da, ularning otlarini atab chaqirar edim.

Yuqoridagi so'ritok tagida kimningdir qorasi ko'rinib, hech qancha o'tmay Asal opaning o'zi ishkamlar boshiga chiqib keldi. U uylik odmi ko'ylak kiyib, boshiga ro'mol o'rab olgan, bular unga yarashib, andisha-iboli ayollar nuxsini bervorgan edi. Ilgarigi chars ayoldan nishon ham ko'rinmasdi.

U meni tanib, shoshib qoldi:

- Voy, sizmi, kirib kelavurmaysizmi? Bu yoqda biz eshik tiq etsa, termulib o'tiribmiz-ku, - deb ro'molini to'gʻʻbrilab, o'zi Oyto'ra kampirning uyi tomon yuraverdi. Borayotib, "Kelishibdi, oyi, deb ovoz berib ham qo'ydi.

Meni esa ko'zim Yodgorlar turadigan (hozir oynasiga oq mato tutugʻʻbʻlik) boloxonaga tushib, ilgarigidek bir sir bosib kela boshlagan edi. Bu xonadonning shunaqa birovgʻʻa aytib bo'lmas sirlari bor. Ayniqsa, shu boloxonaga chiqaverishdagi anuv oq-oppoq kampirning dahlizida, o'sha zinada, tagʻʻbʻin boloxonasida. Bu sirning domiga bir tushdingizmi, chiqa olmaysiz ham, qutula olmaysiz ham menga o'xshab...

- Assalomu alaykum, xolamoyi, - men ostona hatlab, qo'lim ko'ksimda, karavotlarida o'sha-o'sha, oq-oppoq bo'lib, mushtdek bo'lib o'tirgan kampirga yelkamni tutib bordim. U kishi ham oq donasidagi qora xol-xolli yozuvlari yedirilib ketayozgan tasbeharini qo'yib, kiftimga qoqib ko'risharkanlar, momiqdan momiq qo'llaridan bir olam huzur topib, erib borardim, so'rab-istashlariga "rahmat-rahmat, yurishibdi, o'tirishibdidan nariga o'tolmasdim.

- Bizning toychoqʻʻbʻimiz-chi, ichikib qolmadimi? Ketamizga tushib, qiynab qo'ymadimi sizni? Opkelavurmabsiz-da?... - derdilar kamiga.

Men qanday ayta olarkanman, tushuntira olarkanman u Yodgortoy bilan bogʻʻbʻliq voqealarni, Zohidxon kelib olib ketganini?

O'lloh o'zi kechirsin. "Tuzuk-tuzuk, yuribdidan nari o'tolmasdim.

Nihoyat, hali ham ko'milmagan sandal yoniga cho'ka qoldim. Asal opa qoziqdan olgan dasturxonni xilviratib yozib, buvi duoga qo'l ochdilar.

- Iloho, ovmin, shu qutli qadamlariz bilan biz sogʻʻbʻingan kishilarni ham o'zi yetkaza qolsin. U yoqdan Chamanimizniyu bu yoqdan Saritoyimiz, Yodgormurodimizni, uning dard ko'rib ro'shnolik ko'nmagan ayaginasini...

Men yana yolgbʻʻonlashga majbur bo'lmayin-da, deb ich-etimni yeb, duoga qo'l ochib turibman-u, buvining betlariga qaray olmayapman. Ammo ich-ichimdan "Ilohim, farishtalar ham omin degan bo'lsinlar, Oyto'ra buvining duolari mustajob bo'la qolsin. O'sha jabrdiydayu sitamzadalar qaytib, bularning ham bagʻʻbʻri to'la qolsin, deb tavallolar qilardim.

Nihoyat, yuzga fotiha tortilib, taxmondagi qutidan bejogʻʻbʻliq talinkalar olina boshlandi.

Men "keragi yo'q-keragi yo'q deganim bilan qutidan kallak qandu mayiz-yongʻʻbʻoqlar chiqib, shaharning endi rasm bo'lgan churrak noni ushatildi. Ustida damlangan choyi bilan potirlab qaynab turgan mitti samovar olib kirilib joyini topdi-yu, mo'jaz xonaga fayz ham kira qoldi. Asal opa laylakoyoqqa o'xshash bir ajoyib nozik gulli bir vaqtlargi chinakam chinni piyolalarga avval choynakdan, so'ng samovardan burab, choy quyarkan va kelinlardek nazokat-la uza- tarkan, meni xayol opqochib-opqochib ketar edi: Qarang-a, bir uyni yashnatib o'tiradigan binoyi ayol ekan-ku... Saritoyi yo'qolmasdan burungi zahar-zaqqu- moyini ko'ringu hozir o'tirishini ko'ring, derdim ichimda.

Beixtiyor Nusrat pochchaning gaplari aylanib-aylanib yodimga tushib ketar edi. U kishi:

49 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Ollohga oson. Insof beraman desa, har qandogʻini o'nglab qo'yadiki, qalbi qanday moyil bo'p qolganini o'zi sezmay qoladi, - deyishni yaxshi ko'rar edilar. Shunga o'xshab, bu ham Ollohning ishlarimikan?

Non ushatilib, piyola bir aylandi. Mulozamatlar davom etar, uy egalari maqsadga ko'chishdan istihola etib, sir berishmas edi.

Nihoyat, oyoqlarini uzatgancha bizga yonlamasiga o'tirgan Oyto'ra buvi:

- UZR, biz sizni chaqirtirib, bezovta etduk, aybga buyurmaysiz, - dedilar ming bir istihola ila.

- Bezovtasi bormi? Xabar olish bizdan lozim, - deb men ham mazurlandim. Ichimda esa, nima gaplari borakan, deb intiqib yotibman.

- Aytmoqchi, - Oyto'ra buvi qizlariga o'girilib qaradilar, - bugun muharramning nechanchisi?

Asal opa barmoqlarini bukib sanay turib adashib ketdi, yana qayta sanab, javob qildi:

- Yigirma to'rti ekan, oyijon.

Nimaga kun sanashyapti - hech aqlim yeta qolmasdi.

- Shunaqami? - dedilar buvi xayollanib. - U yogʻni Zulhijjadan bir hafta qo'shilsa... o'n kun ham qolmabdi-ku, aytgan muddatiga,

- dedilar ichlari allaqanday sidirilib. Kamiga - ona-bola bir-birlariga gʻʻalati qarab olishdi ham.

- Nimaning muddati, xolamoyi? - dedim ichim tosha boshlab.

Buvi o'sha yigʻ bilmash oyoqlarini oq choyshab ustidan hardamxayol silar ekanlar, bir alpoz tin oldilar:

- Chamanning-da, mirzo bolam, ado qildi-ku bu yurishlari bilan.- Shu tob ichlaridan o'rlab chiqdimi yo samovar ichidan tushgan cho'gʻ bʻ chayindida vishillab o'chdimi - xonada bir tur dud anqib o'tdi. U olovda kuya boshlagan jigarga ham, suvga tushgan cho'gʻ bʻ hidiga ham o'xshab ketar edi. - O'shani dardida kun sanab o'tiribmiz-da, biz-mushtiparlar...

- Qachon kelishlari kerak edi? - dedim men ham ichim sidirilib. - Aytib ketgandirlar, axir?

- Aytgan, mirzo bolam, aytgan, - dedilar buvi, u yogʻ bʻiga ko'cha olmay.

- Aytgan bo'lsalar - kelib qoladilar. Bilasiz-ku, Chaman akamni! So'zlarining ustidan chiqmay qolmaganlar.

- Chiqmay qolmagan, to'gʻ bʻri, - deb tasdiqladilar buvi, lekin chiroylari ochila qolmas, nimanidir aytolmay o'tirardilar.

- Qayoqqa ketganlar o'zi? - dedim, zora aytgan bo'lsalar, deb.

- Hov-v, Chaman bo'ladiyu aytadimi, - dedilar buvi bir chuqur xo'rsinib.

Asal opa esa bir mo'min tortib-bir mo'min tortib, bosh silkib o'tiribdi. Piyola-sochiq haliyam qo'lidan tushgani yo'q: yozib-taxlaydi, taxlab-yozadi.

- Sizlarga aytmasa, kimga aytadi?

- Shu idoraga kiribdiki, shunday: aytmay ketadi. Qoidasi shundaymi?

- Axir ushlanib qolishi bor, bu yoqda zarur bo'p qolishlari bor.

- Bizam necha qaytalab aytganmiz, - deb gap qo'shdi Asal opa, - uylansayam sil qilardi kelinni.

U endi ilgarigi Asal opaga o'xshab-o'xshab ketayotgan edi.

- Yo'gʻ bʻe,- dedim men Chaman akamning yonini olib.

Oyto'ra buvi (bilmabman, ko'ngillari bo'shshahib o'tirgan ekan), ro'molcha izlab, qizarinqiragan mijjalariga yenglarini bosdilar. Asal opa turib kirtokchadan ro'molchami - nima olib kelib berdi.

- Mani o'tirishim - bundoq, uning yurishi - undoq. Nimayam qilaylik, yozugʻ bʻi shundoq ekan, - dedilar buvi ko'zlari yana yoshlanib kela boshlab. - Bilmadim, shuning boshini ikkita qilib qo'ya qolsak, qutularmidik shu majhul yurishlaridan.

- Aytib ketiptilar-ku, - dedim gap sigʻ bʻmasa ham.

- Aytganiyam bor bo'lsin, hamma gap shunda-da.

Men qolgan choyimni ho'plab, hayron qaradim:

- Tushunmadim...

Oyto'ra buvi hijolatlanib, yuzimga bir qarab oldilar:

- Kelavurmasam... kun sanaysiz deb edi. Farishtalar ovmin degan ekan, aytganiday bo'ldi.

- Qanday-qanday?..

Buvi aytishga qiynalayotganlarini ko'rib, Asal opa engashib qulogʻ bʻimga shivirladi:

- Hali aytdim-ku, o'sha - omonat gap.

Hamma narsani kutsam ham, buni kutmagan edim. Xushim uchdi:

- Menga tegishlimi?

- Ha, mirzo bolam, qirq kundayam daragim bo'lmasa, Maqsudni chaqirtirasizlar, deb edi.

- Yo'gʻ bʻe?!- mening ich-etim bo'shshahib tushgan edi.

Oyto'ra buvi bosh to'lgʻ bʻadilar:

- Mayli, haliyam bo'lsa, aytmay tura qolay. Irim qildim, maylimi, mirzo bolam? - u kishi iltijo-la tikildilar,- uzr, oldindan chaqirganuvzaga.

- Ungacha balki o'zi ham kelib qolar, - dedi Asal opa.

Men esam, miyam karaxt tortib, kallavaram odamga o'xshab qolganmanmi, epaqali bir fikrga kelolmasdim. Koshki bilmasam, qayoqqa ketganini! Lekin bularga aytib bo'ladimi! "Hov, Tibetdami, Tangritogʻ bʻ degan mamlakatdami - qiyomatli oshnasi bor. Mening akam! Qanchadan beri - na xat, na xabari bor. O'shaning daragi chiqib, (qanday aniqlagan - yolgʻ bʻiz o'zi biladi!) jo'nab ketgan! deb. Aytib bo'larmidi kampirning o'takasini yorib?!

Baribir boyagi gap hech miyamdan ketmayapti: qirq kungacha kelmasa, men nima qilishim kerak ekan? Bu nima degani? Juda gʻʻalati-ku?..

- Undan ko'ra, Siz, mirzo bolam, anavi ostonamizga tanda qo'yvolganlarni bilib bering. Aytgin, Asal, - dedilar buvi biz tomon yarim o'girilib.

Qizi u kishiga choy quyib uzatarkan, bosh silkidi:

- Xo'p, oyijon, xo'p.

- Kim... tanda qo'yarkan?

- Bir ijroqo'mdanmiz, deb keladi, bir idoradan, deb... Ijkilab bir nimalarni so'ragani so'ragan, - deb tushuntirgan bo'ldi Asal opa.

Bir narsani tushunsam, o'lsin agar:

- Nimani so'raydi?

Asal opa yelka uchirib, labini burdi: (Ana, shunda u o'zim bilgan Asal opaga o'xshab ketdiyu, yana muloyim qiyofasiga qaytdi)

- Bilmasam. Hali do'mavoyini titkilaydi, hali o'zidagi ro'yxatni. Yashirmang, yana kimlar turadi, deb tergaydi.

- Boloxonaga chiqmadimi, ishqilib? - dedim ichim to'kilib kela boshlab.

- Qayoqda! Qo'ymadim! - dedi u qoshlari chimirilib-tushib.

"Bormisiz! - Men ich-ichimdan uni yoqtirib qola boshlagan edim. - Yaxshiyam sizga ro'baro' bo'пти.

- Kirolmabdimi, qo'rqadigan joyi yo'q, - dedim dadillanib. - Bu yogv̄hini o'zimga qo'yib berasiz: ishxonadan bitta qo'ngv̄ġiroq qilsam, nafaslari o'chib ketadi.

Oyto'ra buvi azza-bazza duo qilishga tushdilar:

- Voy, barakagina toping, mirzo bolam. Yaxshiyam chaqirganimiz. Chamanni yo'qligini bilintirmay turing. Shuni aytadilar-da, har xonadonning erkagi bo'l-sin-u, Alloh panohida asrasin, deb.

- Bo'ldi, o'zim tez-tez kelib turaman. Keyin... tortinmay qo'ngv̄ġiroq qilavering, chaqiraveringlar, - deb vadani qalashtirib, ularga taskin berarkanman, ko'nglimning bir chekkasida "U surishtirib kelayotganlar kim o'zi? Kimni qidiradilar? Yodgornimi, kennoyimnimi? degan ishtiboh gv̄ġimirlab-gv̄ġimirlab qo'yar, buni mana bu mushtiparlarga bildirmay qo'yaqolay, deb uni ichimga yutganim-yutgan edi. Qolaversa, Chaman akam nima deb tayinlabdi ekan? Hech tagiga yetolmay o'tiribman. Buvi qirq kun bo'lmabdi hali, deb irim qildilar. Shundan keyin qanday so'ray olasan?!

Gaplar ham poyoniga yetib qolgandek edi, men turishga hozirlana boshlab, yana bir taskin bergim keldi.

- U so'rab kelguvchilardan judayam qo'rqmang. Nazarimda, ular xeshlarini izlashadir, - dedim.

- Kimlar?- dedilar Oyto'ra buvi xushyor tortib.

- Axir, Yodgorning Tangritogv̄ġda qolgan xeshlari bor-ku. O'shalar izlayotgan bo'lishsa kerak-da nuridiydalarini...

Oyto'ra buvi o'tirgan joylarida bir yerga yetib, hamdu sanoga tushdilar:

- Olloh-Olloh! Hali shundoq edimi! Chindan O'zining karami cheksiz, poyonsiz. To'gv̄ġri aytasiz, xeshlari qarab turisharmidi. Subhanallohi va bihamdihi, subhanallohil aziym. O'zing mushkullarini oson etgil,- deb duo qilganча qiblagga yuzlandilar.

Yo Musavviri olam! Mening ko'z oldimda esa, Oyto'ra buvining yuzlaridek yorugv̄ġ bir nur turib olgan, qayoqqa qarasam o'sha yo'qqa ko'char, suv tubida yotgan yombiday jivirlab ko'zimni qamashtirgani-qamashtirgan edi. Goh sap-sariq xandalakka aylanadi-qoladi, goh bir o'ram sariq ipak to'piga. Bazan esa, go'yo yulduzlar turkumiday jivirlashga tushib beradiyu o'z poshshosiga ergashgan asalarilar to'dasidek gv̄ġujgv̄ġhon o'ynay boshlaydi. Nima ekan, hech bilolmayman. Bu holdan azbaroyi to'lqinlanib boshimni ko'tarsam, deng, o'sha nur ko'chib borib, Oyto'ra buvining bosh tomonlaridagi anavi jildga qo'ndiyu meni hayratga solib, unga singdi-ketdi, tavba.

Ko'z oldimda jigarrang chiyduxobadan tikilgan jildu uning ichidan bir enlikkina chiqib turgan eski-qadim qitobgina qoldi, xolos.

Uning yonida o'sha devor qoziqqa osigv̄ġġliq boshqa bir - nay bo'lib nayga, surnay bo'lib surnayga o'xshamagan, lekin qadim bir matodan tikilgan jildga osigv̄ġġliq narsa turibdi. Men uni har gal bu xonadonning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan shajara qogv̄ġozi bo'lsa kerak, deb taxmin qilaman-u, buvidan so'rashga jurat eta olmayman. Bu gal ham tilim bormadi. Mavridi emasdi. Faqat jigv̄ġġillashi goh susayib-o'chib, goh yana qaytadan jonlanayotgan samovar yonidagi Asal opa Saritoyini o'ylab ketganmi, o'ksigv̄ġġini ichiga yutib, jimgina yigv̄ġġlab o'tirar, ora-chira hiqillab qo'ymasa, ko'ngilni ezadigan narsa yo'qdek edi go'yo...

Hijron Shevasidagi Mahfuz Xatlar

Dunyoda birovning birovga atalgan xatidan gv̄ġa- royibroq narsa yo'q. Yana ular ayriliqdagi kelin-kuyovlarga tegishli bo'lsa!

Bu esa, ustiga-ustak boshqa imlodga edi. Faqat birovgagina o'qitib, nimaligini bilish mumkin. Qolaversa, birovning xatini egasidan bir ogv̄ġiz so'ramay birovga o'qitish mumkinmi? Har qancha gv̄ġaroyib bo'lgan-da ham (asli akam haqida biron mujda chiqib qolarmikan, deb ichim qurib yotibdi!) bu mumkin emasdek edi. Avvalo birovniki! Ustiga-ustak omonat. Kenno-yim eshitsa nima deydi?

Pochchaga olib borgim kelmadi. Iya, Maqsudxo'ja, kennoyingni daragi chiqibam bizga indamabsan-da, desalar nima degan odam bo'laman! Undan ko'ra, o'ziga qaytarib beraman. Nima qilsa qilsin. Xo'hlasa asrab qo'ysin, xohlama, yirtib tashlasin. Nimalar kechgani bir umr qorongv̄ġi qolsin! Muhimi, u akamni kut-yapti-ku. Oz emas, ko'p emas - necha yillardan beri, birovlarining eshigida sarson-sargardonlikda yurib ham, Olloh yuborgan dardlarni bir ehsondek kutib, chidab kelyapti-ku. Shuncha sabr-bardoshni qaerdan topdi ekan? Chivindek joni, ayol boshiga? Sabil ekan-ey tagv̄ġin ham joni...

Ishqilib, akam omon bo'lsin, bularning baxtiga, shuncha kutganiga. Axir, Chaman akam topgandir-ku? Qaytib ham qolar-ku...

Shunday mahzun xayollar bilan uyga kirib borsam, oyim otin oyilaridan yodgor qolgan qalin qizil gilam ustida (ko'rpachadan tushvolib) chordona qurib, enkayib o'tiribdilar. Hadeb tizzalaridagi kaftlarining orqasini silaydilar. Goh unisini, goh bunisini. Eshiklari qiya ochiq, quruq yakandoz yopilgan sandal ortida (men o'zini ko'rmayotirman) kimdir nimadir o'qiyapti. Oyim toza quloq osganlar. Men kelganimni sezmagani sezmagani, ora-chira burunlarini bir gv̄ġalati tortib ham qo'yayaptilar. Xuddi o'ksilari bosib-bosib kelayotgan kabi.

Zinada oyogv̄ġimdagini yechayotib quloq solsam, tanish ovoz, o'qiyapgan keliniz!.. U o'qirdi:

"... homilam kun sayun bilinub boradu. Men boyaqishgina uni ichdan sirib ham, ustimdan xalatu kamzullar kiyib ham yashirolmasdum. Yashurganday bo'la- man-u, yana hamma menga qarayotgandek... bu baxtiqaro qornidaginu qaydan topdu, qaerdan bo'yuda bo'la qoldu, deyayotgandek. Tushuning, bosh ko'tarolmayutirman. Ayturga tilim yo'q. Birov sizga uy berur, joy berur-da, yana malomatlarga qolurmu? Mening kichigoyum, sizning xolamoyingiz - u farishtadayin zotlar shundayun malomatlarga qolsunlarmu...

Men nimanidir anglayotgandekman-u, tagiga yetolmayotirman. Nima bo'lsa ekan? Kim bo'lsa ekan? Nahotki shunday sirlarni birovga ochish mumkin, yozish mumkin?

Bir qadam bosib, ayvonga chiqdim. Saidaning nigohi menga tushib:

- Voy, bular keptilar-ku! - deb sakrab turayotib negadir loladay qizarib ketdi. Qo'lidagi... unniqib ketgan daftarni qaerga yashirarini bilmay garangsidi. Tanidim! U o'sha eski uyimizda qolib ketgan daftarlarga o'xshab ketar edi. Nahot o'sha omonat xatlar?! Qaerdan ola qolibdi? Qolaversa, xotinim u eski imlodagi narsani qanday o'qiyapti?

- Nimaga so'ramasdan... oldiz?

- Kechirasiz, - Saida yer chizib qoldi. Qimtilgan lablari qontalashib borardi.

Mening "bemavrid tergashimdan oyim asta boshlarini ko'tarib, yelkalari o'sha qarab qo'ydilar. O'zlari o'sha-o'sha gilam ustida chordona qurib o'tirar, faqat kaftlari orqasini siypashdan to'xtagan edilar.

- Ha, Maqsudxo'jam? Men aytib edim, - dedilar.

Men salom berib, kirib boraverdim. U kishi alik olib, tuzukroq o'girildilar:

- Shoshma. Qaerdan topding bu narsalarni? Yo boya-qishginaning daragini topib ham miq etmay yuribsanmi? Anuv kungi bolakayni ham... kim deb tushuntirib eding?

O'zim kirib, o'zim mulzam bo'lib qoldim! Rostiga ko'chmay bo'lmasdi:

- Eski uydan, oyi. Tokcha orasida ekan.

- Bir ogʻʻiz indamading-ku?

Yashirishning hojati qolmagan edi:

- Oyi, u kishi iltimos qilib edilar. O'zlari shu shahardalar. U kungi bolakay ham shularning Yodgori,- dedim tilimning tushovlari yechila borib.

- Dard edi! Go'r edi!.. - Oyim betimga yomon qarab, yuz o'girib oldilar. - Tiling bor ekan-ku! Aytsang o'lib qolarmiding?!

Miq etolmay qoldim. Endi kennoyim bilan bogʻʻliq barcha gaplarni aytib qutulmasam, qutulolmasdim.

- Xohlasangiz, olib boraman, oyi. U kishi shifoxonadalar. Sal tuzalib olsinlar.

- Voy, hali shifoxonalarda yotibdiyu... bir ogʻʻiz aytmadingmi? Birrov ko'rib kelishga yaramadikmi? Es-pesing joyidami, bola? Seni kim aytadi gazetada ishlaydi, ko'cha ko'rgan, deb? Voy, Maqsudxo'jam tushmagu-ur, haliyam bolaliging, do'lvorliging qolmabdi-ku.

Men yer chizib qolgan edim. O'tirishimni ham, nima deb uzr so'rashimni ham bilmasdim. U kishi esa astoydil hafa bo'lganlaridan mendan yuz o'girib olgan, qarab ham qo'ymasdilar. Men hatto elanib, uzr so'rashdan ham hayiqib turibman. Battar gap eshitib olishim mumkin. Negaki, ayb o'zimda. Vaqtida aytmaganman.

Nihoyat, u kishi yuzlari yorishmay o'girildilar:

- Qachon chiqarkan, boyaqishgina?

- Bir hafta-o'n kunlarda javob tegib qolar, - dedim shoshibgina.

- Ungacha oborasanmi yo tagʻʻin uyatli bo'lib qolavurovzami?

- Oboraman-oboraman, oyi. Sizni obormay, kimni oboraman, - dedim u kishini yumshatishga urinib. Ammo oyim jahllaridan tushadigan ko'rinmasdilar:

- Ja, oborasan! Man sani o'sha ishxonangga tuqqan ekanman-da. Jujur edim deysan - ketasan, falon yoqqa deysan - ketasan.

Oqibatniyam bilasanmi?

- Oyi, mana yuribman-ku, o'sha kelinoyimning tashvishi bilan.

- Yurganing shumi? Bir ogʻʻiz aytib qo'ymay? Senlar Yaxyo bo'lolmaysan. Shu tomonga yo'li tushdi deguncha ko'rgani kiradi.

Borsa-kelsa oqibat bo'ladi-da. Senlar o'zingdan ortasanmi?

Men tiz cho'kkanimcha miq etmay qolgan edim. Nima deyayotgan bo'lsalar - hammasi to'gʻʻri. Biz Yahyo to'gʻʻidek bo'lolmaymiz. U kishi o'n marta kelib ko'rganlarida biz bir marta borolmaymiz. Ko'chib ketishgach-ku, yilda bir marta borsak boramiz, bo'lmasa yo'q. Aslida biz jyanmiz, borib ko'rish bizdan lozim, ko'zlari ojiz bo'lib o'tirib qolgan xolamlarni ko'rib qo'yish, duolarini olib qolish bizdan lozim. Qayoqdan ham Chaman akamning o'sha (ovoza qilma degan) gapiga kirib, ichimga yutdim. Ayta qolsam-ku, shu dashnomlar yo'q edi.

Oyim sekin qarab qo'ydilar, men bosh ko'tarmasdim. Buni ko'rib yumshadilar.

- Boyaqishgina, qaerlarda jon saqlagan ekan?

- O'sha xat tashlab ketgan odam - akamning jonajon ogʻʻʻaynisinikida, - dedim u yogʻʻʻini ochib o'tirmay.

- Ha, baraka topsin. Manavini oqibat deydilar. Shaharli bo'lsayam, qay ko'chalarda sangʻʻʻishib topgan bo'lsayam, chin o'rtoq ekan akangga. Yomon kunida yarab-di, - dedilar astoydil alqashga tushib. - Kenno-ying tuzalib chiqishi-la bizni oborasan.

Aytishmasin, bular qanaqa oqibatsiz odamlar ekan, deb. Mayli, bor, yechinib chiqa qol. Ungacha biz eshitib turovuz bu yogʻʻʻini.

- Shu hijjalashida tong otadimi, - dedim chiqa turib.

Xotim bir qarab qo'ydi-yu, indamay qolaverdi. Men esam, chiqishga chiqdim, yechinishga yechinib, kiyimlarimni almashtirdim, ammo qaytib chiqishga ensam yor bermasdi. Nedurki, daftarlarni so'ramasdan olgani yetmay, uni oyimlarga o'qib berib o'tirgani alam qilayotgandi. U o'qimasa, men shuncha dashnom eshitarmidim?..

Gina, alam bir taraf, lekin o'zim ichim qurib, kitob varaqlab o'tiribman-u, miyamga biron narsa kir-sa - o'lsin agar! Fikri-zikrim o'sha yoqda.

Axiyri bir mahal Saida chiqdi. Xatni qaynona-kelin o'qishib, toza yigʻʻʻlashgan shekilli, qovoqlari shishib ketibdi. Lekin shunda ham sir bergisi yo'q.

- Adasi, moshxo'rda solib qo'yuvdim. Gurunch tashlasamoq pishadi. Yo biron piyola choy opkelib turaymi?

- En-dimi?! - dedim boyagilarning alamiga ham.

- Ko'rdingiz-ku, oyim nima dedilar, ulardan o'tib...- deya oldi.

- Yaxshi, ochdan o'lmasman yarim soatga.

U daftarni sekin joyiga qo'yib, chiqa boshlab edi, to'xtatdim:

- Shoshmang... Buni o'qishni qachondan bilasiz? - dedim daftarga ishora etib. - Men kimga o'qitarimni bilmay yuribman, bu yoqda siz...

U ginaomuz qaradi:

- Bir ogʻʻʻiz aytsangiz ekan o'zingizdan ortib...

- Ha, endi, ishimni bilasan-ku, - deb baland keldim.

U issiq jilmaydi:

- Yurgan ekansiz-ku, kennoyingizning ketida, ishdan ham vaqt topib...

- Yuribman, - dedim to'gʻʻʻisiga ko'chib. - Bir musofirning ketida yurish - avvalo, savob, qolaversa, u jabrdiydalar kimni qora tortib kelib, shu ko'yga tushibdi?

- Ha, shuni ayting, tagʻʻʻinam fil ekanlar, - dedi Saida bo'shshib.

- Hammasini yozibdilarmi?

- Ha, hech kimga yorilolmay shunga to'kkan ekanlar.

- O'zimga qachon o'qib berasiz? - dedim ichim qurib.

- Hijjalashimga chidasangiz, - dedi u kulib.

...Mana, o'sha egasini topmagan maktublar. Bir vaqt-lar bizning Kattabogʻʻʻdagi eski hovlimizda yarim yilgina turgan

52 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

kennoyimning sardaftari. Yolgb ʻuz akamga atab yozgan, ungagina to'kkan dardu hasratlari. Bu tarix to'la bo'lsin uchun men uni sizga u kishidan beruxsat bo'lsa-da, (albatta, keyin bu qissa kitob bo'lib chiqqunicha izn so'rab qo'yarman, deb) ilinmoqdaman.

Judoluq Diyoruda Qolmish Kishimizga Tegsun, Ilohum

Menkim, o'z juftu halolungiz, bir haftagina erkalab ulgurgan jambilangizdurman. Mayli, bor jonum, otalar yurtiga, arvohtar yor, ruhlar madadkor bo'lsunb ʻʻ Ollohning panohiga, izingdan yetib borgayman degan Mahfuzangizman.

Yo'llaringizga termulub ko'zlarum to'rt bo'ldu. O'lturubman: kechalari uyqum o'chib. Tong-saharlarda duoi iltijolar etub. Tiq etsa, Sultonimmasmu, deb yuraklarum toshub-hapruqub.

Oy ketudan oy ketmoqda suvday oqub, kun ketudan kun o'tmoqda bagʻʻrum yoqub... Ammo Siz yo'qsiz. Hatto elchularingizdan darak yo'q. Bilaman, uzoqning ishi qi-yun. Lekin bir ogʻʻuz mujda yuborish shunchalar mushkul edimu? Yo bizdan keyun sarhadlar berkuldi-qoldumu? Bizday ojiz-notavonlar o'tub, sizlardayun eranlarnu bittalab terdularmu? (Xudo o'zi asrasun).

Shularni o'ylasam, meni ham Yusuf alayhissalomdek bir tubsiz chohquduqqa tashlab ketushgandek, halu beru xaloskorum kelub yetmaydurgondek tuyulaveradu-tuyulaveradu. Ikki rakat namoz o'qib, Ollohga duoi iltijolar qilmagunumcha o'zumga kelolmasman. So'ng "huvalllohullaziini yolgb ʻuz sizga atab o'qugayman, zora nolai zorumni ijobat etub, Siznu balo-qazolardan asrab qaytarsa, deb. Yolgb ʻuz orzum shu: Olloh bizga-da xotirjamlik ato etsun, padarlarumizdek tentiratub qo'yimasun. Sinasun, imtihon etsun - shu Vatandan judo etmay, sarson-sargardon etmay sinasun.

Men azbaroyyu kimga yorilarimnu, dardu hasratlarumnu to'karimnu bilmay, axiyri o'zingizga xatlar bitmakka, jo'natmasam-da (axir qandoq ham jo'natay?! O'rtada sarhad, qancha togʻʻb-dovonlar yotibdu. Men boyaqishginaning bitiklarinu kim ham Tangritogʻʻga yetkazgay?) shunday bo'lsa-da, harna yengil tortarmanmu, deb yozmoqni boshladum. Shuni o'zum ixtiyor ettum. Xudo xohlasa, bir kun kelib o'qirsiz. Mening aziz jamilam ota yurtda shunday kunlarga qolganmudi, bir haftalik kelin boshi ila shu ko'rguliklarga chidaganmudi, deb... ichinguzda bir hislar uygb ʻonsa - shuning o'zi menga kifoya.

Endu o'zumdan so'rasanguz, sarhaddan omon-eson o'tib olduk. Olloh otamlarnu bundanam aziz qilsun, topgan mahramlari - chin mo'min ekan. Yeru ko'kka ishonmay, pardai ismatdagi o'z qiziday ko'rub, olib o'tdu bu yoqlarga. Har tekshiruvchiyu gumonsiranganga qalqon bo'lub, paranjiyu sachvonumni oldirmay-ochtirmay. Dadam bu yoqqa jo'nata turib, qo'shgan odamlari (Oh, qandayun ham odambilar, odamtanur ekanlar!) o'zu chinoq, o'ng qulogʻʻbining yumshogʻʻbi tamom yo'q, ustuga ustak garang bir kishi edi. O'nta gapga bitta javob beradu. Shunaqa hokisorki, birovga yomonluq sogʻʻbinolmaydu. Hali-hozur o'shal qorasooqol - garang odamning haqqiga saharlarda duolar qilaman. Ollohning fazlu marhamatinu so'rayman unga. O'shal odam o'z yetum qiziday meni esku-tuskularga o'rab, yomon ko'zlardan asramasa, ikki dunyoda o'tolmaskanman bu yoqlarga.

Oyim boyaqish, menu yeru ko'kka ishonmas oyuginam xuddi qudalarinikuga jo'natgan kabu asl kelunlik liboslarumda, duxoba paranjularda yo'lga chiqqargan ekanlar.

U kishi hovlusiga opkirub hinduday qora, eti ustuxoniga yopishgan (lekin ko'zlari biram muloyum) bir ayolga (xotinu bo'lsa kerak) buyurgan edu, menu "voy, kelinposhsha, aylanay sizdan, deb ichkaruga boshlab ketdu. Birpasda kirtaxlarnu ko'tarub, sanduqlarnu ochub, lozim edimu, ko'ylak edimu, nimchalarmidu topib oldumga qo'ydi-da, o'zu chiqayotib:

- Mashilarni kiyvolaqoling, irganmang, aylanay, necha kiyilgan bo'lsa shuncha yuvilgan,- dedi. Keyun oftobda o'ngub-la ketgan sidirgb ʻa paranju ko'tarib kirdu.

- Mashini yopinub olasiz, kelinposhsha. Zamon chop-chop, ashini ko'taradu. O'zizzikini bir bo'xchaga tugib beraman, bemalol ketasiz, - dedi.

Keyun: "Amakizzi raylariga qaraysiz-da, qattiq-quruq gapursalar ko'nglizga olmaysiz-da. Yura qoling. Ilohim, oy borib, omon yetinglar. Ollohim o'z panohida asrasin. Borgan yeringizdagilarga duoi salom aytinglar. Nasibamizni qo'shgan bo'lsa, orqanglardan biz ham borib qolarmiz, dedi.

Qanday borishadu yo amaki joy topub, keyin olub ketadurlarmi - tushuna olmasdum.

Bu orada ular xayr-xo'shlashib, ortumizdan irimiga suvlar sepub chiqa boshlashdu. Hindudek qora xotin chinoq eruning yelkalarini silab, yuzuga surtar, ikki gapuning biruda:

- Hoy, dadasi, dadajonisi, uzoqib ketmang-a, bizlarni-da olib ketadigan bo'lib keling-a,- deb tayunlar edu.

Chinoq amaku menung engul-boshum, paranju-sochvonlarumga qarab:

- Ha, bu boshqa gap, qizim, - deb qo'ydu, - hali qaerlardan o'tmaymiz, kimlarga ro'baro' kelmaymiz. Yetvolayluk - har qancha orzu-havas siz bilan...

Uyalublar ketdum: shu tashvishlarnu ilgaruroq o'ylasam, bo'lmasmu ekan?

Men yo'qchilukdan opalaruning eskularinu kiyub katta bo'lyapgan, halutdan paranjuga o'ranvolgan qizaloqqa o'xshab qolgan edum. Bu juda ajoyib edu, Murod aka. O'zumga ham yoqub qolgandu. Chimmat orasida o'zumnu emin-erkin, osudaroq seza boshlagan edum. Negaki, chimmat orasudan kelaturgan odamnu bilar darajada qarab olish mumkun edu. Ochiqda uyalasan kishu.

Hayo ham qo'ymaydu. Chimmat orasida erkisan. Lekun Siz xayoluzga ham kelturmang. Shariat biz ayollarning feludan ham olungan, Murod aka. Eslang: ayollaruzga aytung. Ko'zlarinu nomahramdan tiysunlar deyulgan. Gunoh - ko'z zinosiga qarab ketadur... (Biz ayollarga Sizdek yolgb ʻuz o'z nikohudagilarga to'yub-to'yub tikilmoqqa izn berilmish. Ortumdan yetub kelsangiz manu u baxtga erishtirgaysiz. Bilung, menga Sizdan o'zgasu kerak emas! Faqat o'rni kelgani uchungina aytdum.)

Shunday qilub, ketduk: oxiriyu poyonu ko'runmagan, tugamaydurgan yo'llar bilan - dovon oshub, togʻʻb oshub. Qir yoqalab, dasht oralab. Yo'lda bir martagina kimningdur shaldiroq aravasiga tushubmiz. Ich-etum to'kilub bitdu, deb o'yladum. Oyoqlarum orom topganu bilan o'zum to'kulub tushganday edum.

Hech yerda men - eski-tuskiga, opasuningmu - kimnung paranjusiga o'ranub olgan kimsaga qarab ham qo'ymas edular. Men bir chekkada sigʻʻb Hindudek mungʻʻb ʻayib turar, hujjatlarnu amaku ko'rsatub, menu kimi deb tushuntirar - keyun qo'yub yuborushar edu. Har gal yuzingnu och, deb qolushlarudan zir-zir titrab turaman, Ollohga duo, iltijolar qilaman. O'zing mavlomizsan, o'zing asra, deb yolborib turaman - o'zu o'nglaydu. Ko'ngluga soladumu, insof beradumu, eng badjahllari-da, bir qarab qo'yaduru indamaydir.

Olloh bor, Murod aka, qo'llaydurman desa, har qandoq yerda qo'llaydur. Man-man degan chegarachi-nazoratchularnu ko'zini ko'rub etub qo'yadurganam, esinu ogʻʻb ʻdiradurganam o'zu.

Oyum oyatal kursiyu o'qub bor, u sening qo'rgʻʻb ʻonung deb edular. O'sha sabab bo'ldimu, ishqilub bu katta shahargacha omon-eson yetub olduk.

Ammo yetdumiz deb bevaqt xursand bo'lgan ekanmuz! Esku Jo'vadan biz qidurgan odam allaqachon uyuni sotub, ko'chib ketgan,

qayon bosh olub to'zub ketganuni hech kim bilmasdu. Amaku manu bir uy soyasiga o'tkazub qo'yub qaelarga borub kelmadu - bilaman deydurgan odam topilmasdu. Bu yoqda kun avval asrdan o'tdu, keyun shomga qarab kettu. Ichumizni it tatalaydur: qaerdan bir boshpana toparkanmuz, deb, tong otdirarkanmuz, deb. Axiyri o'sha siz qulogʻingizga shivirlab aytgan manzil tilimga kela qoldu:

- Shu Esku Jo'vada Zarqaynar deb atalmush ko'cha bormush, shu ko'chada Nusrat pochcha demish odam... - dedum amakiga.
- Kim? - dedu kaftuni qulogʻingizga tutub.

Men qaytardum.

- Kim aytti? Hojimmi? Bizning tutungan akamizmi? - dedi (shundagina bilibman, bizga tutungan amaku ekanini!)

Men aytolmay yer suzib qoldum.

- E-ha, kuyovga tegishlimi, unda topsa mumkin, ishonsa mumkin, - dedu.

Shunaqqib biz ularnu topub borduk.

- Voy, shunaqami? Voy, hoy, Sanobar, suyunchiligʻingizni eshit: Sultonmurodingni oldidan kelishibdi! Mozor bosib kelgan mehmonlarga qara, katta uyga joy sol. Voy, hoy, Minovar, samovaringga qara. Oyoqlarining tagiga qo'y so'ysa arziydirgan kishilar kepqopti, - deb shoshub qolishdu.

Toshkannu asl odamlarinu shunda ko'rdum; mehmon desa, jonlarinu qo'shub berrorishar ekan. Siznu nomingiznu eshitiboq bagʻinlarinu ochub yuborishdu. Yo ular chindan ham shunday halim odamlarmidi, yo Siznu urugʻingizga aymoqlaruz o'zu shunaqami - bilolmasdum.

Kirduk. Qo'yarda-qo'ymay boshimdan paranjuyu soch-vonumni oldirishdiyu... qotib-la qolishdu. Na siz kimsiz, deb so'ray olishadu, na qaerdansuz deya olishadu. Tikilub qolishibdu. Axiyru xolangizlarga (uyat bo'lsa-da) o'zimnu tanutdum:

- Men... o'shoqli kelinizman, Mahfuzaman, - deya oldum.

- Voy, kelinizman degan shirindan-shakar tilizdan, o'zim aylanay, qani, boshqatdan ko'rishib qo'yaylik, - deb yuzlarudan nur yogʻib quloq quchoq ocharkanlar, tepchuk qogʻinlar hidimu, do'ppu ipaklaruning ifor hidlarimu gurkirab borardu. Axiyru katta qizlaruga:

- Hoy, Sanobar, sanduqni och, ko'rmanaga bir kiyim ipakli ol, chop, - dedular.

- Voy, qo'yung, xolamoyu, nima deyapsiz? - deyman nuqul.

U yoqda esa, xolamoyuning qizlari eslaru ogʻib bir-birlariga shivirlashadu:

- Voy, anuvning o'zi-ku, quyib bichganmi, bichib quyganmi, Margʻin-ku, - deyishadu.

Margʻinusi kim ekan, o'sha siz ham menu unga adashtirgan kelinmu - bilolmayman.

Axiyru ikki kiyimluk ipakli, biri qargʻin hashoyi atlas, biri sariq atlas ko'tarib chiqib, irimiga boshumga qo'yishdi. Muborak bo'lsun qilishdi.

Men ham boshumga ro'molumni kelunlardek solib, uning ikki chetudan tutganacha (Siz o'sha kecha tushuntirgandek) toshkanchasuga kelunsalom qildum. Avval jondan aziz xolangizga, keyin Sanobaru Minavar opalarga.

- Ko'-o'p yashang, qo'sha qaring, - deb duo qilishdi.

Bilsanguz, mendan baxtli odam yo'q edu o'sha topda, Murod aka.

Keyin boshqa uyga opkirib, bo'xchamni yechdirishub, uydan chiqqanumdagi kiyimlarumnu kiydirub chiqishdu-da, pochcha bilan chiqqan amakuning olduga salomga olub kirishdu. Bir uyaldum, bir uyaldum. Hech qachon bunchaluk holga tushmagandum. U shunaqa shirin ham totlu desammu, uyatlu ham, keraklu desammu, bir yumush edu. Undan keyin odam o'zuni qushday yengil his etardu.

- Ko'p yashang, kelinposhsha, tup qo'yib, palak yozinglar, ko'rkam-ko'rkam farzandlar ko'ringlar. Olloh yomon ko'zlardan o'zi panohida asrasin, ilohim, - deb duo qildular tez hansurab qoladurgan pochchangiz. Keyin qo'yunlaridan katmonlarini olib, nechtadur qizil o'n so'mlik uzatdilar Sanobar opaga. - Bu mashriqli kelinimizga mendan yodgorluk bo'lsun, bitta tilla soat olib bergaysizlar, udum shunday - qutli uydan hadya.

Men boshum gir-gir aylanub, zo'rgʻin chiqub ketdum. Ularga choy quyub uzatishni-da, unutibman. Es lasam, halu-halu yonoqlarum lov-lov yonadur.

Shunday qilub, o'shal - Siz bir muddat umrguzaronluk qilgan ko'p qadum xonadonga (yo'lkalariyu kovshandozlari musulmon bo'lgʻan) terib ishlangan, vassajuftli keng-keng, taxmon tomonlaruda yozning ne-matlaru - behulardan tortub noklarga qadar, uzumlardan tortub chilonjiyda shoxchalariga qadar osilgan dor yogʻin bo'lgʻan (bor) uylarga kelub qoldum. Mahram amakum meni ularga ishonub qoldirub ketdular. Qaytub kettimu yo xeshlarinu izlab kettimu, bilolmadum.

Bir oychamu, qishga qadarlu shu xolamoyingiznikuda qoldum. Men o'shal sizga jondan aziz kishularnikuda umrbod Siznu kutushga rozu edum. Lekin bir kun... qo'rqqanum qoshimga keldu. Bilub-bilmay qilgan qaysu gunohlarumga - shirun oshum zahar bo'ldu; tinchligumiz buzuldu. Kimdur yetkazganmu, nozir surishtirub keldu. Emushki, bu xonadonda sarhaddan o'tub kelgan odam yashayturganmush, ro'yaxtdan o'tmasam, bo'lmasmush, falon joyga borsin ekanmushman.

Xolamoyi Nusrat pochcha bilan maslahat qilgan ekanlar:

- Bekorlarni aytibdi, xomtama bo'lmasin! Kelsa, menga uchrasin. Darvozani zanjirlab yuringlar. Juda qo'ymasa, don hujraga kiritib, keyin ochinglar, - debdular.

O'sha eng chetdagi eshigi hamisha qulflogʻinliq turadurgan don hujrada, ko'rgan bo'lsangiz, tandurdan katta-tandurdek xumlar ko'mugʻinliq ekan. O'shalardan bittasuni artub-surtub ichiga govrapo'sh to'shab berishdu. Birov eshikdan qistab-chaqirub kelsa deng, men boya-qish - Sizning juftu halolingiz o'shal o'raga tushub olaman. Ustumga esku-tuskularni tashlab, yopub tashlashadu. Ana, shu go'rdan qorongʻin o'rada jon hovuchlab o'ltirishlarimnu ko'rsanguz. Bir kunda necha martalab tushib chiqardum, o'lub-qutulardum.

Bir gal deng shoshganumdan yalangoyoq qochub kirgan ekanman, balkum kavushum qaelardadur tushib qolgandur, ishqilib xumga tushub boshumga girdum patnusni tortub, xum ustini berkitganumniyu cho'nqayganimnu bilaman, tovonimnu bir nima jaz chaqub, jonum boshumdan chiqib ketayozdu. Hushim ogʻib o'ltirub qolubman. Keyun bilsam, jonholatda sapchub ketganumda boshum girdumga urilib, esum ogʻib qolayozgan ekan.

Haytovur, xolanguzlar yugurib kelub, tortib olishdu. Qarashsa, boshmaldoqdayun chayon tushub qolgan ekan. Ko'z oldumda o'ldirib tashlab, chayon chaqqanda o'qiladurgan duolarni o'qishdu, to'pigʻin tepasidan sirib bogʻinlab, tabib kampirni chaqirib chiqishdu. Oyogʻin lo'qillashiyu jonum ogʻin boshidan o'tirub-o'tirolmayman, yurub-yurolmayman. Xun-xun yigʻinlab, shishub ketubman. Musofirluk o'lsun, ko'z oldumdan siz, dadam, oyim o'taverasizlar. Xuddi chaqirsam eshitadigandek joyda turibsizlar.

Dadam Sizga nimalarnudur tayinlayoturlar, uqdirayoturlar. Oyim ora-chira ko'z yoshlarinu artub, bir chekkada turubdular. Nima bo'lgan, yo meni o'ldu deb eshitishganmu - motamsaro maslahat qurishadu. Siz hech boshingiznu ko'tarmay-la, yerdan ko'ziznu uzmay-la turibsuz. Bu nimadan belgu ekan, deb qo'rqub ketyapman. Oyi, Sultonmurod aka, deb baqiray deyman-u, ovozum bo'g'v'bzumdan chiqmaydu. Xun-xun yig'v'blayveribmu - ovozum chippa bitgan.

- Ana, bo'ldi, qo'rqma, qizim, Xudo xohlasi, ana shu narsa zahrini sug'v'burib tashlaydi. Yaxshiyam tovonga to'g'v'v'ri kepti, boshqa joyni chaqqandanmi, ko'p ovora qilardi. Qo'rqma, Xudo asrabdi. Olloh o'zi g'v'v'hamxo'r, bu yog'v'v'iga ham kushoyish bergay, - deb tabib kampir ixray-sixray chiqub ketdu.

Chindan ham bir uxlab tursam, suv-suv terlab, yengil bo'p qopman. Oyog'v'v'umdagi boyagi og'v'v'ruqlar ham allaqayoqqa chekilgan. Faqat boya, sizlar ko'zumga nega ko'rundungiz - hech tushunolmayman.

Shu-shu birov kelsa ham qochirmaydurgan, xunga yo'latmaydurgan bo'lishdu.

- Xudo olsin, nozir-pozirini. Rahmatullaxonga ayting, hoy Sanobar, bitta qo'ng'v'v'biroq qilsa, yo'lamaydi-qo'yadi. Qachongacha o'z kelinuvzani yashirib o'tiravuz, - dedilar xolanguz.

Nozir kelishinu to'xtatganu bilan orqasidan - qaerdan eshitishgan oldinma-кетин bir so'vchilar bosishga tushdu. Birini jo'natub ulgurmay, ikkinchisi darvoza qoqib keladu.

Xolanguz menu Muhabbat kennoyining uyiga qochirib qo'yub, so'vchilar bilan o'zlari muomala qiladilar. Voy, qizimiza hali bo'y yetmagan, yosh bola-ku, aqlini sal tanisin aylanaylar, deydi. Ular mening dovrug'v'v'himnu qaerdan eshitishgan, bir ko'rmaguncha ketgulariyam, turgulariyam kelmaydu. Axiyri xolanguz boyaqish, tepadagi uyda kizakka tepchiq urib o'tirgan Minavarxonnu oynadan ko'rishga ijozat etadular va:

- Bo'yi yetib, joyi chiqsa, uzatmay qayoqqa boravuz, aylanaylar, shu yol'g'v'v'biz qizimiz, - deb ularning tarvuzlarini qo'ltuqlaridan tushirib, chiqarub yuboradilar.

Chiqarub yuboradilar-da, pochcha kelganlarida yuzlari ipakdayin mayin tortib, kula-kula aytib beradilar.

Ana shunday qish kunlarining birida yana bir xolanguz o'g'v'v'vilchalarinu yonlariga olib, daladan tushib qoldular. Va men bechoraning joniga aro kirdilar.

Bu haqda kelasi gal yozarman. Negaki, men Ollohning xohishiyu madadi ila jannatdek joylar - otalarivuz yurtiga borub qolgan edum, baxt-iqbolum to'luq bo'lishi uchun yol'g'v'v'biz siz yetmasdinguz. Ollohdan saharlardayu joynamoz ustlarida yol'g'v'v'biz so'raganum Siz edingiz. Siznu yetkazsa, bir kun, bir soat bo'lsa-da, ko'rgazsa bas edu. Kelung, yaxshisi, undan keyingu voqealarni boshqa kuni bita qolay. Oldi xo'rozlar qichqira boshladular. Tahajjudumni o'qib ola qolay-da, men ham yota qolay. Tushlarumga kirarmukansiz deb irim qilub, xayr demadam.

Zavjai jamilangiz - Mahfuza

DARVOQE: kechagida xolanguz aytib qoldular.

Kimki juma kechasi tahoratli holda yotayotub, sevimli payg'v'v'v'hambar sollallohu alayhi vassalamni tushda ko'rish niyatida "La havla vala quvvata, illa billahil aliyul aziym duosini o'ttiz uch marta o'qusa, albatta, ko'radu emush.

Qanday yaxshu!

Olloh o'zi kechirsun, o'shal tobda xayolungga Siz kelubsiz. Shunday duo bo'lsaki, uni ming marta o'qub, suy-gan kishingni tushda ko'rsang, umrum bo'yi o'qugan bo'lur edum.

Negadir tushlarumga ham kirmay qo'ydingiz, uch oylar bo'ladur shunga ham...

Turdum.

Go'zal Ajr (mahfuz xatlar davomiga)

Qaydanam o'sha botur biznu qo'rg'v'v'bonni qora tortub keldu? Siznu uchratdum: Yusuf alayhissalomnu ko'rib, jonu jahonuni unutgan Zulayho yanglug'v'v'v' bir holga tushtum?!

Qaydanam Siznu deb ko'z ochub ko'rgan diyorumiznu tashlab chiqtum? Dorilomon bir yurtga borarkanmuz, deb, boshim osmonlarga yetdu? O'ning o'sha yorug'v'v'v' o'n beshi shunchalar qisqami edu?

"Innalloha maas-sobiriyin. Endu yol'g'v'v'v'biz duom - tilimdagi kalima shuyu suyanganum Olloh. Go'zal ajrga umid tutub, chiroyluv sabr etmoqdan bo'lak nimam qoldu?

Shunday deyman-u, lekin judolikning o'zu nimadan boshlanib edu? Nahot baxt va baxtiqarolik yonma-yon, egiz yurgay?

Ayrulmoq uchun topishub edukmu? Baxtumiz kimga ko'p ko'rindu? Nimamuz, qaysu amalimiz Ollohga xush kelmadu?

Avval-boshda qay sababdan topishtirdi-yu, yana ne sababdan ayurdu? Judoliqda imtihon etmoq uchunmu?

Jonu jahonum, topub yo'qotganum, qaylarda qoldiz? Biznu bu yoqlarga yuborub qo'yub, o'ziz qay diyor, qay sarhadlarda qolub

ketdiz? Yumushlaringiz butmab edimu? Bundanam zaril ishlaringiz, oliy yumush - kurashlaringiz bormudi? Nega hech mujda

yo'q? Orqadoshlaringiz tashvishi ila yurgan bo'lsangiz, maylu-ya, lekin vadalarining qanday - ota diyorga qaytub osuda yashamoq

edi-ku! Yana nima bo'ldi, fikringizdan qaytub qolibsuz? Menga aytolmab edingizmu barcha-barchasini? Nimalar mone ekanun?

Kishining ich-ichida, yurakkinesi tub-tubida nima bor - bilavermas ekansizmu? Balki ushalmagan niyatlaringiz bu tomonga

qo'ymasmu, yo'l bermasmu? Men ojiza ne qilay - shu xayollarga-da boraman. Shaytonning vasvasalari, visir-visirlariga uchaman

bazan. Ammo u kungi voqeani qiyomatga qadar, ko'zim ochiq ekan, tanamda jonum bor ekan, unutmam, unutilmam.

O'sha kecha ne kechganini siz bilmaysiz. Chunki behush edingiz, eslab qoladigan holda emasdingiz. (Xudo hech kimga

ko'rsatmasun, u holga tushmoqnu, chindanam harb maydonuda og'v'v'v'bir jarohat yeb yiqilib qolgan mujohid'v'v'v' xiyla uzoqdagi bir

qo'rg'v'v'v'bona - birovning yerto'lasida paydo bo'lib qolsa, yetti kun deganda hushiga kelsa, qandoq tushunmoq kerak uni? Kim

shuncha joydan bu yerga ortmoqlab keldiyu, o'zi qayga yo'qoldu? Qolaversa, kim edi u? Qaysi yaxshiligiz evaziga qutqarib edu?

Nima bu, taqdirda borimu yo Ollohning xohlashi?

Bari sizga qorong'v'v'v'bu. Nima tufaylu, kim tufaylu shunday bo'ldu - Siz unchalik ham bilmaysiz. Lekin men shohidman. O'z ko'zum

bilan ko'rganman u boturnu. Shu boisdan ham Sizga malum etib qo'yomoqnu lozim ko'rdum, qolaversa, o'sha voqeanu eslasam, ilohiy bir bashoratday tuyulaveradu. Kimga aytay? Sizdan bo'lak kimim borki, aytam, Sultonmurod aka?

U sizga kim eduki, buncha mardliklar qildu? O'zini fido etub qutqarmoqqa urundi? Men bilmayman, balki, jon o'rtog'v'v'v'bingizdur,

birodaringizdur. Lekin tug'v'v'v'bishgan jigarlar qilolmagay bu jon fidolikni qip-ti - u. Sizdan ham shu tarz fidoliklar ko'rganmu- di

yo? Kim edu o'zi?

Shuni bilmoq umiduda, qolaversa, Sizdek bir boturni biznikiga yetishtirgan, bizning topishuvimizga-da sabab bo'lgan odamni

bilgim klub, bitmakdadorman bu so'zlarnu. Tokim Olloh bergan nemat - muhabbat nematining-da sababchisini unutmayluk, duolarimizda eslab yurayluk.

Ko'z o'ngimdadek turibdu o'sha kechasigu voqea. Biznu titroqqa solub, bir olam qo'rquv-tashvishlar olib kelgan o'sha kecha. Hoji dadamiz kechalari taxajjudga turadigan odatlari bor edu, tursalar bog'ib eshik tomondan ixrashmu, ingrashmu - tushunib bo'lmas tovushlar kelayotir emush.

Subhonalloh, deb yaqin borsalar - ne ko'z bilan ko'rsunlarki, yerto'la darchasi tagida ikki qora jon talashub yotganmush. Esxonolari chiqub, hoy-huy bilan klub qoldular.

- Hoy, chiroqnu yoq! O'g'ibrimu kim tushubdi. Bo'li! - deydilar. Qani biz turib, gugurtni topolsak, chiroqnu yoqolsak.

- Voy, nega tushadu? Tashqarudagilar-chi, qayoqqa qarabdu? - deb titrab-qaqshaydilar oyum.

- Shomgi otushma esingdami, balki o'shalardan kim adashib-uloqibdimi. Yoqa qol, qarayluk, - dedilar dadam axiyri o'zlariga kela boshlab.

Chiroqnu yoqib chiqub borsak, o'sha ahvol. Biri hushidan ketub yotuptu, o'lukmu-tirik bilmaysiz. Boshqasu ko'ksuni ushlab g'ubujanak bo'lub olgan. Ingrab tebranadu u yog'ib yo'q.

Odam chaqirmayinam bir amallab, yerto'laga joylabmuz.

- Birov bilmay qo'ya qolsun,- deb Hoji dadam una-madular.- Ertalabgacha Alloh hafiz, keyin Mirza buvani chaqirarmiz, - dedular. Biraviga to'rdagi eski sanduqning ustidan joy ochduk. Unisi to'laning tokchasiga yotqizildi. Boyaqish yutoqub bir kosagina suv ichib edu, "vo-oh, o'zingga shukr deb turib jim bo'lib qoldu, qo'rqub ketupmiz. O'zi esa qora qoniga belangan, qo'ltig'ibudan qo'lini olmasdu.

- Voy xudoyim-a, men bularni kim deb o'tiribman. Ani q o'shalar-ku, Boturning yigitlari-ku. Kechagi otishmada nima bo'libdi, shuncha joydan yetib kelishibdi? Yana bu ahvolda? - derdular Hoji dadam. Bu yog'ibiga endi nima qilishnu bilmay gangub qolgan edular.

- Bo'ldi, chiqunglar. Chiroqnu ham opket, - dedular axiyri va biznu haydashga tushtular. - Chiq, chiq. Odam bolasi chiroq-pirog'ibingni ko'rmay qo'ya qolsin. Shuncha yerdan yetib kelgan, endiyam o'lmaydi. Alloh, o'zi asraydi,- deb yerto'lanu qulflab bizni uyga kirgizdilar-da, o'zlari tabibga otlandular.

- Azon aytgunlaricha qaytib kelaman. Sizlar miq etmay o'tiringlar. Alloh kechirsin. Cholga ham qizimiz isitmalab qoldi, deya qolaman, - dedular.

Nima bo'lsa, kechasu sodur bo'lmasun ekan. Hech titrog'ibumiz qolmasdu. Mujohidlarning o'zlari esa ko'z oldumizdan ketmaydi. Qay biri qay birini ortmoqlab kelibdu ekan? Qora qoniga belanganimu yo hushidan ketgani? Aqlimiz yetmasdu.

- Unisini ko'rdizmu, oyi. Chakkasiga nima qilgan, yorilganmu? - derdum hadeb. Ko'z oldimdan o'sha tirtiqlan oqub tushib, quloq yumshog'ib tomon burilib ketgan qon ketmaydu. Xuddi bir g'ubharoyub belgu kabi.

- Ko'rdu, bolam, ko'rdu. Alloh orqasini mahkam etsin-u, bo'zdek oqarub ketibdu, boyaqish. Tabib kelguncha tortsin-da, - deydilar oyum achingandan achinub.

Men ham charsman. Birov achinsa, o'shaning qasdigaga duo qilishga tushaman. Hozir ham ichimda o'sha boyaqish nomidan "Hasbiyallohi laa ilaha illahu alayhi tavakkaltuni o'qir edum. Shu duoni yetti marta o'qilsa, Olloh o'zi balo-qazodan nari qiladumush.

Tavba, shu duoni o'qiganum sari ko'z oldumdagi suvratinguz o'zgarub borar edu: chin so'zim, quloq yumshoqlaringiz tomondan yuz ruhlaringiz tomon bir qirmizi qizillik yugurgan eduki, bunga sari o'zim hayratga tushardum. Tushardum-u, duoni tilimdan qo'ymasdum.

Bir vaqt qarasam, binoyi xushsurat botur yigit... halugi chakkasidagi - alif shaklidagi ajab chandug ham o'ziga yarashib turibdu (Botur chandiqsiz bo'larmu, axir! U ham ko'rk insonga!).

Ko'z oldumdagi suvratdan esum og'ibub qoptu. (Bilmadum, Zulayxo holiga o'shanda tushib edummi, yo keyin- mu - hech esimda yo'q. Balki keyun ham shu suvratda ko'rib, yoqtirub qolgandurman).

Darvoqe, kim to'g'ibrisida yozatib edum? Sizning xaloskoringiz haqida edu-ku.

Bir mahal tashqi darvozamuz og'ibur g'ubhiyqullab, zanjirimi - bir nima shildiradu. So'ng ichkaru hovlumizdan g'ubho'ng'ub bir-g'ubho'ng'ub bir tovushlar klub boshladi. Biz jon hovuchlab o'tirub eduk.

- Chiqub boq-chi, - dedilar oyum.

Ostonaga chiqishumla mahallaning tepa masjididan so'fi ota azon chaqirub yubordular. Uzoq-yaqindagu xo'rozlar esa, unga o'z tillarida tasbeh-qichqiriqlari bilan jo'r bo'lishar, tong yorishmagan, hammayoqnu tun pardasi qoplab yotar, u hali tonggi g'ubhira-shira bilan almashinib ulgurmagan, osmonning allaqanday to'q ko'kishdan ham qararoq bahmali yuziga sochub yuborilgan inju yulduzlar ko'k poyloqchusi tomonudan terib olunishga tushmagan edu. Tepadan bir juft moshak qushmi, nima - uchub o'tar edu. O'n qadam naridagi odamniyam tanub bo'lmas, tasmollash mumkun edu, xolos. Aynuqsa, yurganda enkayub qo'llariyu jussasi qaltirab-saltirab, allaqanday omonat - entak-sentak qadam tashlaydurgan Mirzavoy otani bir qarashdayoq tanimoq mumkun edu. Aftidan Hoji dadam namozgacha qoldirmay uni boshlab kelmoqda edular.

- Hoy, opoq qizim, chiroqni olachiq, - dedilar ko'prikdan o'tayotib.

Hovlumizdan bir ariq suv aylanub o'tub ketar, har yerida panjarali ko'pruklari bo'lar edu. Ular o'shandan o'tub ombor tomon yurmoqda edular.

Chiroqnu opchiqub borsak, bizni qaytarub yuborub, o'zlari yerto'laga tushub ketishdu. Biznu yo'latishmadiyam. Ammo bir narsa so'rab qolishadimu deb qaltirab turubmuz.

Yo'q, so'rashmadu. Chiroq nuri darcha tagidan siljib, g'ubho'ng'ub bir-g'ubbung'ub bir birla qayta boshlashdi. Chiqib ayvonumizda ikki rakatdan namoz o'qishdi. Ollohga duo-iltijolar qilib turishguncha tong ham otdu. Qo'llarini bellariga tashlab enkayib yuradurgan Mirzavoy ota o'sha ayvonning o'rtasiga o'tirivolib: "Hoy, po'poch qizim, mo'moch qizim, uni opke, muni opke qilib buyira ketdilar. Hovonchamuzni opkelib berdim, ichida jimit yanchgichi bilan. U kishi oyoqlarini uzatub, o'tirib olganlar. Hali belbog'ublarinu yozdiradilar, hali jindek suv opkeltiradilar. Uchub bajarub turibman. Qo'ng'ub bir chakmonlarining hali u, hali bu cho'ntagidan og'ibzi bo'g'ubma eski xaltachalar chiqarib, uni ochub bir nimalar oladilar. Hovonchaga jindek-jindek solib, to'q-to'q tuya ketadilar. Mushk hidlarimi-ey, tog'ub o'tlarining islarimi-ey gurkiraydu havonchamuzdan. Menga beraqoling desam, unamaydular. - Yo'q, mo'moch qizim, duo olmagan kishiniki em bo'lmaydi. Avval mendan duo ol, hunarimni ol, keyin. Olasanmi? - deydilar boshlari, unga qo'shilib yelkalari, butun vujudlari titrab-qaltirab. Men nima de-yishumni bilmay iymnub qolaman. O'zumnu allaqanday sir bosadu.

- Sir bosmasun, mo'moch qizim, Oллоh yuqtirsa hech gapmas,- deb havonchanu to'qillatishga tushadular. - Biz ketyapmiz, Sizlar qolasiz. Opqolish kerak, qizim, opqolish. Manavunaqa paytlarda asqotadi.

Bir so'ragum kelyaptu, bir so'ragum kelyaptu, qani tilim aylansa. Axiyri botinub-botinmay:

- Ular turib keta oladimu, buva, - deya oldum.

- Turmay nima, avvalo, buvangni qo'lini Alloh yengil qilsin. O'zi qo'llasa, hech gapmas, - dedular u kishi. Keyin o'sha malham iylab o'tirishlaruda qo'shib qo'ydilar,- Alloh birini-biriga esh qilibdimi, shuncha joydan ortmoqlatib-surgaklab keptimi, bir hikmatiyam bor. O'ziga kelmay, shahid ketadurgan bo'lsa, o'sha to'g'ri tagidayam qolaverardi.

- Unisu-chi? Qaysi biri opkelgan deysuz, buva? - deb yuboribman.

- Aftidan berigisi. Ko'ksi bunday... yo jon halpida kuchga kirib ketib, yo tishni-tishga qo'yib yetkazib kelganu yotib qolgan.

Mardning ham mardi ekan. O'zi bu ahvoldayu birodarini harb maydonidan opchiqibdi, - har kimga ham nasib etsin-chi! O'layotib ham birovga jon fido qilib ketish deyiladi buni, qizim.

Ko'zlarumdan tirqirab yosh chiqib ketubdu.

Keyin har ikkingiznu ham yuvub-tarab, malham bog'ib ketishdu.

- Allohning panohiga!- dedilar buva,- asrdan keyin xabar olarman. Ungacha bir gap bo'lsa, chaqirasizlar.

O'sha kuni tinch o'tdi-yu, lekin tunda uyg'bonub ketsam, oyum o'rinarida yo'qlar. Ichum hapriqub, hovliga tushub borsam, yerto'lada chiroq ko'rinadu. Oyum ham, dadam ham o'shatta ekanlar.

O'sha jon halpida yotgani og'ib turlashub qoptu.

Eshikdan mo'ralasam, dadam ko'zlarida yosh, chiroq ushlab turibdilar. Oyum uning boshini tirsaklariga olub, suvni, nima tutyaptular:

- Ich, bolam, ich, hovringni olsin, - deb yalinadular, yalpog'iblanub yig'iblaydular, - Nima, bolaginam, tanimadingmu, menman-ku, onajoningman-ku. Sanga nima bo'la qoldi? Shuni ich, yengil tortasan, temirga suv berganday rohat topasan, - deb yolboradular-u, ko'zyoshlari bilaklariga, unga qo'shib, qo'llaridagi suvga toma-yotganuni sezmaydular.

Axiyru u tishlari takillab bir qultumgina ichdiyu:

- Vo-oh, o'zingga shukr, - deya bo'shashib tushdi.

Oyum boshini yostiqa qo'yarkanlar, dadam borub qolgan menyam ko'rmay ko'zda yosh bila shivirlab kalima keltirar edular.

Shunda haligi botur betoqatlanub ularga alanglay boshladu, bir nimalar deya boshladu. Anuq eshittum:

- Xayriyat, yetib kepsiz. Ko'rsatdi ruxsoringizni. Gunohlarni yuvгани kelub... qaytolmagan Chochol darbadaringizni kechiring, - dedu bazo'r yutunub. - Niyat o'zi shundoq edi, jilla qursa, shahidlik sharobini ichmoq edi. Ichdim shekilli. Duo qiling, jannatlarda ko'rishtur-sun, La iloha... - dediyu shivirlab bo'lsa-da, nozandek gapirub turgan odam... boshini bir yonga tashlab, o'ta qoldu, tavba...

Ana, Xudoning yozmishi!.. Bo'lmasa, kim o'ylabdu, shuncha joydan burodarini ortmoqlab kelgan odam tabibga yetishganuda o'tadu deb?!

- Boyaqish, onaginasiga intiq bo'lib, uzilolmay yotgan ekan, rozi ketti. Ilohim, rahmatiga olgan bo'lsun. Ruhini yashil qushlarga joylasun, - deb oyim yum-yum yig'iblar edular O'ksilarini tutolmasdular. Uning oti rostdan ham Chocholmidil yo bizga shunday eshitildimi, bilmasdum men.

Rostuni aytсам, mening ham esxonam chiqib ketgan, yerto'la tokchasi suyangancha o'tirib qolgan edum. Qo'limdagi chiroq esa og'ibib, piligimi, nimasu so'xta tortib, chirsillar, shishasining bir yonu tamom qorayub borar edu.

- Tur, chiqdik, qizim. Mirza buvani aytib kelasan, - dedular oyum nihoyat, - unisini ham xudo ko'p ko'rmasun.

Shunda sekin qaddumni ko'tardum. Qarangki, chiroq faqat Siz tomonni yoritib, bu yoqlarga allaqanday xira soyasuni tashlagan, behi hidlari gurkiragan yer-to'la ichi g'halati holga tushgan edu. Siz esa, to'rdagi o'sha sinduq ustuda (dadamning ko'k to'nlariga o'rab qo'yilgan) miq etmay yotibsiz. Yuzlariz oppoq bo'zarub ketgan. Jon asari ko'rinmaydur. Go'yo... o'z xayolumdan o'zim qo'rqib ketayotgan edum.

Chiqsak, tong bo'zarub qoptu, ufqni ulkan qo'tosdek to'sib yotgan qop-qora Tangritog'ib teppasida yolg'ibiz yulduz - charaqlaydu.

Uni yaxshilik alomati hisoblab, tabibnu aytib kelgani keta boshlab edum, darvozamiz ochilub, u kishining o'zlaru ko'rindular.

Tabibni bizga Xudoning o'zi yetkazgan edu.

Bu voqeani eshitub u kishi sekin cho'kdilar-da, gilos tupiga suyangancha yuzlariga fotiha tortdular. (Mening eshitganum shu bo'ldu):

- "Inna lillahi va inna ilayhi rojiun - deb turib, qo'shib qo'ydular, - Vazifasi shu ekan, o'tab, Alloh dargohiga qaytibdi. Qaytganda ham go'zal ajr bilan qaytibdi, insha Alloh, - dedilar-da, negadir menga qarab, yana qo'shdilar, - qo'rqma, qizim, endi bunisi uzoq yashaydi.

Siz bu voqealardan bexabarsiz, Sizga og'ibiz ochishmagan edu, Sultonmurod aka. Uni huv keyin, mavridi bi-lan aytish menga buyurilgandi. Men ham ulgurmadum. UZR. Endi ochdum bu tarixni. Asli o'zi kim edu, u botur?

Addoi Mahfuzangiz

Kattabog'ib. Asli ona o'rinda

xolajonungiz - Salomxon

kichigoyum xonadonlari.

* * *

Men xatni eshitib o'tirib xomush tortib ketgan ekanman, xotinim ko'rib, shoshib qoldi:

- Voy, adasi, nima bo'ldi?

- Yo'q, o'zim, - deb kalovlandim men.

- Biron joyi mundayroq ekanmi?

Men unga qanday tushuntiririmni bilmay, o'ng'ibaysizlandim:

- Bilasizmi, o'sha Chochol degani, Xudo rahmat qilsin, ammamizning o'g'ibillari bo'lardi.

- O'sha birodarini qutqarib, o'zi shahid ketgan kishi-ya? Siz u kishini... bilarmidingiz?

- Bilganda-chi, - dedim ko'zim namlanib kelib. Bu tarixni bir og'ibiz so'z bilan tushuntirib bo'lmasdi. Shuning uchun sekin turib tokchadagi esdalik narsalar ichini titkilay ketdim. - Qaerdadir uning akamga yozgan xati bo'lishi kerak, asrab yurardim.

- Qaysi akangiz? - dedi xotinim hayron qolib.

- Qaysi bo'lardi, Sul-tonmurod akamga-da, - undan bo'lak kimimiz bor, demoqchi bo'lardimu ayto'lmasdim. - Hatto o'sha tangritogv blik kennoyimiz ham bu tarixlarning boshini bilmaydi, - deb qo'ydim.

- Shunaqami?

- Shunaqa. Ha, mana, turgan ekan. - Xatcha o'sha ikki buklangancha suvratlar orasida edi. Olib qaytdim. O'zim ham gv balati majxul holga tushib uni o'qi-moqqa boshladim. O'sha Turgv bun chochol yozar edi...

"Men o'sha dardisarman, o'zing izvosh topib, Arpapoyaga yetkazib kelgan. Rahmat, uka. Tanimagan-bilmagan gv banimingga shuncha odamgarchilik qipsan? Kezi kelsa, jigar jigarga buncha yaxshilik qilolmaydi. Bir qorindan talashib tushganlar qo'llay olmaydi shunchalik! Sen qilbsan!

Avvalo, nomimni eshitsalaroq do'xtirlari oyoqqa qalqadigan joyga yetkazib kepsan. Boshqa joyda o'lib ketsam, birov bilib-birov bilmadi. Bu yerda harqalay Turgv bun chochal nomim bor, butun Beshogv hoch daha, u yogv bi Qoratosh, bu yogv bi Xadra taniydi. Meni oyoqqa turgv hazmay kimni turgv hazishsin. Qolavursa, Qoratoshga surishtirib borib, validai mehribonimizga xabar berib ketbsan. Eshitib, ko'p tasirlandim!

Men kim edimki, Xudoyim mening ishimni senga tushiribdi, marhamatli odamlarga yo'liqtiribdi? Axir, sendan bo'lak bir kimsaga ro'para qilsa ham, it o'limida o'lib ketsam ham haqi bor edi. Nega asrab qoldi? Panoh beryapti? Ochigv bini aytsam, keyingi vaqtda shunaqa gv haroyib voqealar boshimdan kechdiki, nimalar bo'lyapganiga bazan aqlim bovar qilmaydi. Men nima topshiriq bilan orqangdan ergashib chiqdim-u, o'zim nima bo'lib qaytdim? Yorugv b kunda, kuppa-kunduzi seni qanday yo'qotib qo'ydimu o'zim o'sha qo'rgv bon atrofida gangib-o'ralashib qoldim?

Kaltakni yeb-eb, keyin qutulib ketishim-chi? Qo'rgv bon egasi, anuv cholning Hizrday yetib kelib, ajratib olishi-chi?

Hammasi tushga o'xshaydi, bizning aqlimiz yetmaydigan bir narsalarga o'xshab ketadi. Xudoning o'zi yorlaqadi shekilli, sen mening changalimdan qanday qutulib ketding, men esam ko'rga o'xshab seni ko'rmay qolavurdim? O'zim qazgan chohga o'zim qulab, qonga belanib yotganimda yana sening yetib kelishing-chi? Qanday tushunish kerak?

Rostini aytsam, bu yoqqa chiqarishmasidan sal burunroq gv haroyib bir voqea sodir bo'ldi. Unga ham haligacha aqlim yetmaydi. Bizni yarim kechada uygv hotib, o'lim kamerasida yotgan bir mahbusning yoniga kiritib yubordilar. Yarim tun bo'lgach, o'zing tushunib olaver. Bekor- ga kiritmaydilar. Bilamiz, hukm ulardan, ijro bizdan.

Kirdik. Eshik sharaqlab berkilib, qadamlar uzoqlashib ketdi hamki, yo tavba, men joyimdan jilolmay, o'zimga kelolmay turibman. Qotib qolibman.

Qarshimda birov... nega birov bo'lsin, otam rahmatlining o'zginasi! Qiblaga qarab namoz o'qib o'tiribdilar. Boshlarida o'sha oq to'p do'ppilari, oq oralagan soqollaridan, kulcha yuzlaridan nur yogv bilyaptiki, qo'yaverasan. Tagv binam sal qiya o'tiribdilar. Bir yuzlariniyu keng yagv b rinlarini qo'rib turibman. (U kishi shunaqa yaqrindor edilar.) O'sha-o'sha basavlatlar, hech cho'kmabdilar. Unday desam, o'tganlariga qancha zamon bo'lyapti. Astafirulloh, odam odamga shunchalar o'xsharkanmi, deb yoqa ushlayman. "Kimni bizga ro'para qilish-yapti? Nahot biz o'z otamizga o'xshaganlarni?.. dedimu seskanib ketib, jon holatda sherigimning tirsangidan ushladim.

- O'tir, o'tir, ovsar, birov namoz o'qiyotgan paytda tik turmaydilar.

Qayoqdan bu gap xayolimga keldi, o'zim bilmayman.

Cho'kdik. Qari mahbus esa, xotirjam namozini o'qiyapti. Turarkan, egilarkan, sajda qilarkan, shivirlar, har "Allohu akbar deyishlaridan meni sir bosib, sehr-lanib borayotibman. Tavba, ovozlari ham ayni! Otam ham ko'ksilaridan chiqarib, shunday chiroyli takbiru tasbeh aytar edilar... Balki ko'pdan u yoqlarga qaytmaganim, azbaroyi uydagilarni sogv b inganimdan bu odam otam bo'lib ko'rinayotgandir? Ovozlari o'xshab ketayotgandir?

Bir mahal sherigim hansirab, shipshib qoldi:

- Namozda teginolmasligimizni bilib, o'tiravuradi shekilli?..

- O'-chir! - dedim biqiniga turtib va shu zamon bir vaqtlar eshitganim Hazrati Alining qotili haqdagi rivoyat yodimga tushib, seskanib ketdim.

Vo darigv b, bu rivoyatni bolaligimda shu otamiz aytib edilar. Yodimga tushgan mahalini qara!

Hazrati Alining asrab olgan o'gv bilchalari bo'lgan ekan, deb aytib o'tirar edilar otam. U hech yonlaridan jilmas, hatto namozga turganlarida ham qo'ndoqdek bo'lib qavatlarida o'tirar ekan.

Ana shu bola bir kuni:

"Ota-ota, sizdan kuchlik kimsa bormi? deb so'rabdimish.

"Yo'q, debdilar u zot.

"Nega? debdi bola.

"Xudoyim meni shunday yaratgan. Shohi Mardon nomim bor, bilasan.

"Demak, qilich ham olmaydi sizni?

"Olmaydi, debdilar hazrat.

"Nayza ham o'tmaydi?.

"O'tmaydi, bolam.

"Mumday erimaysiz hech? debdi asrandilari.

"Eriyman bazan, debdilar Hazrati Ali.

"Qachon, ayting?

"Namoz payti, bo'tam. Faqat namozda mumday erib o'tiraman. Undan bo'lak vaqt ovora bo'ladilar... deb jilmayib qo'ygan ekanlar. Qaraki, shu voqeadan qancha o'tib, u kishining dushmanlari xonaqohda pichoqlab ketishga muvaffaq bo'lishibdi. Shunga o'xshab, biz ham bir mo'minni namozda o'tirgan kezida pichoqlab, qotil qavmida ketarkanmiz-da? Shu o'ydan, senga yolgv bon, Xudoga chin, mo'ylarim tikka bo'lib ketdi!

Xullas, u namozini tugatib qo'zgv baldi. Biz salomga shoshildik. Basavlat qariya ekan. Yaqinimizga kelib o'tirdi. Biz unga tigv b tugul, qo'limizni tekkiza olmadik...

Ertasiga eshitsak, qo'liga hukm qogv hozini tutqazib, javobini berib yuborishibdi. Haligacha anglab yetolmayman: begunohdan begunoh kimsa o'lim xonasiga qanday mahbus bo'lib tushdihu qanday osongina qutulib ketdi? Shuning orasida bizga otam qiyofasida ko'rinib, lol qolganimiz-chi? Buni birovga qanday tushuntira olasan? Men-ku oradan yarim-bir oy o'tib, bu voqeani unutgan ham edim. Ammo keyingi ishlar bundan ham o'tib tushdi.

Bo'lmasa, jim o'tlab yurgan ot... miltiq otganini kim ko'rgan? Bir chetda yotgan qirqmani bexos bosib olsa, kifoya ekan-ku, men qay o'ngirdan biqinib otdi, deb sherdek sapchib turib ketibman! Yo'q, o'sha Parping gunohkormas! U mening nomimni eshitgandayoq, hurmatimni joyiga qo'yib, otdan tushgan, keyin biz tol soyasida, chimda yonboshlab, gaplashib o'tirgan edik. Falokat ot tuyogʻi ostida ekan.

Hay, nima bo'lsa, peshonadagini ko'rdim. Muhimi, oxiri yaxshi chiqdi. Va men bugun bu yerlardan bosh olib ketmoqdaman. Qolib, aytganim-aytgan, deganim-degan bo'lib, yeganim oldimda, yemaganim orqamda, ko'zir bo'lib yurishim mumkin, lekin oxiri chiroyli chiqmasa, buning nima keragi bor?

Bu dunyo hayoti hammasi bir sinov, bir imtihon shekilli. To'gʻbri yo'lni topsa - topdi, topmasa - keyini voy?.. O'sha "voyga qolmaslik uchun ham bu "do'stlarimdan aloqani uzib, qo'l yetmas yerlarga ketayotirman. Sendan iltijom, goh-goh onamizni yo'qlab tur. O'gʻbhimning shunday do'stlari bor ekan, deb ko'ksilari o'ssin. Xayr.

Darvoqe, yolgʻbiz o'zingga gapim bor edi. Xatga qo'sholmadim. Har xachir ot sanalmaganidek, har begonadan do'st chiqmas. Afsus, bizning do'stligimiz uzoqqa cho'zilmadi. Duolarimizda unutmaylik.

Turgʻbun.

* * *

- Voy, uni qarang, yana uchrashgan joylarini qa-rang, - dedi Saida tasirlanib. - O'sha botur shu odammi?

- Har ish niyatga qarab-da. Kim o'ylabdi, Olloh bularni o'sha yoqda topishtiradi deb, - dedim men undan kam tasirlanmay.

- Boyaqishni ajal haydab borgan ekan-da.

- Qayoqdagi gapni aytasiz? - dedim jahlim chiqqa boshlab. - Har kim ham shunaqa o'lim topib, shahidlik martabasiga yetsin-chi!

Siz unga achinib ruhini ranjitmang. Uning ruhi duoda kelganday yashil qushlarga joylanib allaqachon jannatlarda yuribdi. Siz unga niyatiga yarasha imkon berilganidan hayratga tushing, - dedim.

- Imkon deysizmi? - dedi ayolim.

- Ha-da. Olloh yorlaqab, zo'r imkon bergani shu-da. Bo'lmasa, ularni harb maydonida topishtirarmidi?! Bo'lmasa, akamni qutqarib, qarzini uzib, mardning ishini qilib, keta olarmidi?! Bunaqa jonfidolik har kimning qo'lidan kelsin-chi! Kelmaydi.

- Unda... unda nimadan xomushlanasiz?.. - dedi xotinim.

- Xomushligim, - dedim ichim sidirilib, - bu xabarni endi ammaga qanday yetkazamiz ekan, deb. Axir osonmi, tiq etsa, yo'lga termulib o'tirgan odamga bu xabarni yetkazish! Yuraklari to'kilib tushadi-ku.

- Shuni aytib, - dedi xotinim bo'shlab ham mahzun tortib.

Bu xabar bilan Qoratosha kim ham bora olardi? Bir bo'lsa Nusrat pochcha yoki Sultonmurod akaginammi? Undan beriga kim ham ammaga yotigʻbri taskin bera olardi?..

Buning uchun akam sarhad oshib keluvi lozim. Ammo qachon keladi, yolgʻbiz Olloh bilgay.

Onaizorning So'nggi Iltijosi (mahfuz xatlar davomiga)

Assalomu alaykum, taqdirda bitilub, Olloh o'zi yetkazganu! Meni o'z diyorlariga jo'natub qo'yub, o'zlaru o'targa imkon topolmaganum! Qachon kelgaysuz? Bu ayruliq Ollohdan bo'lsa, barcha-barchasuga chidagayman-u, ammo boshqasiga chidolmasman. Sabrum yetmas deb qo'rqaman.

Yangiluk shuki, aziz qadamlaringiz yetgan, bizning diyorlarga ketmasizdan avval bir muddat yashab turgan joylariz - Kattabogʻbri tomonlarni ko'rish, aziz xolajonungiznukiga mehmon bo'lub chiqish nasib ettu. Nega mehmon ekan?! Kelun bo'lib borish (ularniki bexavotirroq deb jo'natishdu), siz turgan katta uylarda turib, u xonadonning hovlilarini supurish, kelinluk xizmatlarnu o'tash taqdur etu. Ollohga ming shukrlar bo'lsun. Dugonalarumga o'xshab kelunlik uyiga ega bo'lmadum, deb armonlar qilar edum.

Uzatilib bormadum, yasatugʻbri uylarga tushmadum, kelinsalomlar qilmadum deb kuygan edum. Armonumga yetgandayman.

Bir ko'p, bir ajoyib xolalaringiz (hammalaruning yuzlarudan nur yogʻbriyadi-ya! Boy ekansuz!), haybatlu-haybatlu togʻbrialaringiz, benazur pochchalarungiz bor ekanlar. Ho', o'z kelunimiz ekan, jigarumizning topgani, jianumizning qo'shogʻbri, hurlardan-da afzal, parilarga mengzagulik ekan, Margʻbriubasidan qaeri kam, chinakam Mahfuza, Olloh hifzu himoyasida asragan ekan, deb bir yerlarga yetushlarinu ko'rsangiz. Alqashlarinu eshitib, hech yerga ishonmasliklarinu ko'rsangiz edu!

Faqat yonumda Siz kamsiz. Siz ham bo'lganungizda bilmadum, bu alqovlardan, bu baxtdan o'zumni qaerlarga qo'yar ekanman?

Chindanam bunday xonadonlarga kelun bo'lub tushmoq, bunday izzatlu odamlarga xizmat qilmoq o'zi baxt. Topilmaydurgan

jigarlariz borakan, Sultonmurod aka! Siz ogʻbriingizdan bol tomub eslaganizcha, qo'msaganizcha bor ekan. Tezroq kelung, bunday baxtni hech yerdan topolmagaysiz. Jannatlardagina bu kabi pokiza kishilarga yetushmoq mumkindur. Sogʻbriintirmang

jonum! Hammalaru ham sogʻbriinishgan, tildan qo'ymay eslashadi siznu. Siz bu yoqlarda qilgan ishlarni gapurib, u

adolatpeshaligunigizni qo'msab, bir yerlar yetishadu. Nega uzoqub ketdu, qaytsa bo'lardu deb duolar qilishadi. Sizday bir xaloskor,

togʻbriiday bir suyanch lozim ularga. Shuning uchunam har qandayin yumushlaringizni, zarur ishlarungizni tashlab, ularning

olduga, ota yurtga qaytmogʻbriingiz lozum, Sultonmurod aka. Siz o'zungizni unchalik bilmassiz, lekin bu yerdagularga,

qavmdoshlarungizga qadrunigiz o'tibdu. O'zga yurtlarning qozisu bo'lguncha, o'z shahrungiz tozusi bo'lgan afzal deb o'tirubdilar

Salomxon xolangiz, o'sha Sizga onadek qayishguvchi kishi. (Axir xola ham onadir deyiladi-ku!) U kishuning so'zlarini yerga

tashlamassuz, axir?!

Men bu xonadonga kelub qolishumning yana bir boisi, Salom xolanguzning kenjalari - menung qaynum, Sizning ukajonungiz

Maqsudxo'ja muhandislikka o'qishga kirgan ekanlar, darsga yetub olush uchun xudoning bergan kuni tong-saharlab yo'lga tushar

ekanlar. O'sha pochchanikiga tushishgan kuni "voy, qancha joy kerak, hamma sigʻbriingiz bu sigʻbriimaydimi, deb Maqsudxo'jani

opqolushdiyu meni xolajonungizga qo'shub bu yoqlarga jo'natishdu.

Olloh o'zi chevar-da, bo'lmasa, kim o'ylabdu menu ishonub jo'natishgan joy qolub, siznikularni topaman, Kattabogʻbriilarga

chiqaman deb?

Voy, olamda shunaqa joylar ham borarkan! Qishnu kunida shunday! Qornu tagida ko'mulub yotganida shunday go'zal! Bilasizmu,

menga u shunaqa tanush, shunaqa yaqun, shunaqa jozibaluki, ilgaru-qachondur ko'rganday, shu yerlarda yashaganday, yoxud bir

o'tub ketganday bo'luvuraman, tuyulaveradu, lekin qachon ko'rganimnu, o'tganimnu eslay olmasdum. Guzardan o'tub,

Kattabogʻbriiga boravurishda, anhor yoqalab ketgan yo'l ikkita tepaliknu oshub o'tar ekan. Faqat o'sha tepaluklarga yetgandagina

o'sha suv, o'sha anhor yo'qolub qolaru tepa pastlashi bilan yana paydo bo'lub olar edu.

Mezanali birinchu tepadan o'tganda uncha bilinmovdu, ammo ikkinchu tepadan oshishimiz bila u yogʻbri pastlab ketgan soyligu

dalalar boshlanub azbaroyi to'xtab qopman. Bu qorlik qishning kunidagi bu bir tiniqlik-musaffolikmu uzoq-uzoqlarni ham shunday yaqinga, qo'l uzatsa yetgudek joyga keltirib qo'ygan edu! Soylaru tepalar, undan u yogv̄b̄udagi dalalar, qator tolu tutqatorlar, ishkimli bogv̄b̄laru hovlu-joylargacha oldungizda turardu. Hammayoqda, olamnu qoplagan oqluk ustuda oftob nurlaru nimanu nimaga kavsharlayaptu - ko'znu qamashtirguvchi bir nurlar o'ynaydu, yonadu, yolqunlanadu. Ko'znu qamashtirsa-da, odamga xush yoqadu.

Faqat qanday soy ekan, ikki betkayiga kelub to'xtaganu cho'kkan tuyalar karvonu ustinu qor bosganday va shu turushida kunbotarga qarab ketgan soyluk o'rtasudan bora-borguncha bugv̄b̄ ko'tarilib yotibdu. Soy suvi parlanub yotubdumi, yengil tuman cho'zala tushganmi - ajratolmayman. Kattabogv̄b̄ deganu shunchalar go'zal ekanmu?

Qor bosganinu aytmasangiz, jannatnu davomiday ko'rinaru ko'zumga. Balki siz tugv̄b̄ulub o'sgan, chopub-chopqullab yurgan joylar bo'lgani uchun menga aziz tuyulgandur, ko'ringandur, Sultonmurod aka. Lekin chin so'zum yo'llariz shunday jannatday joylardan ayro tushub, qay togv̄b̄ oralaruda dovon oshub, o'ngur oshub yuruvingizdan achindum. Nima izlayursiz? O'shal izlagan narsanguzni shu yerlardan topabilmasmudiz? Nima monelik qildu bunga? Balki mening ojuz aqlum, qiz bola aqlum yetmas. Siz bilgan narsalarnu, hikmatnu chaqub ololmagandurman. Lekin baxtnu, albatta, uzoqlardan izlamoq kerakmu? U chindan qo'l yetmas togv̄b̄lar ortida, Ko'hiqofu Tangritogv̄b̄ tomonlarda qolganmu? Nima quvgan o'zi Siznu bu diyordardan? Taqdir etub, baxt izlab borgan bo'lsanguz, mana, men shu yoqlarga kelub turubman-ku! O'z oyogv̄b̄um ila topub kelub turubman-ku! Tinch-xoturjam umrguzaronluk qilaman degan odamga bundan ortuq nimayam kerak, Sultonmurod aka? Yolgv̄b̄uz odam olamnu o'zgartira olarmudi? Agar Olloh izn bermasa, o'zi sababchi etmasa? Yo siz o'shandoq bo'lmoqnu istarmusiz?

Maqsudxo'jalarnuki o'sha tepadan tushib, qayrulishdan o'tganda - katta nokzor olduda ekan. Qolaversa, o'sha tepadan tushish bilan boya yo'qolub qolgan anhor ham o'ng yoqdan chiqub kelardi-da, keyun ko'chani kesib yo'lning bu betiga o'tub olardu. Ana shu anhor bo'yudan har bittasi osmonu-haftumnu tutgan (tavba, qachon ekulgan ekan, biri-birudan qolishmaydu, azumki azum!) yongv̄b̄oqlar qatori boshlanib ketgan edu. Nokzorga yetub ham u yongv̄b̄oqlar tugamas edu. Salomxon xolanguzlarnuki ana o'shatta ekan. Tapa tomoni keta-ketguncha devoldan oshub, ko'chaga mo'ralagan bir surx novdali behularki, beixtiyor ko'z oldumga Saltanat xolanguznikida ko'rganum - dordagi sap-saruq behular keptu. Men uning hiduni shu yerdanoq tuyub turgandekman.

Ichi ishkomi-bogv̄b̄lar, hammasi qorga o'ranub, bir chiroylu mudrab yotub edi. Pastda kunga qaratub solungan qator tuproq tomlu uylar - bir fayzlu, bir sarishta, bir ko'zga yaqun. Nega shunday, aytoymasdum. Balku bu hovlu, bu xonadonda, kunga qarab tushgan bu uylar, bu go'shada bir muddat siz yashaganuz, o'z uyingizdek kirib-chiqib yurganingiz uchundur, agar uylantirishsa, kelinni shu uylardan biruga tushirmoqchu bo'lishganiyu, endu o'sha uylardan biriga (taqdurni qarangki!) men - Siz suygan va bu yoqqa jo'natgan juftingiz kelayotganum va ega chiqayotganum uchundur. Axir Siz uchun aziz narsalar nega menga aziz bo'lmasin?! Ichkari kirib fotiha qilibmiz hamki, eshik ochilub Siz salom berub kirib keladigandeksiz. Hatto hovludan qornu gv̄b̄arch-gv̄b̄urch bosib kelayotgan oyoq tovushlariz eshilib ketayotubdu. Zinada oyoqlarungizni tap-tap qoqishingiznu, yo'talib qo'yishingiznu kutub nafas yutmay qolaman.

Lekin eshik ochilmaydu, ochila qolmaydu. Demak, nazarumda ekan, menga shunday tuyulgan ekan. O'shandan beri shundaysiz: xuddi hozir bildurmayun kirib keladigandeksiz. Bu tuygv̄b̄u ilohim, meni hech aldamasun, nazarumdagi oldumga yetub kela qolsun! Shu uylarda birga-birga yashay qolayluk. Ey, xudoyum, biznu ham topishtur, kelin-kuyovlardek yashash baxtini ber, deb so'rganum-so'rgan. Saharlarda duolarumga qo'shganum-qo'shgan.

Sultonmurod aka! Sizga judayam qadrdon bu xonadonga kelub, birinchi ko'rgan tushumni aytaymu? Judayam gv̄b̄aroyub. Tabiriga lolman. Albatta, bu tabirnu birav emas, o'zum qildum. Unga siz nima derdangiz? Chunki yolgv̄b̄uz Sizgagina aytush mumkin bo'lgan tush. Biravga, hatto Salom xolanguzlarga-da aytoilmadum.

Emushki... nega emushki?.. Aniq-taniq ko'rdim. Men o'zumizning uyimizdamishman. Siz meni qaytarub yuborganmishsiz. Uch kundand berlu tinmay yigv̄b̄larmishman. Ko'zumga uyqu ilinmasmish. Hoji dadam ham, oyum ham tepamdan jilmay tong ottirishibdu. Ikki kechayu bir kunduz tinmay yigv̄b̄labman. Oyum bunga bir narsa deng, dadasi, yigv̄b̄layverib jigarlari ezilub ketdi-ku deb, menga qo'shilishub yigv̄b̄lar emishlar. Tepamda mijja qoqmay o'tirgan dadamning tasbehlari shiqirlashiniyu o'zlari ogv̄b̄ur qo'zgv̄b̄olub qo'yganlarinugina sezub yotubman. Ammo o'zlaru miq etmaydilar. Sassiz tasbehoh aytushda davom etyaptular.

Bilaman, har ikkalalariga ham qiyun. Qiyun ham gapmu, juda ogv̄b̄ur. Mening qaytub kelushim, Sizning bunga izn beruvingiz. Qaysi ota, qaysi ona qizum qaytub kelsun, deb uzatadu? Yana menday malomatlarga qolub, qaytub kelub tursa... Mana bunday bosh ko'tarmay yigv̄b̄lab yotsa... ular qanday chidaydu bu ko'rgilik, bu malomatlarga? Men esam, shunu tushunub turub ham ich-ichumdan bosub kelaturgan xo'rluk, alamlarnu, qaytarub yuborilish sitamlarunu to'xtatolmayapman, ichumga yutolmayutman. Shu asno salom berub Siz kirub keldungiz. Ammo men sezub turgan bo'lsam-da, bosh ko'tarmadum. Malomat alami shunchaluk ekanmu, tavba! Erum, juftu halolum, Siz kelasiz-u men turmasam?.. Bosh ko'tarub qarab qo'ymaysam?.. (Bu qandoq hol bo'ldu? ..)

Ul dilporalar Siznu kutub olishdu. Shunday yonumga, tepa tomonumga joy solub o'tkazushdi. Vaholangki, u bo'hton gaplarni eshitub yonumga yo'lamay qo'ygandungiz. Gapurmay ham yurardungiz. Endu kelubsiz.

Bunga saru xo'rligum tutub, ich-ichumdan yigv̄b̄u bosub kelyaptu, kelyaptu, adogv̄b̄i yo'q. Boshumni yostuqqa burkabam qutulolmayutman undan, bu yigv̄b̄udan... Ammo o'zum, butun vujudum quloqqa aylanub, Sizning ovozungiznu, so'zingiznu kutyapman. Va shunda Siz dadamlarga:

"Men keldum, ota. Bir ogv̄b̄uz aytson, o'z ogv̄b̄i ila aytson, u gaplar hammasi bo'hton desun, opketmagan nomard, musulmon emas! Malomatga qo'yganlarni nima qilsam, o'zum bilgayman. Qilmasam, Sultonmurod otumni boshqa qo'ying, dedingiz. Shu so'znu eshitub, u xo'rluk, u alam, u ko'zyoshlar taqqa to'xtab, tina qoldiyu o'zum sapchub turub, oyumning bagv̄b̄irlariga o'zumnu otdum. Va shu barobar... uygv̄b̄onub kettum. Nima dedim, nima bo'ldu eslay olmayman, eslay olmayotirman. U qanday bo'hton ediyu kimlar malomat etdu, bunusini-da bilmayman...

Shundan berlu shu tushumnu eslasam ichum to'kiladur. Taburiga ojuzman. Halu o'zungiz kelmay turub menu qaytarub yuborushungiz... hech tushunolmayman. Nima bu? Karomatmu, bashoratmu yoxud shunchaki tush?

Shuncha ayrilub-ko'rgiliklar kammiki, kelajakda... Aytushga-da, tilga olushga-da qo'rqaman, Sultonmurod aka. Yonumda bo'lsanguz ham maylu edu. Suyanchum, suyanadiganum bor-ku derdum. Qo'rqamasdum. Endu eslasam, shu tushim yodumga tushsa, tanamga muz yuguradugan bo'p qoptu. Tezroq kela qolsanguz edu, Sultonmurod aka. Sizsiz qanchaluk qiynalyapganumiznu bilsanguz edu. Hammaning ham boshuda bir erkagi bo'lsun ekan. Togv̄b̄dek himoyachusi bo'lmagan ayol-

ayol emaskan.

Menu kechiring. UZR. Bazan shunaqa xomush tortub, tushkunluklarga tushub ketamanki, chivindek jonumga shuncha tashvishmu, qo'lum qaerga ham yetardu deb hamma alamumni yigibidan olushga tushib ketaman. Tagvbinam xolanguz borakanlar, ulardan uyalganimdan ham ko'p narsalarni ichumga yutub keladurman. U kishi Xudoning bergan kuni kechasi allamahalgah dovur shigvBillatub mashina tikkanlari-tikkan. Men ham ularga qo'shilub, kizak tikaman, tepchiq tepchiyman, pilta uraman xom do'ppiga. Har hafta Maqsudxo'ja uni opketib, o'rnuga Oyposhsha xolanguzdan ish olib keladular. Shunaqqib ovunib o'tiribmiz. Ammo ora-orada boyagu tushum yodumga tushib, xayolum qochub-qochub ketadu: bu nimadan belgu? Yo Oллоh, mendek ojuz, sargardon bandangga yana qanday sinoatlarung bor, deb yigvBlayman, ayol boshum bilan (shu yolgvBuz holumga) u sinovlarga dosh bera olarmu ekanman?

- Mahfuzaxon, kelinposhsha?

Xayolparishon o'tirgan ekanman, xolanguzning ovozlarudan cho'chub tushdum.

- Ha, kichigoyu?

- Esimda borida aytub qo'yay, keyin shoshib qolib o'tirmang.

- Jonum bilan.

- Ertaga bir yetga o'tib kelsangiz, Maqsudxo'jam bilan.

- Maylun. Qaerga ekan? - dedum ichim gvBurmishlab. (Meni zerikub qoldi, kelin boyaqish, deb o'ylayaptilar shekillu.)

U kishu ko'zoynaklari tepasudan manolu qarab qo'ydilar.

- Savob bo'ladi, chiqmagan jondan umid-da, bolam. Shunga o'tib qo'ysangiz.

- Tushunmadum. Doru xoltamnu ko'rib aytayapsizmu?.. - dedum xayolum tabibchilikka ketub. U doru o'tlarni Mirza ota har ehtimolga qarshi tutqazub edular bu yoqqa jo'nashumizda. O'sha Sizga qaraganumda ozgina o'rgatganlari demasa, nima bilardum.

- Har ehtimolga qarshi olvoling. Tabib bo'lib borganiz ham tuzuk. Sizni ko'rib, zora beri qaytsa...

- Meni ko'rib?.. Kim?

Kichikoyum ko'zoynaklarini olub, mashinani surib qo'ydilar. O'zlari orqaroq surilub, etaklaridagi qiy-qindilarni terar edular:

- Siz eshitmagansiz bu tarixni. Uzun juda, - dedilar allaqanday istiholalarga tushub.- Sultonmurodimiz bu yoqlardan bosh olib ketayotganda... uning qizi ham bir kechada... to'y kechasi gvBoyib bo'lgan... Boyaqish, o'shaning dardida kuyib, adoi tamom bo'ldi, shu holga tushdi, bir chekkasi. Endi o'sal yotibdi ekan. Odam tanib-tanimay... Har zamon otini atab chaqirar qo'yarmish. Savob bo'lardi.

Men endu anglab yetganday edum.

- Voy, Sizlar MargvBuba atayotgan... sho'rlikkinaning kimi, onasimu?

- Ha, o'sha baxti qora... shu boyaqishning qizginasi edi. Hali kutadi...

Bu tarixdan ichum sidirilublar ketdi.

- Siz aytasizu nega bormayin, - dedum, - Faqat...

Kichigoyum yalt etub, yuzumga boqdilar:

- Qanday bo'larkin, deysizmi?

Men bosh silkidum.

- Qo'rqmang. Taomili shunday. Bu dunyodan ketayotgan odamga xush kelgan narsa, ilohim, Oллоhga ham xush kelgay... - dedilar u kishi.

- Ilohum, - dedum men ham...

Darvozaxona yo'lagidan birov chaqirar edi:

- Saida kennoyi?..

Xotinim daftarni qoldirib, noiloj o'rnidan turdi:

- Qo'shnilaruz, shekilli.

U chiqib, mening xayolim o'sha qish-qirovli kunlarga qochgan, yangi kennoyim bilan boshlashib Sailarnikiga borganlarimiz yodimga tushib ketgan, o'sha yangi kelgan kezaridagi suvratlari ko'z oldimda turardi. Bo'lmasa, unaqa yasanmaganlar. Faqat sal ohorliroq ko'ylaklarini kiyib otlanib chiqibdilar. Qo'llarida sidirgvBa paranjilari. Egnilarida esa, boya aytganimdek, qora atlas ustidan qizil duxoba nimchayu uning ham ustidan biz tomonlarda rasm bo'lmagan oldi ochiq, yolgvBiz tugmachalik allaqanday uzun (xalat desammi, qabo desammi) yopishib, bir yarashib turguvchi engil kiyib olganlar. U qirmizi rangda bo'lib, boshlariga tivit ro'mol tashlab o'rangan edilar. Men shundayin oq yuzli pariruxsor kennoyimiz borligidan esim ogvBibroq turarkanman, paranjini boshlariga soldilaru sochvonni qo'llariga gvBijimlab:

- Doru xaltani oldingizmu? - dedilar.

- Oldim, - dedim.

Yurdukmu, deganday im qoqdilar.

- Yurdik, - dedim va ichkariga ovoz berib jilaverdik. - Oyi, biz ketdik.

- Mayli, Oллоhning panohiga, - deb ichkaridan ko'rinish berdilar oyim. - Kechga qolib ketmang-lar-a, meni xavotir oldirib?..

- Xo'p.

Ko'chaga chiqsak, birrov ko'rinish bergan oftobda kungay tomondagi qatqaloq joylar pilchiray boshlabdi.

Chilp-chilpda yurib bo'larmidi, biz izgvBirin yalagan yo'lga o'tib ola qoldik-da, anhor yoqalab yurib ketdik. Ko'zimning qiri bilan ko'rib turibman: kennoyim sachvonni tushirib, paranjiga o'ranibroq oldilar. Endi u kishini KattabogvBdagi har bitta voqeadan xabar topadigan Anvar kennoyidan bo'lak kimsa o'laqolsa taniy olmasdi. Anvar kennoyiga esa notanish paranji yo'q. U kishi bir ko'rsalar, bas, keyin Hirotda bo'lsa-da, tanib, so'rashgani boraveradilar. Nimasidan tanib oladilar, bandagidanmi, guli, yo'lidanmi, bilolmayman.

Hozir faqat o'zimgina bu paranji, bu sachvon ortida qanday oyjamol kennoyim borligini tasavvur eta-eta, ortimga qarashga-da botinmay, yo'l boshlab borarkanman, qayoqqa ketayotganimizni eslaganim sari xayol opqochib-opqochib ketar edi meni.

Tavba, bu qandoq sinoat? Biz hozir boradurgan qizil taram olmal xonadonning uzatgan qizginasi nikoh kechasi yo'qolib, birinchi nikohidagi kishisi Bahridin akamni topib boradiyu xuddi shu yaxshiligi evaziga akam undan bir tuki kam bo'lmagan manavi pariruxsorga erishibdi? Erishib, bu yoqqa jo'natibdi. U esa kelib-kelib, endi kimga yo'liqmoqda? Qizining yo'llariga ko'z tuta-tuta adoi tamom bo'lgan onaizorgami? Bu nima, Oллоhning marhamatimi yo hayotning bevafoqligi? Qanday tushunmoq kerak?

Boshim gangiblar ketdi. Qarasam, Saynabi domlaning ko'cha yuzidagi o'rikzoridan o'tib, Nuriddinlarning bogvBi etagidagi

shovvaga yaqinlashib qolibmiz. Anhordagi muz ostidan chiqqan suv to'g'ibondan oshib, bir ajoyib sharqirab, yarqirardi. Yozda anhorga ham sig'ibmay guvillab yotadigan shovva hozir to'g'ibonning har chekkalariga muz marjonlarini sochib, muzto'qmog'ibuz muz-qilichlarini yasab yotar va yana noilojdan-noiloj muz ostiga kirib yo'qolar edi. U ozodlikka chiqmoq uchun muz qilichlaru to'qmoqlarini yasab qo'ygan-u, bir boshlab ketadiringan mard-madadkor topa olmay yana tut-qunlikka mahkum bo'lib, muz-qalqon ostiga kirib ketayotgandek edi.

- Voy, bu ikkinchi tepamu? Shundan o'tib burilavuzamu? - dedilar kennoyim.

- Yo'q, bu Tepamasjid. Uyimizga o'qdek eshilib turadigan azon mashi yerdan aytiladi, - dedim chechanligim tutib. Keyin gapimiz gapimizga qovushib kela qoldi. U kishi so'rardilar, men javob qilardim.

- Kechagida yo'lda ko'rganuz-chi? U ham masjidmu?

- Unisida hayitnamozlar o'qiladi, ziyoratga borishadi, - dedim.

- Shunaqa qadamjomu? - dedilar kennoyim hayratlanib.

- Cho'lpon ota pirim qo'yilgan ekanlar. Oyimni aytishlaricha, katta buvayu buvilarimiz ham o'shatda yotishadi.

- O'zi rahmatiga olsin hammalarinu, - deb u kishi sachvonlari ostida yuzlariga fotiha tortdilar. Keyin so'radilar. - Dadangizlar hammu?

Men bosh chayqadim:

- U kishi men bola paytimda o'tib, Qang'ibliga qo'yilgan ekanlar. Keyin tog'ibalarimiz bizni ko'chirib kelishgan.

- Shunaqamu? - deb yarim o'girildilar, - Sultonmurod akangizning dadalari-chi? U kishuga nima bo'lgan? - dedilar istihola aralash.

Men chiniga ko'chdim:

- Oyim yaxshiroq biladilar bu tarixlarni. U kishini olib ketishganda... biz yosh bola ekanmiz.

- Akangiz hammu? - dedilar to'xtab qolayozib. Kennoyim bu xabarlarini sachvonlarini ko'tarib yutoqib tinglarkanlar, men pandavaqi orqa-ketini o'ylamay javob qilar edim:

- Ha, ha, Olim akam biznikida, u kishi shaharda, xolamgilarnikida katta bo'lishgan. Bu yoqlarga keyin kelganlar.

- Shunaqamu, uni qarang-a?..

Sezib turibman, u kishi yana nimalarnidir so'rashga ilhaq, gapni shunga keltirayotirlar-u, aytmayaptilar. Nimaligini ham anglab turgandekman. Marg'ibuz kennoyim haqda, akam bilan o'rtalarida o'tgan narsalarni so'ramoqchilar shekilli-ku xayomi - nima qo'ymayotir.

Men ham tushuntirib bo'lmaydirgan u gaplarni ochgim yo'q, akamni yoxud Marg'ibuz kennoyimni yomonotliq qilib qo'yishdan qo'rqib, tilimni tishlab borayotirman. Chindan ham biz nima bilamiz?! Mahfuz kenno-yimning o'zi bizdan ham ko'proq narsani bilarkan-ku. Akamning "vasiyatini ham, uni birinchi nikohi- dagi kishisiga yetkazishganini ham. Boshqa gapga ne hojat?

Bu orada ikki chekkasi paxsa devorli ko'cha ham, gir atrofini qari qora tollar o'ragan, hozir usti muzlab-tosh qotib yotgan hovuz ham orqada qolib, yong'ibhoqzordan o'tibmiz. O'rtada kichkina tavaqa - bolachasi bor tanish darvozaga yetib kelibmiz. Uni ko'rgan zahotim yuragim to'rga tushgan bedanadek potiray boshlagan edi. Shuncha o'zimni bosaman deymen, qani bosolsam!..

Ichkarida tiq etgan tovush yo'q. Arslon otli o'sha "dev ham qay kunjakda yoxud somonxonada yotgan bo'lsa ehtimol - ko'rinmayapti. Lekin otxonadan opchiqib, kungay joyga bog'iblab qo'yilgan qari targ'ibil sigir "eshak o'ldiradigan oftobda shumshayib turibdi. Pinakka ketganmi, kavsh ham qaytarmaydi, oxurga yopirilib talonchilikka tushgan chumchuqlarga qarab ham qo'ymaydi. Ro'za tutgandek tek qotgan.

Ochiq eshikdan mo'ralab-chaqirib turish o'ng'ibaysiz edi, eshik bolachasini o'zimga tortib, zulfinni taqillata boshladim.

Ichkaridan "hozir degan ovoz keldiyu eshik tir-qishida birov ko'rindi. Sai ekan. U o'sha-o'sha kalta-qo'ng'ibir paltosida, yo'lakay ro'molini qayta o'rab kelardi.

- Kiravering, ochiq, - dedi u o'sha yoqdanoq.

Men kennoyimga yo'l bo'shatdim:

- Mana sho't, men kuta turaman.

Kennoyim sachvonni boshlariga tashlab elandilar:

- Voy, odamnu uyalturmang, Maqsudxo'ja?

Rosti, yuzlaridan o'tolmadam. Ichimda esa, uchib-qo'nib turibman: Sai demaganlar o'z opajonisiga o'xshagan kennoyimni ko'rib, qay ahvolga tushadi ekan? Ayniqsa, o'sal yotgan onasi? Turib ketsa-ya...

Shu vaqt kennoyim o'girildilar ham... eshik ochilib, Sai ko'rindiyo "Voy!, deganacha qotib qolayozdi. U ikki qo'lini ikki betiga bosganacha Mahfuz ken- noyimga tikilib qolgan, o'zini unga otarini ham, otmasini ham bilmas edi.

- Siz, siz... - derdi-yu, u yog'ibini ayta olmasdi.

- Ha, men, Salom opoqiz aytgan tabibman, o'sha. Ayangiz tuzukmular? O'zlariz yaxshi o'tiribsizlarmu?- dedi kennoyim ko'rishgani bora boshlab.

Shundagina Sai o'ziga kelib, ko'z piriqatdiyu noiloj yelkasini tutib berdi:

- Kelingiz, kiravuring

Ammo o'zi ko'rishyapti-yu, ko'ziga ishonmaydi, opasi "Voy, mani puchug'ibim, singiljonim, deb quchoqlab oladigandek, alag'ibda. Allaqanday kalovlanib qolgan.

Men "Boshla, boshlay qol, degandek im qoqdim. Sai o'zining ahvolidan o'zi xijolatlarga tushib, qizarindiyo shosha-pisha ortiga chekildi:

- Voy, chindanam, opoqim aytib ketuvdila-ya? Kela qolinglar. Yura qolinglar, mana bu yoqqa.

Biz o'n qadam yuribmidik-yo'qmi, kennoyim boshlaridan paranjilarini olib ulgurgan edilar hamki, ayvon oxiridagi kichik uyning o'sha ayvonga qaragan eshigi ochilib, yelkasiga to'ning bir yengini kiya-kiya kimdir chiqa boshladiyu, yalt etib bizga ko'zi tushib, ostonada turganacha qoldi. So'ng:

- Iya, Marg'ibuz?! O'zingmisan?! - deganicha oyog'ibiga bir nimalar ilishga urinib, kalovlandi. Va o'sha yerning o'zida ikki aylanib, o'sha bir nimani topdi va o'zini pastga tashlashga chog'iblangan joyda chiqqan eshigini hovliqib ochib, ichkariga ovoz berdi:

- Oyi, uniz kepti, o'z oyog'ibi bilan kepti!

Qaytib boyagi vajohatida hovliga tushib kela boshlab zinaning yarmiga yetganda... ustunni yarim quchgancha to'xtab qoldi. Xuddi shu vaqtda u "singlim deb atagan kimsa shart qayrilib, paranjisini boshiga ilib ulgurgan va apil-tapil sachvonini tushirmoqda edi.

Sai bo'lsa, gangib qolgan akasi tomon chopgan, shivirlab:

- Voy, qanaqasiz, o'ziz?! Nimalar deyapsiz?! Bular Salomxon opoqining kelinlari-ku, tabib-ku. Hushingizni yigʻibing, aka, - deb koyib-kuyinar, tirsagidan tortqilab, orqalarini silab "esingizni yigʻibing, qochinglab, yo'ldan haydar edi.

Lekin urushdan qaytib oq anuv voqealarni eshitib, Sul-tonmurod akamni yanib yurgan akasi qani esini yigʻibib, chetga burilsa!

- Nega birov... bo'ladi? Opang-ku?! - dedi u axiyri singlisining betiga qarab.

U tutashqosh, yuzi-ko'zi Sainiki singari ko'hlik, ammo o'zi qarchigʻibaydek yigit edi. Egnidagi do'ppi-yu to'n hali qovushib-qovushmay - askarlikdan yangi qayt-gani shundaygina bilinib turardi.

- Adashyapsiz, aka. O'xshatyapsiz, xolos. Bular ayam uchun kelishgan, qoching, - derdi Sai hamon shivirlab, o'zi esa akasining qilgʻibidan uyatlarga botib borar edi.

- Astafirulloh, astafirulloh, - deganicha nari ketarkan, u hamon gumonsirab-gumonsirab qarab qo'yar edi.

Men zora chalgbʻisa deb, yaqin borib salom bera qoldim.

Ammo u alik o'rniga ham aftimga anqovsirab tikildi. Tanimagani aniq edi, o'zimni tanita boshladim:

- Biz pastdagi maktab oldida turamiz. Salomxon mashinachi...

U kennoyimga orqa o'girib turar edi, qaytarib so'radi:

- Ilgari-chi?

Men ko'chib kelganimizni tushuntirguncha kennoyim Saiga ergashib, o'zlarini zinaga, undan ayvonga urdilar. U shu pildirab borishida hazilakam hayajonga tushmagan edi.

Ular kirib ketishib, biz hovlida qoldik. Saining akasi o'girilib, kennoyimning kavshiga qarab qo'ydiyu qoshlarini kerib, menga boshdan-oyoq tikildi:

- Shoshma-shoshma, kimmiz deding?

Men qaytadan tushuntira boshlab edim, u jerikib berdi:

- Rosa cho'zding-ku, Sul-tonmurod kim bo'ladi senga?

- Akam, - dedim to'rsayib ham kalta qilib.

U labini burib, burnini jiyirdi: go'yo "shu jipiriqning akasi... degandek. G'ashim kelib, ensam qotdi:

- Sizga nima?!

- O'h-u! Jahling ham burningni uchida-ku! - Gapim nasha qilib, achchiq kuldi u va kutilmaganda yelkamga chayirdan chayir qo'lini tashlab, asabiy silkidi, - To'gbʻrisini ayt, hov. Tugʻbʻishganmi, kim?..

Men go'yo shaqildoqdek turgan yerimda necha bor borib-keldim. Umurtqammi, qay bir suyaklarim shiqirlab ketib, alamim qaynadi.

- Tugʻbʻishgan bo'lsa nima?! - dedim qaysarligim tutib.

U hayratlanib, so'ng jilmaydi:

- Nu, qoyil! Shu ketishing bo'lsa, akangdanam o'tasan.

- Akamga nima qipti? - dedim silkinib.

Uning yuzi tundlashib kelib, o'zi qulogʻbʻimga engashdi:

- O'sha nima qiptisini... ko'rsatib qo'yaman men unga! - dedi alamli shivirlab. Keyin qaddini rostlab, ko'zini lo'q qilib qaradi. -

Hozir qay go'rdalar? Gadoy topmas bir joylarda qochib yuribdilarmi?

Menga hammadan shu kesatigʻibi o'tib tushgan edi.

- Juda bilibsiz-da! - dedim to'ngʻbʻillab. Qarasam, doru xalta qo'limda, kim bilan pachakilashib turibman, to'gbʻbri zinaga qarab yuraverdim.

U ortimdan ikki qadam tashlab, vishilladi:

- Hov, mishiqli?! Bo'lmasa, nima ekan? Birovning pardai ismatdagi singlisini avrab opketadilar-u, yana oppoq ekanlarmi?

Shoshmay tursin hali! - dedi kamiga ayvon ustuniga shappalab.

Men tepaga chaqvolganman, oyogʻbʻimdagini yechishniyam, eshikni ochib kirib boraverishniyam bilmayman. U esa, qori quralib, pilchiray boshlagan hovlida loyga ham qaramay alam bilan nari borib, beri kelyapti, Ora-chira qo'l silkib, so'kinib qo'yadi:

- Men shunday qoldirarkamanmi?! Indamay ketarkanmanmi?! Shoshmay tursin! Bularni mana shu kuylarga solgani uchun ham tinch qo'ymayman! Yerning tagidan bo'lsa, topib kelaman!

"Ne-ne kekirdagi uzunlar nima qila olib edi, Sizning qo'lingiz qaerga yetardi! demoqchi bo'ldim-u, aytib o'tirmadim. Qolaversa, u hali nimani biladi. So'ng doru xaltani kutib qolishdi deb o'ylab, ular kirib ketishgan eshikni shartta ochdim.

Yo tavba, Mahfuz kennoyim, ha-ha, boshidan paranjisini olib qaergadir tashlagan Mahfuz kennoyim to'rdagi - oyogʻbʻi tanchaga qarab solingan o'rinda yo'qdek bo'lib yotgan ayol yonginasiga tiz bukkanu uning ko'ksiga bosh qo'yib, yuz bosgancha qolgan edi. O'sha yotgan kimsa esa qoqsuyak, ozgʻbʻin qo'llari ila kennoyimning boshini, boshiga qo'shib sochlarini ohista-ohista silar, usiz ham kirtayib ketgan ko'zlari yumuq holda bir nimalar deb shivirlar ediyu, mijjalaridan sizib chiqayotgan yosh ikki chekkasidan quloqlari yumshogʻbʻi tomon chopqillagandan-chopqillar edilar. Go'yo "Roziman, mingdan ming roziman, ona qizim, deb pichirlar-u, negadir men ovozini eshitmayotgandek edim. Titrab ketdim! Bu yoqda askar o'gbʻbri hovlida shilp-shilp yurib, nari borib-beri kelyapti, u yoqda mushtdek bo'lib, onasining bosh tomonida o'tirgan Sai o'krab yuborgudek ahvolda - ikki yuzini changallagancha qolgan. O'zim esam, nima bo'lganini hech anglab yeta olmasdim...

...Xotinim qaytib kirib, xatni yana qo'lga oldi:

"...Sul-tonmurod aka! Qanchaluk o'ngʻbʻaysiz bo'lmasun, ularnukiga bordum. Xolanguzning so'zlarini yerga tashlay olmadum.

Xudoning xohlashuni qarangi, Sizni qora tortub, o'ziniyam, bu yoqdagilarniyam ne malomatlariga qoldirub ketgan va Siz birinchi nikohidagi kishisiga yetkazdurgan baxt sohibasinikiga uning qiyofasida kirib borishumni, ularnikudagilar meni ko'rib qay ahvolga tushganlarini bir ko'rsangiz edu.

Savob deb bordim-u, lekin gung odam ham chidolmasdu bu tashrifga. Askarlikdan qaytgan akaginasining meni bexos ko'rib qolub, uyni boshiga ko'targanlarini, oyi, uniz keptu, o'z oyogʻbʻu bilan keptu deb jar solub, bir yerga yetganlarini, so'ng men u emasligimni bilib qolub qay holga tushganlaruni ko'rsangiz edu! Paranjiga o'ranub kirib boryapman-u, duvillab kelgan yoshdan na yo'l, na zina ko'rinadu ko'zumga. Yaxshiyam tolchiviqdek singlisi borakan, o'sha boshlab kirib ketdu.

Kirsam, qizining dardu firoqida ozub-cho'p bo'lib qolgan onaizor o'runda erib bitgan shamdek yotiptu. Askarlikdan qaytgan o'gbʻbri-ning boyagi shovquni - "uniz keptusini eshitgan shekilli, o'zi alagʻbʻdayu ko'zlari javdiraydi. Menginani ko'rib:

- Margʻbʻu... Voy, mening bebaxtg'inam! - deb boshini to'rt enlikkina ko'tardi-yu, boshqasiga holi ham, majoli ham kelmay, cho'zila qoldu.

Uchib borib, yonlariga tizzaladumu hamma istihola, andishalarni yigʻibishtirub, ko'ksilariga bosh urib, yuz bosganicha qoldum. Paranjumni qachon boshimdan oldum, u kishi qay ahvolda ko'rdilar, bilmayman. Ammo u kishi ham menu qizlari o'rnida ko'rgan, meni u deb bilgan edular. Lablari shivirlabmu Ollohgga shukrlar aytardi. Men u kishinu noumid qilolmasdum, boshqaman deya olmasdum. Tilum aylanmasdu bunday so'zlarga. Buning o'rnigayam ich-ichumdan bir yigʻib, bir o'ksugʻib bosub kelyaptu - o'zumni tutolmayman, tilumdan bir so'zlar oqub kelyapti - aytub ado qilolmayman. O'zum chindan ham shu mushtipar onaizorning duosini olib qolgum bor, bir marta yuzlarumga qarashiga, bir ogʻibiz eshittirub bir nima deyishiga intiqman, zorman. Nihoyat, momiqdan momiq, mayin bir kaft, qizaloq qo'llaridan ham yengil bir qo'l boshim aralash sochlarumni silay boshlaganini sezib, entikublar kettum va bagʻbirlariga singib ketgudek bo'lub, yuzlarumni bosdum. Ammo u qo'lning holi yo'q edu. Boshumni quchib qo'yib:

- Baxtingda ko'paygin, ilohim, - dedilaru jim qoldilar. Qo'llari yelkamdan sirgʻib Halib tushib ketti.

Boshimnu ko'targanumda ochuq ko'zlarining nuri ikki tomchi yosh bo'lib, mijjalaridan oqib tushmoqda edu. "Inna lillahi va inna ilayhi rojiun - chindan hammamiz bir kuni uning dargohiga qaytguvchi ekanmiz.

Olloh rahmatiga olgan bo'lsun. Qizlaridan rozu kettilar.

Imkoni bo'lsa, bir enlik xat ila u mushfiqaga xabar bermak lozimdur. Ruhi poklariga bir kalima Quron tilovat qilib yuborsa ham savob. Qolaversa, Ollohnning uyiga yaqin joylarda, paygʻubambar sallollohu alayhi vassalam yurtlarida yashayotgan

Margʻubularidan lozim bu.

Addoi Mahfuzangiz.

O'sha o'zingizga tanush aziz manzil-mavozelarda

yashab turguvchi xasmu zavjangiz.

Qayragʻubochzorli Yolgʻubiz Mozor Siri (yoxud Maqsud qissago'yga qorongʻub - muallifga ayon tarix)

O'sha qoqsuyak, jimit chol - Mirto'xta amaki qo'lida bir hovuch gilosmi - nima, o'pib, ko'ziga surtganicha omonliq-somonliq qilar va bir donaginasini tishsiz, nuqul milkdan iborat ogʻubiziga solib, yonidagi pakana, gʻubulabir odamga bir nimalar deb gʻuboldirar edi.

Olim uning quloqqa allaqanday xush yoquvchi ovozini qo'msab, mashinasini yo'l chekkasidagi kallaklangan tollar tagiga olaqoldi. Qarangki, guzardagi bu tollar kallaklanib, qator do'konlaru rastalar yopilub qolganidanmi, u allaqanday fayzsiz ko'rinar, tollar esa endigina ko'klab kelar, yangi navdalari hali qingʻubir-qiyshiq butoqlarini enlab ulgurmagani edi. Hatto Mirto'xta amakining choyxonasiga kiraverishdagi hayhotdek tutning shoxlarini ham ship-shiydam qilib kesib ketishgan, u qurigan daraxtdek sho'ppayib qolgan edi. Tagidagi yogʻuboch so'rilar ham huvillab yotibdi. Hamma yoqqa it tekkani-tekkani, shuni kesishmasa, nima qilibdi ekan, guzaru choyxonadan fayzni ketkazib?..

U ichi achishib, o'sha tomonga qarab yuraverdi. Mirto'xta amaki uni mashinasidan tanibmi, puturi ketgan yogʻuboch zinasidan tartaqaylab tushib kela boshladi:

- Iya-iya, eshon bola, yana qandoq shamollar uchirib? Keling-keling, qadamlarizga hasanot.- U gʻuboldirab kelib, qo'lini oldi va keyingisi bilan yelkalarini silab tavof eta ketdi. So'ng ko'k xalatining cho'ntagidagi gilosdan ilindi. - Oling, eshon bola, Cho'lpon otaning qora gilosidan. Totinib qoling, shu oxirgi hosili. Hademay ular ham kundakov bo'lib ketadi.

Gilos - gilosmisan-gilos edi, har donasi boshmaldoqdek kelar, halitdan charosdek rang olib, qoraya boshlagan edi.

Olim beixtiyor o'zi bolalikda shabboxun urib yurguvchi Yakkabogʻub bogʻublarini esladi. Ayniqsa, Inogʻubom togʻubaning tashqisidagi o'rta devorga yonboshlab tarvaqaylagan azamat gilosning qo'shaloq-qo'shaloq, tergan bilan, yegan bilan ado bo'lmaguvchi mevalari ko'z oldidan o'tar edi. Ana shunday boshmaldoqday giloslarni Qash-qarda ko'rib edi, qaytib mana endi qo'lga olishi. Hademay bularni ham ado etishadi, hamma yoqqa qiron kepti. Qaysi gunohlariga shunday bo'пти? Shahar qurisharkan, boshqa yer - qirmi, taqirmi, qurib qolgan ekanmi?

- Oling, eshon bola, omonliq-somonliq, - deb qistardi Mirto'xta amaki.

Olim o'ziga qolsa, shu qo'shalogʻubini mashinasining oynasiga, naq ko'zining ro'baro'siga ilib qo'ygusi keldi.

- O'z bogʻubizdanmi, amaki? - dedi.

- Qayda! Bizni bogʻub qoptimi, allazamonda surib tashlashgan. Bu Mukarram eshonni bogʻubidan. Ana, o'zi, ilinib opchiqqan ekan. Shunaqa ilinib yuradi, qassob akangiz.

Hamma mehri ko'zlariga balqib chiqa qolgan bu kaltabaqay odam o'laqolsa qassobga o'xshamasdi. Harqalay Olim uni qo'lga tigʻub ushlagan holda hech tasavvur etolmadi. Shuning uchun ham u bilan samimiy ko'risha turib, yanglishganini sezdi. Uning qo'li bamisoli qayroqtoshdek qattiq edi.

- Hovliga kiramiz, mehmon. Quling o'rgulsin xasip soldiryapman. Tami ogʻubizida qolsa, kep turasiz,- deb iljaydi Mukarram aka.

- Rahmat, aka, boshqa gal, - deb qo'lini ko'ksiga qo'ydi Olim, - Bir yerga o'tadigan edim, sal kechikdim. Sutchi amakiga vadam...

- E, u kishimi? Allaqachon qaytib, bitta choyni maydalab o'tirib edi. Yakkabogʻubdan qidirib kelib, opketib qolishdi, - dedi

Mirto'xta amaki uzundan-uzun qo'lining orqasi bilan qotgan belini silab qo'yib.- Qanday topib borasiz, bu abjagʻubi chiqqan yo'llar bilan? G'irotingiz uvul-da, uvul. Kuta qoling.

Qassobga jon bitdi:

- Shuni ayting, ayni otamlashadigan mavridi ekan. Qoling, xasip tobida. Yo'q, demang.

- Qaniydi, otamlashganga nima yetsin. Lekin tushunasiz-ku, o'rtada lafz bor. Bir eski mozorot yo'lga tushayotgan ekan. O'shanga o'tmoqchiydik.

Buni eshitib Mirto'xta amaki hovliqdi:

- Darvoqe, o'shalar kelib opketishdi. Sanduqli otadan sanduqlar chiqqanmish.

- Ochishibdimi? - deb yubordi Olim bir nima bo'gʻubiziga tiqilib kelib.

- Bilmasam, bilmasam, - deb gʻuboldiradi choyxonachi, - sutchini "chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin, deb opketishdi. Eski kitoblarga undan bo'lak kimning tishi o'tardi? - Keyin kamiga uni tariflay ketdi. - Mullaga taraf yo'q, taraf. Cho'lpon otaning imomi ham ip esholmaydi uning oldida, sut bonka orqalab yurganiga ishonmang.

- Eski uylarning sinchlari orasiyu toqilari tepasidan chiqayotgan kitoblarni shu kishi sotib olayotganmish, - deb qo'ydi qassob ham.

Olimga shu kifoya edi, ichi qurib, xayr-mazurga tushib qoldi:

- UZR-uzr, men bormasam bo'lmaskan. Aybga buyurmaysizlar.

- Esiz, mashina, bu chalchiq yo'llarga, - dedi Mirto'xta amaki ichi achib.

Ammo mehmon parvo qiladigan ahvolda emasdi.

- Shunday topildiqlar xabari chiqqanda jin uradimi bu tersakka! - dediyu xayr-xo'sh bilan o'sha qora kiyikiga o'tirib, tuproq yo'ldan kun ogʻib borayotgan tomonga surib ketdi.

Birpasdan keyin u har turli ogʻib mashinalar o'taverib o'ydim-chuqur bo'lib ketgan yo'ldan qo'sh gʻildirak izi bilan bir amallab ilgari lab borarkan, botib qolari yoxud biron ariqqa tushib ketaridan havf-sirab, to'xtab-to'xtab qolar edi.

Ana shunda ko'z o'ngidan namatga o'ralgan sandiqlaru uni ko'plashib ko'tarishib olayotgan odamlar ketmay qolib, bolaligida eshitganlari yodiga tushib-tushib kelaverardi. Emishki, rahmatli dadasi bir kuni qo'llarida ilm olayotgan shogirdlari bilan hamma kitoblaru qozilik hujjatlarini sanduqlarga joylab, sanduqlarni esa namatlaru mol terlari bilan o'rab-chirmab, yarim kechada allaqaerga tashlab kelishibdi-da, so'ng oshni yeb, muridlarga oq fotiha berganmishlar. Ertalab esa o'zlarini olib ketgani odam kelganmish.

U yoqda ekanida shuncha ogʻib juftlab, mavrid kutdi, lekin so'rashga jurat topganida u kishi (Olloh rahmat qilsin) tildan qolib, bir siqim sariq ipakdek bo'lib yotar edilar. Yaxshiyam ilgariroq sutchiga bir nimalar degan ekanlar.

Sal o'tib, binoyi toshyo'l boshlandi. Endi qo'rqmasa ham bo'lardi. Quruvchilar yuk mashinalari chalchiqqa botib qolaverib, toza adablarini yeyishgan shekilli, ilgari (tuprogʻib yozda to'piqqa chiqib, kuzda balchiqqa aylanadigan) katta ko'chaga shagʻbal yotqizishgan, uning dala yo'li siyohi qolmagan edi. Faqat yo'lning ikki chekkasidagi yo'lklar o'sha-o'sha, goh katta yo'ldan odam bo'yi tepaga chiqib, goh Izzaga yaqinlashganda baravarlashib qolar edi. O'sha bir vaqtlar - ular eslarini tanimasdan burun tepalarni kesib o'tib, to'gʻib Achchiga qarab tushgan yo'l hali ham omon turar, undan bo'lak hamma narsaga - bogʻblaru soylaru qo'rgʻbonlargacha, barchasiga tekis qiron kelgan, ko'zga yarq etib olovdek tashlanadigan narsaning o'zi qolmagan, o'rnidan ufqlarniyu kengliklarni to'sib, balandqavat temir uylar qad rostlab kelar, mahobatini aytmasa, dunyo ko'rgan Olimga ham allaqanday o'tirishmayotir edi. Balki odam bolasining tabiati shunaqadir: ko'z ochib ko'rgan narsalaridan ajrashni istamas. Har bir o'zgarishni ichki gʻhashlik bilan, ogʻib rinib qabul qilar. Hozir ham shuncha oro berib qurilgan, memorchilikning ovrupe namunalaridan qolishmaydigan imoratlar qolib, yo'l chekkasidami, osmoni-haftim binolar o'rtasidagi hovli-maydondami adashib-qirilmay qolgan yakkash tutmi-yongʻboq tuplari ko'ziga olovday ko'rinib ketar edi. O'zi esa xuddi eski tanishini uchratgan odamdek bir yerlarga yetar edi.

Yakkabogʻbning Izzasiga yetganda chidab turolmadi. Mashinasini chetga olib, ko'cha yoqasiga tushib bordiyu kunbotarga qarab cho'zilib ketgan va qurilishlar orasida hozircha omon turgan chimzor-soylikka bolalarcha entikib, tikilib qoldi. Hayriyat, hayriyat, deya shivirlar, vatanning bir parchasi bo'lsa ham omon qolgan ekan-ku! Bolaligimizda sigir boqib, soylarida cho'milib, chimzorlarida gurpaklashib yurgan kunlarimizni yodga soladigan narsayam bor ekan-ku! Otalarimiz, onalarimiz yurtidan yodgor bo'lib shugina qolibdimi? Qolgan hammasi yitib ketibdimi, deya shivirlardiyu ko'ngli buzilib borardi. Ko'ngli bo'shalib, ichi sim-sim simillab ketayotgan bo'lsa-da, soylikning o'rtasida qora ilondek to'lgʻbonib yotgan Izza suvidan, uning ikki betkayida yastanib, to kunbotarga qadar cho'zilib ketgan yam-yashil chimzorlardan ko'z uzolmasdi. Bu yerning havosi ham bir bo'lakcha, ko'ksiga moydek oqib kirar, Izza bo'ylaridagi yalpizlarningmi, suv o'tlariningmi omuxta hidlari anqib turar, hidlab to'ymasdi. Hozir o'sha buloq suvlaridan hovuchlab-hovuchlab ichgisi, o'sha chimzorlarga cho'zilab, tubsiz osmonga tikilib yotgisi kelardi. Bilmasdiki, sal narida, hov qari tollar tagidagi vayrona tegirmondan u yogʻbida soyning ikki yoqasiga uzala tushgan azaliy tepalar, minglab qushlaru ko'k kaptarlarga vatan bo'lib, in bo'lib, hammasini o'z bagʻbri ga ola biladigan, chugʻburlaridagi jangillab aks-sado berib yotadigan tik jarlar allaqachon yo'qlikka ko'chgan, hozir borsa, ularni topolmasdi. Qadim Izzayu uning ikki betkayidagi yuzlab buloqlar o'sha tepalar tagida qolib keta boshlaganini u hali bilmasdi. Hozir ko'z oldida turgan, hali sivilizatsiyaning qadami yetmagan bir qism soylik - chimzorlargagina mahliyo bo'lib turar, shunga ham shukr qilardi. U yoqdagi ostin-ustinni ko'rsa, nima qilarkan, o'tirib olib, piq-piq yigʻblarmidi ekan?!

Omon qolgan chimzorlardan ko'ngil uzolmay, ketsa-qaytib ko'rolmaydigandek bir holga tushib, yana bir muddat turdi. Ammo kun ketib borar, o'fob oqposhshoning qizil tangasidek qizarib minora kranning uchiga osilib turar, soydan kechki bir salqinlik ufura boshlagan edi. Olim shoshmasa bo'lmasdi, yolgʻbning mozorotdan topilgan sandiqlar tarkana bo'lib ketmasidan yetib borgani maqul edi. Qolaversa, u sanduqlardagi narsalar kimniki ekan? Ularni kim joylab, kim ko'mibdi ekan? Shunday kunda yetib bormasa, bir umr armonda qolmaydimi!

Chimzorda shudring tushib, oy chiqqunga qadar o'tirgisi, bolaligi kechgan diyor bilan vidolashgisi kelsa-da, ortiq qola olmasdi. Xuddi shunday bir his Yakkabogʻbning guzarchasidagi hayxotdek yolgʻbning sadaqayragʻbochni ko'rganda (bu nimaning alomati ekan - shunday azamat qayragʻboch qurib qolgan, shu holida ham uni tinmagur chumchuqlar vatan tutib, in qurib, chugʻburlashib yotar edilar!), Murjimondan o'tgandagi zanjir solib ham qo'porib tashlasha olmagan katta qari toshnokka ko'zi tushganda ichidan toshib kelgan xo'rlikni zo'rgʻba bosa oldi.

U ko'zlagan manziliga yetib qolgan edi. Otasining xaloskori, sobiq hamkasbiga ko'zlari qizargan holda ko'ringisi kelmadi. To'gʻbri, inson judoliklarga ko'nika bilishi kerak. Tugʻbilingandan to qabrgacha nimalardan judo bo'lmaydi u?! (Bu o'sha sutchining gapi!) Lekin odam har narsaga chidasa ham ko'zi tirigida o'zi yayrab o'sgan, yalangoyoq turpoq kechgan, so'qmoq oshgan, chimzorlarida shudringdan so'ng yashil izlarini qoldirib chopgan, buloq suvlarini ichgan, nematlaridan totgan bir vatan - bir diyardan qanday ayrila oladi? Bu ayriliqqa qanday chidaydi? Qaerdan taskin topadi? Qaysi gunohlariga Olloh ularning o'rniga tamomila yangi qavmni keltirib qo'yimoqda - o'ylab uyining tagiga yetolmasdi. Inson xom sut emganki, o'zining gunohi qolib, boshqalarnikini hisoblashga tushib ketadi. O'zim-chi, o'zimizdan nima o'tib edi, deb qo'yamaydi. Togʻbdek gunohi borligini bilsa ham bilmaganga olmoqchi bo'ladi. O'zi-chi, o'zi oppoqmi? Shu kunlarni yaqinlashtirib berganlarning ichida o'zi yo'qmi? Endigi ko'zyoshidan, alam-sitamlardan nima foyda?! Kech ochilgan ko'z pushmon yigʻblaridan qurib, so'qirga aylansa nima?! Sabru bardosh va tavbadan boshqa nima qopti? O'shanda ham agar Olloh yorla-qasa...

Uning mijjalariga goh achchiq yosh qalqib chiqib, ko'z oldini tumanga o'xshash bir nima qoplab ola boshlar, goh o'sha yolgʻbning chirq-chirq chumchuqlargagina vatan bo'lib qolgan (hali saratonga borib ular ham buni tashlab ketadilar!) hayxotdek sadaqayragʻboch ketmay qolar edi. Shunday sada turgan yerida qurib qolsa-ya! Bu nimaning alomati? Olim o'ylab o'yining tagiga yetolmas, hikmati nima bilolmasdi. Chindan ham u bilmaydi, bu bir vaqtlar (hatto bundan o'n yetti-o'n sakkiz yillar muqaddam ham mashhur, gurkiragan, hammaning ogʻbzigga tushgan sada bo'lganini!.. Hamma gap shundaki, o'sha sada gurkiragan pallada uning ro'baro'sidagi xonadonda bir gʻbaroyib chaqaloq (o'gʻbil bo'lib o'gʻbil emas, qiz bo'lib qiz!..) dunyoga kelgan edi.

Bu nimaning alomati edi, oxirzamon - qiyomatningmi yoxud biron kasru kasofatning, ota ham, ona ham bilisholmadi. Yaxshilab tanalariga o'ylab ko'rishsa-ku, tong-saharlarda Ollohga yolvorib tavbalar qilishsa-ku, yolgʻbning o'zidan madad so'rashsa-ku - hikmatini anglasharmidi! Olloh ham gunohlaridan o'tardi. Yo'q, bir-ikki kun qo'rqib yurib, keyin qo'rqmay ham qo'yishdi. Negaki

bola qosh-ko'zi joyida, o'zi popukday edi halitdan. O'g'v b'ldan ko'ra qiz bolaga tortib ketardi chiroyi. Xudoning o'zi g'v b'hamxo'r, vaqt ajratadi deb o'zlariga taskin berib qo'ya qolishdi. Qusuriga etibor qilishmadi, shuni ham Xudodan ko'rishdi. (Olloh esa uni behikmat yaratmagan edi!..) Bora-bora haligi bolakay... avval sochlari o'sib, yelkasiga tushdi, so'ng orqasi bilan bitta jamalak sochli qizaloqqa aylandi. Oq yuz, quralay ko'z bir ko'hlik qiz bo'ldiyu so'ng hech kim o'ylamagan bir paytda, ayni onalar "voy falonchiyam bo'yi yetib, oyday qiz bo'ptimi deb ko'z ostiga ola boshlagan kezlarida qizi tushmagur bir kechada "rastasidan buzilib ovozi do'rillab chiqdi! O'zi ham necha kun uydan chiqolmay, qamalib o'tirdiyu keyin "bo, xudo olsin deb dugonalari orasiga chiqib ketdi (Onasi zora ovozi yumshasa deb otadan bekitiqcha, jindek surma ichirib ham ko'r'di, ko'knor ezib berdi ham, bo'lmadi). Shu-shu erkakshoda bo'lib qoldi. Maktabni tashlab, dalaga chiqib ketdi. U yoqda esa udli-shuldikkina ekan, bir o'zi qirqta qizga bosh bo'lgudek deb, chopiqchi qizlarga boshchi qilib qo'yishdi.

Qolaversa, qo'li ancha yerga yetadigan, kattalar ham hisoblashib, hayiqib turadigan tog'v b'asi bor edi. U haqda "Xudodan qo'rqmagandan qo'rq, deyishardi. Sultonmurodlar uyini yoqib, Kattabog'v b'dan badarg'v b'a etishganida ko'chini ortib ketaturib, alam-achchiqda otni qistab-qamchilagan ekan: ot olib qochib, undan uchib ketgancha oqsoq bo'lib qolgan deyishadi, shu-shu Akmal o'ris nomi Akmal cho'loqqa aylangan. Ilgarigi movut kepka kiyib yurgan mahallari ham bir baharnav ekan, endi undan jizzaki, undan alamzada odam topilmasdi bu deparada. Akmal cho'loq kevotti desa, har kim har yoqqa - kim chorboqqa, kim ishkombi ichiga urib ketar, u kasofatga yo'liqding - baloga yo'liqding edi. Shunaqa Xudoning g'v b'azabi edi. Kolxozda ham uning aytgani ayt-gan, degani degan edi. Ketmon chopiqda bas boylashsa, bir o'zi to'rtta erkakni qochirib, changida qoldirib ketadigan, bazan kurash tushsa, o'zi tengi yigitlarni ham chirpirak qilib otgudek vajohati bor jiyani Qumrinisa (shunday tog'v b'asi bo'laturib!) oddiy ketmonchi bo'lib qolarmidi! Tez orada qirq qizlarga bosh - zvenovoy bo'lib ketdi. Necha yil bedapoya bo'lib yotgan, kaftdek tekis kungay yer ularga ajratilib, otxonaning tog'v b' bo'lib ketgan go'nglari shu yoqqa tashildi. Qirq arava chiqdimi, undan ko'proqmi, hech kim hisobini olgani ham, so'ragani ham yo'q. Qolaversa, lavlagi urug'v b'ning sarxili shularga tegdi. Qizlarga esa, bir nomchiqarga ishlaysizlar, mukofotiga bosh-oyoq sarupoyu kamiga Muqimiy teatrusiga olib tushish, deb vada qilishdi. Hov, yer xohlab qolsa, qand lavlagi degani yomon bo'lib berar ekan. Har lavlagilar bo'ldiki, uning oldida o'g'v b'irdasta - ingichka edi. Qizlar qazib, aravalar omborga tashib ulgurisholmasdi. Ana shu nomchiqarga qilingan ishga Akmal cho'loqning o'zi shaxsan bosh bo'ldiyu jiyani uchun turib berdi. Qizlarga vada qilingan bosh-oyoq saruponi ham topdirib keltirdi, Muqimiy teatrusiga shaxsan o'zi olib tushib, yarim kechada uy-uyularga tashlatib qo'ydi. Qizlar shunga mahliyo edilar, xursandlikdan tanalariga sig'v b'masdilar. Bu haqda allavaqtga dovur gapirib yurishdi ham.

Erkakshoda jiyani esa, bu deparada ko'z ko'rib, quloq eshitmagan obro'ga ega bo'lib, shuhratning tagida qolib ketdi. Uning suvratu portretlari qishloqning guzaru maktablari, do'konu shiyponlariga osib tashlanib, o'zi deputatlikka ko'rsatildi. Endi uning nomi hammaning og'v b'zida edi. Qumrinisa Qang'v b'lining qo'l yetmas yulduziga aylangan edi. Odamlarning "Qaysi, kimning qizi?" degan savollariga:

- Anuv, Qumrinisa-chi, Akmal cho'loqning jiyani,- deb tanishtirishar, judayam tushunmaganlarga Yakkabog'v b'dagi sadaqayrag'v b'ochni eslatib: - Ana o'sha katta ko'cha yuzidagi qayrag'v b'ochni bilasiz-a, xuddi o'shaning ro'baro'sidagi eshikda turishadi. Akmal cho'loqning sing-lisi o'shatga tushgan. Shularning qizi. Ko'rsayiz taniysiz. Erkakshodagina edi, shu yoqdan baxti ochilibdi, - deb u yog'v b'ini aytmay qo'ya qolishardi.

Olim keyingi besh-o'n yilda qaysi yurtda yursa - yurgan, bu qirq qizlar tarixidanu Qang'v b'ldan chiqqan birinchi deputat dovru'v b'ldan bexabar, eshitmagan ham chiqar balki. Lekin tagiga tangadek ham oftob tushirmay gurkirab yotgan sadaqayrag'v b'ochni yaxshi eslaydi. Cho'lpon otaning guzaridan qaytgan bozorchi borki, tagida birpas to'xtab, g'v b'ir-g'v b'ir shabadada orom topmay ketmas edi. Qolaversa, sharqirab oqqan suv bo'yida, ustiga-ustak sada soyasida o'tirish gashtiga nima yetsin. Uni kun tig'v b'iga qolgan yo'lovchidan bo'lak kim ham bilardi.

Endi o'sha ariq ham yo'q, qay bir yerlari to'lib, qay bir joylari ko'milib yotibdi. Sadaqayrag'v b'och-ku bu ahvol: bironta shoxi omon qolmay, tekis qurigan! Nimaning kasofatiga, yolg'v b'iz Olloh biladi. Va eng yomoni o'sha kasofatning kasri bir daraxtning o'ziga ura mayli ekan, yo'l yoqasidagi barcha xonadonlarni ham harob etib ketdi. U yoqda bir-biridan mahobatli imoratlar kim o'zarga qurib yotilibdiyu bu yoqda egasi ko'chib ketgan hovlilar, tomi ochib tashlangan valongar uylar, nahrali devorlarning adog'v b'i yo'q. Bu nimaning alomati? Bir gullagan joyning bir xarob bo'lishi-mi, o'zimiz bilib-bilmaganga olib ketgan allaqay- si gunohlarimizning javobi-qaytimimi? Qaytar dunyo deganlari, bu dunyodayoq ko'rsatilayotgani balki shudir?!

Olim mahzun tortib qolgan edi. U kasofatning suvratiyu izlarini aniq-taniq ko'rib turardi. Adoqsiz harobatlar nimaning kasri, qaysi aynishlarning qaytimi - bilolmay boryapti. U yo'g'v b'ida bu yoqlarda Ollohga xush kelmaydigan qanday ishlar bo'lib ketibdiki, o'shaning jadiga jannatday joylar xarob bo'pti, xarobaga aylanibdi? Hoy, ko'zingizni oching, qayoqqa qarayapsiz, deb qaytaradigan bir zot qolmabdikan? Yoki unaqalar allaqachon akasiga o'xshab bu diyordan bosh olib chiqib ketishgan ekanmi? Otasi aytmoqchi, iymonlilar iymonini laxcha cho'g'v b'dek kaftida tutib, bir tog'v b'larga chiqib ketganda, bu yoqda satta iymonini yutganlar qolgan ekanmi? Yana otasi aytardilarki, ulamolar bir xil gunoh ishlarni ko'rib-ko'rmaganga olmasinlarkim, balo kelsa, omu xosga baravar kelgay. Bular o'shaning misolmikan yo'?

Har narsaga aqli yetgan Olim buni ham tushunganday bo'lardi-yu, tagiga yetolmasdi. Nimadir monelik qilardi. Nima ekan o'sha? Balki o'zining ham jindek gunohi borligi... yo'l qo'ymayotgandir. Axir, kim adashmabdi, qoqilmabdi? Bilib-bilmay xatoyu gunohlar ko'chasiga kirmabdi? Muhimi, o'sha xatoyu gunohlarni anglashda, afsuslanishda emasmi? Sidqidildan tavba eshigini topib borsa, qoqsa, karami keng zot nechuk kechirmasin. Mana, kech bo'lsa ham chopib yuribdi-ku. Jindek bo'lsa ham foydam tegib qolarmikan, deb! Jigarimning jigarlarini toparmikanman, deb. Ular qanday o'rama-girdobga tashlangan ekanlarki, butun boshli xonadon shunday to'zib ketsa, hali-hanuz yig'v b'ib bo'lmasa, har tomonga sochilib ketgan u jigargo'shalarni?

Biz o'zi kimmiz, nedurki, kindik qonimiz to'kilgan ota yurtda bir boshpana, bir vatan tiklab, volidu volidalimizning chiroqlarini yoqib o'tirolmasak? O'tiramiz deb kelganda sen tanigan, bilgan, izlagan u makonning o'zi yo'q bo'lsa? U diyorni yodga soladigan nima ham qopti? U Izzaning bir bo'lagiyu anavi turgan yerida qurib bitgan sadami? Yoxud kela kelguncha ham tugamayotgan adoqsiz - hali surib tashlab ulgurilmagan xarobatlarmi? U diyori yo'qliqqa ko'chib bo'pti-ku!

U jilla qursa, bir vaqtlar o'zlari cho'milib-tuproqqa yotib, yana suvga kalla tashlab charchamaydigan o'sha Murjimonning anhoriyu ko'prigi omon qolgandir, hovlimizning o'rnini o'shandan tanisa bo'lar, deb kelyatuvdi. Hov, u ayqirib oqqan anhor suvini unutib bo'larkanmi? Hatto dovyurakroq bolalar suvda oqib borib, ko'prik ostiga kirib yo'q bo'lib ketishardi-da, yana bir muddat o'tib, boyagi-boyagiday chalqancha oqib chiqib kelishar (ana qahramonligu mana qahramonlik!), keyin o'rab olgan bolalarning:

- Hecham qo'rqmadingmi?

- Zig'v b'irchayam-a? - degan savollariga bosh chayqab turib olishar, hamma birdan "Vu-uy deb yuborar edi! Endi unaqa o'yinlarni

topib ko'r-chi! Anhor ham yo'q, ko'prik ham...

Chindan ham u ko'prikni payqamay o'tib ketgan, Murjimom qayoqda qolibdi, deb esini yigib o'lganda, ancha yerga borib qolgan, oldinda bir to'p odamlar yo'l chekkasidagi yuk mashinasiga nimanidir ko'plashib ortishmoqda edi.

Olim avvaliga ko'ch shekilli deb o'ylab edi. Lekin yaqin borib, ustiga chirigan namat tashlab qo'yilgan sanduqni ko'rib, yuragi hapriqayozdi.

- Ie, aytishganidek-ku! Namatga o'rab ko'milgan ekan-ku!

Yuk mashina atrofida ko'ymanishayotgan kishilar orasida baland bo'ylik va allaqanday haybatluk sutchini ko'rib, yuragi toshib, o'zi shoshdi. Yaqin borib, mashinasini bir chetga burdi.

Sutchidan bo'lak hamma sergak tortib, turgan yerlarida turib qolishdi. Bazi birlari hatto o'zaro shivir-shivirga tushgan edilar.

Alohol Sutchi uni ko'rib, yonidagilarga bir nima deb edi, ular yengil tortishdi.

- Avvalroq aytmaysizmi! O'takamiz yorila yozdi-ku,- dedi birovi baralla.

Olimning xayolidan esa, "qiziq, Sutchi nimaning hisobidan bularni xursand etadi ekan? degan gap kechardi. Bir yonda oldi bilan tuproq surib, orqasi bilan yer kovlagich o'ti o'chmay turibdi. Sandiqlarni kovlab olguncha hazilakam unnalishmagan ko'rinadi.

Qolaversa, davlatni ishi bo'lsa, allaqachon tashlab, jo'nab qolishar edi. Tushunarli: Sutchini bugun ko'rishayotgani yo'q. Uning shirinkomasiga mazaxo'rak bo'lmagan odam bu yerda o'ralashib nima qiladi?! Olim ularni cho'chitgisi kelmadi:

- Hormanglar, yaxshilar.

- Bor bo'ling.

- Keling, mehmon, - dedi Sutchi ko'rishgani chiqib. - UZR, kutolmadim.

Olim bosh silkidi:

- Yaxshiyam Mirto'xta amakidan so'raganim...

- Ha, u kishimi? Ko'rib edilar, xabarlari bor edi. Amaki nimayu O'zbekiston radiosi nima!

Keyin azza-bazza engashib, qulog'iga shivirladi:

- Zab paytida keldiz. Bular nima, bilasizmi? - So'ng uning boshini o'ziga tortib, qo'shib qo'ydi: - Eshon pochchamning xazinalari.

Ona sudidan halol ekan. Qilt etmabdi. Ayniqsa, anuv mol terisiga o'ralgani...

Olimning boshi aylaniblar ketdi, o'zi uning yuzidan ko'zlarini uzolmay, g'ubudrandi:

- Siz... Siz qaerdan bilaqoldingiz? Yo o'zlari... aytib edilarmi?..

Sutchi uning yelkasidan quchib, bu kafti bilan yuzini siypadi.

- Keyin-keyin, tarixi uzun buning, - dediyu, tushuntirgan bo'ldi. - Muhimi, topib ketyapmiz-ku. Vasiyatlari ham shunday edi o'zi.

- Qanday?.. - deb yubordi Olim ich-ichidan bir hovur ko'tarilib.

Sutchi har qachongidan xotirjam tortib eshon buvaning so'zlarini qaytardi:

- "Kitobing Kalomullohni qiyomatga dovur asrashni o'z zimmangga olibsan, o'shal sandiqlardagi shariatiga daxldor narsalarni-da asra, o'z egalariga yetkaz, ilohim. Qaytib mutolaa qilinishiga, ilmu rabboniyingdan foydalanib, mo'min bandalaring hidoyat topishlariga erishtir. Birovlarning qo'lga tushib, xor bo'lishiga qo'yma, deb duo qilar edilar. Niyatlari mustajob bo'lgani shu, insha Alloh.

Boyagi hayajon necha tomchi yoshga aylanib, mijjalariga qalqib chiqdiiy Olim ilgari ko'rilmagan bir yengillik tuydi. Nimaga unga indamadilar, hech og'ib ochmadilar desa, gap bu yoqda ekan-da. O'z xaloskorlariga allaqachon tayinlab qo'ygan ekanlar-da.

(Albatta, unga ham tayinlagan gaplari - osonlikcha ado qilib bo'lmaydigan topshiriqlari bor. "Akangni top. O'sha bilan birga bo'l.

Falonchining chiroqlarimiz desangiz, bir-biringizga suyanib yashanglar. Zinhor-bazinhor Ollohning hadlaridan chiqmang. So'z ber, akamni topaman, suyanchi yo'q bo'lsa, suyanch bo'laman, tayanchi yo'q bo'lsa, tayanch bo'laman de. Diyorga qaytib, qolgan umrimizni duoda, toat-ibodatda o'tkazamiz de. Kimning zur-yodi ekaningizni, palagingizni unutmang. Bo'lmasa, qiyomatda menga yo'liqishingizni o'ylang. So'z ber, bolam. Akam bilan, qarindoshlar bilan o'rtani yaxshilayman, silai-rahm qilaman deb. Shundan beri nimaga chopib yuribdi? O'shanga-da hammasi. Dunyoda u kirmagan bitta shu ko'cha - silai-rahm ko'chasi qolgan ekan, shukur, kirdi unga ham)!

- Qaerga obormoqchisiz? Mendan nima xizmat? Balki, bularni rozi qilish... kerakdir? - dedi Olim sidqidildan kissasiga qo'l yuborib.

Sutchi rahmat aytgan kabi yelkasiga qoqib qo'ydi.

- O'zim rozi qilib qo'rganman. Faqat borib, tushirishib olsak, bo'ldi. Siz qisnmang. Hali ko'p yordamingiz tegadi. Kelishdikmi? - dedi samimiy.

Olim rozi bo'lishdan bo'lak chorasi yo'q edi:

- Kelishdik.

Quruvchilar bu orada ikkinchi sandiqni ham mashina oldiga surib borishgan, endi ko'plashib yopishishgan edi. So'ng "bir-ikki-uch, oldik bilan yuqoriga ko'tarishdiiy yengil nafas olishdi.

Olim qayrag'ib ochzorli yolga mozorotning yonginasidagi hali ko'mib ulgurilmagan handaq oldiga o'tarkan, nam tuproq isi aralash allatovur bir tanish hid gurkirab ketdiiy beixtiyor shu bog' va qarovsiz bu yolga mozorot atroflarini har ko'klam bosib ket-guvchi, so'ng uzun bosh chiqarib, to'q zangor tusda gullab yotguvchi sassiq-sarimsqoz ko'z oldiga kela qoldi.

Hozir o'sha sarimsqozlar lola tupidek barg yozga- nu oyoq ostida toptalib, tuproqqa qorishib yotar edilar.

Hademay manavi yolga mozorot ham kusar topadi. Unga qaysi avliyo qo'yilgan, nega u yolga edi, deb o'tirishmaydi.

Ularning xoki-turoblarini ko'chirish yoxud asrab-o'rab qoldirish - kimdan lozim, o'zi?

Olim umrida birinchi marta shunday narsalar haqda o'ylamoqda edi.

Arg'ibamchisidan Ajrab Qolgan Turnalar (yoxud qissago'yga qorong'ub, muallifga ayon tarix davomiga)

Bog' adog'bidagi noklar tagida quvalashgan qorashaqshaqlar ham axiyri devor oshib, anhor bo'yiga tushib ketdilar. Gullarini sochqidek sochib bo'lib, endi qaychibarglariga zo'r berayotgan nok tuplari ustida asalarilar ilgarigidek g'ubujg'ubon o'ynamas, hov pastdagi bukir jydalar tomonga og'ib ketishgan, o'sha yoqdan har zamonda bol hidiga monand o'tkir bir bo'y taratib, shabada esib o'tar, Olim demaganlar hali hajga otlanmagan jydagulining bir shoxchasini sindi- rib kelishga intiqib, o'sha tarafga qarab-qarab qo'yar-di.

Lekin o'choqdagi olov kutmaganda gurillab ketib, qozon tagidagi yolga tomchi jizillab-qaynab o'zini har yon ura boshladi. Shu tobda mayda to'g'bralgan dumbani sola qolgani bilan yonidan jilib bo'lmaydi. Jizzasu kuyib ketishi mumkin. Kuygani-kuygan,

koshki taxiri yogʻibga urib ketmasa. Keyin oshning tami ham ko'ngildagidek chiqmasligi tayin. O'zi ne umid bilan bozor qila chiqdi. Go'shtni qovurib, zira-murchiyu savzisini bostirib qo'ysa, ustiga jindek tuz sepilgan jizzadan totingancha qariyaning suhbatini olishga nima yetsin!

Kitoblarni bugun sandiqdan bittalab olib, tokchaga terib chiqishguncha ham peshindan o'tib qopti vaqt. Sutchi kamsuqum, kambagʻbalgina bo'lgani bilan hamma boyligi o'sha tepadagi boloxonada ekan. Avvalboshda taqvodorgina, bor bisoti egnidagi uzun chakmoniyu kungrasi mo'ynali anavi jubbasigina bo'lib ko'ringan qariya anoyilardan emaskan. Surishtirib yurib, bir boloxona kitob yigʻib qo'yibdi. Hammasi satta qalin saxtiyon muqovali kitoblar. Kechagi sandiqlarning ichidan ham yuzga yaqin katta-kichik, avloddan avlodga o'tib kelayotgan, chetlari o'ngib ketsa-da, ichiga gard yuqmagani, xatlari bir tiniq kitoblar chiqdi. Ayni rahmatli dadasining ko'z nurini to'kib shogirdlariga dars bergan, yeru ko'kka ishonmaydigan kitoblari. O'shalar orasidan G'azzoliyning "Ihyoi ulum asari chiqib, Sutchi bir muddat mutaassir turib qoldi. Keyin ko'zlariga surtib, muqovasidan o'parkan: - Din ilmini tiriltirib, joyiga qo'yib ketgan bu zotning shu kitobi haqda ko'p eshitgandim-u, o'zini ko'rishga muyassar bo'lmagandim. Ollohga shukr, otangiz tufayli shunga-da, erishib turibman. Bu kitob har kimda bo'lavermagan va har kim mutolaa qilavermagan uni, shunday, - dedi.

Olim uning bu tarz gaplaridan gʻhalati tortib ketdi: padari buzrukvorining musofirchilikda, "diyorning bir siqim tuprogʻi nasib etmay o'tib ketyapmiz, ilohim, bizlar ko'rgan judolikni sizlar ko'rmang, deya qilgan duolari yodiga tushib, ko'zlari namlanib keldi. So'ng paygʻambar siyratlari sirasidagi necha adad (o'qilaverib titilayozgan) asarlar chiqdi. Ularning bittasi "Siyratun nabaviya atalsa, boshqasi "Siyratul habibiya edi.

Bu kitoblarning nomiyoq otasining qanday ulamo zot o'tganidan darak bermoqda edi. Avvaliga, qarang-a, shunday kitoblarni o'qishdan, varaqlashdan bebahra qolgan ekanimizmi, degan taassuf uygʻibongan bo'lsa, ikkinchi sandiqni bo'shatishga tushishlari bilan nainki Sutchidan, o'zidan o'zi uyalib, vujudini bir xijolatpazlik qamrab kelaboshladiyu:

- Men hozir, - degancha pastga tushib, qozon-tovoqqa unnab ketaqoldi.

O'choqqa olov qalarkan, ich-etini bir narsa o'rtab kelardiki, u yogʻib yo'q. Go'yo o'zi qozondagi anuv jizzaga qo'shib, yurak-bagʻbiri nam dogʻiblayotgandek, dogʻiblab ola-yotgandek edi.

"Usta ekan bular, usta! Mana, uni o'sha o'qishlardan nimaga haydab solishmadi ekan! Chayonni bolasi - chayon deyishmadi ekan! Avval o'z akamning qavatiga tashlab, so'ng izidan Tangritogʻibga jo'natishmadi ekan! Faqat ular janubga tushib, biz shimolga tashlanib, Xudo asrabdi. Yo'q-yo'q, kimning ham saharlarda qilgan nolai-duosi ijobat bo'lib, bu kishi otamizni qo'shib qutqarib, bizni o'shayoqlarda uchrastiribdi. Tagʻbinam Olloh rahm qilibdi, birimizning payimizni boshqamizning qo'limiz bilan qirqishga qo'ymabdi. O'rniga ham padari buzrukvorimizga yo'liqtiribdi. Xo'p, otamizni qutqarib, sarhaddan chiqarib qo'yishlarining hikmati shu ekan, akam-akaginamning ayolini bu yoqqa yuborib qo'yib, O'zi u diyorlarda qolib ketuvining hikmati nima? Qanday tushunmoq kerak? - Olim dogʻib bo'layotgan yogʻibda qizarib-quyishga-da kelgan jizzalarni kapkir bilan terib olishga ulgurmas, uni adoqsiz o'ylar o'z girdobiga tortgandan-tortar edilar.

Nimaga keldi, sutchini nimaga tavof etib yuribdi, ketidan qolmay? Faqat otasining xaloskori bo'lgani uchunmi? Olloh roziligini istab shu ishga qo'l urgani - mahbuslar orasidan o'z odamiga qo'shib olib chiqib, sarhaddan o'tkazib qo'ygani va dim-dim ketgani uchunmi? Qolaversa, bu dunyoning hoyu xavaslaridan etak silkib, yolgbizdan-yolgbiz, kimlarning tashqisida turgani, faqat oqlik sotib, sutchilik bilan kun ko'rayotgani uchunmi? Otasi - Eshon buva ham bekorga ilojini qilsang, o'sha odamni top - ko'p pokiza odam, demagan ekanlar.

Boloxonaning eshigi gʻbiyiq ochilib, tepada sutchi ko'rindi. U hozir hamma bilgan, chakkasini qiyiq ila tangʻib, uzundan-uzun chakmonining barlarini belbogʻibga yengil qistirgancha bir gala bo'sh bonkalarni obkashiga qo'shib orqalab yuradigan indamas sutchiga hecham o'xshamas, yoqasiz oq ko'ylak-oq ishtonda, kamiga boshiga jubba, engliga jun nimcha ilgan edi. Eski kitoblardan bosh ko'tarmaydigan mulladan qaeri kam?!

U lopillagan yogʻiboch zinadan tutqichni ushlay-ushlay, bitta-bitta tushib kelarkan, yarmidan oshganda mayin jilmaydi:

- Nimaning hidi desam - jizzanikimidi? - dedi chollarga xos bosh to'lgʻib, besh ketib, - jindekkina tuz sepvoring-a, totiga tot qo'shilsin.

- Sepdim, sepdim. Shu yerga joy qila qolaymi? - dedi Olim.

- Maylin, jizza seli bilan, deganlar. O'shanda-da, hamma maza! So'ng asrni o'qirmiz, - deb qo'ydi.

Olim stolga gazeta yozib yuborib, o'rta taqsimchadagi jizzani qo'ydi, sutchiga ustalni hozirlab, o'zi necha qishni ko'rgan yongʻib to'nkasiga o'tirdi.

- Qani, bismilloh bilan men boshladim, - qariya jizzaning bir donaginasini ogʻibiga solib, sel bo'lgancha, bosh to'lgʻibadi. - Imm, bay-bay, bu dunyoniki bo'lmabdi-ku, tuz bilan yigʻiblab ko'rishibdi-ku. Oling, o'zingiz ham.

- Olyapman, olyapman. Choyxona palovning gashti shu-da, - dedi Olim qariyaning ko'nglini topayotganidan iyib.

- Nimasini aytasiz. Bu dunyoning nematlari ichida unga yetadigani yo'q, - dedi qariya non tishlab. - Lekin yomoni shundaki, keyin nafsni o'ldirolmay qiynalasiz, har kuni yogʻibliq narsani tilayveradi bu itkoski, - deb qariyalardek shirin kuldi.

- Nafsni o'ldirishdan muddao osh emasmi? - dedi Olim unga qo'shilishib kulib.

- Yo'q, butam, oshdan muddao - shukr, shukrdan maqsad - nafsni o'ldirish. Hamma hikmat shunda, vallohi alam.

Ana, xolos! Mana, nima uchun u tarki dunyo qilgan odamdek bir chekkaga chiqib olib, sutchilik qilib yurgan ekan. Endi u yumushni ham tashlab, buzilayotgan joylardan kitob izlab, kitob terib qopti! Bilmagan odam nima qiladi, go'riga orqalab ketadimi, deb o'ylaydi! U bo'lsa, aslida bular qilishi kerak bo'lgan narsaga - eshon otalaridan qolgan kitoblarni topib saranjomlashga yugurib yuribdi, kishini uyaltirib.

Olim qariyaning haybatimi, salobatimi bosib, xijolatga tushib bora boshlagan edi. Buni sezdirmaslik uchun ham u o'rnidan turib, o'choqning oloviga alahsidi. So'ng yana jizzaga qistadi:

- Oling, taqdir, sovumasin.

- Rahmat, oldim. Yetkazganiga shukr, judayam totli bo'пти. Endi asrga tayyorlana qolay, - deb yuziga fotiha tortib, tura boshladi va obdastaga suv olib, hovlining past tomoniga yuraverdi.

Olim mutaassirlandi. Bu odam padariga qilgan yaxshiliklar, u zotning har namozda uning otini duoga qo'shishlari yodiga tushib ketdi. To'gʻbiri, uning dargohida qolib, etagini tutib, o'n yil xizmatini qilganda ham o'sha bir yaxshilikni yo qaytara oladi, yo qaytara olmaydi. U hovli adogʻibida oq-oppoq bo'lib, bir ixtimat, bir duolar ila shoshilmay, mukammal tahorat olayotgan sutchidan ko'z uzolmay qolgan, nahot shu odam bizning idoralarda qaltisdan-qaltis, nozikdan-nozik topshiriqlarni ado etib yurgan, degan xayollarga tolib ketgan edi.

Ochigʻib, Olim bu odamga qay tarafdin yondoshishni bilmasdi. Aytsinmi, aytmasinmi?

- Agar umrim bo'yi savobga daxldor va Oллоhga xush keladigan bitta ish qilgan bo'lsam, yolgʻibiz o'shadir, otangizni chegaradan o'tkazib qo'yib kelganidir, sho'roning jabrxonasidan qutqarib, chiqarib yuborganidir. Boshqa tarozu bosadigan amalimni bilmayman... - deganiga ishonsa, aytaversa mumkindir. Maslahat solsa, bo'lar... Lekin xuddi o'sha "ishidan kuyib qolgan, tagʻbinam ozgina insof qilib, pensaga chiqarib yuborishgan bo'lsa-chi? Tilidan ilinib o'tirmasmikan o'zi? U shunday xayollarga borishga bordiyu ichkarida xuddi ming yildan beri ibodat qiladigan odamdek ixtimat ila namoz o'qiyotganini ko'rib, o'z xayolidan o'zi uyaliqlar ketdi.

Nihoyat, qariya namozini tugatib, hovliga tushib keldi.

- Assalomu alaykum va rohmatullohi va barokotux...

Olim bu gal ham dogʻbda qoldi. Salomga ulgurguncha... u kishi birinchi bo'lib salomga ogʻbiz ochdi. Yo rostdanam u shunday yaxshi qariyapti, yo...

Olim xijolat aralash yalt etib, uning yuziga qaradi: yo'q, uning halimdan halim, nurli yuzida gidr alomatining o'zi ko'rinmasdi.

Demak, sutchi Paygʻambardan qolgan sunnat tariqasida salomga oshiqqan, xolos.

Ular nok soyasidagi haligina savzi to'gʻbiralgan ustolning ikki chekkasiga, ro'parama-ro'para cho'kdilar. Birlari o'ngib ketgan eski ustulga, boshqalari almisoqdan qolgan to'nka ustiga. Ungacha Olim choy damlab keldi, uni ikki-uch qaytarib, ustiga sochiq yopdi. So'ng Sutchini choyga qistadi:

- Oling, ustoz. Jizza chanqatgandir. Chindan qora qo'chqorniki ekan. Qassob aldamabdi.

O'choqda olov tez ham emas, sekinlab ham qolmagan, qozonda savzi bir tekis qaynar, qo'lidanmi qaydan, zira hidi anqir edi.

- Aldamasa, rozi bo'lib bersa, qanday yaxshi. Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vassallam shunday tijorat-savdoning zo'ri, kishi naqd oxiratini topadi, deganlar. Qarab turasiz, u qozonga ham barakayu tot kirgizib yuboradi. Zo'r chiqadi oshiz ham, - dedi Sutchi bir narsadan shuncha hikmat chiqarib.

- Obi-otash, uyaltirmasin ishqilib, - dedi Olim.

- Hammadan ham kecha Eshon pochchaning mana bu xazinalari topilgan kunda yetib kelganiz-chi! Ruhlar behad shod bo'ladigan bo'ldi.

- Oллоh o'zi dilga soladi, shekilli, turib-turib vadam esimga tushib ketaverdi, - dedi Olim birdan Sutchini topgisi, topib otamlashgisi, allaqancha narsalarni so'ragisi kelaverganini eslab.

- Dilga solganda-chi! Agar tiriklar belgi berib sogʻbhintiraversa, ziyorat qilmoq lozim. O'tganlar tushga kiraversa, tilovat afzal. Bu dunyo shunday qurilgan. Birida topilgan savob, ikkinchisida asqotgay. Yelkada togʻbday gunohlar bilan o'tib ketishdan Oллоhning o'zi asrasin.

Olim bir dona jizzani chaynagan joyida ogʻbizi kakra tortib, yutishini ham, yutmasini ham bilmay bo'gʻbizida turib qoldi. Qolaversa, u nimaga kepti? Qariya xuddi bilganday o'sha ezib yotgan togʻbday gunohlardan so'z ocha-yotgan edi. U o'sha achchiq narsani (namak ham shunchalar taxir bo'larmi?!) zo'r bilan qult yutib edi, azbaroyi mijjalardan tirqirab yosh chiqib ketdi. Qariyaga sezdirmaygina u yoshni kafti-la sidirarkan, ko'kraging tagi simillab sirqiradi. Koshki bu yelkadan ezib yotgan narsani dabdurustdan birovga aytib bo'lsa!.. Aytganda ham tushuntirib bo'lsa! O'zlari bir qorindan talashib tushgan - ikki jigari, xolos. Padari buzrukvorlaridan keyin suyanadigan kimlari qoldi? Lekin ularning yurishlari... bu ahvol. To'zigandan to'zib... Birlari ikkinchilariga bir hamiyat qilolmay... Yigʻbinolmay... har qaysilari har diyorlarda...

Olim choy quyaturib, sergak tortdi:

- Uzi, ustoz, so'ramay qora choy damlayveribman, ichaverarmidingiz? - dedi qariyaning rayiga qarab.

- Hechqisi yo'q, - dedi Sutchi, yengil bosh silkib. U hozir keng oq yaktak ustidan yengil nimcha kiygan, boshida ham ko'klam havosiga monand duxoba taqiya bor edi. Shu o'tirishida taqvodor namozxondan ko'ra ilm ahliga ko'proq o'xshab ketardi. - Jindek ko'kchoy tashlab yuboring, omuxta bo'ladi-qo'yadi. Bu faslda omuxtas maqul.

- Yaxshi aytdiz, - Olim ko'rgan tokchasidan quruq choy olib chiqib, kamiga qaynagan suv buradi. - Shuning ustiga jindek kiyik o'ti bo'lgandami, - dedi nazarida o'sha o't hidi gurkirab ketganday bo'lib.

- Oh-oh, jonivorni ichganiz sayin tan rohatlanadi bir, b' b' dedi Sutchi xuddi o'sha rohatni tuygan kabi, - endi guzar bu ahvol, kim ham Chorsuga tushardi bitta shu narsa uchun. O'zi togʻbda bitsa.

- Shuni aytin. Ammo o'zi juda beor narsa ekan, butun-butun maydonlarni tutib ketgan-a, terib ado qilib bo'lmaydi.

- Qaerda ko'rdiz? Tangritogʻb tomonlardami?

- Ha-da, hatto bir kuni qishda qor tagidan terib kepmiz jonivorni. Quruq cho'pi qopti-yu, shunda ham och o'sma rangda dam yeb, gurkirab chiqsa deng.

- Oллоh o'zi mahfuz. Eng noyob, eng nodir narsalarini o'sha yoqlarga sochib, o'sha togʻblarda saqlagan. Hatto diniyu iymonini kaftida laxcha cho'gʻbday tutib qochgan bandalariga ham o'sha tomonlardan panoh bergan Oллоh. Ko'rgandirsiz, axir? - dedi Sutchi endi omuxta choydan lazzatlana-lazzatlana ho'plarkan.

- Ko'rdim-ko'rdim, - dedi Olim shoshib ham allaqanday o'ngbaysizlanib, - shu yoqdan bosh olib ketgan alla qancha kishilarni. Surishtirsa, balki hammalari musofir chiqar...

- Albatta, u yerni ham bu dunyoning sogʻbhinch diyori deb bo'lmaydi. Orzu qilma har yerni, har yerda bordir tosh-tarozu, deganlar. O'sha joyda ham zulm urugʻbini sochguvchilar bilan bu hayotning taxir suvlarini ichguchi mazlumlar istagancha topiladi. Shunaqa. Bu imtihon dunyosida hech kim sinovdan qochib qutulolmaydi. Va odam bolasi biron yerda o'ziga jannat qurolmagan, qurolmaydi ham.

Olim yalt etib suhbatdoshining yuziga qaradi. U bu gapni juda xotirjam, hech pisandasiz, hatto ishonch-la aytmoqda edi. U hayratda qolib:

- Dorilomon zamon, dorul diyor degan gaplar-chi, ustoz? Hammasi behudami?.. - deya oldi.

Sutchi mayin jilmaydi:

- Orzuga ayb yo'q. Ne-ne saltanat so'ragan hukmdorlar o'tdi. Horun ar Rashidday, Iskandarday. Ne-ne islohotchilar kelib ketdi, har dorilomon jamiyatlarning tuzugini tuzib. Lekin kim zulmni ildizi bilan yo'qotoldi? Hamma teng, hamma baxtiyor, odil bir jamiyat quroldi? Negaki insonning o'zi avvalboshda qusurli yaratilgan. O'zi qusurli bo'la turib qanday komil jamiyat qursin?..

- Bu gapizdan, - dedi Olim gʻbalati tortib, - bu gapizdan oldingiyu keyingi barcha urinishlar behuda, barchasi besamar, deysizmi? Uning ko'z o'ngidan o'z jigari, diyoriga sigʻbmay musofir yurtlarda darbadar kezishga majbur bo'lgan tugʻbshigani o'tib, mijjalari namlanib keldi. Ichi sidirildi. Uning yuragi bo'gʻbiziga dovur achishib kelgan edi.

- Albatta, inson borki, odil bir jamiyat istayveradi. O'ziga o'xshaganlarni orqasidan ergashtiraveradi. Kurashaveradi, tinmaydi. Lekin bu degani qura oladi, qo'lidan keladi, degani emas. - Qariya hamsuhbatiga shirin boqdi, - Orzumga yetdim, qurdim, mana bunday bo'ladi, degani bormi? Hamma bilmasa ham Siz bilasiz.

Olim beixtiyor bosh silkiganini o'zi sezmay qoldi:

- To'g'ri, qo'yishmadi.

- Qo'yishmasdi ham, - dedi Sutchi sovub qolgan choyini ho'plab. Olim uning choyini yangilab, og'ziga tikildi. - Jindek chegaradan chiqqan edilarki, nima qilishdi?!

- So'nggi farmoyishlarni aytaysizmi? - Olim savoldan o'zini tiya olmadi.

- "Tangritog'ri yolg'iz viloyat, emas. Lashkar tayyor tursin... So'ng Dorilomon diyor bo'lib yashagaymizdan keyin necha kun o'ta qoldi?"

- Demak, bir bemavrid farmon deb...

- Biz shunday tabir etaveramiz: haddan oshmasalar edi... chegaradan chiqmasalar edi... Yo'q, bular bari bizning noqus fikrlarimiz, xolos. Aslida taqdir yozug'ri, Xudoning xohlashi - shunday. Tamom, vassalom, - dedi qariya hammasini bir tutum, bir qolipga sola qolib.

- Shuncha harakat, urinishlar-chi? Ularning zoe ketishi-chi! Bu ham bir imtihon, bir sinov, xolosmi? - dedi Olim qariyaning mushohadasidan hayratga tushib.

- Shu. Sinovdan bo'lak narsa emas.

- Unda... inqilobdan murod, shuncha mo'min-musulmon, boturlarning sayi-harakatlari puchga ketishining hikmati nima? O'sha inson bolasining behuda urinishlariga borib taqalaveradimi yana?

Qariya miyig'ri kulibgina qo'ya qoldi. Boshqa tomondan yondoshib dedi:

- Mana, Siz o'sha vaqtda shu voqealarning ichida yurgan odamsiz. Xo'p, to'ramni o'ljangiz ko'p, qurol olmaysizmi, sotiladigan yarog'ri bor debmi, boshqa narsa debmi, ishqilib avrab og'rib ketishipti. Lekin nega shuncha boturlar, dorulomonchilar ichidan u kishining yo'lini davom ettirib keta oladigan bir murobit chiqmadi? Chiqqanida ham tinch qo'yisharmidi?

Olim o'zi ham u mamlakatga nimaga tashlanganini eslab, so'nikib qoldi. Darvoqe, ko'z-quloq bo'lib turgan, ichida yurgan, topshiriq olgan maxsus odamlar, maxsus xizmatchilar qancha edi. Ularning vazifasi aniq edi-ku.

- O'sha yetim qolgan hukumat butun tarkibi bilan muzokaraga borib, nimaga erishdi, nima topdi? Mendan ko'ra yaxshiroq bilasiz.

Olim yalt etib, suhbatdoshining ko'ziga qaradi. O'zi bilmagan narsalarni bu qariya miridan-sirigacha biladigandek tikildi.

- O'sha hukumat azolari tushgan uchoq qismati haqidagi gaplar qanchalik haq, ustoz? U chindan toqqa urilib ketganmi, yo'..

- Yolg'iz Olloh biladi, bandasining taxminlari folbinning foliday gap, bo'tam.

Olim uning nima demoqchiligini tushundi:

- Bu narsa hali-veri ochilmay - sirligicha qolgaymi?

Qariya bosh irg'ri:

- Sir pardasini ko'targuchi kuch hali-veri sahnaga chiqmagay. Rasmiy axborotlar berilmaganidan bilavering.

- Men bir narsaga tushunmadim, - dedi Olim rostiga ko'chib. - Nima, xalq og'ri halayon ko'tarishini kutish kerakmi? Taziya berib qo'ya qolsalar oson emasmidi, mish-mishlar yoyguncha?..

Sutchi "soddasiz, sodda, degan kabi miyig'ri kulib, ensasini siladi. Savoliga savol ila:

- Mish-mishdan kuchli nima bor?! U o'z mevasini berdimi ishqilib? - dedi.

- Qanday?

- Ular o'ligini bo'lsa-da, talab qilishdi, bular olib borib qutulishdi. Shunday bo'ldimi, axir?

- Shunday.

- Men-ku bu yoqdagi odam, voqeaning mantig'ri chiqib, aytapman, - dedi qariya o'sha-o'sha bosiqlik bilan. - Lekin Siz... ichidagi odam u og'ri halayon, u ko'tarilish, u motam kunlarining butun dahshatini ko'rgan bo'lsangiz kerak?

Olim mutaassirlanib, bosh silkidi:

- Temir tobutlar borgan kunni aytasizmi?.. Hech qavmning boshiga solmasin, ko'rsatmasin u kunni, - dedi tin olib, - butun yurt, butun Tangritog'ri aza tutdi.

- Tushunaman. Tasavvur etyapman. Endigina ozodlik nashasini totgan, yelkasiga oftob tekkan xalq... yetim bo'tadek bo'zlab qolaversa, qiyin-da.

- Nimasini aytasiz, mening o'sha ko'rganim bir umrga yetadi, - dedi Olim yana to'liqa boshlab.

Sutchi sovub qolgan choyini simirib, xuddi temirga suv berilgandek tuydi o'zini. Orqasiga suyanib, tepalarida ko'klam yellarining podasiday to'zib yurgan o'rkach-o'rkach bulutlarga tikilib qoldi-da, yana ko'zini tushirdi.

- Sizlar o'sha kunlari o'sha hayitnamozlik maydonida bo'lgansizlar-da?

- Ha, topshiriq bilan, bitta qo'ymay o'sha yerga chaqirib olishdi. Borib, xalq orasida turganmiz.

- Eshon buvam-chi? - dedi qariya kutilmaganda suhbat asnosini bu yoqqa burib.

Olim bosh to'lg'ri:

- Yo'q, chiqa oladigan holda emasdilar. Men xabarlarini topib borganimdayoq juda munkillab qolgan ekanlar. Lekin namozni kanda qilmasdilar. Tahoratsiz o'tirolmas, zikru sanodan bo'shamasdilar. U yoqni ko'rgan odam - juda hilvirab qolgan ekanlar. Ko'pga bormadilar.

- Tag'ri nam ko'rib, duolarini olib qolibsiz, - dedi qariya taskin berib. - Bu ham katta davlat.

Olim ko'ngli buzilib, qanshari aralash ensasini siypab qo'ydi:

- Ollohning mehribonchiligi asrashi, deyavering! Daraklarini topmasam, ko'rmasam - nima qilarkanman?! Tip-tikligimcha qolarkanmanmi! Es lasam, yuragim orqaga tortib ketadi hozir ham.

Qariya unga sinchkov qarab qo'ydi. Bu gaplardan jindek shubhalandi ham. Ammo nima bo'lganda ham ro'baro'-sida eshon buvamning zuryodlari o'tirar, undan shubhalanish - shakkoklikka o'xshab ketar edi. O'ldimi! Kim bo'lganda ham padaribuzrukvoriga bo'lishgan odamga yomonlik sog'ri nadimi? Istagan taqdirda ham Olloh izn bersa qiladi-da. Izn bo'lmasa, kim bir dona mo'yiga tegina oladikan?

Tanlarni yayratib shamol huvillab o'tdi. Nok gullarining qolgan-qutganlarini ham uchirib-tushirib, hovli yuzida chirpirak qilib o'ynadi-o'ynadi-da, uy taglariyu ostona ostlariga to'dalab, tashlab ketdi.

- Havoi-jahon chindan aynidi shekilli, - dedi qariya boyagidek osmonning bulut toshib, tekis egallab borayotgan burjlariga nazar

tashlab. U allaqachon oftobni o'z qora pardasiga o'rab bo'lgan, uning botib ketmaganini hov bir chekkadagi, hali qora bulutlar to'dasi yetib bormagan joydagi kaptar qoniga bo'yalgandek yakkam-dukkam pagʻba bulutlardan bilsa mumkin edi.

- Qozonni oshxonaga ko'chiramiz shekilli. Yo gurunchni solib yuborsam, dam yeb ulguradimikin-a? - Olim olovga o'tin tashlashini ham, tashlamasini ham bilmay ko'kka alangladi. - Kunbotar tomonlar hali tinch shekilli?

Sutchi o'sha yoqlarga zingil tashlab, fikriga qo'shildi:

- Tinch-tinch. Yogʻib boshlasa, tim qo'rgʻib boshin tusga kirardi. Gurunchni solib yuboravering. Hali o'tiraturamiz. Endi gashtli bo'lyapti.

Olim avvalo o'choqdagi o'tni ko'tardi. Gurunchni yuvib kelib, bir tekis bostirdi. Suvi kamroq ko'rinib, kapgir ustidan bir cho'michgina qaynagan suv quygan bo'ldi. Qaynab chiqqan boshlagach, yogʻib och qoshiq bilan gurunch orasini yorib, qayta agʻbdardi. Tobiga kelgach, yana gumbaz qilib yigʻbdidi. O'choq ostidan ortiqcha cho'gʻbu chalalarni tushirib, boyagi togʻboracha bilan damlashga tutindi.

Xayolga tolib ketgan qariya hiyla dunyo ko'rgan, kirishimli hamkasbini o'ylab ketgan, har narsa qo'ldan kelishiyu topqirligiga havaslanib o'tirar edi.

Ayniqsa, uning fikrlashi, turib-turib mutaassirlanib ketishi yoxud gunohkor odamday so'nikib qolishi qiziq tuyulmoqda edi. Bu toifa odamlar ichida kamdan-kam uchraydigan hol. U bilan nima sodir bo'la qolibdi ekanki...

Olim qo'lini chayib kelib, artinarkan:

- Choyni yangilaymi, ustoz? - deb taraddudlandi.

Qariya bosh to'lgʻbdidi:

- Keyin, hozir ayni o'tirishli havo bo'lyapti. Afsuski, supamiz yo'q. Bo'lmasa, yonboshlab o'tgan-ketgandan suhbat qurishga nima yetsin edi.

- Hali ham kech emas. Hov, darvozaxonaning bu burchagiga joy qilvoraymi? Bitta sholcha, ikkita ko'rpacha bo'lsa, bas-da, - dedi Olim kaftini kaftiga ishqab.

Qariya unamadi:

- Qo'ying, hozir ko'chsak, jirish buziladi. Undan ko'ra boriga baraka, o'tiring, - deb mulozamat qildi u suhbatni kelgan joyidan ulab. - Boyadan beri bir narsani so'ramoqchi bo'laman. Sizlar Eshon pochchamdan necha o'gʻbilsizlar? Ikki o'gʻbil, xolosmi?

Olim joyiga o'tirayotib, qariyaning betiga qarab qo'ydi. Shubhalansa-da, javobdan qocholmadi:

- Ikkitalikka ikkita, nima edi?

- Kenjam, to'ngʻbichim deb, ko'p gapirardilar-da.

- Ha-a, - dedi, biroz yengil tortib.

- Ayniqsa, Sizdan ko'p tashvishlanardilar. Hali esini tanib ulgurmay edi, kimlarning eshigida qoldikan, deb ko'zlariga yosh olganlari-olgan edi.

- Akamni-chi? - deb yubordi Olim o'zi ham kutmagan bir tarzda.

- Sultonmurodnimi? U tegirmonga tushsa, butun chiqadi, undan qo'rqmayman. Lekin bunisi, suyagi qotib ulgurmay edi, derdilar. Olimning yuziga shu gap chindan soya solib, o'zi so'nikib qoldi. So'ng yuzini ishqab:

- Lekin menga tamomila bo'lak vasiyatlar qildilar, - dedi.

- Qanday? - deb hayratlandi qariya.

- Akangni top. Iloji bo'lsa, qanoting ostiga ol. Endi mendan yolgʻbiz sizlar qolyapsizlar. Go'rimda tinch yotishimni istasangiz - o'rtani yaxshilaysiz. Jigar-go'shalardek bir-biringizga suyanib yashaysiz. Islom mana shu. Ota rozi - Olloh rozi. Bizdan keyin bo'linib ketsangiz - u dunyo bu dunyo rozi emasman. Qiyomatda menga ro'baro' kelishingizni o'ylang, derdilar.

- Xudo rahmatiga olsin. U kishidan bo'lak odamdan chiqmagay bu xil gaplar, - dedi qariya mutaassirlanib, - Har so'zlari tillaga teng u kishini endiyam topinglar-chi, topolmaysiz. Demak, vasiyatlarini quloq qoqmay ado etishga majbursiz.

Olim yer ostidan qariyaga qarab qo'yib, yamlandi:

- Kelishimning boisi ham shu...

- Xo'sh-xo'sh? - deb shoshib qoldi qariya. - Mendan nima lozim?

- Yordamingiz...

- Bajonidil. Tortinmay aytavering. - Qariya kaftini uning qo'li ustiga tashladi. - Odamdan qoladigani shu-ku...

Olim kipriklari namlanib, u kishiga qaradi:

- Bilaman, - dedi allaqanday to'liqib. - Bu xususda sizdan bo'lak kimga ham ogʻbiz ocha olardim. Rahmatli dadam, endi bilsam, juda ogʻbir vazifa yuklab ketgan ekanlar. Akamni qanday topdimu qanday olib o'tdim. Bir yo'lini ko'rsatingki, six ham kuymasin, kabob ham. Qiyomatda ham yorugʻb yuz bilan bora olayluk padaribuzrukvorimiz oldilariga.

- Sultonmurod o'zi qay diyorda? - dedi qariya bu gaplardan xabarsizdek.

- Gap shundaki, akam bizdan ancha oldin bu yoqlardan bosh olib chiqib ketgan ekan. Qayoqqa - bilmasdik. Keyin eshitsam, ular to'ramga qo'shilolmay qolishgan ekan.

Sutchi yalt etib, uning yuziga qaradi:

- To'ramning so'nggi farmonlari shularga tegishli ekanmi?

- Shunday. Aftidan ular o'sha yoqda alohida qo'shin tuzib, buyruq kutib turganlar. Buyruq kelishi-la ichdan yorib chiqib, Ozodlik armiyasiga qo'shilmoqchi bo'lganlar. Natijani bilasiz. To'ramni o'rtadan ko'tarish bilan hammasiga barham berildi. - Olim hech kimga aytilmaydigan, ogʻbiz ochsayoq bosh ketishi mumkin bo'lgan xabarlarini Sutchiga aytib qo'yib, o'zi uning ko'ziga qaray olmay qolgandi. (Gunohi kammi o'zining ham? Xohlasin-xohlamasin, yashirsin-yashirmasin, bedodliklarga sherik, axir.)

- Xo'-o'-o'y, ko'rib-bilaturib ildizi bir, shajarasi bir, kabasi bitta xalqqa shunchalar jabr! - deb yubordi qariya va joyida o'tirolmay turib ketdi. - Olloh kechirsin. Hammamiz gunohkormiz: tomoshabin bo'lib turganlardan ichida yurganlargacha. O'zi kechirmasa, kim ham kechirolgay.

O'ngʻbaysizlanib, Olim ham turib oldi. Qariya hushi o'zida yo'q, nari borib, beri kelaru bosh to'lgʻbdidi, qo'l silkishini qo'ymas, qaragʻbanarmi, ingranarmi, Ollohdan o'ziga taviq so'rami, bilib bo'lmasdi. Jazavaga tushgan avliyolar kabi, darveshlar kabi javrab-javranib:

- Hay, tagʻbinam yer yutqizmaysan, tagʻbinam osmon toqini bir varaq qogʻbozdek o'rab, yigʻbishtirib qo'ya qolmaysan.

Tagʻbinam rahmdilsan, o'zing Rahmonsan, - deya istigʻbforlar aytar, magʻbfiratlar tilar, ora-orada omu xosni o'zing asra, deb qo'yardi.

U qariyaning tinchishini, o'ziga kelib, hovuridan tushishini miq etmay kutarkan, shu tob uzoqdan, o'rkach-o'rkach bulutlar tuya karvonidek ko'chgan ko'kning bir allaqaysi burjidan juda tanish ham ohanraboday o'ziga jalb etguvchi bir sas, bir sado kela boshlab, bu o'ziga qayta jon bagʻ bishlagandek, o'sha ovozi, o'sha saslarga mahliyo tikilib qoldi. Ular osmon toqida, bulutlar orasiga argʻ bʻamchi tashlab, bir-birlarini chorlashib, "qur-ey, qureylashib kelar edilar.

- Qarang, ustoz, kechikkan turnalar-ku. Borar manzillarini yo'qotib, sarson qolgan jonivorlarning keluvini qarang, - deb yubordi o'zi sezmaganda holda. - Turnalar kelib bo'lmaganmidilar?

- Yo'q, ayni mavridi, - dedi o'ziga kelib qolgan qariya kaftini peshonasiga qo'ya boshlab. - Faqat bu yil ko'klamning o'zi erta keldi. Endi bular qanotlari ostida chinakam saddipokni olib kelmoqdalar. - Keyin hotirjam joyiga qaytib, qo'shib qo'ydi. - U biz - nazarimizda erta kelib, erta ketayotgandek bu dunyodan ko'ngil uzolmaymiz. Aslida esa biz ham shu turnalardek har birimiz o'z mavridimizda bu sinov dunyosiga kelib ketgaymiz. Mangusi u yoqda.

Olim bu dunyoning juda ko'p sir-sinoatlariga aqli yetadigan bu qariyaga nima deyarini-da, bilmay turib-turib, u ham joyiga cho'kdi va uning o'zi bir nima deyişini kutib, jim qoldi.

Qariya uni ko'p ham kutdirmadi. Yuziga bir qur qarab olib:

- Ammo-lekin Eshon buvamning bilganlari bilgan. Qanchalik ogʻ bʻir bo'lmasin, arvohlarini rozi qilasiz. Undan beriga bu diyordalarda tup qo'yib, palak yoza olmagaysiz. Sultonmurodni toping, - dedi u.

- Toparman ham, ko'ndirarman ham. Lekin keyin bu diyorga qanday qaytgaymiz? Qo'ygaymilar? - deya oldi Olim ichidan toshib kelayotgan hislarini jilovlay olmay. - Qanday qil, deysiz?

Sutchi kutilmaganda unga suyib tikildi. Yuzidami, so'zidami (balki yuragining tub-tubidadir) dovqur odamlarga xos bir alomat, bir belgi ko'rib, nogoh shavqi keldi:

- Balki Ollohga tavakkal qilarsiz; "Hasbunallohu va nimal vakil, deb?! Mushkullarni oson etguvchi O'zi bor-ku, axir?! - dedi qariya yuzi allatovur yosharib ham nurlanib kela boshlab.

Ana shu nur ortida najot bordek Olim ham undan ko'z uzolmay qolgan edi: "shoyad, shoyad, shoyad O'zi qo'l-lasa.

Husni Baloliq Kunlar (mahfuz xatlar davomiga)

Aybgʻa buyurmagaysuz, Sultonmurod aka, shu holda (ko'zim yoshluq, qalbm dogʻ bʻluq) xat boshladum. Ne qilayki, ichumga chiroq yoqsa - yorimas, bu xo'rlik, bu sitamlardan tinmayur hech ko'z yoshlarum.

Yaxshiyam tun bor, bir uyga kirub ketub tuyguncha yigʻ bʻlamoq-siqtamoq mumkun, o'z o'ksungga o'zung qonmoq mumkun. Yaxshiyam yostuq bor, bir tamoni ho'l bo'lub ketsa, boshqa tarafin o'ngarmoq mumkun. Yaxshi niyat yarim mol. Zora tushlarim ham o'ngudan kela boshlasalar...

Yaxshiyam qogʻ bʻoz bor, qalam bor, ogʻ bʻiz ochub bo'lmas dard-laringni, alamlaringni unga to'kmoq mumkun, togʻ bʻ ko'tarolmagay dardlarnu u ko'targay.

Yaxshiyam Siz borsuz, bu dunyoning bi-ir chekkasidagi yorugʻ bʻ yulduzdek, shu borluginigizga, bir kun kirub kelaringizga ishonub, tishimnu tishimga bosgayman, chidagayman. Axir kechaning ham so'nggi bor, alam-angiz kunlarning ham nihoyasi. Boshqa nimagayam umid tutgayman, men boyaqishgina?

Hozur... zora yengil tortsam deb hasrat daftarimni ochdum Sizga. Bilasizmu, nazarumda ro'paramda o'ltirgandeksiz. Ha-ha, o'ltirub olursiz-da, (suvratizmas, yo'q o'ziz o'tirgandeksiz) hatto, bazan achchigʻ bʻlanib, o'pkalanib, bir so'zlar aytivorsam, gunohkor kishiday bosh silkiq qo'ya qolursiz.

Ayting, chin so'zingizni ayting menga. Meni bu diyordalarga jo'natib qo'yub, o'ziz qay yerlarda qoldiz? Faqat har oqshom mana shunday mehmonim bo'lub o'tirursiz. Shunga-da shukr. Qarshimda jim o'tiruvingizga-da shukr, achchiq-tirsiq so'zlarimnu, ginalarumnu tinglaganingizga shukr. Shu bahona ichumdagilarnu qogʻ bʻoz betiga to'kib, sal bo'lsa-da, yozilub olurman. Bo'lmasa, biravgada aytishga uyatlu. Shunday kunlarga qolmishman, "kun desa kun, oy desa oy jamlangiz. Qay diyordalarga bosh olub ketub topgan Mahfuzangiz. (U so'zlarungiz, erkalashlarungiz quloqlarum ostidan ketarmu! Ketmas qiyomatga dovur).

Siz-ku Ollohning inoyatu ila menga yetishub edingiz, men-chi bu ayriluqlarga chidab, Sizga yetisharmanmu? Yolgbʻuz Ollohdan so'raganum shu. Tong saharlardayu duolar ijobat soatlarda ichikib-ichikib, tavallo- lar etub so'raganum, iltijolarumning boshiyu adogʻ bʻi shu.

Siznu deb kelub edum, Sizsiz bu diyordalarga menga ne kerak? Faqat yodga soluvgami, ichlarmnu tirnab, xun-xun yigʻ bʻlaturgamu? Sarhad oshish shunchalar qiyin bo'lubdimu? Ruxsat olish shunchalar uzun, shunchalar mushkul ekanmu? Qancha molchi cho'ponlar soqchularning ko'zlarinu shamgbʻalat etub kelishganida Sizday yovqurlar o'tolmasanguz! Emdid qachon kelgaysiz ekan, biz musofirlarnu xursand etub? Qo'li qisqa, nolasi hech yerga yetmas mushtiparlar himoyatuga?

Qaniydi bir imdod, bir xavar bersangiz-berdirsangiz. Yaxud bir chiroylu kechada Oydan tushganday kirib kelsangiz. Togʻ bʻday himoyachumiz bo'lib, suyanchumiz bo'lub. Suyanchiqsiz, himoyachisiz qoldiq-ku biz, Sultonmurod akajon. Kechagida kichigoyimning yolgbʻuz o'gʻ bʻillari, Sizning pakana pariyingiz, mening vaqt-bemahal ishongan himoyachum - qaynujonim Maqsudxo'jamiz shahardagi o'qishlaridan ogʻ bʻrub kelub, rosa qo'rqitivordula, o'takamiz yorilub, esxonamiz chiqtu. Kech tushganda qayerga yugurub, kimga borarimizni-da, qay yerdan tabib toparimiznu bilmay qolduk.

Tagʻ bʻinam-da, Olloh hafiz: yaxshiyam Siz biznikuga tushganda o'sha Mirzabuva qirq kun meni yonlaruga olub, Sizni qaragan ekanlar. O'sha buvadan eshitganlarum foyda berdu, asqottu.

Miyalarinu qattiq shamollatub, boshlaruni-da ko'tarolmay qolub edula. Ko'zlarinu ochmay alahlar edularki, qo'rqupla kettuk. Bunaqa mahal bosh ogʻ bʻruqqa yalgbʻuz davo - shaqurlab qaynavotqan suv bila doka, chala siqib o'rab qo'ymoq, deb eshitub edum. Shuni bosaverub, suv-suv terlataverub, uch kun deganda beri qaratub olubmiz. Kegin kelgan do'xtur ham Xudo bir asraptu, o'zlariz zo'r tabib ekansiz, dep kettu.

Kichigoyum bugun Oqtepa degan joyga, Hoji do'xtirga oborub keldula. Ko'p aytuvli tabib ekan, Maqsud-xo'jami o'qishlardan ozod etub, qogʻ bʻoz yozub berubdu. Qaynum:

- Vu-uy, bir yil o'qishdan qolub ketamanmu, - degan ekanlar, kichigoyim:

- Bir yil sandan aylansin, men o'nta bolani yerga berib-berib, seni topganman. Mani desang - bormaysan, - deb turib oldila.

Qishdan chiqdik deganimizda suygan ukayiz shunaqa xastaluk - miya ogʻ bʻruqqa uchrab o'tirubdula. Olloh shifosini bersinu chakkalarida ogʻ bʻriq turib, yuzlari bo'zarub kela boshlasa qo'rqib-la ketavuramiz. Qo'limizdan hech nima kelmasini o'ylab, ichlarum ezilub ketavuradu nega Mirzabuvadan ijkilab so'rab olmaganumga, hammasinu bilub olmaganumga. Xazina topub, tilla o'raga tushub - hich nimasiz chiqqanumga. Qadri o'ttu tabib buvaning.

Bu ko'rguliklar ham biz bechoralarga holva ekan. Do'ppi tepchishub, kizak tikishub yurub edum. Ko'klam kelub kichigoyumni gb'balvaga qo'yub ketishdi. Qaerdanam kelgan ekanman bularnukiga. Mo'ndiga o'xshamish bir maymoq adam otqa qiyshuq minup kelub qildu to'polonnu, qildu to'polonnu.

- O'ziz dalaga chiqmaganiz-chiqmagan, kimni opkeb o'tiribsiz? Yo ishga chiqadi, yo jo'natvorasiz kelgan joyiga! - deb turib olsa deng.

- Chiqsam chiqay, kichigoyu, aytishmang shularminan, - dedum.

Qayoqda! Kichigoyum bo'sh kelmasdula:

- Sen atay kelgansan. Sultonmurodga o'chakishib kelgansan! Lekin bilib qo'y, erta-birisi kun o'zi kelsa, shundoq qoldirmaydi.

Kelinimizga qilgan zuga'bumlaringni kechirub ketadi deb o'ylaysanmi? Burningdan buloq qilib chiqaradi hali. Bu oyoqqinangni ham sog'ub qo'ymaydi. Aqling borida esingni yig'ub. Men buni, biravning qizini yashirib o'tirganim yo'q. O'z kelinumday gap.

Uning o'rnigayam o'zim chiqaman. Shuncha yil dalaga chiqib o'lmagan jonim, endi o'lmas! - deb turib oldila.

Zo'r ekanlar kichigoyum, biravga haqlariniyam, so'zlariniyam bermaskanlar.

Ammo men unamadum.

- Yosh narsa men o'tirub, Siz chiqasizmu, hich qachon, meni ket desangiz chiqasiz! - dedum.

Shu o'rtada yana bir voqea o'tti, uni yozmasam hamma narsa Sizga tushuniksiz qoladimu deb qo'rqaman. Ular (kichigoyum, qaynum) o'sha Hoji do'xturga ketishganicha-ketishvotub edu. Tushga yaqin tashqarida birav chaqiradu. Chiqsam, Saida qiz.

Marg'ubangizning singilchasi. Mung'ubayib turibdu.

- Voy, kesunla, omanmusiz-esanmusiz, - deb uchubla bordum.

Aylanub-o'rgulsam-da, kirishga unamasdu.

- Kichigoyumlarmu, keqqolishadu, Kiring, - dedum. Qayda.

- Bizga o'ziz keraksiz. Sizga kelganmiz, - deydiyu ayto'lmaydu gapini, yer so'zadu faqat.

Ortida kim borakan deb qarasam, voy o'layki, o'sha askar akasi, nomahram odam. Chekinub, titrabla kettum. Nima deyarimnu bilmasdum.

- Voy, siz qo'rqmang. Akamni ikki og'ubiz gaplari bor ekan. Yo'q demang faqat, - deb meni quchoqlab, yupatub turupti qizgina. Men ortimga yuriyverdim. Nuqul titrab-qaqshayman. Iqbor atin - ularning onalari o'tgandan beri, o'zumnu koyiganim-koyigan, nimagayam bordum, nimagayam ko'rindum qizi siyaqida deb. Men sababchi bo'lub qoldum deb. Hozir ham... Bo'lmasa, nimaga keladu?..

- Yo'q-yo'q, faqat bu yerdamas, faqat bugunamas. Hozir hech kim yo'q, eshitkan, ko'rgan nima deydu... - deb unamasdum. Saidasi ortimdan qolmas, yalinub-yolvorardu:

- Eshik ortidan bo'lsa-da, gaplashing. O'ziz ikki og'ubiz bir narsa deng. O'zizdan eshitsinlar, opam haqda. Nimanu eshitadu, bo'lgan ish bo'lub o'tganda, bo'yog'ubiz yitganda?

Alohal qo'ymadu.

- Maylin, faqat tez ketasizlar. Birav ko'rub, meni uyatga qoldirmaysizlar, - deb qaytdum.

Men eshik ortida turippan, titroqlarum so'nmay, tirqishdanam ko'rinub qolmayin deb. Qochubgina, yergami, devolgami singub ketgudek bo'lub, mushttek bo'lub. Bu ahvolumdan, ichkaruda - parda ortida gaplashganum afzalmidi deb. Nima keragakan u kishiga? Nimanu gaplashmoqchu?

Saida ko'cha eshikni qiya ochub o'rtada, ostonada turibdu. Askar akasi u tomonda, entikib, pishillashlari, betoqat yutinishlari eshitiladu, xolos. Men boyaqish, tirqishdan qorasuni ko'rub-da, qo'rqub ketyapman, titroq bosub, ichimdagi qushchalar (ular xuddi qamalub qolishgan!) potirlyadular. Gapirsa-gapiraqolmaydumi, ketishsa keta qolmaydumi!

- U kishidan, o'z og'ubizlaridan eshitganum - Bahridinga yetkazinglar deb buyurgan ekanlar, - dedum.

- Singlimizni Siz ko'rmaganmusiz? - dedi u hayron qolib.

- Qayda, - dedum o'zim ham o'ksinub. - Faqat tarixlarini eshitdum, xolos.

- O'zi-chi, o'zi qayda emish hozir?

- Makka taraflarda deb aytishdu. O'lloh aziz qilgan, payg'ubambar o'tgan yurtlarda emishlar.

- Bahridin... kuyovimiz u yoqlarga qanday borib qolibdi? Qanday o'ta olibdi, hamma qirg'ubin-barot, o'lim maydonlarida jon olib jon berib yurgan bir paytda? Qochgan ekanmi? - dedi u allaqanday asabiylashub, ham jahli qo'ziy boshlab.

- Men bilmasam, - dedim, lekin behuda gb'fazabalayotganlarinu eslatub qo'ygim keldi, - Lekin Siz tushuning. Har narsa O'llohdan. O'sha aziz yurtda topishtirmoqchi ekan, topishtirubdi, nikohlaridagi kishiga qo'shibtu, suyunmak kerak. Dadamizning suyunib bir yerga yetganlarinu Siz bilmaysiz. Nima deganlarinu eshitmagansiz...

- Nima deb... edilar? - u shaxtidan tushib, jim qoldu.

- U diyorlarga kim yetdu, kim yetolmay ketti. Mo'minlarning Makkasi, Kabasida topishibdimi? Odam Atomiz jufti halollarini topgan joylarda-ya, Arafotu Muzdalifalarda-ya? Qanday baxtli nikoh bo'ptu. Qang'ubining Yakkabog'ubida boshlanib, payg'ubambar yurtida ko'rishtirsa! La ilaha illalloh! Chindan o'zi Xuva b'hallo kulli shayin qodirdir! deb edilar. Siz suyuning, - dedim men.

U jim qolgan, eshik kesakisuni quchib olgan singlisi ko'zlarinu bilagiga bosib, hiq-hiq yig'ublar, men uni yupatgim kelaru, yaqinlasholmasdum. Nomahram kishiga ko'rinub qolishdan qo'rqib qimirlo'lmadum.

- Meni ishontirdingiz, rahmat, - dedi u bir mahal chuqur tin olib. - Ko'nglim tinch topdi singlimning taqdiridan. Men qo'rqan narsa ro'y bermapti, shungayam shukr. Endi aybga buyurmasangiz, unga bu yaxshilikni ravo ko'rgan odam haqda - Sultonmurod haqda so'rasam. U qaerda? Ko'rsa bo'ladimi o'zini?

Men hammasidan ham shundan qo'rqub edum. O'sha kungi yanishlarinu eshitub, tovonumdan sochumning tag-lariga dovur bir titroq kirub edu. "Ikki qo'lim u dunyo - bu dunyo yoqasida! degan so'zlari... quloqlarum tagida jangillar edu! Hozir nima, avravotirmu?

Rostiga ko'chdim:

- U kishi... o'tsalaroq kelar edilar. Daraklari yo'q.

Saida qizning akasi hayronlanib, jim qoldi.

- Qiziq, u gaplar-chi, daragi yo'q bo'lsa, qaerdan chiqibdi? - dedi singlisigamu, mengamu.

- Qaysu, qanday gaplar? - dedim men xavotirga tushib ham ichim sidirilub.

- Hali... bexabarmisiz, eshitmadingizlarmi?

Meni battar titroq bosdu:

- Nimadan, nima bo'ptu?

- Axir hammayoqda duv-duv gap-ku.

- Nima deb?.. - deya oldim nafasum ichimga tushub.

- U qaytib kelganmish-ku, zo'rlarning adabini berayotganish-ku, axir. Men kirgandir deb edim.

Ichimda: qaniydi, qaniydi! Ey, xudo, qaniydi kelgan bo'lsalar!.. devotibman-ku, tashimda tovshim chiqmaydu.

- Kirmadular, kelsalaroq kirar edular. Boshqa biravdir.

- Alhazar, unda kim uning nomidan ish ko'rishga jurat etadi?! Yo'q, Siz kuting. U kirmasa ham xabar berib qoladi. Albatta, xabar beradi. Negaki, odamlar bu uning ishi, Sultonmurodning ishi deyishmoqda.

Meni o'z-o'zidan yigib bu bosib kelyapti, nazarumda hammayoq charogʻbon bo'lib, ich-ichimdan o'ftob chiqib kelyaptimu, bu sevinch yoshlarimu ajratolmiyman, tavba. Kelgan bo'lsalar, nega kirmaydilar? Xayollarga bandi bo'lib, bir daqiqa Saidani ham, akasini ham unutibman. Uning ovozidan cho'chib, o'zimga keldum.

- Kelin, Sizdan iltimos, undan xabar bo'lib qolsa, mening omonat gapimni yetkazsangiz. Sizning tovkangizga qo'shilishga hamisha shay bir odam borakan, deb ayting. Kim deb so'rasa, o'sha jafokash Margʻubaning akasi deng. U uzulgan nikoh rishtalarini qayta ulagani haqqi-hurmati, bizning avlod ustidan bir umr-lik tavqi lanat tamgʻbasini olib tashlatgani uchun umrbod qarzdormiz undan. Shunday deb ayting, kelin. Qachon mening yordamim kerak bo'lsa, mana, Saida bor, bir ogʻbimiz imdod berdirsangiz kifoya. Aytgan zahotingiz yetib kelgayman. Xayr, omon bo'ling, o'sha mard birodarimizga salom ayting.

Mana shundan keyin xalovatum yo'qoldu. Tiq etsa, yuragim o'ynab, eshikka qarayman. Siz kirub kelyapsizmu, deb.

Kichigoyumlarga aytmay, kosada yemaklar op-qo'yib kutaman. Vaqt-bemahal kelub qolsayiz deb. Kechalari uyqum qochub, ko'zlarim to'rt bo'lub, o'tirganim-o'tirgan. Haq deb. Bazan turub-da tahajjud namozlar o'qub, Ollohimdan so'rayman. Yigib blab-yigib blab o'ziga iltijolar etaman. Sogʻb-omon ko'rsat ishqilib deb... Ammo Olloh sinavattimu, sinab qiynavattimu yolgbiz O'ziga ayon.

* * *

Saida shu yerga kelganda jimib qoldi. U daftarning dam u varagʻbini, dam bu varagʻbini o'qib ko'rar, kelgan joyini topib, ulab ketolmasdi.

- Ha, ayasi, nima bo'пти, nimasini topolmayapsiz?- dedim ichim gʻbTurmishlab.

- Shu yerda uzilib qolyapti, davomi qaysi daftarda bo'lsa ekan? - dedi u hamon izlaganini topolmay.

- Akamga tegishli joyini izlang, o'shani so'rayatuvdi-ku, - dedim men. Bunga sari ichim toshib boryapti: "Demak, o'sha gaplar chin ekanmi? Sulton akam kelgani-ya?, degan xayollargacha bormoqdaman.

- Ha, mana ekan-ku, - dedi Saida va yutaqib yana o'qiy ketdi:

"Uzr, Sultonmurod aka, o'zimuz bilan o'zimuz andarmon bo'lub, xatga ham qo'lum bormay qolub edi. O'rta tokchanu tagida bir yoruq bor edu. Paxsani yorugʻbi desam, ichi qachongi qovoqaru inu ekan - o'shatga tushub ketubti. Ololmay yurub, boshlolmay yurub, hiyla vaqt o'tub ketubti. Bu yogʻbu qish chiqub bahor boshlanub ketub edu. Boshqa daftar topub, Maqsudxo'janing daftarlaridan eskusini olub (u kishinu o'qishdan ozod etishdu. Xudo bir qaytarub berdu. Izzada sigir boqub yurubdilar) o'shanga yoza qoldum davominu.

Siz kelgandan keyin (tavba, haliga dovur ishonmayman: rostdan kelub edungizmi? O'sha kechagi odam sizmu edungiz?) ancha xotirjam tortub qolub edum. Lekin keyin...

- I-i, shoshmang, shu yerini qaytarib o'qing. Kimni aytyapti? Kim kelgandan keyin deydi? - deb hovliqdim men. Azbaroyi o'rnimdan turib ketishga yetgan edim.

Saida qaytarib o'qib ko'rib, boshini ko'tardi:

-... Siz deyapti-ku, demak, akangiz bo'ladi-da. Bosh-qa birovga yozmayapti-ku, xatni.

Men hayron-hayron qolgan edim:

- Unda... unda nimaga bizga miq etmabdi? Bo'lishi mumkinmas.

- Ayol kishi... har narsani har kimga aytavermaydi, adasi, - dedi xotinim.

- Balkim, - dedim hech o'zimga kelolmay. Axir, kimsan Sultonmurod akam keladi-yu, biz bilmay qolsak! Alam qilmaydimi?

Kelganda ham bir marta kelmagandur-ku. - Unda... unda o'sha kelganini emas, nega boshqa narsani yozyapti? - dedim dabdurustdan.

- Siz eshiting avval, unisi ham chiqar, - dedi xotinim jilmayib, so'ng kelgan joyidan o'qishda davom etdi.

"Lekin keyun, qaytam bir ishlar bo'lub kettu - eslasam, xo'rligim tutib kelavurar. Siz bo'lsangiz teginisholmasdu. Uch kunlab uydan chiqolmay, o'tirdum qamalub olub. Yer yorilmadu yerga kirib ketsam! Juvon o'lgur (o'sha qora mo'ndi - maymoqning jiyanu ekan! Men unu qiz bola desam - qanday balo ekan, erday, erkakday yopishadu odamga!), o'sha o'lgur quchoqlab olub, qo'yivormaydu. O'paverib tishlab tashlaptu, hamma yogʻbumni momataloq qilub-ko'kartub tashlaptu. Qiz desam, er kishidan badtar ekan. Hirsinu qarang, uyatsiznu! Teximu menman shunday ko'rishib turasan, togʻbama tushsang, u so'ratvatti deydu. Quribla ketgur.

Endu o'lsamam chiqmiyman ishlariga. Quribla ketsin dalasiyam, o'ziyam! Ayol bo'lub ayol emas, er bo'lub er tugʻbilmagan, u uyatsiz! Aytishga-da ogʻbimiz bormaydu, yozishga-da qogʻboz kuygay! Xudo nima uchun yaratmish ekan bunday ayolnu, bilmadam. Tezroq keling, Sultonmurod aka! Siz bo'lsangiz - munday xo'rlay olmasdular, teginolmasdular. Kimlarga ishonub, jo'natub edingiz menginanu?

Bu uydan bir yoqlarga ketsam-da, dalasiga chiqmasman, ishlaru qursin, betu qursin! Eshityapsizmu, Sultonmurod aka, bu yoqlarda shunchalar aynishubdu, hatto kichigoyumdan qo'rqmayin, Sizdan qo'rqmayin shunday qilishsa! Tagʻbinam Xudo osmondan balo yubormaydu ustilariga!

Sultonmurod akajon, bu yoqni odamlaru ham aynushga, yomon aynushga boshlabdular! Kalomullohnu unutganmular, bilmaydularmuki, aynusalar balonu kutaversinlar, qo'rqmasmular - xudoning qahrudan?! (Eslab qolung. Qumrunisa edu, ayol bo'lub ayol emas, u yashshamagur)...

Evoh, shu baloliqlarga chidolmagan ekanmi, kennoyim? Biz qayoqqa bosh olib ketdilar, deb yuribimiz?! Men alamangiz holda mushtimni tishlab qolgan, o'sha damlarda unga bir himoyachi bo'la olmaganimdan yerga kirgudek bir holga tushib borar edim.

(Allohning madadi ila asarning bu qismi ham nihoyasiga yetdi. Navbat - "Jazo, rijo va hidoyat qismiga.)

This is not registered version of TotalDocConverter

AvvalgiII- qismB Keyingi